

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

---

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**Ro'yxatga olindi:**

**№**\_\_\_\_\_

2019-yil \_\_\_\_\_

**«TASDIQLAYMAN»**

O'quv ishlari bo'yicha prorektor:  
prof. Soleyev A.

2019-yil \_\_\_\_\_

**O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI**

fanidan

***O'QUV-USLUBIY MAJMUA***

**I qism**

**2-kurs, 3-semestr**

**Samarqand – 2019**

**MUNDARIJA**

1.	Fanning annotatsiyasi.....
2.	Muallif(lar) haqida ma'lumot.....
3.	Normativ hujjatlar.....
3.1.	O'quv dasturi.....
3.2.	Ishchi o'quv dasturi.....
3.3.	Kalendar –tematik reja.....
4.	Ta'lim texnologiyasi va o'quv materiallari .....
4.1.	Ma'ruza mashg`ulotlari.....
4.2.	Amaliy mashg`ulotlar .....
4.3.	Seminar mashg`ulotlar .....
4.4.	Mustaqil ishlar .....
5.	Nazorat materiallari.....
5.1.	Topshiriqlar mazmuni.....
5.2.	O.N. va Ya.N. uchun testlar.....
5.3.	Yozma ish va og`zaki nazorat savollari (variantlar).....
6.	Glossariy.....
7.	Ilovalar.....
8.	Ishchi o'quv rejada ko`rsatilgan darsliklar, o'quv qo'llanmalar.....
9.	Uslubiy qo'llanmalar, uslubiy ko`rsatmalar.....
10.	Elektron darsliklar va boshqa elektron o'quv materiallar.....

## ANNOTATSIYA

Keyingi yillarda o'zbek adabiyoti tarixi bo'yicha muammolar, adabiy-madaniy muhit haqidagi qarashlar va ularga munosabat, o'zbek mumtoz adabiyotiga kirish, mumtoz poetika, tarixiy-adabiy jarayonning taraqqiyot qonuniyatlari va ijtimoiy muhit bilan bog'liqligi, davr ijodkorlarining hayoti va ijodiy faoliyati bilan bog'liq masalalar chuqur o'rganib kelindi va, aytish mumkinki, bugungi kunda ushbu sohada diqqatga sazovor bir qancha ishlar yuzaga keldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi №PF-4797 Farmonida aks etganidek, o'zbek tili va adabiyoti qadimiy va boy tarixga ega bo'lib, uning shakllanishida miloddan oldingi va miloddan keyingi dastlabki asrlarda mintaqamiz hududida yashagan baqtriylar, so'g'diylar, xorazmiylar va boshqa elat va millatlar o'z ta'sirini ko'rsatgani haqida mavjud ilmiy manbalar dalolat beradi. Bu borada Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy kabi ilmu fan va adabiyot namoyandalarining xizmati va qoldirgan merosi muhim o'rinni egallaganini qayd etish joiz. O'zbek adabiy tili ayniqsa XIV-XV asrlarda – Amir Temur va temuriylar davrida rivojlanishning yangi, yuksak bosqichiga ko'tarildi. Shu ma'noda farmon ushbu soha vakillarining oldiga "zamonaviy ta'lif texnologiyalarini chuqur o'zlashtirgan, davr talablariga javob beradigan yuksak malakali ilmiy va pedagog kadrlar tayyorlash, umumta'lif maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lif muassasalarida o'zbek tili va adabiyoti fanini o'qitishning yangi va samarali metodlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish" borasida yanada ulkan vazifalarni qo'ydi.

Ushbu o'quv-uslubiy majmua "O'zbek adabiyoti tarixi" fani bo'yicha yaratilgan bo'lib, unda mazkur fanning o'quv dasturi, ishchi dasturi, ma'ruza mashg'ulotlarining ta'lif texnologiyasi, seminar va amaliy mashg'ulotlarning ta'lif texnologiyasi jamlangan.

Mazkur axborot texnologiyali dars ishlanmalari O'zbek filologiyasi ta'lif yo'nalishi uchun tasdiqlangan "O'zbek adabiyoti tarixi" dasturi asosida tayyorlandi. Unda "O'zbek adabiyoti tarixi" fani bo'yicha ma'ruzalar matni, seminar va amaliy mashg'ulotlar mavzulari va mazmuni, topshiriqlar, joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarga mo'ljallangan savolnomalar, yozma ish va test variantlari, reyting jadvali, talabaning bilimini baholash mezonlari ham berildi.

Mazkur dars ishlanmalari talabaning ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar materiallari ustida mustaqil ish olib borishiga imkoniyat yaratadi, ayni paytda talabaning o'z bilimini o'zi nazorat qila olishiga ham yordam beradi.

**Tuzuvchi:**

G.Xoliqulova - Mumtoz adabiyot tarixi kafedrasi dotsenti v.b., f.f.n.

**Taqrizchilar:**

I.Sulaymonov - Mumtoz adabiyot tarixi kafedrasi dotsenti v.b., f.f.n.

Sh.Hasanov - filologiya fanlari doktori,professor.

O`quv – uslubiy majmua Mumtoz adabiyot tarixi kafedrasining  
2019-yil \_\_\_\_\_ sonli yig`ilishida muhokama qilingan va o`quv  
jarayonida foydalanish uchun tavsiya qilingan.

**SAMARQAND-2019**

### **Xoliqulova Gulsanam Yorqulovna**

Xoliqulova Gulsanam Yorqulovna 1979-yil 21-yanvarda Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumani Kattaming fuqarolar yig'iniga qarashli Bo'rmon qishlog'ida o'qituvchi oilasida tug'ilgan. Millati o'zbek. Oilali. 2 farzandi bor.



1985-1995-yillar Kattaqo'rg'on tumanidagi R.Elmurodov nomli 24-maktabda o'qib, uni a'lo baholar bilan tugatgan. Xoliqulova Gulsanam Yorqulovna 1996-2000-yillar Samarqand davlat universitetining o'zbek filologiyasi fakultetida tahsil olib, imtiyozli diplom bilan bitirgan. 2000-2003-yillar SamDU magistraturasida «Adabiyotshunoslik» mutaxassisligi bo'yicha o'qigan va magistr darajasini olgan. 2005-yil 10-iyunda akademik B.Valixo'jayev rahbarligida «Ochildimurod Miriyning «Rustam va Suhrob» asari tahlili va talqini» mavzusida nomzodlik dissertasiyasini yoqlab, filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olgan. Bugungi kunda professor D.Salohiy rahbarligida «XVI asr Bobur adabiy maktabi va turkiy uslub taraqqiyoti» mavzusida doktorlik dissertasiyasi ustida tadqiqot olib bormoqda.

2002-2008-yillar Samarqand davlat universiteti o'zbek adabiyoti tarixi kafedrasida o'qituvchi, 2008-2010-yillarda mazkur kafedra katta o'qituvchi, 2010-yildan (№42 PK. 27.04.2010) kafedra dotsenti lavozimida ishlab kelmoqda.

Uning badiiy ijod, she'riyat, ayniqsa, o'zbek adabiyot tarixiga doir 40 dan ortiq ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalari xorijiy, Respublika va viloyatdagи nufuzli jurnal va to'plamlarida chop etilgan. 2014-yil Miriyning «Rustam va Suhrob» dostoni badiiyati" nomli monografiyasini nashrdan chiqdi.

G.Y.Xoliqulova ko'pgina Respublika va xalqaro ilmiy anjumanlarda faol qatnashib kelmoqda. Ziyorak, bilimdon mutaxassis sifatida talabalarga dars berib kelmoqda. G.Y.Xoliqulova ma'naviy-ma'rifiy ishlarda, jamoatchilik ishlarida doimo faol qatnashadi. 1-02- guruh rahbari.

Yashash manzili: Samarqand shahri, Mirzo Bedil ko'chasi 18-uy, 81-xonodon. Tel: +99890 601-91-00

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI  
MUMTOZ ADABIYOT TARIXI KAFEDRASI**

**“O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI”**

*ISHCHI O'QUV DASTURI*

(III semestr)

Tuzuvchi: f.f.n.dots.G.Xoliqulova

**Samarqand – 2019**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro'yxatga elindi:  
№ 2598

2019-yil \_\_\_\_\_



O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI  
fanining

ISHCHI O'QUV DASTURI  
(III qism)

Bilim sohasi: 100000 - Gumanitar soha  
Ta'lim sohasi: 120000 - Gumanitar fanlar  
Ta'lim yo'nalishi: 5120100 - Filologiya va tillarni o'qitish  
(o'zbek tili)

2-kurs talabalari uchun, 3-semestr	
Jami o'quv yuklamasi:	66 soat
Ma'ruba mashg'ulot:	12 soat
Amaliy mashg'ulot:	12 soat
Seminar mashg'ulot:	10 soat
Mustaqil ishlashi:	32 soat

Samarqand – 2019

Fanning ishchi o'quv dasturi o'quv, ishchi o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

### Tuzuvchi:

G.Xoliqulova - Mumtoz adabiyot tarixi kafedrasini,  
filologiya fanlari nomzodi

### Taqrizchilar:

S.Tehirov - Mumtoz adabiyot tarixi kafedrasini,  
filologiya fanlari nomzodi.

A.Nosirov - filologiya fanlari doktori, dotsent

Fanning ishchi o'quv dasturi "Mumtoz adabiyot tarixi" kafedrasining  
2019-yil \_\_\_\_\_-son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet  
kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

/ Kafedra mudiri:

prof. D.Salohiy

«O'zbek adabiyoti tarixi» fanining ishchi-o'quv dasturi filologiya fakulteti  
ilmiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2019-yil  
\_ -iyun ...-son bayonnomasi).

Fakultet Ilmiy kengashi raisi

prof.J.Eltazarov

Fakultet uslubiy Kengashi raisi

dots.Sh.Muhammadiyev

### Kelishildi:

SamDU o'quv-uslubiy  
boshqarma boshlig'i

B. Aliqulov



SHOT ON REDMI 7  
AI DUAL CAMERA

## Kirish. Fanning dolzarbli

Ushbu ishchi o'quv dasturi Filologiya fakulteti O'zbek filologiyasi bo'limining 2 - bosqich bakalavr yo'nalişidagi talabalariga mo'ljallangan. Mazkur dastur "O'zbek adabiyoti tarixi" fanining dolzarb muammolari, adabiy-madaniy muhit haqidagi qarashlar va ularga munosabat, o'zbek mumtoz adabiyotiga kirish, mumtoz poetika, tarixiy-adabiy jarayonning taraqqiyot qonuniyatları va ijtimoiy muhit bilan bog'liqligi kabi masalalar to'g'risida ma'lumot beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi №PF-4797 Farmonida aks etganidek, o'zbek tili va adabiyoti qadimiy va boy tarixga ega bo'lib, uning shakllanishida mintaqamiz hududida yashagan baqtriyalar, so'g'diyalar, xorazmiylar va boshqa elat va millatlar o'z ta'sirini ko'rsatgani haqida qadim ilmiy manbalar dalolat beradi. Qadim turkiy, mumtoz adabiyotimizning Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy kabi namoyandalarining xizmati va qoldirgan merosi muhim o'rinnegallaganini qayd etish joiz. O'zbek adabiy tili, ayniqsa, XIV-XV asrlarda – Amir Temur va temuriylar davrida rivojlanishning yangi, yuksak bosqichiga ko'tarildi. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy umumbashariyat madaniy xazinasidan munosib o'rinnegallaganini aynan ona tilimizda bitib, uning shuhratini butun olamga yoydi. Shu ma'noda mazkur fanning maqsadi – talaba yoshlarni xalqimizning boy ma'naviy merosi bilan yaqindan tanishtirish, o'sib kelayotgan avlodni sog'lom e'tiqod va yuksak axloq sohibi bo'lgan ajdodlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ular qoldirgan ma'naviy xazinani tom ma'noda qadrlashga o'rgatishdan iborat. Shuningdek, mazkur fan dasturida o'zbek adabiyoti tarixi namunalarini, xususan, mumtoz adabiy matnlarni germenevtik tizimda o'rganish, muallif ijodiy konsepsiyasini o'zlashtirish orqali talabalarning dunyoqarashini kengaytirish, tafakkur ko'lamenti yuksaltirish, komil ma'naviyatni shakllantirish nazarda tutilgan.

### Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyiligi

"O'zbek adabiyoti tarixi" fani asosiy ixtisoslik fani hisoblanib, 3-6-semestrlarda o'qitiladi. Dasturda belgilangan mavzular ma'ruza, amaliy mashg'ulot va seminar shaklida olib boriladi. Fanning ayrim muhim muammolari va adabiy-badiiy asarlar talabalarga mustaqil o'zlashtirish uchun tavsiya etiladi.

"O'zbek adabiyoti tarixi" fani o'rganiladigan muammolarning yaqinligi jihatidan falsafa, tarix, matnshunoslik va manbashunoslik, dinshunoslik fanlari bilan o'zaro bog'liqdir.

### Fanning ilm-fan, iqtisodiyot va ishlab chiqarishdagi o'rni.

Filolog mutaxassisning o'zbek adabiyoti tarixi, uning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha aniq va mukammal ma'lumotga ega bo'lishi talaba malakasini belgilovchi mantiqiy asos vazifasini o'taydi. Shuning uchun oliy o'quv

yurtlarida filologik ta'limga yo'lga qo'yishda ushbu fan muhim ahamiyat kasb etadi. "O'zbek adabiyoti tarixi" fanini to'liq o'zlashtirish nafaqat ta'lim tizimi, balki bakalavrarning mustaqil ilmiy tadqiqot olib borishi uchun zamin hozirlaydi.

### **Fanni o'qitishdagi zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar hamda o'quv mashg'ulotlarini loyihalash**

Talabalarning "O'zbek adabiyoti tarixi" fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga ega. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, tarqatma materiallar, elektron materiallardan foydalanish bilan birga nazariy va amaliy mashg'ulotlar davomida "Aqliy hujum", "Klaster", "BBB" kabi, shuningdek, mavzularning xususiyatidan kelib chiqqan holda boshqa interfaol usullarni qo'llash tavsiya etiladi. Internetdagi [www.ziyo-net.uz](http://www.ziyo-net.uz), [www.literature.uz](http://www.literature.uz), [www.kutubxona.uz](http://www.kutubxona.uz) va [www.alishernavoiy.uz](http://www.alishernavoiy.uz) saytlaridan foydalanish ham nazarda tutiladi.

Shuningdek, yangicha usullarning o'ziga yantuqni ta'minlaydigan yagona omil emasligidan kelib chiqib, yillar sinovidan o'tib kelayotgan usullarham istifoda etiladi.

### **"O'zbek adabiyoti tarixi" fanidan mashg'ulotlarning mavzular va soatlar bo'yicha taqsimlanishi:**

3-semestr			
Mavzu mazmuni	Ma'ruza	Amaliy, seminar	Mustaqil ta'lim
Mumtoz adabiyotga kirish. Maqsad va vazifalar, genezisi, shakllanishi, taraqqiyoti.	2	2	4
Mumtoz adabiyotning manbalari, mumtoz she'r.	2	4	4
An'anaviy mavzu va obrazlar, badiiy uslub tushunchasi.	2	4	6
Mumtoz poetika haqida ma'lumot. Ilmi aruz.	2	4	6
Ilmi balog'a: ilmi bade', ilmi qofiya (davomi)	2	4	6
Mumtoz adabiyotda adabiy turlar va she'r nav'lari	2	4	6
<b>Joriy nazorat</b>	<b>Og'zaki so'rov (...-hafta)</b>		
<b>Oraliq nazorat</b>	<b>Yozma+test (17- hafta)</b>		
<b>Yakuniy nazorat</b>			
<b>Jami 34+32=66</b>	<b>12</b>	<b>22</b>	<b>32</b>

## **Asosiy qism, fanning uslubiy jihatdan ketma-ketligi**

Asosiy qismda (ma`ruza) fanni mavzulari mantiquy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali olib beriladi. Bunda mavzu bo`yicha talabalarga DTS asosida yetkazilishi zarur bo`lgan bilim va ko`nikmalar to`la qamrab olinadi.

### **1-модул. MUMTOZ ADABIYOTGA KIRISH, MUMTOZ POETIKA ASOSLARI**

#### **1-mavzu: Mumtoz adabiyotga kirish. Maqsad va vazifalar, genezisi, shakllanishi, taraqqiyoti.**

Mumtoz adabiyot istilohi, uning ma'no ko'lami. Shakl xallari (turkiy, arab va fors) mumtoz adabiyotida mushtaraklik va uziga xoslik, uzaro ta'sir masalapari.O'zbek mumtoz adabiyoti Sharq adabiyoti kontekstida.Mumtoz adabiyotda sujetlar va janrlarning kuchishi xamda o'zbek mumtoz abiyotida ularning barqarorlashuvi.

O'zbek mumtoz adabiyotini davrlashtirish masalasi. Adabiy-badiiy hodisalar davrlashtirishning muhim mezoni sifatida. Adabiyot tarixi jamiyat tarixi tarkibida. Adabiyotshunoslar tomonidan taklif etilgan davrlashtirish prinsiplari.

Mumtoz adabiyotning shakllanishidagi asosiy omillar: mifologiya va uning yozma adabiyot taraqqiyotidagi o'rni; xalq ogzaki ijodi va mumtoz adabiyot munosabatlari, tarjima adabiyoti va mumtoz adabiyot. Islomgacha bo'lган turli diniy ta'limotlar (zardushtiylik, moniylik, buddaviylik va b.)ning yozma adabiyot yuzaga kelishidagi roli.

Adabiy ta'sir masalalari. Zullisonaynlik an'analar. Turkiy va forsiy tillarda yaratilgan mumtoz asarlarda mushtarak adabiy tamoyil va me'yorlarga amal qilinishi.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** Blits so'rov, an'anaviy ma`ruza, suhbat, qisqa muddatli test.

**Adabiyotlar:** A: 4, 5, 6; Q: 10, 12, 14; M: 43, 44, 45.

#### **2- mavzu. Mumtoz adabiyotning manbalari, mumtoz she'r.**

Geografiyaga oid (“Ajoyib ul-buldon”, “Hudud ul-olam...”, “Safarnoma”, “Qandiy” va boshqalar), tarixga oid (“Ta'rixi Bal'amiy/ “Tarixi Tabariy” tarjimalari, “Tarixi Buxoro” (Narshaxiy), “Ta'rixi Bayhaqiy” va boshqalar) asarlar tahlil va tadqiq etiladi.

Mumtoz adabiyot taraqqiyotida Qur'oni karim g'oyalari va Hadisi sharifdagi fikrlarning o'rni va ahamiyati. Tasavvuf. Uning san'at va adabiyotga ta'siri, mumtoz adabiyot taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati. Didaktik, tarixga va geografiyaga oid, siyosiy-ahloqiy asarlar (“Qobusnom”

(Kaykovus), “Siyosatnama” (Nizomulmulk), “Navruznama” (Umar Xayyom), “Chahor maqola” (Nizomiy Aruzi Samarcandiy), “Tazkirat ul-avliyo” (Attor), “Fihi mo fixi” (Rumi) “Lubob ul-albob” (Avfiy), “Tazkirat ush-shuaro” (Davlatshoh; Samarcandiy) va b.) hamda tazkiralalar.

Mumtoz o'zbek adabiy tilidagi filologik asarlar va ularning badiiy adabiyotni o'rghanishda muhim manbalar ekanligi. Misr mamluklar davlatida mumtoz o'zbek adabiy tilida yaratilgan filologik asarlar: Abu Hayyonning “Kitob al-idrok il-lison al-atrok” asari (XIII - XIV asrlar). O'rta va Markaziy Osiyoda yaratilgan filologik asarlar: Tole' Imon Hiraviyning “Badoyi' ul-lugat”, “Abushqa” lug'atlari, ularda o'zbek mumtoz adabiyoti manbalaridan berilgan ma'lumotlarning muhimligi; Muhammad Yoqub Chingiyoning “Kelurnoma”, Muhammad Rizonning “Muntaxab ut-tavorix”, Mahdixonning “Sangloh”, Fathali Kojarning “Lugati atrokiya” va boshqa lug'atlarning o'zbek mumtoz adabiyoti tarixi uchun muhim manba ekanligi. Forobiyning she'r, uning hosil bo'lish qonuniyatları va insoniyat tomonidan idrok etilishi haqidagi fikrlari. O'zbek mumtoz adabiyoti dunyo sharqshunos va turkologlari ilmiy faoliyatida. Dunyo adabiyotshunosligida mumtoz adabiyotga munosabat.

Mumtoz she'rning shakllanishi. Uning dastlabki namunalari. Aruz she'r sistemasi haqida umumiyligi ma'lumot. Qofiya va bayt, qofiya va band. An'ana va o'ziga xoslik- mumtoz adabiyotdagi eng muhim adabiy hodisa. O'zbek mumtoz adabiyotining tur va janrlari. Lirik tur. Lirik turga mansub janrlar. O'zbek mumtoz adabiyotida ularning barqarorlashuvi va tadrijiy takomili. Devon, bayoz va tazkiralalar - mumtoz adabiyotni o'rghanishda muhim manbalar. Devon, bayoz tuzish va tazkirachilik tarixidan.

Ezik she'riyat va unga xos muhim xususiyatlar.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** Blits so'rov, an'anaviy ma'ruza, suhbat, qisqa muddatli test.

**Adabiyotlar:** A: 4, 5, 6; Q: 10, 12, 14; M: 43, 44, 45.

### 3-mavzu: Mumtoz adabiyotda an'anaviy mavzu va obrazlar, badiiy uslub tushunchasi.

O'zbek mumtoz adabiyotida obrazlar tizimi (lirik va epik asarlar misolida). An'anaviy obrazlar genezisi va rivojlanishi tadriji. Sharq adabiyoti uchun umumiyligi bo'lgan obrazlar tasnifi va tavsifi. Ramz va timsollar olami. Uzbek mumtoz adabiyotida majoz tarixi. Badiiy matn talqinida ramz va timsollarning muayyan adabiyotga daxldorlengini e'tiborga olish zarurati.

Rang, son (bir, yetti, to'qqiz), tabiat ashyolari (gul, bulbul, quyosh, dengiz...)ga oid ramziy timsollar va ularning ma'nolari.

Mumtoz adabiyotdagi asosiy uslubiy yo'nalishlar. Xuroson, iroq, hind

uslublari. Uslublar sintezi. Mumtoz adabiyotda she'riy va nasriy uslub, "xos uslub" va "omma uslubi" haqida tushuncha (Miyon Buzruk). Bu uslublarga xos mezonlar. Mumtoz adabiyotda "Turkiston uslubi" va "Xurosor uslubi".

Ilk nasr haqidagi nazariy tushunchalar. Nasriy asarlarning uslubiy xosliklari. Xalq kitoblarining yaratilishi va adabiy jarayon. Xalq kitoblari va ijodkor shaxsiyati. Xalq kitoblarida folklor sujetlari va individual ijod. "Xalq adabiyoti" tushunchasi. Juhon adabiyotida "xalq adabiyoti" va "xalq kitoblari" tushunchasi, ularning o'zbek mumtoz adabiyotidagi mazkur tushunchalar bilan o'xshash va farqli jihatlari.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** Blits so'rov, an'anaviy ma'ruza, suhbat, qisqa muddatli test.

**Adabiyotlar:** A: 4, 5, 6; Q: 10, 12, 14; M: 43, 44, 45.

#### **4-mavzu: Mumtoz poetika haqida ma'lumot. Ilmi aruz.**

Ilmlar uchligi va ularning mumtoz poetikani o'rganishdagi ahamiyati. Adabiy va tarixiy manbalarda mumtoz poetikaga doir qarashlar. Balog'at ilmi. Uning tarixi va tadrijiy takomili. Fasohat. Ilmi bayon. Balog'at ilmida tashbeh. Haqiqat va majoz. Istiora. Arabiy manbalarda balog'at ilmiga berilgan baho.

Forsiy manbalarda balog'at ilmi. Balog'at ilmining sof adabiyotshunoslikdagi talqini. Ilmi aruz, ilmi bade', ilmi qofiya.

Cho'ziq, qisqa va o'ta cho'ziq hijolar haqida ma'lumot. Asliy va tarmoq ruknlari. Taqtisi va uning aruz nazariyasidagi o'rni. Vazn va mumtoz janrlar munosabati. Tuyuq, ruboiy va mustazod janrlarining vazn xususiyatlari.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** Blits so'rov, an'anaviy ma'ruza, suhbat, qisqa muddatli test.

**Adabiyotlar:** A: 4, 5, 6; Q: 10, 12, 14; M: 43, 44, 45.

#### **5-mavzu: Ilmi balog'a: ilmi bade', ilmi qofiya (davomi)**

Ilmi badi' yoki badiiy san'atlar talqini. Mumtoz manbalarda ilmi badi'ga doir qarashlar. Badiiy san'atlar tasnifi. Lafziy san'atlar haqida ma'lumot. Ularning o'ziga xos xususiyatlari. Takrorga asoslangan san'atlar. Ma'naviy san'atlar haqida ma'lumot. Ularning she'r tashbeh, talmeh, mubolag'a, tanosub mumtoz adabiyotning tayanch badiiy vositalari sifatida. Lafziyu ma'naviy san'atlar. Ularning ham shakl, ham ma'noga aloqador ekanligi. Tajnis, iyhom, tazod san'atlarining mumtoz she'riyatdagi o'rni.

Mumtoz manbalarda ilmi qofiyaga doir qarashlar. Qofiya unsurlari. Mumtoz qofiya turlari. Qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra farqlanuvchi turlari. Mujarrad, muassas, murdaf va muqayyad (qaydli) qofiyalar. Qofiyaning tuzilishiga ko'ra turlari. Mutlaq va muqayyad qofiyalar.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** Blits so'rov, an'anaviy ma'ruza, suhbat, qisqa muddatli test.

**Adabiyotlar:** A: 4, 5, 6; Q: 10, 12, 14; M: 43, 44, 45.

#### 6-mavzu: Mumtoz adabiyotda adabiy turlar va she'r nav'lari.

Adabiy tur tushunchasi va uning ifodalanish shakllari (nasr, nazm). Baytli she'r shakllari. G'azal, qasida va mustazod janrlari. Kichik lirik janrlar tavsiysi.

Mustaqil va tazmin musammatlar. Taxmis va tasdislarning yaratilish xususiyatlari.

Masnaviy -voqeaband she'r uchun asos sifatida. Tarkibband va tarji'band haqida umumiylar ma'lumot.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** Blits so'rov, an'anaviy ma'ruza, suhbat, qisqa muddatli test.

**Adabiyotlar:** A: 4, 5, 6; Q: 10, 12, 14; M: 43, 44, 45.

### “O'zbek adabiyot tarixi” fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlarining kalendar tematik rejasi

t/n	Ma'ruza mavzulari (barchasi)	Soat
1.	<b>Mumtoz adabiyotga kirish. Maqsad va vazifalar, genezisi, shakllanishi, taraqqiyoti.</b> 1.1. Mumtoz adabiyotdagi davriy o'zgarishlar va bularning sabablari. 1.2. Mumtoz adabiyotning paydo bo'lishi va shakllanishi.	2
2.	<b>Mumtoz adabiyotning paydo bo'lishi va shakllanishidagi asosiy omillar, manbalar. Mumtoz she'r.</b> 2.1. Arabiy va forsiy tillardagi adabiyotning turkiy tildagi mumtoz adabiyotning shakllanishidagi roli 2.2. Badiiy bo'limgan asarlar tahlili 2.2.1. Geografiyaga oid asarlar (“Ajoyib ul-buldon”, “Hudud”	2

	ul-olam...”, “Safarnoma”, “Qandiya” va boshqalar). 2.2.2. Tarixga oid asarlar (“Ta'rxi Bal'amiy/ “Tarixi Tabariy” tarjimalari, “Tarixi Buxoro” (Narshaxiy), “Ta'rxi Bayhaqiy” va boshqalar) 2.2.3. Siyosiy-axloqiy mavzudagi asarlar tahlili. (“Qobusnama” (Kaykovus), “Siyosatnama” (Nizom ul-mulk), “Navro'znama” (Umar Hayyom), “Chahor maqola” (Nizomiy Aruzi Samarqandi), “Hadoyiq us-sehr fi daqoyiq ush-she'r” (Rashididdin Vatvot), “Tazkirat ul-avliyo” (Attor), “Fi hi mo fihi” (Rumi) “Lubob ul-albob” (Avfiy), “Tazkirat ush-shuaro” (Davlatshoh Samarqandiy) va boshqalar.)	
3.	<b>An'anaviy mavzu va obrazlar, badiiy uslub tushunchasi.</b> 3.1. An'anaviy mavzu. 3.2. An'anaviy obraz. 3.3. Badiiy uslub tushunchasi.	2
4.	<b>Mumtoz poetika. Ilmi aruz, ilmi bade', ilmi qofiya haqida ma'lumot.</b> 4.1. Balog'at ilmi haqida. 4.2. Aruz haqida ma'lumot. 4.3. Badiiy san'atlar haqida. 4.4. Qofiya ilmi haqida	2
5.	<b>Mumtoz adabiyotda adabiy turlar va she'r nav'lari</b> 5.1. Lirik tur haqida. 5.2. Shakliga ko'ra mumtoz lirik janrlar 5.3. Mazmuniga ko'ra mumtoz lirik janrlar. 5.4. Misralar soni va bandlar miqdoriga ko'ra lirik janrlar.	
6.	<b>Epik she'riyat. Xamsachilik an'anasi.</b> 6.1. Firdavsiy va epik she'riyat. 6.2. “Xamsa” – mumtoz janr sifatida. 6.3. Xamsanavislik an'anasing tadrijiy takomili. 6.4. Xasmsanavislik: mavzu, g'oya va obrazlar tizimi. 6.5. “Xamsa”lardagi mushtarak va farqli jihatlar.	2
	<b>JAMI</b>	<b>12</b>

### AMALIY MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

Amaliy mashg'ulotlardan bakalavrлarning asarlarni o'qish, tahlil qilish bo'yicha ko'nigmalar hosil qilishi va erishilgan natijalarni kelgusi faoliyatlarida qo'llay bilishi nazarda tutiladi. Shuningdek, amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda, asosan, birlamchi nazariy manbalar bo'yicha savol-javoblar uyushtiriladi. Savol-javoblar jarayonida mavzularning umumiy xususiyatlari haqida umumlashmalarga kelinadi.

O'qituvchi zimmasiga fikr va ma'lumotlarni saralash, to'ldirish, izohlash va baholash kabi vazifalar yuklatiladi. Amaliy mashg'ulotlarda ta'limning samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan yangicha usullarni qo'llash nazarda tutiladi. Amaliy mashg'ulotlarning mavzusi va rejasi "Fanning ishchi dasturi" va "Amaliy mashg'ulotlar ishlanmasi"da, olib borish jarayoni "Ta'lim texnologiyalari"da o'z ifodasini topadi.

**"O'zbek adabiyot tarixi" fani bo'yicha amaliy  
mashg'ulotlarining kalendar tematik rejasi**

t/n	Amaliy mashg'ulot mavzulari (barchasi)	Soat
1	"O'zbek adabiyoti tarixi" fanning maqsad va vazifalari, o'zbek adabiyotini davrlashtirish.	2
2	Mumtoz adabiyotning diniy-tasavvufiy va ilmiy manbalari	2
3	Mumtoz she'r	2
4	Mumtoz adabiyotda an'anaviy mavzu va obrazlar	2
5	Mumtoz adabiyotda badiiy uslub masalasi	2
6	Mumtoz poetika: ilmi aruz, ilmi bade', ilmi qofiya	2
<b>JAMI</b>		<b>12</b>

**SEMINAR MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH BO'YICHA  
KO'RSATMA VA TAVSIYALAR**

Seminar mashg'ulotlarini tashkil qilishda tavsiya etilgan ilmiy muammo yoki masala yuzasidan talabalarga avvaldan seminar rejasi va unga muvofiq adabiyotlar ro'yxati beriladi. Seminar mashg'ulotlariga ko'proq nazariy muammolar olib chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

Talabalar seminar mashg'ulotlarida O'zbek adabiyoti tarixi namoyandalari ijodi va ularning asarlarini o'rganadilar, shu davr bo'yicha nazariy va amaliy ma'lumotlarga ega bo'ladilar hamda o'zlashtirilgan ma'lumot asosida o'zbek adabiyoti tarixi haqida tushunchaga ega bo'lishi ko'zda tutiladi.

**"O'zbek adabiyot tarixi" fani bo'yicha seminar  
mashg'ulotlarining kalendar tematik rejasi**

t/n	Seminar mashg'ulotlar mavzulari (barchasi)	Soat
1-mavzu	Eski o'zbek tilidagi filologik asarlar va ularning mumtoz adabiyotni o'rganishda muhim manbalar ekanligi	2
2-mavzu	Forsiy va turkiy shoirlar (adiblar) ijodidagi mushtarak jihatlar	2

3-mavzu	Adabiy turlar va she'r nav'lari	2
4-mavzu	Ham bayt, ham bandga asoslangan she'r shakllari.	2
5-mavzu	Ilmi bade' yoki badiiy san'atlar talqini	2
	JAMI	<b>10</b>

### **MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING SHAKLI VA MAZMUNI**

“O'zbek adabiyoti tarixi” fanini o'rganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va ko'nikma hosil qilish uchun mustaqil ta'lif tizimiga asoslanib, kafedra o'qituvchilari rahbarligida, mustaqil ish bajaradilar. Bunda ular badiiy adabiyotlarni mutolaa qiladilar, tahlil va talqin etadilar; qo'shimcha adabiyotlar hamda Internet saytlaridan foydalanib, referatlar va ilmiy ma'ruzalar tayyorlaydilar, amaliy va seminar mashg'ulotlari mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradilar, ko'rgazmali qurollar va slaydlar tayyorlaydilar.

***Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanishga tavsiya etiladi:***

- | amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik;
- | seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik;
- | darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- | tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismini o'zlashtirish;
- | maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishslash;
- | adabiy va badiiy matnlarni eslab qolish, yod olish, ifodali o'qish;
- | talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari hamda mavzularni chuqur o'rganish;
- | masofaviy ta'lif.

***Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:***

T.r.	Mustaqil ta'lif mavzulari	Topshiriqlar	Bajarish muddati	Soat
1	Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston” asari va uning boshqa shoirlar ijodiga ta'siri.	Asarni o'rganib, qisqacha konsept qilish. Uning ta'siri qaysi shoirlar ijodida seziladi.	5-hafta	<b>6</b>
2	Didaktik asarlardan biri tahlili (“Kalila va Dimna”, “Chor Darvesh”,	Asarlardan birini o'rganib, qisqacha konsept qilish.	6-7-hafta	<b>4</b>

	“Guliston” (Sa'diy), “To'tinoma” va boshqalar).			
3	“Chahor maqola” (Nizomiy Aruzi Samarqandiy) asari tahlili	Asardagi adabiy-tanqidiy qarashlar masalasini o'rganish, tushunchalarni konsept qilish	8-hafta	4
4	Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy “Xamsa”larining yaratilish tarixi.	Xamsachilik an'anasi, shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari. Xamsanavis ijodkorlar asarlarining o'ziga xos jihatlari, bir biridan farqli xususiyatlari qiyosan tadqiq etiladi, xulosalar qisqacha konsept qilinadi.	9-hafta	4
5	S.Tohirovning "O'zbek she'riyatida aruz" o'quv-uslubiy qo'llanmasi (2010) tahlili	Asar o'rganiladi, xulosalar umumlashtirilib konsept qilinadi.	10-11-hafta	4
6	Gul va bulbul obrazlari aks etgan baytlar tahlili. May, soqiy, tarso, jom, xarobot timsollari keltirilgan baytlarni to'plash. Ranglar va raqamlarning ramziy ma'nolari.	Mumtoz adabiyotda mavjud an'anaviy obrazlar tahlil etiladi, ramziy obrazlarning o'ziga xos jihatlari aniqlanadi, har bir obraz yuzasidan tanlanma misollar tahlil etiladi.	14-15-hafta	6
7	Fanga doir tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlar lug'ati	Lug'at tuzilib, ma'nolari izohlanadi.		4
<b>Jami:</b>				<b>32</b>

### "O'zbek adabiyoti tarixi" fanidan talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash mezoni

«O'zbek adabiyoti tarixi» fani bo'yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va yakuniy nazoratlarning saralash ballari haqidagi ma'lumotlar birinchi mashg'ulotda talabalarga yetkaziladi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

- **joriy nazorat (JN)** – talabalarning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikmalari darajasini aniqlash va bahoilash usuli. Joriy nazorat amaliy mashg'ulot davomida og'zaki so'rov, suhbat, nazorat ishi, uy vazifalarini tekshirish, test o'tkazish va boshqa shu kabi shakllarda o'tkjaziladi.

- **oraliq nazorat (ON)** – semestr davomida o'quv dasturining tegishli

(fanlarning bir necha mavzularini o‘z ichiga olgan) bo‘limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat semestrda bir marta o‘tkaziladi va shakli (yozma yoki test va hokazo) o‘quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

- **yakuniy nazorat (YN)** – semestr yakunida fan bo‘yicha nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarini talabalar tomonidan o‘zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan “**Yozma**” sinov tarzida o‘tkaziladi..

**ON** o‘tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **ON** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **ON** qayta o‘tkaziladi.

Universitet rektorining buyrug‘i bilan ichki nazorat va monitoring bo‘limi boshlig‘i rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida YNni o‘tkazish jarayoni muntazam ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilganda YN natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda YN qayta o‘tkaziladi.

Talabaning bilim saviyasi, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida uning «O'zbek adabiyoti tarixi» fani bo‘yicha o‘zlashtirish darjasini ballar orqali ifodalanadi. Talabaning semestr davomidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichi **100** ballik tizimda baholanadi. Bu ball baholash turlari bo‘yicha quyidagicha taqsimlanadi: **JN +ON= 70 ball, YN – 30 ball**.

<b>Ball</b>	<b>Baho</b>	<b>Magistrantlarning bilim darajasi</b>
<b>90-100</b>	<b>5-A’lo</b>	Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushihada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo‘lish.
<b>80-89</b>	<b>4-Yaxshi</b>	Mustaqil mushihada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo‘lish.
<b>60-79</b>	<b>3-Qoniqarli</b>	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo‘lish.
<b>0-59</b>	<b>2-Qoniqarsiz</b>	Aniq tasavvurga ega bo‘lmaslik. Bilmaslik.

- fan bo‘yicha saralash bali 55 balni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo‘lgan o‘zlashtirishi reyting daftarchasiga qayd etilmaydi;

- talabalarning «O'zbek adabiyoti tarixi» fanidan mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegisli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi;

- Fan bo‘yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to‘plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

- Joriy **JN** va oraliq **ON** turlari bo'yicha 55bal va undan yuqori balni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yiladi.

- Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiylar bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.

- **ON** va **YaN** turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. **YaN** semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi.

- **JN** va **ON** nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

- Talabaning semestrda **JN** va **ON** turlari bo'yicha to'plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiylarining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari yig'indisi 55 baldan kam bo'lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.

- Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtidan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'limgan tarkibda apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi.

- Apellyasiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

- Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra muduri, o'quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

#### **Talabalar ON dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari**

№	Кўрсаткичлар	ОН баллари		
		макс	1-ОН	2-ОН
1.	Darslarda qatnashganlikdarajasi. Ma'ruzadarslaridagi faolligi, konseptdaftarinining yuritilishivato'liqli gi.	15	0-7	0-8
2.	Talabalarning mustaqil ta'lim topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarishi va o'zlashtirish.	10	0-5	0-5
3.	Og'zaki savol-javoblar va boshqa nazorat turlari natijalari bo'yicha	10	0-5	0-5
<b>Jami ON ballari</b>		<b>35</b>	<b>0-17</b>	<b>0-18</b>

--	--	--	--

### Talabalar JNdan to‘playdigan ballar mezoni

T.r.	Ko‘rsatkichlar	JN ballari		
		Maksimal	1-JN	2-JN
1.	Darslarga qatnashganlik va o‘zlashtirish darajasi. Amaliy mashg‘ulotlardagi faolligi, amaliy mashg‘ulot daftarlарining yuritilishi va holati.	20	0-10	0-10
2.	Mustaqil ta’lim topshiriqlarining o‘z vaqtida va sifatlari bajarilishi,. Mavzular bo‘yicha uy vazifalarining bajarilishi va o‘zlashtirish darajsi.	10	0-5	0-5
3.	Yozma nazorat ishi yoki test savollariga berilgan javoblar.	5		0-5
	Jami JN ballari	35	15	20

**Yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida bo‘lib, yakuniy nazorat 30 ballik  
“Yozma ish” variantlari asosida o‘tkaziladi.**

/n	KO‘RSATKICHLAR	YaN ballari	
		Maksimal ball	O‘zgarish oralig‘i
1	Fan bo‘yicha yakuniy yozma ish nazorati	30	0-30
	Jami YaN ballari	30	30

### Yakuniy nazoratda “Yozma ish”larni baholash mezoni

Yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida amalga oshiriladi, sinov ko‘p variantli usulda o‘tkaziladi. Har bir variant 2 ta nazariy savol va 4 ta amaliy topshiriqdan iborat. Nazariy savollar fan bo‘yicha tayanch so‘z va iboralar asosida tuzilgan bo‘lib, fanning barcha mavzularini o‘z ichiga qamrab olgan.

Har bir nazariy savolga yozilgan javoblar bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 0-3 ball oralig‘ida baholanadi. Amaliy topshiriq esa 0-6 ball oralig‘ida baholanadi. Talaba maksimal 30 ball to‘plashi mumkin. Yozma sinov bo‘yicha umumiy o‘zlashtirish ko‘rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo‘yilgan o‘zlashtirish ballari qo‘siladi va yig‘indi talabaning yakuniy nazorat bo‘yicha o‘zlashtirish bali hisoblanadi.

## **DASTURNING AXBOROT-USLUBIY TA'MINOTI**

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy usullari, pedagogik va axborot –kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutiladi.

Jumladan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologoyalari yordamida prezентatsion va elektron –didaktik texnologiyalaridan;
- amaliy mashg'ulotlarda aqliy hujum, guruhli fikrlash pedagogik texnologiyalaridan.

## **FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'nnaviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'nnaviyat, 2008. – 172 b.
2. Mirziyoev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpoetamiz. – T.: O'zbekiston, 2016
3. Mirziyoev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: O'zbekiston , 2017.

### **Asosiy adabiyotlar**

4. Сирожиддинов Ш. Ўзбек мумтоз адабиётининг фалсафий сарчашмалари. – Т.: Янги аср авлоди, 2011.
5. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari / Majmua. (1-2-jildlar) Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi: N.Rahmonov. – T.: Fan, 2005, 2007.
6. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi (O'quv qo'llanma). –T.: Yangi asr, 2006.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

7. Орзикев Р. Ўзбек адабиёти тарихи. Ўқув қўлланма. - Самарқанд: 2005.
8. Адизова И. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. Ўқув қўлланма. - Т.: 2006.
9. Tohirov S. O'zbek she'riyatida aruz (Uslubiy qo'llanma). – Samarqand: SamDU nashri, 2010.
10. Фитрат. Танланган асарлар. 2-жилд. - Т.: Маънавият, 2000.
11. Раҳмонов Н. Рухиятдаги нур муороди. - Т.: 2002.
12. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. - Т.: 2005.
13. Шарқ мумтоз поэтикаси Ҳ.Болтабоев талқинида. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008.
14. Қосимов Б., Долимов У. Маърифат дарғалари. - Т.: Ўқитувчи, 1990.
15. Ўзбек миллий уйғониш адабиётига материаллар. - Т.: Университет, 2004.
16. Юсупов Ш. Фурқат йўлларида. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1984.

17. Жумахўжа Нусратулло. Феруз—маданият ва санъат ҳомийси. –Т.: Фан, 1995.
18. Фанихўжаев Ф. Аҳмад Табибий (ҳаёти ва ижоди). –Т.: Фан, 1970.
19. Тўлабоев О., Каримбек Камий. Ўзбек тили ва адабиёти, 1993, 4-сон.
20. Каримов Ф. Ўзбек адабиёти тарихи. З-қитоб. –Т., 1975.
21. Юсупов Ш. Худоёрхон ва Фурқат. –Т.: Шарқ, 1997.
22. Жабборов Н. Фурқат мероси ва Хитой манбалари. // Шарқ ўлдузи. 2001. Иккинчи фасл, 121-127-бетлар.
23. Жабборов Н. Ватан иштиёқин тортарам. // Тафаккур, 2002, 1-сон, 48-57-бетлар.
24. Жабборов Н. Маърифат надир. Т.: Маънавият, 2010.
25. Долимов У. Исҳоқхон Ибрат. Истиқлол фидойилари. –Т.: Шарқ, 1994.
26. Ризаев Ш. Жадид драмаси. –Т.: Шарқ, 1997.
27. Қосимов Б. Излай-излай топганим. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1983.
28. Жалолов А. XIX аср охири ва XX аср бошларидаги ўзбек адабиёти. – Т., 1991.
29. Ғаниев И. Фитрат. Эътиқод, Ижод. –Т., 1994.
30. Болтабоев Ҳ. XIX асрнинг охири XX асрнинг бошларида драматургия. – Т., 1993.
31. Қўшжонов М. Ўзбекнинг ўзлиги. –Т., 1994.
32. Қодирий Ҳ. Отам ҳақида. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1983.
33. Норматов У. Қодирий боғи. –Т., 1995.
34. Болтабоев Ҳ. Фитрат ва жадидчилик. -Т., 2007.
35. Каримов Б. Абдулла Қодирий. -Т., Фан, 2006.
36. Долимов У. Туркистонда жадид мактаблари. -Т.: Университет, 2006.
37. Миллий уйғониш ва ўзбек филологияси масалалари.-Т.: Университет, 1993.

### Xorijiy adabiyotlar

38. Nihad Sami Banarli. Resimli Turk Edebiyatı tarihi. – İstanbul: Milli Eğitim Basimevi, 2001.
39. Fuad Koprulu. Türk edebiyatında ilk mutasavviflar. – Ankara: Diyanet İşleri Başkanlığı, 1991.
40. Fuad Koprulu. Türk Dili ve edebiyati hakkında araştırmalar. – İstanbul, 1934. – С. 33-34.
41. Cemal Kurnaz. Eski turk edebiyati. – Ankara: Diyanet İşleri Başkanlığı, 2001.
42. Acuq F. Ozbek edabiyati. Ankara: 2008.
43. La Literature de l'époque des Karakhanides // Philologiae Turcicae fundamenta. – Wiesbaden, 1964. – С. 167-175.

### Internet saytlari

44. [www.alishernavoiy.uz – http://alishernavoiy.uz/](http://alishernavoiy.uz/)
45. [www.ziyo-net.uz – http://ziyonet.uz/](http://ziyonet.uz/)
46. [www.literature.uz – http://literature.uz/](http://literature.uz/)
47. [www.kutubxona.uz – http://kutubxona.uz/](http://kutubxona.uz/)

### **“O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI” FANIDAN AUDITORIYA MASHG'ULOTLARINING TAQVIM REJASI**

T/r	Dars mavzusi	Mashg'lot turi	sana	Izoh
<b>I</b>	<b>Nazariy ta'lim</b>			
1	<b>Ma'ruza mavzulari (barchasi)</b>	ma'ruza		
2	<b>Mumtoz adabiyotga kirish. Maqsad va vazifalar, genezisi, shakllanishi, taraqqiyoti.</b> 1.1. Mumtoz adabiyotdagi davriy o'zgarishlar va bularning sabablari. 1.2. Mumtoz adabiyotning paydo bo'lishi va shakllanishi.	ma'ruza		
3	<b>Mumtoz adabiyotning manbalari, mumtoz she'r.</b> 2.1. Arabiy va forsiy tillardagi adabiyotning turkiy tildagi mumtoz adabiyotning shakllanishidagi roli 2.2. Badiiy bo'limgan asarlar tahlili 2.2.1. Geografiyaga oid asarlar (“Ajoyib ul-buldon”, “Hudud ul-olam...”, “Safarnoma”, “Qandiya” va boshqalar). 2.2.2. Tarixga oid asarlar (“Ta'rixi Bal'amiy/ “Tarixi Tabariy” tarjimalari, “Tarixi Buxoro” (Narshaxiy), “Ta'rixi Bayhaqiy” va boshqalar) 2.2.3. Siyosiy-axloqiy mavzudagi asarlar tahlili. (“Qobusnama” (Kaykovus), “Siyosatnama” (Nizom ul-mulk), “Navro'znama” (Umar Hayyom), “Chahor maqola” (Nizomiy Aruzi Samarqandi), “Hadoyiq us-sehr fi daqoyiq ush-she'r” (Rashididdin Vatvot), “Tazkirat ul-avliyo” (Attor), “Fi hi mo fihi” (Rumi) “Lubob ul-	ma'ruza		

	albob" (Avfiy), "Tazkirat ush-shuaro" (Davlatshoh Samarqandiy) va boshqalar.)			
4	<b>An'anaviy mavzu va obrazlar, badiiy uslub tushunchasi.</b> 3.1. An'anaviy mavzu. 3.2. An'anaviy obraz. 3.3. Badiiy uslub tushunchasi.	ma'ruza		
5	<b>Mumtoz poetika haqida ma'lumot. Ilmi aruz.</b> 4.1. Balog'at ilmi haqida. 4.2. Aruz haqida ma'lumot.	ma'ruza		
6	Ilmi balog'a: ilmi bade', ilmi qofiya (davomi) haqida ma'lumot 5.1. Badiiy san'atlar haqida. 5.2. Qofiya ilmi haqida	ma'ruza		
<b>Jami 12 soat</b>				
<b>II</b>	<b>Amaliy mashg'ulot</b>			
1	"O'zbek adabiyoti tarixi" fanning maqsad va vazifalari, o'zbek adabiyotini davrlashtirish.	Amaliy		
2	Mumtoz adabiyotning diniy-tasavvufiy va ilmiy manbalari	Amaliy		
3	Mumtoz she'r	Amaliy		
4	Mumtoz adabiyotda an'anaviy mavzu va obrazlar	Amaliy		
5	Mumtoz adabiyotda badiiy uslub masalasi	Amaliy		
6	Mumtoz she'r tahlili mezonlari: ilmi aruz, ilmi bade', ilmi qofiya	Amaliy		
<b>Jami 12 soat</b>				
<b>Seminar mashg'ulot va seminar</b>				
1	Eski o'zbek tilidagi filologik asarlar va ularning mumtoz adabiyotni o'rganishda muhim manbalar ekanligi	Seminar		
2	Adabiy turlar va she'r nav'lari	Seminar		
3	Kichik lirik janrlar badiiyati	Seminar		
4	Ham bayt, ham bandga asoslangan she'r shakllari.	Seminar		
5	Ilmi bade' yoki badiiy san'atlar talqini	Seminar		
<b>Jami 10 soat</b>				
<b>Jami 32 soat</b>				

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**MUMTOZ ADABIYOT TARIXI KAFEDRASI**

**“O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI”**

**I qism**

**OQUV MATERIALLARI  
VA  
TA'LIM TEXNOLOGIYALARI**

**I. MA'Ruzalar**

**Tuzuvchi**

**f.f.n. dots. Xoliqulova G.Y.**

**Samarqand davlat universiteti 2019- y.**

**MA'RUZA MASHG'ULOTLARI****1-Mavzu**

**Kirish. Mumtoz adabiyotga kirish. Maqsad va vazifalar, genezisi, shakllanishi, taraqqiyoti.**

**1.1.Ma'ruzada ta'lim texnologiyasi**

<u>Mashg'ulot bagti -2 soat</u>	<u>Talabalar soni: 70-80 nafar</u>
<u>Mashg'ulot shakli</u>	Axborot-tahliliy ma'ruza
<u>Ma'rvza rejasi:</u>	<ol style="list-style-type: none"> <li>"O'zbek adabiyoti tarixi" ilmining predmeti, maqsad va vazifalari, tarkibiy tuzilishi.</li> <li>O'zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish muammolari.</li> <li>Mumtoz adabiyotning paydo bo'lishi va shakllanishi.</li> </ol>

***O'quv mashg'ulotining maqsadi:*** Adabiyot, adabiyotshunislik, adabiyot tarixi, davrlashtirish tushunchalari, "O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi" fanning predmeti, maqsad va vazifalari, tarkibiy tuzilishi, baholash mezonlari haqida ma'lumot berish.

<u>Pedagog vazifalari</u>	<u>O'quv faoliyati natijalari</u>
<ul style="list-style-type: none"> <li>Fanning DTS bilan bog'liqligi, uni o'rghanishdagi bilim va ko'nikmalar haqida fanning boshqa turdosh fanlar bilan aloqasi, baholash mezonlari haqida ma'lumot beradi.</li> <li>O'zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish tamoyillari, tajribalari haqida tushuncha beradi.</li> <li>O'zbek mumtoz adabiyoti tarixining davr va bosgichlari, ularning mushtarak va farqli jihatlarini anaqlashga yo]naltiradi.</li> <li>Islomgacha bo'lgan davr adabiyotini o'rghanish manbalari haqida ma'lumot beradi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Fanni o'rghanishdan ko'zlangan maqsad, talabalarning bilim va malakasiga qo'yiladigan talablar fanning boshqa turdosh fanlar bilan aloqasi, baholash mezonlari haqida ma'lumotga ega bo'ladi.</li> <li>O'zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish tamoyillari, tajribalari haqida haqidagi bilim va konikmalarini mustahkamlaydilar.</li> <li>O'zbek mumtoz adabiyoti tarixining davr va bosgichlari, ularning mushtarak va farqli jihatlarini anaqlashga oid ma'lumot va yo'llanma oladilar.</li> <li>Islomgacha bo'lgan davr adabiyotini o'rghanish manbalari va muammolari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.</li> </ul>
<u>Ta'lim berish usullari</u>	Ko'rgazmali ma'ruza, namoyish etish, suhbat.
<u>Ta'lim berish shakllari</u>	Yakka, jamoa, ommaviy
<u>Ta'lim berish vositalari</u>	O'quv va tarqatma materiallar, slaydlar
<u>Ta'lim berish sharoiti</u>	Texnik jihozlangan auditoriya
<u>Monitoring va baholash</u>	Og'zaki nazorat, savol-javob

**1.2. “Mumtoz adabiyotga kirish. Maqsad va vazifalar, genezisi, shakllanishi, taraqqiyoti” mavzusi boyicha ma’ruza mashg’ulotining  
TEXNOLOGIK XARITASI**

<i>Ish bosqichlar i va vaqtি</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>Ta’lim beruvchi</i>	<i>Ta’lim oluvchilar</i>
<b>1. Mavzuga kirish (10 daqiqa)</b>	<p>1.1. Mashg’ulot mavzusini aytadi, reja va asosiy adabiyotlar bilan tanishtiradi (<i>1-илюва</i>).            1.2. Talabalarga bilimni faollashtiruvchi savollar bilan murojaat etadi, mavzu bo'yicha tayanch iboralarni yozdiradi va bugungi darsda shu tushunchalar haqidagi bilimlarni kengaytirish lozimligini uqtiradi (<i>2-ilova</i>).            1.3. Javoblarni to’ldiradi va umumlashtiradi.</p>	Tinglaydilar, yozib oladilar Savolga javob beradilar. Fikr bildiradilar.
<b>2. Asosiy bosqich (60 daqiqa)</b>	<p>2.1. “O’zbek adabiyoti tarixi” va uning tarkibiy qismi bo’lgan “O’zbek adabiyoti tarixi” haqida, uning davr va bosqichlari haqida tushuncha beradi.            2.2. "O’zbek adabiyoti tarixi" fanining maqsad va vazifalari, predmeti haqida, uning DTS bilan bog’liqligi haqida ma'lumot beradi.            2.3. Fanning tarkibiy tuzilishi, reyting nazoratlari va baholash mezonlari bilan tanishtiradi (<i>1-2-slaydlar</i>).            2.4. "O’zbek adabiyoti tarixi" fanini o’rganishning asosiy va qo’shimcha manbalarini sharhlab beradi (<i>4-slayd</i>).            2.6. Mavzu bo'yicha savol berishni taklif qiladi, talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi.</p>	Tinglaydilar, zarur ma'lumotlarni yozib oladilar  Tinglaydilar, zarur ma'lumotlarni yozib oladilar  Savollar beradilar
<b>3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)</b>	<p>3.1. Mavzu bo'yicha yakuniy xulosalar qiladi. Muammoli masalalar haqida yo'llanma beradi. Qo’shimcha ma'lumot uchun manbalarni havola etadi.            3.2. Mustaqil ishlash uchun vazifa beradi (<i>4-илюва</i>); keyingi mavzu bo'yicha o’quv mashg’ulotiga tayyorlanib kelishni tayinlaydi</p>	Vazifalarni yozib oladilar.

### ZARURIY ADABIYOTLAR

1. Vohidov R., Eshonqulov H. **O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi.** -Toshkent: Yangi asr, 2006.
2. Mallaev N. **O'zbek adabiyoti tarixi.** - T.: O'qituvchi, 1974.
3. **O'zbek adabiyoti tarixi.** 5 tomlik. 1-tom. - T.: Fan, 1971.
4. **O'zbek adabiyoti tarixi.** 5 tomlik. 2-tom. - T.: Fan, 1971.
5. **O'zbek adabiyoti tarixi.** 5 tomlik. 3-tom. - T.: Fan, 1971.

### DIQQATNI JALB QILUVCHI SAVOLLAR

1. “Adabiyot” so’zining lug’aviy va istilohdagi ma’nolari haqida nimalarni bilasiz?
2. “Adabiyot” so’zining keng va tor ma’nolari haqida qanday tushunchangiz bor?
3. Adabiyotni o’rganuvchi fan va uning tarkibiy qismlari haqida nimalarni bilasiz?
4. “Mumtoz” so’zini qanday tushunasiz?

### TAYANCH IBORALAR

"Adabiyot" so’z va tushuncha sifatida, adabiyotshunoslik, "mumtoz", san’at va adabiyot, ob’ekt va predmet, badiiy, tarixiy va ilmiy asarlar, adabiyot va zamon, didaktika, estetik tarbiya, adabiyot tarixi - kishilik tarixi, davrlashtirish va davrlar, bosqichlar.

2-Mavzu

Mumtoz adabiyotning manbalari, mumtoz she'r.

**2.1. Ma'ruzada ta'lim texnologiyasi**

<u>Mashg'ulot baqtি -2 soat</u>	<u>Talabalar soni: 45-50 nafar</u>
<u>Mashg'ulot shakli</u>	Axborot-tahliliy ma'ruza
<u>Ma'rviza rejasi:</u>	<p>1. Arabiy va forsiy tillardagi adabiyotning turkiy tildagi mumtoz adabiyotning shakllanishidagi roli</p> <p>2 Badiiy bo'lмаган асарлар тahlili:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>a) Geografiyaga oid асарлар (“Ajoyib ul-buldon”, “Hudud ul-olam...”, “Safarnoma”, “Qandiya” va boshqalar).</li> <li>b) Tarixga oid асарлар (“Ta'rixi Bal'amiy/ “Tarixi Tabariy” tarjimalari, “Tarixi Buxoro” (Narshaxiy), “Ta'rixi Bayhaqiy” va boshqalar)</li> <li>d) Siyosiy-axloqiy mavzudagi асарлар tahlili. (“Qobusnama” (Kaykovus), “Siyosatnama” (Nizom ul-mulk), “Navro'znama” (Umar Hayyom), “Chahor maqola” (Nizomiy Aruzi Samarqandi), “Hadoyiq us-sehr fi daqoyiq ush-she'r” (Rashididdin Vatvot), “Tazkirat ul-avliyo” (Attor), “Fi hi mo fihi” (Rumi) “Lubob ul-albob” (Avfiy), “Tazkirat ush-shuaro” (Davlatshoh Samarqandiy) va boshqalar.)</li> </ul>
<u>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</u>	

<u>Pedagog vazifalari</u>	<u>O'quv faoliyati natijalari</u>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• O'zbek adabiyotining islomgacha bolgan (antik) davrini o'rghanish manbalarini tavsiflaydi.</li> <li>• Moniylik, budda, zardushtiylik kabi qadimgi diniy e'tiqodlar, ularning badiiy ijoddha aks etishi haqida tushunchaga beradi.</li> <li>• Qadimgi davr adabiyotining janr xususiyatlarini tahlil qilishga oid yo'llanma beradi.</li> <li>• Urxun-Enasoy obidalarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini anaqlashga oid ko'nikma hosil qiladi</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• O'zbek adabiyotining islomgacha bolgan davrini o'rghanish manbalarini haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.</li> <li>• Qadimgi diniy e'tiqodlar, "Avesto" kitobi uning badiiy ijoddha aks etishi haqida tushunchaga ega boladilar.</li> <li>• Mif, afsona, rivoyat (sav), qo'shiq (ir) kabi qadimgi davr adabiyotining janr xususiyatlarini tahlil qilish ko'nikmasini hosil qiladilar.</li> <li>• Urxun-Enasoy obidalarining topilishi, o'rganilishi, ahamiyati haqidagi ma'lumotlarini mustahkamlaydilar, tahlil malakasiga ega bo'ladilar</li> </ul>
<u>Ta'lim berish usullari</u>	Ko'rgazmali ma'ruza, namoyish etish, savol-javob, suhbat, tushuntirish, aqliy hujum.
<u>Ta'lim berish shakllari</u>	Yakka, jamoa, ommaviy
<u>Ta'lim berish vositalari</u>	O'quv va tarqatma materiallar, slaydlar
<u>Ta'lim berish sharoiti</u>	Texnik jihozlangan auditoriya
<u>Monitoring va baholash</u>	Og'zaki nazorat, savol-javob

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**MUMTOZ ADABIYOT TARIXI KAFEDRASI**

***O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI***

*I qism  
fanidan*

**OQUV MATERIALLARI  
VA  
TA'LIM TEXNOLOGIYALARI**

**II. Amaliy va seminar  
mashg'ulotlari**

**Tuzuvchi**

**f.f.n. dots. Xoliqulova G.Y.**

**Samarqand - 2019**

**AMALIY MASHG'ULOTLAR MAVZULARI*****1-amaliyot.***

**Mavzu: "O'zbek adabiyoti tarixi" fanning maqsad va vazifalari,  
o'zbek adabiyotini davrlashtirish.**

**Reja**

1. "O'zbek adabiyoti tarixi" ilmining predmeti, maqsad va vazifalari, tarkibiy tuzilishi.
2. O'zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish muammolar.
3. Mumtoz adabiyotning paydo bo'lishi va shakllanishi.

**ADABIYOTLAR**

1. Ma'ruza matni.
2. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -Toshkent: Yangi asr, 2006.
3. Mallaev N. O'zbek adabiyoti tarixi. - T.: O'qituvchi, 1974.
4. Abduraxmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. - Sam.: SamDU nashri, 2004.
- 5 Qadimiy hikmatlar. - T.: Adabiyot va san'at, 1987.
6. Adabiyot (Majmua). 10-sinf uchun. - T.: O'qituvchi, 2004
7. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 томлик. 1-том. - T.: Fan, 1971.
8. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 томлик. 2-том. - T.: Fan, 1971.
9. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 томлик. 3-том. - T.: Fan, 1971.

***2-amaliyot.***

**Mavzu: Mumtoz adabiyotning diniy-tasavvufiy va ilmiy manbalari  
Reja**

1. Arabiy va forsiy tillardagi adabiyotning turkiy tildagi mumtoz adabiyotning shakllanishidagi roli.
- 2 Badiiy bo'limgagan asarlar tahlili:
  - a) Geografiyaga oid asarlar ("Ajoyib ul-buldon", "Hudud ul-olam...", "Safarnoma", "Qandiya" va boshqalar).
  - b) Tarixga oid asarlar ("Ta'rixi Bal'amiy/ "Tarixi Tabariy" tarjimalari, "Tarixi Buxoro" (Narshaxiy), "Ta'rixi Bayhaqiy" va boshqalar)
  - c) Siyosiy-axloqiy mavzudagi asarlar tahlili. ("Qobusnoma" (Kaykovus), "Siyosatnoma" (Nizom ul-mulk), "Navro'znama" (Umar Hayyom), "Chahor maqola" (Nizomiy Aruzi Samarqandi), "Hadoyiq us-sehr fi daqoyiq ush-she'r")

(Rashididdin Vatvot), “Tazkirat ul-avliyo” (Attor), “Fi hi mo fihi” (Rumi) “Lubob ul-albob” (Avfiy), “Tazkirat ush-shuar” (Davlatshoh Samarqandiy) va boshqalar.)

## ADABIYOTLAR

1. Ma'ruza matni.
2. Ma'ruza matni.
2. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -Toshkent: Yangi asr, 2006.
3. Mallaev N. O'zbek adabiyoti tarixi. - T.: O'qituvchi, 1974.
4. Abduraxmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. - Sam.: SamDU nashri, 2004.
- 5 Qadimiy hikmatlar. - T.: Adabiyot va san`at, 1987.
6. Adabiyot (Majmua). 10-sinf uchun. - T.: O'qituvchi, 2004
7. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 1-tom. - T.: Fan, 1971.
8. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 2-tom. - T.: Fan, 1971.
9. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 3-tom. - T.: Fan, 1971.

### *3-amaliyot.*

**Mavzu: Mumtoz she'r**

**Reja**

1. Mumtoz she'rning mumtoz nasrdan farqi
2. O'zbek mumtoz adabiyotining tur va janrlari. Lirik tur va unga mansub janrlar.
3. Devon, bayoz va tazkiralar-mumtoz adabiyotni o'rganishda muhim manba.

## ADABIYOTLAR

1. Ma'ruza matni.
2. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -Toshkent: Yangi asr, 2006.
3. Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. Тошкент, Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1981, 189.
4. Сирожиддинов Ш. Ўзбек мумтоз адабиётининг фалсафий сарчашмалари. – Т.: Янги аср авлоди, 2011.
5. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari / Majmua. (1-jild) Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi: N.Rahmonov. – Т.: Fan, 2005

6. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари / Мажмуа (2–жилд). Тузувчи, изоҳ ва шарҳлар муаллифи: Н. Раҳмонов. – Т.: Фан, 2007.

#### **4-amaliyot.**

##### **Mavzu: Mumtoz adabiyotda an'anaviy mavzu va obrazlar.**

###### **Reja**

1. Mumtoz adabiyotda mavjud an'anaviy mavzular.
2. O'zbek mumtoz adabiyotida obrazlar sistemasi (epik, lirik asarlar misolida)
2. An'anaviy obrazlar genezisi va tadrijiy takomili.

#### **ADABIYOTLAR**

1. Ma'ruza matni.
2. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -Toshkent: Yangi asr, 2006.
3. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. –Т.: O'zYU Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
4. Раҳмонов Н. Рухиятдаги нур муроди. - Т.: 2002.
5. Раҳмонов Н. Ўзбек адабиётини даврлаштириш масалалари. – Тошкент: “Мумтоз сўз”. - Т.: 2016.
6. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. - Т.: 2005.
7. Шарқ мумтоз поэтикаси. Ҳ.Болтабоев талқинида. – Т.: Ўзбекистон
8. Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008.
9. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. –Т.:Ўзбекистон, 2014.
10. Adabiyot (Majmua). 10-sinf uchun. - Т.: O'qituvchi, 2004.

#### **5-amaliyot.**

##### **Mavzu: Mumtoz adabiyotda badiiy uslub tushunchasi**

###### **Reja (topshiriqlar)**

1. Мумтоз адабиётда услуб тушунчаси.
2. Mumtoz adabiyotdagи asosiy uslubiy yo'nalishlar. Xuroson, iroq, hind uslublari. Uslublar sintezi.
3. Mumtoz adabiyotda she'riy va nasriy u slub, “xos uslub” va “omma uslubi” haqida tushuncha (Miyon Buzruk). Mumtoz adabiyotda “turkiston uslubi” va “xuroson uslubi”ning shakllanishi va rivoji.

4. Xalq kitoblarining paydo bo'lish sabablari va adabiy jarayon. Xalq kitoblari va ijodkor shaxsiyati. Xalq kitoblarida folklor syujetlari va individual ijod o'rtasidagi munosabatlar. "Xalq adabiyoti" tushunchasi..

## ADABIYOTLAR

1. Ma'ruza matrni.
2. Абдуғафуров А. Буюк бешлик сабоқлари. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1995.
- 2.Ҳайитметов А. Темурийлар даври адабиёти. – Т.: Фан, 1996.
- 3.Исҳоқов Ё. "Хамса" поэтикасига доир //Ўзбек тили ва адабиёти. - 1986.-№ 1.
- 4.Алиев Г. Ю. Темы и сюжеты Низами в литературах народов Востока. – М.: Наука, 1985.
- 5.Валихўжаев Б. "Хамса" ёзиш анъанасига Алишер Навоийнинг муносабати // Ўзбек тили ва адабиёти.-1990.- № 1.
- 6.Эркинов А. С. Алишер Навоий "Хамса"си талқинининг XV-XX аср манбалари. Филол.фан.докт.дисс... – Т., 1998.
- 7.Юсупова Д. Алишер Навоий "Хамса"сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйғунылиги. – Тошкент: МУМТОЗ СЎЗ, 2011.
- 8.Алишер Навоий: қомусий лугат. 1-2-жиллар /Масъул мухаррир Ш.Сирожиддинов. – Т.: Sharq, 2016.
- 9.Навоийнинг ижод олами (мақолалар тўплами). – Т.: Фан, 2001.
10. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Т.: O'zYU Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.

### *6-amaliyot.*

**Mavzu: Mumtoz poetika: ilmi aruz, ilmi bade', ilmi qofiya  
Reja**

1. "Poetika" atamasining lug'aviy va istilohiy ma'nolari.
2. Ilmi balog'a - ilmlar uchligi va ularning mumtoz poetikani o'rghanishdagi ahamiyati.
3. Adabiy va tarixiy manbalarda mumtoz poetikaga doir qarashlar.
4. Ilmi aruz va aruzga doir janrlar tavsifi.
5. Ilmi badi'- badiiy san'atlar va ularning turlari:
  - a) Ma'naviy san'atlar;
  - b) lafziy san'atlar.

6. Mumtoz qofiya va uning turlari.
7. Qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra farqlanuvchi turlari. Mujarrad, muassas, murdaf va muqayyad(qaydli) qofiyalar.
8. Qofiyaning tuzilishiga ko'ra turlari. Mutlaq va muqayyad qofiyalar.

## ADABIYOTLAR

1. Ma'ruza matni.
2. BoltaboevH. Sharq mumtoz poetikasi.– T.:O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi , 2008. –426 b.
3. Is'hoqov Yo.So'z san'ati so'zligi.–T.:O'zbekiston , 2014. – 320 b.
4. Tohirov S. O'zbek she'riyatida aruz. – Sam.: SamDU nashri, 2010. – B. 66.
5. Тўйчиев У. Ўзбек поэзиясида аруз системаси. – Т.: Фан, 1985.
6. Ҳожиахмедов А. Аруз назарияси асослари. – Т., 1998.
7. Ҳожиахмедов А. Мактабда аруз вазнини ўрганиш. – Т.: Ўқитувчи, 1978.
8. Ҳожиахмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Т.: Шарқ, 1999.
9. Ҳожиахмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т.: Фан, 2006
10. Ҳожиахмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т.: Шарқ, 1998.

### *2. Qo'shimcha adabiyotlar:*

3. 5.Is'hoqov Yo. Navoiy poetikasi ("Xazoyin ul-maoniy" asosida) – T.: Fan, 1983. –168 b.
4. 6.Alisher Navoiy: qomusiy lug'at. 1-2-jildlar /Mas'ul muharrir Sh.Sirojiddinov. – T.: Sharq, 2016.
5. 7.Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: Akademnashr, 2013. – 408 b.
6. 8.Musulmankulov R. Persidsko-tadjikskaya klassicheskaya poetika (X-XVv.). – M.: Nauka, 1989. –240 s.

**SEMINAR MASHG'ULOTLAR MAVZULARI****1-seminar.**

**Mavzu:** Eski o'zbek tilidagi filologik asarlar va ularning mumtoz adabiyotni o'rganishda muhim manbalar ekanligi

**Reja:**

1. O'rta va Markaziy Osiyoda yaratilgan filologik asarlar.
2. Adabiyotshunoslikning ijodiy jarayon qonuni-yatlarini o'rganadigan fan o'zbek mumtoz adabiyoti tarixi uchun muhim manba ekanligi.
3. Adabiy ilmlar va ularning tasnifi. She'r ilmi mohiyati. Ilmi bade', ilmi maoniy, ilmi balog'a, ilmi aruz, ilmi qofiya va Sharq adabiyotshunosligi.
4. Tarixiy manbalarda adabiy hayot tasviri.

**ADABIYOTLAR**

1. Орзибеков Р. Ўзбек адабиёти тарихи. Ўқув қўлланма. - Самарқанд: 2005.
2. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. – Т.: O'zYU Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
4. Адизова И. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. Ўқув қўлланма. - Т.: 2006.
5. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: Шарқ НМК, 1999.
6. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari / Majmua. (1-2-jiddlar) Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi: N.Rahmonov. – Т.: Fan, 2005, 2007.
7. Раҳмонов Н. Руҳиятдаги нур муроди. - Т.: 2002.
8. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. - Т.: 2005.
9. Шарқ мумтоз поэтикаси Ҳ.Болтабоев талқинида. – Т.: Ўзбекистон Миллий давлат илмий нашриёти, 2008.
10. Internet saytlari
11. 7. www.alishernavoiy.uz
12. 8. www.ziyo-net.uz
13. 9. www.literature.uz
14. 10. www.kutubxona.uz

**2-seminar.**

**Mavzu:** Forsiy va turkiy shoirlar (adiblar) ijodidagi mushtarak jihatlar

**Reja:**

1. Adabiy ta'sir masalasi.

2. Zullisonaynlik an'analari.
3. Har ikki tilda yaratilgan mumtoz asarlarda yagona adabiy prinsip va me'yorlarga amal qilinishi.

### **ADABIYOTLAR**

1. Сирожиддинов Ш. Ўзбек мумтоз адабиётининг фалсафий сарчашмалари. – Т.: Янги аср авлоди, 2011.
2. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari / Majmua. (1-jild) Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi: N.Rahmonov. – Т.: Fan, 2005;
3. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари / Мажмуа (2-жилд). Тузувчи, изоҳ ва шарҳлар муаллифи: Н. Раҳмонов. – Т.: Фан, 2007.
4. Юсупова Д. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи (Алишер Навоий даври). Ўқув қўлланма. – Т.:Akademnashr, 2013

### **3-seminar.**

#### **Mavzu: Adabiy tur va she'r nav'lari**

##### **Reja**

1. Adabiy tur tushunchasi va uning ifodalananish shakllari.
2. Baytli she'r shakllari. G'azal, qasida va mustazod janrlari.
3. Kichik lirik janrlar tavsifi.
4. Mazmuniga ko'ra ta'rif beriluvchi mumtoz she'riy janrlar.

### **ADABIYOTLAR**

1. Ma'ruza matni.
2. Boltaboev H. Sharq mumtoz poetikasi.– Т.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008. –426 b.
3. Is'hoqov Yo. So'z san'ati so'zligi.–T.:O'zbekiston , 2014. – 320 b.
4. Nosirov O., Jamolov S., Ziyoviddinov M. O'zbek klassik she'riyati janrlari.– Т.:O'qituvchi,1979. – 184 b.
5. Орзивеков Р. Лирикада кичик жанрлар. -Т.: F.Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976.
6. Орзивеков Р. Туюқ поэтикаси. -Т., Ўзбекистон, 1976.
7. Орзивеков Р. Ўзбек классик лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. - Т., Фан, 1976.
8. Орзивеков Р. Ўзбек сирли-синкетик жанрлар ва шакллар. -Сам., СамДУ нашри, 1992.
9. OrzibekovR. O'zbek lirik she'riyati janrlari. -T., Fan, 2006. -354 b.

10. Tohirov S. O'zbek she'riyatida aruz. – Sam.: SamDU nashri, 2010. – B. 66.
11. Тўйчиев У. Ўзбек поэзиясида аруз системаси. – Т.: Фан, 1985.
12. Тўйчиев У. Адабий турлар ва жанрлар. З жилдлик. 2-жилд. - Т.: Фан, 1993.
13. Xoliqulova G. O'zbek mumtoz she'riyati janrlari. I qism. Samarqand, SamDU, 2017. - 128 bet.
14. Ҳожиаҳмедов А. Аруз назарияси асослари. – Т., 1998.
15. Ҳожиаҳмедов А. Мактабда аруз вазнини ўрганиш. – Т.: Ўқитувчи, 1978.
16. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Т.: Шарқ, 1999.
17. Ҳожиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т.: Фан, 2006
18. Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи лугати. – Т.: Шарқ, 1998.

#### **4-seminar.**

**Mavzu: Ham bayt, ham bandga asoslangan she'r shakllari.**

#### **5-seminar.**

**Mavzu: Ilmi bade' yoki badiiy san'atlar talqini**


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**XOLIQULOVA GULSANAM YORQULOVNA**

***O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI***

**I qism**



***MA'Ruzalar matni***

**Samarqand - 2019-y.**

**Xoliqulova G.Y.** O'zbek adabiyoti tarixi. I qism. Ma'ruzalar matni.  
– Samarqand: SamDU nashri, 2019. \_\_ b.

Mas'ul muharrir

Salohiy D.  
f.f.d., prof.

Taqrizchilar:

S.Tohirov  
f.f.n., dots.

Sh.Hasanov  
f.f.d., prof.

Ushbu ma'ruzalar matni “Filologiya va tillarni o'qitish” yo'nališining oquv rejasi, “O'zbek adabiyoti tarixi” fanining o'quv dasturi hamda DTS talablari inobatga olingan holda tuzilgan. Unda O'zbek adabiyoti tarixining kirish hamda poetikaqismiga oid tarixiy va nazariy ma'lumotlar, adabiy merosga oid tahliliy va tanqidiy fikrlar o'z ifodasini topgan.

Qo'llanma OTM filologiya fakultetining I bosqich talabalariga mo'ljalangan.

**Samarqand davlat universiteti, 2019-yil**

## MUNDARIJA

- 1-MAVZU: **Mumtoz adabiyotga kirish. Maqsad va vazifalar, genezisi, shakllanishi, taraqqiyoti .....**
- 2-MAVZU: **Mumtoz adabiyotning manbalari, mumtoz she'r.....**
- 3-MAVZU: **An'anaviy mavzu va obrazlar, badiiy uslub tushunchasi.....**
- 4-MAVZU: **Mumtoz poetika. Ilmi aruz, ilmi bade', ilmi qofiya haqida ma'lumot .....**
- 5-MAVZU: **Mumtoz adabiyotda adabiy turlar va she'r nav'lari .....**
- 6-MAVZU: **Epik she'riyat. Xamsanavislik an'anasi.....**

## KIRISH

### 1-MAVZU:

#### **Mumtoz adabiyotga kirish. Maqsad va vazifalar, genezisi, shakllanishi, taraqqiyoti.**

REJA:

1. Mumtoz adabiyotga kirish kursining maqsad va vazifalari.
2. Mumtoz adabiyotdagi davriy o'zgarishlar va bularning sabablari.
4. Mumtoz adabiyotdagi davrlashtirish haqida.
3. Mumtoz adabiyotni o'rganishning metodologik asoslari va uni tadqiq etish metodlari.

*Kalit so'zlar:* mumtoz adabiyot, maqsad va vazifa, davriy o'zgarishlar, davrlashtirish, tasnif, metod, metodologiya.

Adabiyot so'zi arab tilidan olingan bir so'z bo'lib, "adab" dandir. Adab so'zi esa tarbiyalilik, noziklik, go'zal qiliq, boshqalar bilan yaxshi ko'rkan munosabatda, yaxshi muomilada bo'lmoq ma'nolarini ichiga oladi. «Adabiy muomila», «adabiy harakat» ta'birlari ham shundan oling'andi. Mana shu ma'no e'tibori ila adab so'zini arabchadan «adabiyot» ravishida ko'blik (jam') qilib hikoya, she'r, qissa, masallarga atama qilg'andirlar. Chunki bular odamlarning tabiatiga, fikr va hislariga tarbiyalilik, noziklik va chiroylilik berguchi narsalardir. Bir tilni o'rganish va uning adabiyotiga tushunish uchun quroq olgan sarf, nahv, balog'at, ilmi lug'at kabilarni ham shular ichiga kirgizgandirlar. Adabiyot bilan shug'ullanuvchi ham shu yo'lida ustalig'i, bilimi bo'lg'an odamlarg'a yana udabo degandirki, adiblar demak bo'ladilar. Mana shu «adabiyot» so'zi bizga ham shu ma'nolari ila ko'chib, bizda ham hikoya, romon, doston va masallarga o'xshash kishilik ijodlariga aytiladir. Bu adabiyot so'zining tor ma'nosi bo'ladi. Tag'in adabiyot so'zining keng ma'nosi ham bordir. Bu keng ma'nosi ila «adabiyot» degan so'zdan bir tartibga solinib so'ylagan yoki yozilg'an hamma fikr va tushunchalarni, tuyg'u va xayollarni anglaymiz. Ya'ni shu orqali anglatilg'an butun kishilik ijodlari shunga kiradi. Ul istar bir hikoya va qissa ravishida, istar fanniy-ilmiy bir tushuncha yo'lida bo'linishlar, bu yoqdan ayrilmasdan, hammasi «adabiyot» atamasi ichiga kirgizib anglanadirlar. Bu 78 ma'no ila adabiyot so'zi kun botishlarning (g'arblilarning) «literatura», ruslarning-da «словесность» deganlariga to'g'ri keladi. Tor ma'nosi bilan adabiyot so'zi kun botishlilarning «поэзия» degan so'zlari qatoridadir.

Adabiyot darslarida adabiy hodisalar, ya'ni shoir va muharrirlarning she'riy-adabiy ijodlari tekshiriladir. Shularni tekshirishdan tug'ilgan qarashlar, qoidalar, qonunlar «adabiyot» darslarining nazariy qismini tashkil etadir. Shu nazariyalar bilan birga adabiy asarlarning o'zlarin to'g'ridan-to'g'ri tekshirish, shularni tahlil etish, o'rganilgan nazariyalarning durustligini yoki durust emasligini amalda ko'rish esa adabiyot darslarining amaliy jihatni bo'ladir. Adabiyot darslarimizda biz shu mana ikki yoqni e'tiborga olamiz.

"Adabiyot" so'zining etimologiyasi haqida ikki xil fikr mavjud.

1. Ayrim olimlarning fikriga ko'ra bu so'z arabcha "adab" (odob) va forscha "yod" (o'rganmoq, bilmoq, yod olmoq) so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan so'z bo'lib, odob o'rganish yoki odob o'rgatish degan ma'noni bildiradi.

2. Ikkinci bir fikrga ko'ra "adabiyot" so'zi arabcha "adab" so'ziga "-iyot" qo'shimchasining qo'shilishidan hosil bo'lgan. "Falakiyat", "tibbiyat", "iqtisodiyot" kabi so'zlar tarkibida ham mavjud bo'lgan bu qo'shimcha o'zi qo'shilib kelgan so'z ostidagi barcha tushuncha, qonuniyat va hodisalarni birlashtiradi. Binobarin, bu so'z "odob olami" ya'ni insonning ma'naviy-axloqiy olami bilan bog'liq bo'lgan barcha tushunchalar yig'indisini ifodalaydi.

Adabiyot so'zi amalda ikki ma'noda - keng va tor ma'noda qo'llanadi. Keng ma'noda bu so'z yozma nutqning barcha namunalarini ifodalaydi. Ilmiy, Ilmiy-ommabop asarlar, gazeta va jurnallardagi maqolalar shular jumlasidan.

Adabiyot so'zining tor ma'nosi deganda faqat badiiy ijod namunajari tushuniladi. Ushbu fan doirasida adabiyot so'zinining asosan tor ma'nosi nazarda tutiladi.

Adabiyot musiqa, rassomchilik, haykaltaroshlik, kino, teatr kabi san'at turlaridan biridir. "San`at" so'zi etimologiya, ya'ni kelib chiqish nuqtai nazaridan arabcha sun` (صنع) o'zagidan olingan. Bu so'z ijod, yaratmoq degan ma'nolarni ifodalaydi. "Sun'" parvardigorning sifatlaridan biri bo'lib, shu o'zakdan yasalgan "sone'" so'zi go'zallik yaratuvchi, ijod etuvchi degan ma'nolarni ifodalaydi.<sup>1</sup>

Alisher Navoiy mashhur g'azalidagi ushbu baytda "sun'" so'zi yuqoridagi kabi ma'noda qo'llangan:

Hayrat etmon husni naqshidaki, har hayratki bor,  
Barchasi ezid taolo **sun'**i naqqoshindadur.

Mazmuni: Men uning go'zal (yoki go'zalligi) naqshlaridan hayratlanmayman. Chunki buning barchasi Allah (s.t)ning naqqoshlik san'ati, ya'ni go'zal naqshlar ijodkori ekanligidandir.

<sup>1</sup> Фарҳанги забони тоҷики II жилд. – Москва: Советская Енциклопедия, 1969. 274-саҳ.

"San`at" so`zi "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug`atida "hunar, kasb, ustalik, mohirlik" kabi ma`nolarda sharhlangan:

"San`at" so`zi zamonaviy adabiyotshunoslik atamasi sifatida "...voqelikni obrazlar va yorqin manzaralar orqali badiiy ifodalashdan iborat" hodisani ifodalaydi.<sup>2</sup>

Adabiyotni (tor ma'noda) boshqa san'at turlari kabi voqelikni, atrofimizdagi olam va unda kechayotgan jarayonlar, kishilar tafakkuridagi evrilishlarni obrazlar, ramzlar, majoziy tasvirlar vositasida aks ettiradi. Bu hodisalar adabiyotda "so'z" vositasida amalga oshadi. Binobarin, **adabiyot – so'z san'atidir**. U inson ruhiyatidagi nihoyatda nozik tovlanish va ohanglarni ilg'ashga, ularni aks ettirishga intiladi. Dunyoda insonlar bir-birlariga o'xshamaganlariday, ularning qalb kechinmalari ham takrorlanmasdir.

Adabiyotni o'rganuvchi ilm adabiyotshunoslik deb nomlanadi. Adabiyotshunoslik umumiy ma'noda kishilik jamiyatida, xususiy ma'noda esa, u yoki bu xalq misolida s'z vositasida san'at, go'zallik yaratish jarayonining paydo bo'lishi, rivojlanish bosqichlari va shu bilan bog'liq qonuniyatlar, hodisalar, muammolar, badiiy ijodninng ayni damdagi holati, kishilik jamiyatidagi mavqeい kabi masalalardan bahs yuritadi. O'zbek adabiyotshunoslikning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lган "**O'zbek adabiyoti tarixi**" o'zbek xalqininng boy madaniy merosi, eng qadimgi zamonlardan hozirgi kunga qadar yaratilgan badiiy va badiiy xususiyatga ega asarlar, ularninng mualliflari, yaratilish jarayonlari, ularda aks etgan mazmun va g'oyalar rang-barangligi, eng muhimi, mazkur asarlarning inson kamoloti, ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashdagi o'rni haqida mubohasa etadi. Binobarin o'zbek adabiyoti tarixini o'rganishdan maqsad bugungi kun qahramonini shakllantirishdir.

O'zbek xalqi boy adabiy yodgorliklarga ega. O'tmishda yaratilgan mo'tabar og'zaki va yozma adabiyotimiz namunalarini chuqur o'rganish va bilish har bir o'quvchining, shu yurtda yashayotgan kishilarning ulug' burchidir. Bugungi kunda, yurtimiz ozodlikka, xalqimiz istiqlolga erishgandan so'ng, o'tmish merosimizga e'tibor yanada kuchaydi. Prezidentimiz I.A.Karimov o'zlarining qator suhbatlari, nutq va kitoblarida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan merosni o'rganishning ahamiyatini qayta-qayta ta'kidlamoqdalar. Zero, xalqimiz mustaqillikka erishgandan so'nggina bizga noma'lum ko'pgina ulug' shoirlarimiz, olimlarimiz, muhaddislarimiz haqida ma'lumotga ega bo'ldik. Asarlarini o'rgana boshladik.

<sup>2</sup> Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. - Toshkent: O'qituvchi, 1967. 195-bet.

O'zbek adabiyoti qadimiy tarixga ega. Adabiyot jamiyat hayotining o'ziga xos ifodasi. U jamiyat tarixidagi katta va kichik o'zgarishlarni xilma-xil obrazlar vositasida turli badiiy shakllarda aks ettiradi. O'zbek adabiyoti tarixi nozik ruhiy holatlarni mahorat bilan aks ettiradigan durdonalarga boydir. Ular hozirgi avlod ruhiyatida, qalbida ham hayajon uyg'ota oladi, ularning ma'naviy boyishlariga tegishli hissa qo'sha oladi.

O'zbek xalqi ma'naviy madaniyatining katta va ajralmas bir qismi o'zbek adabiyotidir.

O'zbek adabiyoti tarixi xilma-xil tur va janrdagi badiiy asarlarni o'z ichiga oladi. Lirika va epos o'tmish o'zbek adabiyotining asosiy turlaridir. G'azal, muxammas, musaddas, noma, ruboiy, doston, hikoyat va boshqalar keng tarqalgan adabiy janrlardir. O'zbek adabiyoti tarixi xilma-xil adabiy tur va janrlarning shakllanishi va rivojlanishi tarixi hamdir.

O'tmish o'zbek adabiyoti bir qator memuar va tarixiy asarlarni ham o'z ichiga oladi. «Boburnoma», «Shajara i turk», «Shajara i tarokima», «Firdavs ul-iqbol» va boshqalar shular jumlasidandir.

O'zbek adabiyoti tarixi «Tohir va Zuhra», «Bo'z o'g'lon», «Yusuf Ahmad» kabi xalq kitoblarini ham o'z ichiga oladi. Bular folkloristikaning ham, adabiyot tarixining ham predmetidir.

Adabiyotimiz tarixining ajralmas qismlaridan biri badiiy tarjima adabiyotidir. O'zbek xalqi asrlar davomida ko'pgina xalqlar bilan iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lib keldi. Shu aloqalarning mevasi sifatida tarjima adabiyot vujudga keldi. O'zbek tiliga tojik, ozarbayjon, eron, hind, arab, rus va boshqa xalqlarning ko'p badiiy asarlari va tarix kitoblari tarjima qilindi. Nizomiyning «Xisrav va Shirin», «Haft paykar», Sa'diyning «Bo'ston», «Guliston», Jomiyning «Bahoriston», «Yusuf va Zulayho», Hiloliyning «Shoh va Gado», shuningdek, «Kalila va Dimna», «Ming bir kecha», «Ravzat us-safo», «Badoyi-ul-vaqoe» va boshqalar shular jumlasidandir.

Sobiq Sho'rolar davrida ko'p sohalarda bo'lgani kabi, o'zbek adabiyotiga munosabat masalasida ham bir yoqlamalikka yo'l qo'yildi. Adabiyot vakillari «saroy adabiyoti vakillari», «diniy-mistik adabiyot vakillari», «progressiv adabiyot vakillari» kabi ajratishlar asosida baholandi. Saroy adabiyoti, diniy-mistik adabiyot vakillari deb nom olgan qator shoirlar merosi yetarlicha o'rganilmadi, nashr etilmadi. Yoki ular ijodi kamsitildi. Ko'pgina badiiy ijod namunalarini xalqqa yetkazishga to'sqinlik qilindi. O'zbekiston mustaqilikkha erishgandan so'ng, o'tmish adabiyotimizga e'tibor kuchaygani bois Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, Imam G'azzoliy, Bahouddin Naqshband, Bobo Xudoydodi Vali, So'fi Olloyor, Haziniy, kabi diniy va tasavvufiy adabiyot vakillari; Husayniy, Shaboniy, Ubaydiy,

Komron Mirzo, Bayramxon, Amiri, Feruz kabi hukmdor tabaqa vakillarining nomlari xalqqa keng ma'lum qilindi. Asarlari chop etildi, munosib hurmat va ehtirom ko'rsatildi.

Ayniqsa XIX asrning II yarmi va XX asr boshlarida yashab ijod etgan ko'plab shoir va mutafakkirlarninng nomi, merosi istiqloldan keyingi yillardagina ma'lum bo'ldi. Bu esa adabiyotimiz tarixiga, uning davr va bosqichlariga yangicha nuqtai nazaridan yondashishni taqozo etdi

Adabiyot tarixi insoniyat tarixining bir qismi sifatida tushuniladi. Insoniyat tarixi esa bir necha turlarga: fuqarolik tarixi, davlatchilik tarixi, madaniy tarix va boshqalarga ajraladi. So'nggisi, ya'ni madaniyat tarixi san'at tarixi, shaharsozlik tarixi kabi qismlarga bo'linadi. Madaniyat tarixining eng unumli sohalaridan biri – san'at tarixidir. Bu tarix, o'z navbatida, san'atning turlaridan kelib chiqib: musiqa tarixi, rassomchilik tarixi, haykaltaroshlik tarixi, raqs tarixi... qatorida Badiiy adabiyot (san'atning turi sifatida), ya'ni Adabiyot tarixiga alohida e'tibor beriladi. Demak, u xalq madaniy tarixining harakatdagi muayyan bir qismi sifatida anglashiladi. Adabiyot tarixi ilk badiiy asarlar(dastlabki og'zaki shaklda mifik tafakkur asosida yaratilgan)dan tortib hozirga qadar o'tgan adabiybadiiy asarlarga, ya'ni adabiy (kengroq ma'noda) ma'naviy merosga nisbatan qo'llaniladi.

Adabiy asarlar yakka shaxslar tomonidan yaratilgan bo'lsa ham yozuv hali shakllanmagan dastlabki davrda jamoaviy xarakterga ega bo'lgan. Ya'ni bir iste'dod tomonidan yaratilgan badiiyat namunalari og'izdan -og'izga o'tishi bilan boyigan, sayqallangan va anonimlashgan, natijada jamoaviy xarakter kasb etgan. Shunday ekan, adabiy asarning yaratuvchisi bir shaxs bo'lishi mumkin, lekin badiiy adabiyotning yaratuvchisi bir kishi bo'lolmaydi. Adabiyot xalq tomonidan yaratiladi. Qaysi xalq vakillari iste'dodliroq bo'lsa, ular o'z iste'dodiga yarasha kuchliroq (badiiy jihatdan) asarlarni ertaroq yaratganlar. Adabiyot tarixi, demak, jamiyat tarixi tarkibida tushuniladi.

Adabiyot tarixini o'rganishni yengillashtirish, har bir tarixiy davrning mohiyatiga chuqurroq kirib borish va o'sha zamonda yashagan adiblar ijodini to'laroq anglash maqsadida davrlashtirish tushunchasiga murojaat etiladi, uning istilohlari va tamoyillari ishlab chiqiladi.

“Davrlashtirish” tushunchasi yoki bu tushunchani tashigan istiloh umumiyligi tarixning boshqa sohalariga nisbatan qo'llanilgani kabi adabiyot tarixiga nisbatan ham ko'proq qo'llaniladi. Shuning uchun “davrlashtirish” deyilganda, uning predikati sifatida (nimani?) milliy adabiyot tarixini (umuman, badiiy adabiyotni emas) davrlashtirish deb ishlatiladi.

Adabiyot tarixini davrlashtirish uchun dastlab adabiy istilohlarni belgilab olish, so'ngra esa davrlashtirish tamoyillarini ishlab chiqish maqsadga

muvofiqroqdir. Ma'lumki, "davrlashtirish" tushunchasi asosida "davr" istilohi yotadi. Biz "davr" deb atagan so'z "zamon", "vaqt", "muddat", "fursat", "davomlilik" kabi ma'nolarni anglatadi. Biroq biz adabiyotshunoslar davrlashtirishga munosabatda "davr" atamasini faol qo'llaymiz, go'yoki boshqa so'zlar atama darajasida ilmiy taomilga kirib kelmagan.

Xorijdan o'zlashgan so'zlar asosida rus tilida davr tushunchasi "period", "epoxa", "stadiya" so'zlari orqali ifodalanibgina qolmay, bu har bir so'z muayyan ma'no qamrovidan kelib chiqib, alohida atamaga aylangan. Mas., "period" nisbatan "kichikroq davrlar"ga nisbatan qo'llanilib, u ko'proq yillar, o'n yilliklar va asrlarga nisbatan ishlataladi. "Epoxa" undan kengroq tushuncha bo'lib, o'z tarkibiga bir necha asrlarni (mas., epoxa srednix vekov – o'rta asrlar (ya'ni, bir necha asr ma'nosida) birlashtirgan. O'zbek tilida esa bu tushunchani, ya'ni bir necha asrlarni qamrab oluvchi "epoxa"ni ham "davr" so'zi orqali anglatamiz. Adabiyotshunoslikda «stadiya» (ayrim ilmiy asarlarda «stadial'naya obshnostъ») tushunchasi bor. Umumjahon adabiyoti tarixining muayyan "davri"ga nisbatan qo'llanilib, uning doirasiga antichnostъ (qadimgi davr), srednevekovъе (o'rta asrlar), Renessans– Vozrojdenie –Uyg'onish (ayrim tarixiy manbalarda Intiboh) va boshqa tushunchalarni ham o'z ichiga qamrab oladi. Biz o'zbek tilida uni ham "davr" deb ataymiz: antik davr, o'rta asrlar, Uyg'onish (yoki intiboh) davri kabi. Demak, biz o'zbek tilidagi adabiyotshunoslik masalalariga munosabatda har uch tushunchani bir so'z, ya'ni "davr" so'zi orqali anglatamiz va yuqoridagi kabi yillarga nisbatan ham (20 -yillar adabiyoti), asrlarga nisbatan ham (XX asr davri adabiyoti) hamda "davriy umumlashma" ("стадиальная")ni men shunday tarjima qildim, agar qabul qilinsa, adabiy istilohga aylanar, qabul qilinmasa, undan-da ishonchliroq boshqa kalima topilar)ga nisbatan ham birgina "davr" so'zidan foydalanamiz. Adabiyot tarixi davrlashtirilayotganda "davr" so'zi zimmasidagi ana shu istilohiy "yuk"larning ayirmasini belgilab olmay turib, davrlashtirish tamoyillarini izlaganda xatoliklarga yoki kamida chalkashliklarga duch kelaveramiz. Albatta, o'zbek (kengroq ma'noda turk) tili boy til, har bir tushunchani aniq ifodalay oladigan o'z so'zlarimiz bor.

**O'zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish muammolari.** Har bir fanda bo'lgani kabi adabiyot tarixi ilmida ham butun va qism munosabati mavjud. Bu avvalambor yaxlit bir jarayon bo'lgan o'zbek adabiyoti tarixini kichik davrlarga bo'lib o'rghanishda namoyon bo'ladi. Adabiyot tarixini mukammalroq o'rghanish, uning har bir bosqichuda yuz bergen hodisalarni maxsus tadqiq etish maqsadida olimlar davrlarga bo'lishni tavsiya etadi. Bu jarayon o'zbek adabiyotshunosligida Abdurauf Fitratdan boshlangan desak xato bo'lmaydi. U o'zining 1927-yilda

yaratgan “O'zbek adabiyoti namunalari” qo'llanmasida adabiyotimiz tarixini ilk bora davrlarga bo'lish tajribasini qo'llab ko'rdi. Fitrat o'z davrining ijtimoiy-siyosiy talab vamafkurasidan kelib chiqib o'zbek adabiyoti tarixini quldorlik, feodalizm va proletariat davri adabiyoti kabi uchta davrga ajratdi.

O.Sharafiddinovning 1948-yilda nashr ettirilgan “O'zbek adabiyoti tarixi” xrestomatiyasida (majmua) davrlashtirish bo'yicha tajribalar davom ettirildi.

Sobiq sho'rolar davri adabiyotshunosligida o'zbek adabiyoti tarixini ikki katta bosqichga ajratish odat tusiga kirgan edi:

Eng qadimgi zamonlardan boshlab XX asrninng boshlariga qadar ya'ni **O'zbek klassik adabiyoti tarixi**.

XX asrninng boshlaridan hozirgi kunga qadar ya'ni **Hozirgi zamon o'zbek adabiyoti tarixi**.

Biroq yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, istiqloldan keyin adabiyotshunosligimizda bir qator jiddiy o'zgarishlar, yirik tadqiqotlar yuzaga kelib, ular natijasida XIX asrning II yarmi va XX asr boshlari adabiyotiga oid yangi mafkuraviy, g'oyaviy badiiy xususiyatlar aniqlandi. Natijada adabiyotimiz tarixini uchta bosqich asosida o'rganish tavsiya etildi:

1. Eng qadimgi zamonlardan XIX asrninng I yarmi ya'ni **O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi**.
2. XIX asrninng I yarmi va XX asrninng boshlari (30-yillari) ya'ni **Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti**.
3. XX asr boshlaridan hozirgi kunga qadar ya'ni **Yangi o'zbek adabiyoti**.

Diniy manbalar va ularning adabiyotga tasiri masalasida xolis fikrlash imkoniyati tug'ilgandan keyin adabiyat tarixini shu mezon asosida davrlashtirish ham taklif etildi. Ya'ni:

1. **Islomga qadar bo'lgan davrdagi o'zbek adabiyoti** (Qadim zamonlartdan milodning IX asrigacha).
2. **Islom ta'siridagi o'zbek adabiyoti** (X asrdan XX asr boshlarigacha).
3. **Yangi o'zbek adabiyoti** (XX asr boshlaridan hozirgi kunga qadar).

Umuman olganda, adabiyot tarixini davrlashtirish muammolidir. Adabiyotni davrlashtirishga nima asos qilib olinadi? Bu savolga aniq javob berish qiyin. Ayrim mutaxassislar adabiyot tarixi bosqichlarini podsholarning, sulolalarining hukmdorlik davri bilan, boshqalari esa yirik tarixiy voqealar bilan bog'lashadi. Ba'zi olimlarimiz, xususan, N.Mallaev o'zbek adabiyoti tarixini, bir tomonidan, jamiyatning umumiy taraqqiyot qonunlari, o'zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy hayotdagi taraqqiyoti, ikkinchi tomonidan, adabiyot tarixi taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlarini: badiiy adabiyotning ijtimoiy mohiyati, vazifasining o'sib borishi, adabiy tur va janrlarning shakllanishi, taraqqiy etishi hamda so'z

san'atining boshqa jihatlari takomiliga xos xususiyatlarni ko'zda tutib bosqichlarga ajratish kerakligini ko'rsatib o'tadi.

N.Mallaevning o'zi oliy o'quv yurti talabalari uchun chiqargan "O'zbek adabiyoti tarixi" darsligida o'zbek adabiyoti tarixini quyidagi davrlarga ajratadi:

Eng qadimgi adabiy yodgorliklar.

X-XII asrlar adabiyoti.

XIII asr va XIV asr boshlaridagi adabiyot.

XIV asr o'rtalaridan XVII asrgacha bo'lgan adabiyot.

XVII asrdan XIX asrning o'rtalarigacha bo'lgan adabiyot.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi adabiyot.

Prof. B.To'xliev adabiyot tarixini quyidagicha davrlashtirishni tavsiya etadi:

Eng qadimgi adabiy yodgorliklar «Avesto», «Alpomish» va b.

Ilk o'rta asrlar adabiyoti («Kultegin» bitiklari va b.)

O'rta asrlar adabiyoti (IX-XVI asrlar)

A.Temuriylar davri adabiyoti.

B.Navoiy va uning davri adabiyoti.

XVII-XIX asrlar adabiyoti.

XX asr adabiyoti. (B.To'xliev. O'zbek adabiyoti. 9-sinf. -T., 2000. 13-b.

Bizninng o'rganadigan ilmimiz "O'zbek mumtoz va milliy uyg'onish adabiyoti tyarixi" bo'lib, u badiiy merosimizning eng qadimgi zamonlardan XX asrning boshlariga qadar bo'lган davrini o'z ichiga oladi.

"Mumtoz" so'zi arab tilidan olingan bolib, lugatda "saralangan, tanlangan, imtiyozli" degan ma'noni bildiradi.<sup>3</sup> "Va Yofas o'g'loniki, Abut-turkdur, tarix ahli ittifoqi bila debturlarki, nubuvvat toji bila sarafroz va risolat mansabi bila qarindoshlaridin **mumtoz** bo'ldi" (A.N. "Muhokamat ul-lug'atayn").

Bu atama XX asrda qo'llanilgan "klassik" atamasi o'mida kiritilgan bo'lib yuqoridagi ma'nolardan tashqari "namunali, namuna bo'la oladigan" degan ma'noni ham ifodalaydi. Demak "mumtoz adabiyot" deganda, aslida qaysi davrda yaratilganligidan qat'i nazar, boshqalardan o'ziga xosligi bilan ajralib turadigan, boshqalar uchun namuna vazifasini bajargan asarlar va ularning ijodkorlari tushuniladi. Biroq "Ozbek mumtoz adabiyoti tarixi" atamasi tarkibida mumtoz so'zi o'zining lug'aviy ma'nosidan tashqari muayyan davr adabiyotining nomini ifodalaydi. Binobarin, unda mazmuni, badiiyati, saviyasidan qat'i nazar ko'rsatilgan davrda (qadim – XIX asrning I yarmi) yaratilgan barcha asarlar nazarda tutiladi. Xuddi shunday, G'afur G'ulom yoki Erkin Vohidovga nisbatan

<sup>3</sup> Alisher Navoiy asarlari tilininiz izohli lu'ati. 4 tomlik. II tom– T: Fan, 1983. 350-bet.

mumtoz (klassik) shoir atamasini qo'llash mumkin bo'lsa-da, ular O'zbek mumtoz adabiyoti vakillari emas.

"O'zbek mumtoz va milliy uyg'onish davri adabiyoti" ilmi oily ta'limninng bakalavriat bosqichi "Filologiya va tillarni o'qitish" yo'nalishida **olti bo'lim** (semestr) **sakkiz davrga** bo'lib o'rganiladi:

### **II semestr:**

1. Islomgaca bo'lgan davrdagi o'zbek adabiyoti yoki antik davr (Eng qadimgi zamonlardan IX asrgacha).
2. IX-XII asrlar o'zbek adabiyoti (Ilk islomiy davlatlar davri).
3. XIII-XIV asrlar (mug'ullar hukmronligi davri).
4. XIV-XV asrning I yarmi (Temuriylar hukmronligininng ilk davri).

### **III semestr:**

5. XV asrning II yarmi adabiyoti (Alisher Navoiy hayoti va ijodi).

### **IV semestr:**

6. XVI asr adabiyoti.

### **V semester:**

7. XVII asrdan XIX asrning I yarmiga qadar (Xonliklar davri o'zbek adabiyoti).

### **VI semester:**

8. XIX asrning II yarmi – ma'rifatparvarlik davri adabiyoti.
9. XX asrning boshlari (30-yillariga qadar) – o'zbek jadid adabiyoti.

Biroq adabiyotshunosligimizda hozircha davr faolroq qo'llanilib turibdi. Payti kelib, yuqoridagi uch ma'nodan biri "zamon" orqali, boshqasi "muddat" (yoki fursat, on v.b.) orqali o'z yechimini topishi mumkindir. Biroq men, umuman, adabiyot tarixini, xususan, o'zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish tamoyillari ishlab chiqilayotganda yuqoridagi uch jihat hisobga olinishining tarafdiriman. Chunki o'zbek adabiyoti tarixi o'zining boy merosi bilan nafaqat turkiy xalqlar yoki Osiyo, balki umumjahon adabiyotining ajralmas qismi hisoblanadi. Shunday ekan, umumjahon adabiyoti tarixini davrlashtirishdagi so'nggi tamoyillarga suyanib ish tutsak, har holda jahon adabiyotshunosligidan ketda (hatto chetda ham) qolib ketmagan bo'lamiz. Demak, davrlashtirish tamoyillariga o'tishdan avval "davr" tushunchasi zimmasidagi bir necha ma'nolar (epoxa, stadiya)ni ham o'zbek adabiyoti tarixiga nisbatan faol qo'llash mumkin bo'lishiga ishonch hosil qilishimiz kerak. Chunki adabiyotimiz tarixi qadimiyligi jihatidan ham, boyligi va istiqboli jihatidan ham boshqa xalqlar adabiyotidan qolishmaydi. Davr (vaqt jihatidan) chegaralanish. O'zbek adabiyoti tarixining davriy chegaralarini aniqlashda biror siyosiy voqeа yoki mashhur hukmdorning davlat tepasiga

kelishi, inqilobiy hodisalar asos qilib olinishi maqsadga muvofiq emas (bu borada o'nlab tajribalar qilingan, bu o'rinda ularning barchasini keltirib, tanqidiy munosabat bildirib, so'ngra o'z qarashlarimni ifoda qilishdan tiyilaman). O'zbek (turk) adabiyoti tarixini davrlashtirish borasida Fuod Ko'prulu, Abdurauf Fitrat, Miyonbuzruk Solihov, Vohid Zohidov, Natan Mallaev, Xoliq Ko'ro'g'li, Aziz Qayumov, Begali Qosimov va boshqa ustozlarning bu boradagi tasniflarini inobatga olgan holda, menimcha, badiiy adabiyot tarixiy davrlarining chegaralari ham adabiy hodisalar

asosiga quriladi. Adabiy hodisani yuzaga chiqaruvchi ob'ekt adabiy asar bo'lsa, uning

yaratuvchisi adabiy siymo hisoblanadi. Shuning uchun ham har qanday adabiy davr mana shu ikki tushuncha bilan bog'liq holda istifoda etilishini nazarda turib, ayrim adabiy asar (mas., "Avesto" yoki "Qutadg'u bilig") yoki adabiy siymo (mas., Alisher Navoiy davri

ilmiy istilohda bor) davr tushunchasini belgilashda muayyan rol o'ynaydi.

Shularni inobatga olgan holda, adabiyotimiz tarixining dastlabki katta davriy umumlashmasi (europacha aytganda, stodialnaya obshnostъ) mumtoz adabiyot shakllangunga qadar (F.Ko'pruluga ko'ra, islomga qadar) kechgan adabiy hodisalar

alohida o'rganilishi kerak. Bunda eng qadimgi davrlardan tortib Mahmud Koshg'ariyning

"Devonu lug'atit turk" asariga kirgan ulug' turkshunos olimga zamondosh bo'lgan

adiblarning asarlarigacha qamrab olinish lozim.

Ikkinchi davriy umumlashma sifatida mumtoz adabiyotning shakllanishi va taraqqiyoti olinadi, bu "Qutadg'u bilig"ning yaratilish davridan XX asr boshlarigacha,

to'g'rirog'i, "Padarkush" dramasining sahnaga chiqishiga qadar davom etadi.

Uchinchi davriy umumlashma jadid (yangi) adabiyoti bilan boshlanib (boshlangich

asar nomi yuqorida tilga olindi) XX asr adabiyotini to'la qamrab olgan holda, Istiqlol

davri adabiyotini ham o'z tarkibiga olib hozirgi kunga qadar davom etadi.

Bu Yangi

adabiyot umumiyligi bilan o'rganiladi. Bu o'rinda har bir davriy umumlashma adabiytarixiy davrlarga bo'linishi mumkin va lozimligini unutmaslik kerak.

Postsovet

hududlarida markscha ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar nazariyasidan uzoqlashishni ko'zda

tutgan "Adabiy davrlar o'zgarishida poetika kategoriyalari" («Kategorii poetiki v smene

literaturnix epox»)(1) jamoa tadqiqotida "Evropa hududiga kirmagan adabiy "maydonlar"ni hisobga olish lozimligi haqida gap boradi. Unga ko'ra, folklor an'analari

hukmron bo'lgan, mifopoetik adabiy tafakkur asosiga kurilgan, adabiy "kanon"lar hali

yaratilmagan davrlarni alohida o'rganish lozimligi qayd etilgan. Bu holat turk (o'zbek)

adabiyotining boshlang'ichiga ham taalluqli bo'lib, qat'iy poetik kategoriylar shakllangunga qadar kechgan jarayonlarni alohida o'rganish nazarda tutildi.

Barcha turkiy tildagi manbalar va jahon tillaridagi ilmiy adabiyotlarning tan olishicha, o'zbek (turkiy) mumtoz adabiyotining nisbatan shakllangan, e'tirof etilgan

mashhur namunasi – "Qutadg'u bilig"dir. Shunga ko'ra mumtoz yozma adabiyotning

bevosita shakllanish davrini Yusuf Xos Hojib Bolosog'uniy asarining tug'ilishidan

belgilash lozim bo'ladi. Uning umrini, taraqqiyot davri esa yangi adabiyotning boshlanishi hisoblangan "Padarkush" (Behbudiy) dramasigacha kechgan davra to'g'ri keladi. Chunki "Qutadg'u bilig"dan "Padarkush"gacha yaratilgan barcha adabiy-badiiy asarlarda yuqorida tilga olganimiz belgi-xususiyatlar mujassam etilgan. Ular mumtoz adabiy qonuniyatlar va kategoriylar asosida yaratilgan. Bu oraliqdagi asarlarda til birligi, yozuv birligi, adabiy shakllar (nasr va nazm) va janrlar birligi, hatto she'riy asarlarda vazn birligi (aruz) va yagona qofiya tizimi (arab yozuvidagi harflar va harakatlar asosiga qurilgan) mavjud.

Shuning uchun davlashtirish uchun muhim omillar izlaganda, Til birligi (davlat tili

masalasi). Yozuv birligi (arab alifbosi asosidagi eski o'zbek yozuvi). E'tiqod birligi

(islom). Ifoda shakllari (nasr, nazm) birligi. Yozma adabiyotda (aruz – nazm, nahv - nasr) mavjud janrlar birligi. Qofiya tizimi birligi. Poetik vositalar birligi kabi jihatlarni alohida o'rganish asosida davlashtirish xususida qat'iy bir fikrga kelish mumkin (bu jihatdan birgina hudud birligi doirasida to'xtalaman).

Hudud birligi (milliy adabiyotning tarqalish geografiyasi). Milodning V–VI asrlariga kelib, turkiy xalqlar yashaydigan hudud yagona Turk xoqonligi

sifatida birlashdi. Bu hudud janubda O'rxun daryosidan (Mo'g'uliston) to shimoliy dengizlargacha, g'arbda Idil (daryosi) bo'yłari va Yoyiq (tog'i) etaklaridan tortib Uzoq Sharqdagi Saxalin (saxa -caqasak-shaklar yashaydigan hudud)ga qadar cho'zilgan makon ekani e'tirof etilgan. Mana shu yagona makonning tub aholisi sifatida turkiylar tan olingen va ularning tili o'zaro muomalada tushunilishi mumkin bo'lgan, bir oilaga mansub bo'lgan turkiy til ekanligi allomalar tomonidan isbot etilgan (garchi uni Mahmud Koshg'ariyga ko'ra, xoqoniy turkchasi, g'arbliklarga ko'ra chig'atoy tili, XVI asrdan keyin davlat tepasiga o'zbek qabilalarining kelishi bilan o'zbek tili deb yuritilgan bo'lsa-da) ayniyatdir. To'g'ri, tashqi urushlar, ichki nizolar, migratsiya v.b. ta'sirida uning chegaralari o'zgarib turishi mumkin.

Lekin milodiy VIII asrdan boshlab turkiy xalqlarning ota yurti sifatida Markaziy Osiyoning e'tirof etilishi va mana shu hudud tub aholisining turkiylar ekanligi uning til birligini ham e'tirof etishga olib keladi.

Yuqorida aytilgan fikrlar asosida O'ZBEK ADABIYOTI TARIXIning taraqqiyot davrlarini quyidagicha belgilash mumkin deb hisoblayman:

**ISLOMGACHA BO'LGAN ADABIYOT** (mumtoz adabiyotning shakllanishigav qadar kechgan davrda yaratilgan manbalar, g'arb istilohi bilan aytganda, doklassik davr).

Qadimgi mif va afsonalar. Xalq qo'shiqlari.

“Avesto”

O'rxun-Enasoy obidalari.

Moniylik va Buddaviylik ruhidagi adabiyot

**MUMTOZ ADABIYOT**

Islomiy ruhdagi ma'rifiy-ta'limi adabiyot.

Somoniylar davri adabiyoti

Chag'oniyon adabiyoti

Qoraxonlilar davri adabiyoti

Saljuqlilar (xorazmshohiylar) davri adabiyoti

G'aznaviylar davri adabiyoti

Adabiyotga sof san'at, san'atkorlik nuqtai nazaridan qarash.

Chingizzon istilosи davri

Oltin O'rda adabiy muhit

Temuriylar davri adabiyoti (bu o'rinda Hindiston va Afg'onistonda boburiylar qurgan markazlashgan davlat hududida o'zbek adabiyoti rivoj topganini va boburiylar saltanati bevosita temuriylar sulolasining davomi ekani nazarda tutiladi). Xonliklar davri adabiyoti (adabiy muhitlararo adabiyot) Buxoro xonligi (amirligi)

Xiva xonligi  
 Qo'qon xonligi  
 Mustamlaka davri adabiyoti  
 Turkiston hududi  
 Buxoro xonligi (vassalligi)  
 Xiva xonligi (vassalligi)  
**YANGI ADABIYOT** (postklassik davr).  
 Jadid (ayrim manbalarda Milliy uyg'onish davri) adabiyoti  
 Sho'ro adabiyoti  
 Istiqlol adabiyoti  
 Tabiiyki, ushbu tasnifda ham yetarlicha asoslanmagan yoki tugal talqinini topmagan jihatlar bo'lishi mumkin. Biroq biz o'zbek olimlari endi "kutib turish pozitsiyasi"dan biroz oldinga siljib, ayni maqsad yo'lida birgalikda harakat qilish zarur.

### GLOSSARIY

**ADABIYOT** – (arabcha ادبیات – adab so'zining ko'pligi) – keng va tor ma'nolarda ishlataladi. Keng ma'noda fan va amaliyotning biror sohasi yutuqlarini umulashtiruvchi asarlar majmuiga nisbatan qo'llaniladi: texnikaviy adabiyot, qishloq xo'jaligi adabiyoti, siyosiy adabiyot kabi. Tor ma'noda inson va voqelikni badiiy so'z orqali chizilgan obrazlar vositasida aks ettiruvchi san'at turini anglatadi, u badiiy adabiyot deb ham yuritiladi. Adabiyot avval og'zaki shaklda mavjud bo'lgan, yozuv paydo bo'lgach, yozma shaklga o'tgan. Adabiyot so'z orqali inson tuyg'u va kechinmalarini, uni qurshab turgan ijtimoiy hayot va tabiatni butun murakkabligi bilan ifodalash imkoniyatiga egadir.

Shuning uchun ham u san'atning boshqa turlariga qaraganda ommaviyroq hisoblanadi.

Adabiyotning etakchi uch turi – epos, lirika va drama mavjud bo'lib, badiiy asarlar mana shu uch tur asosidagi janrlarda yaratiladi. Keyingi paytlarda adabiyotshunoslikda paremik tur haqida ham mulohazalar bildirilmoqda Badiiy adabiyot san'atning boshqa turlari kabi milliyligi, xalqchilligi va zamonaviyligi bilan xarakterlanadi. Shunga ko'ra adabiyot har bir xalq madaniyatining tarkibiy qismi sanaladi.

**ADABIYOT NAZARIYASI** – adibiyotshunoslik fanining asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Badiiy adabiyot, uning jamiyat hayotida tutgan o'rni va ahamiyati, yaratilish qonuniyatları, taraqqiyot bosqichlari,badiiy asarning

tasviriy hamda ifoda vositalari, tarkibiy tuzilishi, adabiy tur va janrlarni, adabiy jarayon xususiyatlarini o'rganadi. Adabiyot nazariyasi so'z san'atining ijodiy tajribalariga tayangan holda ish

ko'radi, o'z nazariy xulosalarini turli davrlarda yaratilgan eng sara badiiy javohirlar

tahlilidan, tarixiy-adabiy jarayonni o'rganishdan keltirib chiqaradi.

Adabiyot nazariyasi uzoq tarixga ega fanlardan biridir. Mazkur fan Sharqda asosan

uch yo'nalishda rivojlangan. Bular – aruz ilmi, qofiya ilmi va balog'a ilmi, ya'ni she'riy

san'atlar haqidagi yo'nalishlardir.

Muhammad bin Umar ar-Roduyoniyning «Tarjumon ul-balogs'a», Rashididdin Vatvotning «Hadoyiq us-sehr fi daqoyiq ush-she'r», Shayx Ahmad ibn Xudoydod

Taroziyining «Funun ul-balogs'a», Alisher Navoiyning «Mezon ul-avzon», Boburning

«Muxtasar», Husayn Voiz Koshifiyning «Badoe' ul afkor fi sanoe' ul-ash'or», Atoulloh

86

Husayniyning «Badoi' us-sanoi'», Vohid Tabriziyning «Jam'i muxtasar» kabi asarlarida

aruz she'riy tizimi, qofiya hamda uning turlari va she'riy san'atlar alohida-alohida

o'rganilgan.

O'zbek adabiyotshunosligida tom ma'nodagi adabiyot nazariyasi XX asrning 20-yillarida shakllandi. Bu davrda Fitrat tomonidan yaratilgan «Adabiyot qoidalari» kitobida

badiiy adabiyotning o'ziga xosligi, ijtimoiy tabiat, adabiy tur va janlar, syujet,

kompozitsiya, badiiy nutq va mahorat masalalari bo'yicha yaxlit ma'lumotlar berildi.

Keyinchalik Abdurahmon Sa'diy, Izzat Sulton, H.Yoqubov, M.Yunusov, M.Qo'shjonov

kabi olimlar tomonidan olib borilgan nazariy izlanishlar ushbu fan taraqqiyotiga katta

hissa bo'lib qo'shildi.

**ADABIYOT TARIXI** – adabiyotshunoslik fanining mustaqil tarkibiy qismi bo'lib,

unda biror xalqning adabiyoti, uning yuzaga kelishi, taraqqiyot bosqichlari, har bir

davrning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etiladi. Adabiyot tarixi tarix, tilshunoslik,

xalqshunoslik, tarixiy geografiya fanlari bilan yaqin munosabatda bo'ladi. Adabiyot tarixi

shuningdek, adabiyot nazariyasi va fol'klorshunoslik bilan ham uzviy aloqadordir. Chunki

har bir xalq adabiyoti zamirida og'zaki ijod manbalari muhim omil sanaladi. Adabiyot

tarixi ayni vaqtida janrlar va uslublar, ijodiy metodlar tarixi hamdir. Bu holat uning

adabiyot nazariyasi bilan ham mushtarak soha ekanligini isbotlaydi.

**ADABIYOTSHUNOSLIK** – badiiy adabiyot va uning mazmun mohiyati, o'ziga

xos xususiyatlari, paydo bo'lish va rivojlanish bosqichlari, ijtimoiy vazifalari, ijodiy

jarayon qonuniyatlarini o'rganuvchi fandir. Adabiyotshunoslik bir-biri bilan chambarchas

bog'langan – adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi va adabiy tanqid bo'limlaridan tashkil

topgan.

Mahmud Qoshg'ariyning «Devoni lug'ot it-turk» asaridagi xalq og'zaki ijodi namunalari haqidagi muayyan fikrlar, ilmiy-tektologik qaydlar adabiyotshunoslikka

mansub ilk qarashlar sanaladi.

Adabiyotshunoslik ilmiga oid kuzatuvalar hisoblanmish Abu Nosir Forobiyning «She'r san'ati» (X asr), Abdulqodir Jurjoniyning «Asror ul-balogs'a fi ilmi bayon (Bayon

ilmida balog'at sirlari» (XI asr), Qays Roziyning «Kitob ul mo'jam fi maiori ul -ajam

(Ajam she'riyati me'yorlari qomusi)» (XIII asr) asarlarida badiiy asar tabiat, tili, muallif

87

mahorati kabi masalalar yoritiladi.

Adabiyotshunoslik tarixida Zamaxshariy (1075-1144), XII asrda yashagan shoir va adabiyotshunos Nizomiy Aruziy ibn Umar Samarqandiy, XIV asr ijodkorlari Atoulloh

Husayniy, Xondamir, Vosifyi asarlari muhim o‘rin egallaydi.

Milliy adabiyotshunoslik taraqqiyotida Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziyining

«Funun ul-balogs‘a», buyuk so‘z ustasi Alisher Navoiyning «Majolis un -nafois», «Mezon

ul-avzon», «Holoti Pahlavon Muhammad», «Holoti Sayyid Hasan Ardasher», «Hamsat

ul-mutahayyirin» singari asarlarida badiiylik san’ati, ijodkor va badiiy ijod, so‘z oldida

mas’ullik, aruz she’riy tizimining nazariy va amaliy masalalari qalamga olinadi.

Shuningdek, Zahiriddin Muhammad Boburning «Muxtasar», Zokirjon Xolmuhammad

o‘g‘li Furqatning «Aruz haqida risola» asarlari ham o‘zbek adabiyotshunosligidagi muhim

manbalardir. O’tmishda adabiyotshunosligida she’rshunoslik katta nufuzga ega bo‘lgan,

bu soha asosan uch yo‘nalish (ilmi aruz, ilmi bade’ va ilmi qofiya)dan tarkib topgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi matbaachilik tarqqiyoti o‘zbek adabiyotshunosligi uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Hoji Muin, Mirmuhsin

Shermuhamedov, Behbudiy, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat, Ashurali Zohiriya va

Vadud Mahmud kabi mualliflarning turli janrga mansub tadqiqotlarida adabiyot va uning

ijtimoiy funktsiyasi masalasiga urg‘u berildi.

Ijtimoiy ongning barcha sohalarida bo‘lganidek, XX asr, aniqrog‘i, sho‘rolar hukmronligi davridagi mafkuraviy zug‘um va ijtimoiy biqiqlik adabiyotshunoslik fanida

ham o‘z ifodasini topdi. Mumtoz adabiyotga munosbat, davr adabiyoti namunalari talqini,

adabiy jarayonni baholash kabi masalalarda sinfiy va partiyaviy tamoyillar etakc hilik

qildi. Shunga qaramay, XX asrda adabiyotshunoslik ilmi mustaqil fan sifatida shakllandi,

uning uchala bo‘limi – adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid sohalarida jiddiy

yutuqlarga erishildi: turli mualliflar tomonidan mongrafiya, darslik, qo'llanma va risolalar yaratildi.

Zamonaviy adabiyotshunoslik fani shakllanishi va takomilida Abdulhamid Cho'lpon, Abdurauf Fitrat, Abdurahmon Sa'diy, Otajon Hoshim, Vadud Mahmud, Oybek,

Izzat Sulton, Natan Mallaev, G'ulom Karimov, Ozod Sharafiddinov, M atyoqub

Qo'shjonov, Nuriddin Shukurov, Ummat To'ychiev, Umarali Normatov, Anvar

88

Hojiahmmedov, Begali Qosimov, Baxtiyor Nazarov, Bahodir Sarimsoqov, Najmuddin

Komilov, Dilmurod Quronov singari olimlarning tarixiy, nazariy va amaliy xarkterdagi

asarlari e'tirofga loyiqidir.

**ADABIY ASAR** – boshqa og'zaki yoki yozma bitiklardan o'zida muallifning badiiy

mahorati belgilarini jamlagani bilan ajralib turuvchi ko'rkaradigan adabiyot mahsuloti.

Mazmunan bir butunlik va tugallikka ega, muayyan g'oyaviy-badiiy va estetik maqsadga

yo'naltirilgan adabiy asar ijodkor va kitobxon orasidagi hissiy-intellektual vositadir.

**ADABIY MAKTAB** – biror bir buyuk so'z san'atkori ijodining boshqa ijodkorlar uchun badiiy mahorat maktabi vazifasini o'tashi. Hirot adabiy muhitida aksariyat adi blar

Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy atrofiga to'planib, ular ijodini mahorat maktabi

sifatida e'tirof qilishgan bo'lsalar, XX asr Markaziy Osiyo yozuvchilarining katta

ko'pchiligi realistik asar yaratishda Abdulla Qodiriyga ergashganlar. Shuning uchun ham

adabiyotshunosligimizda «Navoiy maktabi», «Qodiriy maktabi» kabi tushunchalar

shakllangan.

**FILOLOGIYA** – (yunoncha philologia – so'zni sevish) tilshunoslik, adabiyotshunoslik,

matnshunoslik, manbashunoslik, paleografiya kabi gumanitar fanlar hamkorligidan tarkib

topgan umumiy fan.

Turkiy xalqlarda filologiya qadimda maxsus fan sifatida qaralmagan bo'lsa-da, unga

oid juda ko'plab asarlar – lug'atlar, grammatikalar, adabiyotshunoslikka oid risolalar,

tazkiralar, turkiy xalqlar tarixi va etnografiyasiga do ir kitoblar yozilgan. Maxmud

Qoshg'ariy (XI asr) turkiy filologiya fanining asoschisidir. Uning «Devonu lug'otit turk»

asarida bu fanning deyarli barcha sohalari – turkiy tillar leksikasi, fonetikasi,

morfologiyasi, turkiy tillar tasnifi, turkiy xalqlarning og'zaki ijodi kabi masalalar

yoritilgan. O'z zamondoshlari tomonidan «jorulloh» (Ollohnning qo'shnisi) laqabini olgan

Mahmud Zamaxshariy (XI-XII asrlar) adabiyotshunoslik, tilshunoslik, fol'klorshunoslik

kabi fanlarga oid 50 dan ortiq asar yaratib, filologiya fani taqqiyotiga sezilarli hissa

qo'shdi. Alisher Navoiyning «Muhokamat ul-lug'atayn», «Mezon ul-avzon», «Majolis

un-nafois», Boburning «Muxtasar» va «Boburnoma», Shayx Ahmad Taroziyoning «Funun

ul-balogs'a asarlari, XIII-XIX asrlar orasida nomi mashhur yoki noma'lum mualliflar

tomonidan yaratilgan ko'p tillik lug'atlar milliy filologiyaning takomilini ta'minladi.

89

Hozirgi filologiya til va adabiyotni o'rganishning yangi-yangi muammolarini o'rta ga

tashlab, yangi-yangi metodlarni ishlab chiqmoqda, ijtimoiy hayotning barcha davrlariga

xos yozma manbalar bilan uzviy bog'langan holda rivojlanmoqda, filologik tadqiqotlar

mavjud manbalarga chuqur ilmiy va tanqidiy nuqtai nazardan yondashgan holda olib

borilmoqda.

### **Adabiyotlar:**

1. Сирожиддинов III. Ўзбек мумтоз адабиётининг фалсафий сарчашмалари. – Т.: Янги аср авлоди, 2011.
2. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari / Majmua. (1-jild) Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi: N.Rahmonov. – T.: Fan, 2005;
3. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари / Мажмуа (2-жилд). Тузувчи, изоҳ ва шарҳлар муаллифи: Н. Раҳмонов. – Т.: Фан, 2007.
4. Юсупова Д. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи (Алишер Навоий даври). Ўқув кўлланма. – Т.: Akademnashr, 2013.
5. Қосимов Б. Миллий уйғониш. –Т.: Маънавият, 2002.
6. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Дарслик –Т.: Маънавият, 2004.
7. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. – Т.: O'zYU Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
8. Раҳмонов Н. Руҳиятдаги нур муроди. - Т.: 2002.
9. Раҳмонов Н. Ўзбек адабиётини даврлаштириш масалалари. –Тошкент: “Мумтоз сўз”. - Т.: 2016.
10. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. - Т.: 2005.
11. Шарқ мумтоз поэтикаси Ҳ.Болтабоев талқинида. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008.
12. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. –Т.:Ўзбекистон, 2014.
13. Аверинцев С.С., Андреев М.Л., Гаспаров М.Л., Гринцер П.А., Михайлов А.В. Категории поэтики в смене литературных эпох. – М., 1994.
14. Аверинцев С.С., Андреев М.Л., Гаспаров М.Л., Гринцер П.А., Михайлов А.В. Категории поэтики в смене литературных эпох. – М., 1994.

### **2-MAVZU:**

**Mumtoz adabiyotning paydo bo'lishi va shakllanishidagi asosiy omillar, manbalar. Mumtoz she'r.**

### **REJA:**

1. Mifologiya va uning yozma adabiyot taraqqiyotidagi o'mni, xalq og'zaki ijodi

- va mumtoz adabiyot munosabati, tarjima adabiyoti va mumtoz adabiyot.
2. Islomgacha bo'lган turli diniy oqimlar (zardushtiylik, moniylik, buddaviylik va b.)ning yozma adabiyot yuzaga kelishidagi roli.
  3. Mumtoz adabiyotning falsafiy-nazariy manbalari.
  4. Diniy manbalar, irfon va falsafa, tarix va boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligi. Qur'oni karim va hadisi sharif badiiy ijodning bosh manbasi sifatida.
  5. Didaktik adabiyot va uning vakillari
  6. Mumtoz she'r haqida.

Kalit so'zlar: paydo bo'lish va shakllanish, omil, mifologiya, og'zaki ijod, mumtoz adabiyot, diniy-falsafiy manbalar, didaktik adabiyot.

Movarounnahrning jug`rofiy jihatdan qadimiylar tsivilizatsiyalar chorrahasida joylashgani bu o'lkada qadimgi Hind, Eron, Iraq va Xitoy xalqlari falsafiy qarashlarining bir makonda umumiylashuvi va uyg`unlashuviga yaxshi zamin yaratgan. Shuning natijasi bo`lsa kerak, bu erda islom kirib kelishidan ilgari aholi o`rtasida mistik-ilohiyot ilmi sezilarli ta`sir kuchiga ega bo`lgan. IX asrning ikkinchi yarmi X asrning birinchi yarmida Samarqandda yashab o`tgan buyuk mutakallim olim Abu Mansur Moturidiy asarlarida moniylar va zardushtiylar bilan olib borgan kalom bahslari shundan darak beradi. Demak, Movarounnahrda islom yagona va mutlaq hukmron mafkuraga aylangan bir davrda ham aholi o`rtasida islomgacha bo`lgan mistik qarashlar kuchli bo`lgan. Shubhasiz, islomda falsafa atalmish fan sohasining shakllanishida nafaqat yunon faylasuflarining asarlari ta`siri bo`lganligi, balki mahalliy mistik-ilohiyot g`oyalarining muayyan o`rni borligi haqida ham gapirish mumkin. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalarini tahlil qilar ekanmiz, badiiyatnnig murakkab qobiqlariga o`ralgan falsafiy g`oyalar, borliq muammosining o`ziga xos echimlari, Olam va Odam munosabatlari mavzusi o'zbek xalqining tafakkur ko`lamlari butun Sharq falsafasidan oziqlanganini his etamiz.

Al-Kindiy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino va ularning izdoshlari ilmiy faoliyati yunon falsafasini islomlashtirish va mahalliy mistik qarashlar bilan uyg`unlashtirishda hal kiluvchi bo`g`in bo`ldi. Ushbu bo`g`in vakillari mashshoiy (peripatetik) faylasuflar deb ataldi. G`arbda ularni yunon faylasuflaridan ajratib turish uchun «al-falsafa ahli» deb atadilar. Islom olamida «al-falsafa ahli» metafizik hodisalarni o`rganadigan yagona oqim bo`lib qolmadi. Islom Yaqin Sharq, Xuroson va Movarounnahrga kirib kelgandan so`ng ham mahalliy aholi ongida o`z yashovchanligini saqlab qolgan mistik tafakkur uchqunlari IX-X asrlarga kelib shiddat bilan rivojlana boshladi. Iroqning Basra, Shom o`lkasining Damashq va Halab, Xurosonda Nishapur va Balx, Movarounnahrda Termiz va Samarqand kabi qadimiylar tsivilizatsiya beshiklarida mistik ta`limot markazlari vujudga keldi.

Iraq va Shom mistika markazlari tasavvuf markazlari sifatida mashhur bo`ldilar. Nishapur va Balx maktablari malomatiylik markazi sifatida tanildi.

Movarounnahrda mistik qarashlar tarixiga nazar tashlaydigan bo`lsak, bu o'lkada XIII asrgacha Iraq va Nishapur so`fiylarining ta`siri sezilmaydi. Har holda hozircha qo`limizda buni tasdiqlaydigan manbalar yo`q. Balki keyingi taddiqotlar bu masalaga

oydinlik kiritar. Biroq, bu Movarounnahrda mistik maktablar bulmagan degan fikri anglatmaydi. Termizda yashab faoliyat ko'rsatgan olim Hakim Termiziylar ilmiy merosi bu davrda Movarounnahrda mistik ilmlar taraqqiyoti ravon kechganligini ko'rsatadi. Hakim Termiziylar Nishapur malomatiylari asarlarida sufiy deb e'tirof etilmagan. Buning sababi sufiylikning Iroq bilan bog'langanligidadir. Hakim Termiziyning islom dini, mistik -ilohiy mazmunga ega 50 dan ortiq asari fanga ma'lumdir. Uning ilmiy merosi xorijiy sharqshunoslar, jumladan, Annimari Shimmel', Anton Heynen, Berndi Radtke, Hasan Murod kabi olimlar tomonidan keng o'rganilgan.

Berndi Radtke Hakim Termiziyni Balx mistika maktabining obro'yli vakillaridan bo'lgan Ahmad bin Xizruya (X asr) shogirdlaridan deb hisoblaydi. Balx maktabi malomatiylik harakatining markazi bo'lgan Nishapur maktabi bilan juda yaqin aloqalarga ega bo'lgan. Hakim Termiziyning kosmologik qarashlari o'ziga xos. Anton Heynen ularni islom kosmologiyasi sifatida taqdim etgan bo'lsa -da, bu erda ko'proq ungacha saqlanib qolgan an'anaviy mahalliy mistik qarashlar ta'siri seziladi.

Unga ko'ra, Yaratilgai olam Arshi a'lodan tortib etti osmon va etgi samoviy jismdan quyida joylashgan dunyo balig'i ustidagi zaminni qamrab olgandir. Olam tuzilishining ushbu modeli mashhur «Tabariy tarixi» kitobida ham berilgan. B orliq tuzilishiga bunday yondashuvni Berndi Radtke mantiqiy-fantastik deb ta'riflaydi. Radtke to'g'ri ko'rsatganidek, metafizika hissiy kuzatuvlarni bayon etadi, ular orasida mantiqiy munosabat o'rnatadi. Mistika esa ruh tajribasini bayon etadi, uning kechinmalariga, mushohadalariga mantiqiy javob berishga harakat qiladi. Mistik ham faylasuftabiiyotshunos kabi o'zi yashayotgan va faoliyat ko'rsatayotgan muhit madaniy an'analari doirasidan chiqsa olmaydi. Shuning uchun ham, Hakim Termizi koinot tuzilishi ba yonida yunon antik koinot modelidan emas, Markaziy Osiyo xalqlari mistik tafakkurida saqlanib qolgan va majozda ifodalangan baliq timsolidai foydalangan. Mistiklarning X asrda mavjud bulgan Samarkand maktabi haqida hozircha bir nima deyish kiyii, chunki bu mintaqadagi mistika maktablari endi o'rganilayotir. Ammo ba'zi manbalarda Balx mistika maktabining oxirgi vakili Muhammad b.al-Fazl Balxiy o'z vatanidan quvg'in kilinganda to'g'ri Samarqandga ko'chib kelgani haqida ma'lumotlar uchraydi. Ushbu fakt bu erda Balx va Termiz mistika maktablari bilan yaqin aloqada bo'lgan markaz mavjud bo'lganligini tasdiqlaydi. Movarounnaxrda mistik ma'rifat masalalari tasavvuf rivoji bilan bog'liq bosqichda yanada yorkinroq ko'rindi. Ma'lumki, Alloh borligi, Borliq tuzilishi, Alloh va inson o'rtasidagi munosabatlar tizimi haqidagi bilimlar so'fizmda ikki yo'l orqali egallanishi qayd etiladi. Birinchisi «Jazba», ikkinchisi «Suluk» deb ataladi. Jazba yo'nalishi o'z ixtiyorini qo'ldan bergen oshiqlik kismati hisoblanadi. Bu yo'lga inson o'z istagi bilan kira olmaydi. U muayyan bir komil pir tomo nidan muroqaba orqali rom etilishi yoxud to'g'ridan-to'g'ri Alloh jazbasiga nishon bo'lishi mumkin. Keyingi holatni boshdan kechirganga majzub deyiladi. Bunday odamlar bir sabab tufayli Alloh ishqiga mubtalo bo'ladilar va butun inon-ixtiyorlarini qo'ldan beradilar. Majzublar atrofdagilarga butunlay beparvo, dunyo ishlariga befarq bo'lib qoladilar. Ular Allohnini ko'rish va u bilan birga bo'lish istagida Illohiy haqiqatni anglashga, o'z ma'rifatini oshirishga jiddiy harakat qila boshlaydi. Ular kamolot kasb etish yo'lida bir pirga bog'lanib qolmaydilar. Ular turli mashhur pirlarga murid tushib, ularning bor ilmlarini egallahsga harakat qiladilar, so'ng yanada kuchliroq pirlar tomon oshiqadilar. Kamolot maqomlarining ba'zi pillapoyalarida

ularga ustoz pirlarning hojati qolmaydi. Majzublar o`z holatlarining dastlabki bosqichlarida qattiq ibodat va meditatsiya bilan mashg`ul bo`ladilar, so`ng ularning holati og`irlashgan sari ibodat va shariatni tark etadilar. Tasavvuf tarixida Mansur Halloj kabi siymolar jazba yo`nalishida mashhur bo`lgan buyuk shaxslar hisoblanadilar.

Movarounnaxrda yashab o`tgan majzublarping eng mashhuri Boborahim Mashrabdir (XVII asr). Bu yo`nalish nazariyasi mashhur so`fiy Boyazid Bistomiy nomi bilan bog`liq. U yunon falsafasidagi «ishq» va «vahdat» tushunchalarini mistik platformada sharhlab, «sukr» (mastlik) kontseppiyasini ishlab chiqqan ilk mutafakkirdir. Tasavvufda «tavhid harakatini Boyazid ekkan» degan gap shundan qolgan. Unga ko`ra, so`fiy o`z takomilida shunday darajaga erishadiki, mistik ekstaz holatida ruhan afsonaviy g`ayb olamiga sayohat qilishi mumkin. O`shanda u o`zining ilohiy mohiyatini ko`radi va Alloh vujudiga daxldor ekanligini biladi. Butun borliq Alloh vujudida mavjudligini kuzatadi. Ushbu voqelik tasavvufda «Haqiqat» deb ataladi. Shunda inson haqiqatni anglashdan olgan zavq va shavkdan chunonam mast bo`ladiki, transdan chiqqandan keyin ham o`zining moddiy olamdagи vazifalariga qayta olmaydi. U jisman moddiy olamda yursa ham, fikran g`ayb olamida sayr qiladi. Allohga talpinib yashaydi. Vahdat kontseptsiyasi XII asrda ispaniyalik mutafakkir so`fiy Ibn Arabiy tomonidan «Fusus- al-hikam» asarida tugal ta`limot darajasiga etkazildi. Bu ilohiy tajalliyot nazariyasi dir. Alloh tajalliyotda o`zini ko`rsatadi. Inson sezgilari «ilohiy nur» bo`lgan ilohiy tajalliyotni his etishi mumkin. Ilohiy mohiyat, Alloh inson kalbida yashirin. Iisonning johilligi shundaki, u Alloh o`z qalbidaligini unutib qo`ydi. Shariat qonun-qoidalariga zohiran rioya qilish bilan, islam farzlarini bajarish bilan Alloh ma`rifatiga erishib bo`lmaydi. E`tiqod qalbda bo`lishi lozim. Qalb bir vaqtning o`zida ham ilohiy bilimlar xazinasi, ham mistik bilish organi hisoblanadi. Qalb xuddi ko`zgu kabi ilohiy nurni aks ettiradi, unda Alloh qiyofasini ko`rish uchun yaxshilab tozalash kerak. Allohga bo`lgan Ishq va Ezgulik inson qalbining musaffoligini ta`minlaydi.

Suluk - bu muayyan pir rahnamoligida qat`iy intizomga asoslangan tarbiya yo`lidir. Unda mistik bilish, riyozat chekish, nafsni o`ldirish, tun -kun bedorlikda ibodat bilan mashg`ul bo`lish, faqat zikr va murokaba natijasida yuzaga chiqariladi. Solih pir tarbiyasiga kirar ekan, mashoyihlar kayd etganidek, o`zini «gassol qo`lidagi murda» singari tasavvur qilishi va pir o`gitlarini so`zsiz bajarishi lozim bo`ladi. Bu yo`nalishga Junayd Bag`dodiy (X asr) qarashlari asos bo`lgan. Uning iitilishlari mistik bilimga erishish jarayonini nazoratga olish, bu harakatlarni shariat qobig`idan chiqib ketishiga yo`l qo`ymaslikka qaratilgan. Uning ta`limoti saxv (xugayorlik) ta`limoti deb ham ataladi. U turli ruhoniy-psixologik mashqlar va meditatsiyani pir-ustoz boshchiligidida o`tkazilishini qat`iy qoidaga aylantirdi. Uning asosiy g`oyasi shundan iboratki, inson ruhiy hol maqomlardan yuksalib, Alloh ma`rifatiga erishgan paytda o`zligini unutib yubormasligi, balki hushyorlikni qo`ldan bermasdan, yana o`zining holatiga qaytmog`i lozim. Aks holda, u ko`rgan g`ayb haqikati ma`nosiga yaxshi tushunmaydigan avom xalq unga erishib shariat qonun-qoidalarini tan olmay qo`yishi mumkin. Junayd Bag`dodiy Alloh ma`rifatiga da`vogarlar oddiy hayot kechirishi, uylanmaslik, faqirlilik, siyosatga bee`tibor bo`lish, barcha kiyinchiliklarga sabr va sukut bilan javob qaytarish orqali nafsn engishni targ`ib etdi. Bu ikki yo`nalish X asrgacha bir-biri bilan raqobatda bo`lgan. Ammo tariqatlar shakllanib bo`lgach, keyingi asrlarda kelishmovchilikka asos bo`ladigan

tamoyillar qayta ko'rib chiqilib, tasavvuf ta'limoti asoschilarining nomlarini kamsitis h tabu qilingan. Jumladan, Xoja Baxruddin Naqshband Boyazid Bistomiy ta'limotini qoralamagan, jazba suluk orqali tarbiya etilishi lozim deb hisoblagan. Movarouinahr tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, XV asrdan e'giboran mintaqada har ikki yo'nalish muntazam rivojlanib borganligini ko'ramiz. Shuni alohida eslatib o'tish lozimki, bugungi kungacha tasavvuf irfoni va tariqatga doir ko'plab manoqib adabiyotlarida aks etgan so'fiylar va shariat ahli o'rtasidagi raqobat va muholifat syujetlari ko'pchilik o'quvchilarda tushunmovchilik uyg'otishi tabiiy. Tadqiqotlarda mavhum berilgan va bizning tasavvurimizda noaniqlik kasb etgan so'fiylar bilan shariat ahli o'rtasidagi ixtilof muayyan tarixiy bosqichlarga xosdir hamda ilohiyotga oid qarashlardagi farqlardan kelib chiqqan. Movarounnahrdagi diniy-mistik qarashlar tarakqiyotida bir necha bosqichlar bo'lgan. Masalan, keyinchalik shariat ulamolari ulug'lagan kalom ilmi X asrgacha shariat tomonidan bid`at ta'limot sifatida qoralangan edi. Peripatetik deb atalmish yunonl ashgan falsafaning kuchayishi shariat ahlining kalom bilan quronishiga olib keldi va shu tariqa kalom shariat ilmlaridan biriga aylandi. XI-XP asrga kelib, o'z davrining yirik mutakallim olimi Imom Razzoliyning hamlalaridan so'ng peripatetik falsafa taraqqiyoti tanazzulga yuz tutdi. Biroq, falsafa yo'qolib ketmadi. Faylasuflarning qarashlarida ustuvor bo'lgan mistik-metafizik qarashlar XIII asrdan e'tiboran so'fiylar orasida tobora ommalashib borayotgan Ibn al-Arabiyning (1165-1240) «Vahdat ul-vujud» (Yagona Borliq) mistiklohiy ta'limoti mag'ziga singdi. Tobora chuqurlashib borayotgan va keng qatlamlarga

ta'siri kundan-kunga ziyoda bo'layotgan ushbu ta'limot shu davrgacha umumiy qarashlar, harakatlar va an'analar asosida faoliyat ko'rsatib kelayotgan so'fiylar dunyosini alg'ovdalg'ov qilib tashlash bilan birga ularni ikki lagerga bo'lib tashladi. Tasavvuf nazariyasi bir-biriga jiddiy muholif bo'lgan ikki yo'nalishda rivojlana boshladi. Biri falsafani omuxtalashtirgan holda, ikkinchisi kalomni. Birini «Vahdat ul-vujud», ikkinchisini «Vahdat ul-shuhud» deb nomladilar. Birinchisi «Ishq» orqali kamolotga erishish va Alloh ma'rifatini kashf orqali anglash yo'llarini, ikkinchisi shariatga rioya qilish, pir-ustozning qat'iy nazorati ostida islom ahkomlaridan og'ishmay, Allohnini tanish va bilish yo'lidan borishni targ'ib etdi. Vahdati shuhud so'fiylari bir taraf, «Vahdat ul-vujud» tarafdarlari ikkinchi taraf, o'zaro raqobatda bo'ldilar. Chunonchi, Aloud -davla as-Simoniy (1261-1336) Ibn al-Arabiy ta'limotini xalqni adashtiruvchi va o'ta zararli deb e'lon qildi. Unga binoan, Olam Haqning tajalliyasi emas, balki in'ikosidir. Ma'rifat faqat shariatga muvofiq harakat qilingandagina hosil bo'lishi mumkin. Inson Ilohiy mohiyatni o'qib -o'rganish orqali emas, balki ruhoniy mashqlar, muroqaba va mujoqada, riyozat vositasida takomillashib, ruhoniy maqomlardan ko'tarilish natijasida anglashi lozimdir. Shunisi yanada ahamiyatlici, nazariy farqlar tasavvuf tariqatlari orasida ham mafkuraviy murosasizlikni vujudga keltirdi. «Vujudiylar» g'oyalalarini maslak qilgan tariqatlar paydo buldi. «Shuhudiylar» ichida bir-biri bilan yuzko'rmas bo'lgan tariqatlar paydo bo'ldi. Ularning bir-birlariga munosabatlari manoqib adabiyotlarida to'la aks etgan.

Markaziy Osiyo mintaqasida XV asrgacha Ibn al-Arabiyning ta'limoti keng tarqalganini tasdiklovchi ma'lumotlar hozircha qo'limizda yo'k. Zotan, mintaqada shakllangan yassaviya va xojagon tariqatlari harakatida mistiklarning g'ayb olami sir sinoatlarini erkin sharhash tendenpiyasini jilovlashga qaratilgan ortodoksal islomiy

qarashlariing ustuvorligi, ularning mintaqasi mafkuraviy makonida tobora kuchayib borayotgan ta'siri «Vahdat ul-vujud» ta'limotining targ'ibotiga yo'l bermagan bo'lishi mumkin. Tariqatlarning Olam tuzilishi, Alloh yaratilmalari va haqiqatni anglash (ma'rifat) yo'li haqida o'z ta'limoti bor edi. Xususan, XIV asrda Xoja Bahouddin Muhammad Naqshband ma'rifatga Muhammad Payg'ambar sunnatlariga qat'iy rioya qilish, halol 96

mehnat va qattiq ibodat orqali erishishga da'vat etdi. U xojagon tariqatidagi mistik ma'rifatga erishish garovi bo'lgan meditatsiyaning to'rt mashhur tamoyilini o'n bittaga etkazdi. So`fiylarga uylanish va tirikchilik maqsadida dehqonchilik, hunarmandchilik kabi halol kasblar bilan shug'ullanishga ruxsat berdi. Xoja Bahouddin Nakshband Movarounnahrda mafkuraviy etakchilikka erishish maqsadida yassaviya silsilasini naqshbandiya bilan birlashtirishga uringani ayrim manoqiblardagi ma'lumotlardan seziladi. Uning diniy xurfikrlilikka asoslangan jazba yo'nalishini inkor etmagan ligi ham barcha sufiylarni naqshbandiya tariqati nomi bilan bog'lashdan manfaatdorligidan kelib chiqqan bo'lishi mumkin. Buni Xoja Bahouddinning o'z xalifasi, iqtidorli olim Xoja Muhammad Porso suluk va jazba yo'llarida ta'lim bergani haqidagi e'tirofi tasdiklaydi. Bu davrlarda naqshbandiyalar o'zlarining fundamental g'oyalariga asos bo'lgan Junayd Bag'dodiy qarashlariga bir mucha o'zgartirish kiritdilar. Vujudiylarning ta'limoti Xoja Porso tomonidan naqshbandiya g'oyalariga uyg'unlashtirildi. Xoja Axror (XV asr) tomonidan so`fiylarning siyosatga aralashuvi va xayriya maqsadlarida mol -mulk yig'ishi qonuniylashtirildi. Keyinchalik Mahdumi A'zam Ahmad Kosoni (XVI asr) so`fiy hukmdorlar g'oyasini ilgari surdi. Amir Temur va uning meroshorlari diniy mutaassiblikdan yiroq shaxslar bo'lib, ilohiyot ilmlariga katta qiziqish bilan qaraganliklari tufayli XV asrdan boshlab Illohiy ishq, Alloh va Olam, Inson va Koinot munosabati haqidagi ta'limotlar Movarounnahr va Xuroson o'lkalariga shiddat bilan kirib kela boshladi. Bu avvalo, she'riyat maydonida yuz berdi. Ziyolilar toifasi she'riy satrlar haqida pinhon bo'lgan falsafiy mulohazalar, g'ayb olami sir-sinoatlarni talqinida o'zarusmusobaqaga tushib ketdilar. Natijada, she'riyat «Vahdat ul-vujud» ta'limotini targ'ib etish vositasiga aylanib qoldi. Mavlaviylar va xurufiyalar g'oyalarining ziyolilar o'rtasida tarqalishi shu davrlarda ilk marta ko'zga tashlandi. Hatto ayrim temuriy hukmdorlar ham ularga xayrihohlik bilan qaraganlar.

Xoja Porso ham o'z navbatida, Movarounnahrda so`fiy qarashlarini aks ettirgan bir necha ilmiy asarlar yozdi. Jumladan, uning «Fasl ul-xitob» asari Movarounnahr so`fizmining temuriylar sulolasini davridagi etakchi g'oyalarini o'zida aks ettirgan nodir manbadir. Ayni shu asar XVI asrdan boshlab Jaloliddin Rumi qarashlarining naqshbandiya tariqati yig'inlarida o'rganilishiga imkon berdi. Temuriylardan keyingi davrlarda Movarounnahrda adabiyotning g'oyaviy yo'nalishlari uch asosiy manbara suyanganligini ko'rish mumkin. Bular diniy-aqidaviy masalalari o'z ichiga olgan kalom ilmi, tariqat odobi va tamoyillarini belgilab beruvchi so`fiy adabiyotlari va nihoyat, Vahdat nazariyasini ochib beruvchi ishqiy-falsafiy adabiyotlardir.

XU1-XIX asrlar O'zbekiston hududidagi adabiy doiralarda Abdulqodir Bedil she'riyatining sevib o'qilishi «Vahdat ul-vujud» ta'limotining shahar joylarida keng tarqalganligini ko'rsatadi. Naqshbandiya tariqati ta'siri ostida bo'lgan qishloq hududlarida esa, «masnaviyi ma'naviy»ning naqshbandiyona talqini va tafsirini hisobga olmagand a,

kalom g`oyalari adabiyot yo`nalishini belgilab kelgan.

#### MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. O'zbek mumtoz adabiyotining shakllanish manbalarinin ayting?
2. Qur'on g`oyalaring badiiy ijodga ta'siri qanday bo'lgan?
3. Hadisi sharifda bayon etilgan fikrlar to'g'risida nimalarni bilasiz?
4. Diniy mazmundagi asarlar bilasizmi?
5. Payg` ambarlar tarixiga bag`ishlangan kitoblardan qaysilarini bilasiz?
6. Avliyo va shayxlar hayotini aks ettiruvchi kitoblar.
7. Mumtoz adabiyotda qissaxonlik haqida gapirib bering?
8. Mumtoz adabiyotning falsafasiy sarchashmalari nimalarda ko`rinadi?
9. Mumtoz adabiyotda irfoniy ishq falsafasi deganda nimani tushunasiz?.

#### GLOSSARIY

**ASOTIR** – mif, qadimgi kishilarning koinot va tabiat hodisalarining paydo bo'lishi, mohiyati haqidagi tushunchalari asosida yaratilgan xayoliy asarlar. Ilk asotirlar kecha va kunduz, yil fasllarining almashishi, zilzila, sel va bo'ronlar, suv toshqinlari va qurg'oqchilik kabi tabiiy hodisalar haqida qadimgi ajdodlarimiz tasavvurini ifodalagan.

Asotirlar bir necha turlarga bo'linadi. Bular: 1) etiologik asotirlar – tabiat hodisalari, tabiatda u yoki bu narsaning paydo bo'lishi haqidagi asotirlar; 2) kosmogonik asotirlar – dunyoning paydo bo'lishi, koinot jismalari haqidagi asarlar; 3) etnografik asotirlar – biror xalq, qabila yoki urug'ning kelib chiqishi to'g'risida asotirlar; 4) antropogonik asotirlar – insoniyatning paydo bo'lishi xususidagi asotirlar; 5) esxatologik asotirlar – insoniyat, umuman tamaddun kelajagi haqidagi asotirlar va hakozo.

Asotirlar o'z taraqqiyoti bosqichlarida animizm, totemizm, manizm kabi ilohiy qarashlar va ibtidoiy kishilarning turli kul'tlariga xos g`oyalari bilan oziqlangan. Shuning uchun ham asotirlar juda murakkab tabiatga va ziddiyatlarga egadir.

**AFSONA** – (forscha فَسْنَا – hikoya) xalq og'zaki ijodi janri. U xayolot, uydirma va to'qimadan iborat bo'lsa ham, so'zlovchi va tinglovchi tomonidan haqiqatdek tasavvur etiladi, hatto ba'zi afsonalarda voqealar bo'lib o'tgan vaqt va makon ham ko'rsatiladi. Afsonalar eldan-elga, og'izdan-og'izga o'tib yuradi, ifoda usuli bayon tarzida bo'ladi.

Rivoyatlardan farqli o'laroq afsonalarda, albatta, mo‘jiza, sehr-jodu bilan bog'liq hodisalar mavjud bo'ladi.

Afsonalarni sof mifologik hamda tarixiy voqealari haqidagi turlarga ajratish mumkin. Birinchi turkumga «Odami Od», «Anbar ona», «Hazrati Hizr», ikkinchi turkumga «Devqal'a», «Ilon buzgan», «Kalta Minor», «Shirin qiz» singari afsonalar kiradi.

**ZULLISONAYN** – (ولیسانینز) – ikki tillik) ikki tilda muvaffaqiyatli qalam tebratgan shoirlarga nisbatan qo'llaniladigan atama. Mumtoz she'riyat vakillarining ko'pchiligi o'zbek tili bilan bir qator fors-tojik tilida ham ijod qilganlar. Xorazmiyning «Muhabbatnomá»sidagi 11 nomaning uchtasi, Alisher Navoiyning «Devoni Foniý» to'plami va yana 10 ta qasidasi,

Nodiraning bitta devoni, Ogahiy, Muqimiy va Komil Xorazmiy kabi shoirlarning ko'plab g'azallari fors-tojik tilida bitilgani fikrimiz dalilidir. Zullisonaynlik – ikki tilda ijod qilish xalqlar do'stligi va adabiyotlar hamkorligini mustahkamlovchi yaxshi an'ana sanaladi.

#### Adabiyotlar

1. Сирожиддинов Ш. Ўзбек мумтоз адабиётининг фалсафий сарчашмалари. – Т.: Янги аср авлоди, 2011.
2. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari / Majmua. (1-jild) Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi: N.Rahmonov. – T.: Fan, 2005;
3. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари / Мажмуа (2-жилд). Тузувчи, изоҳ ва шарҳлар муаллифи: Н. Раҳмонов. – Т.: Фан, 2007.
4. Юсупова Д. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи (Алишер Навоий даври). Ўқув қўлланма. – Т.:Akademnashr, 2013.
5. Қосимов Б. Миллий уйғониш. –Т.: Маънавият, 2002.
6. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Дарслик –Т.: Маънавият, 2004.
7. Раҳмонов Н. Руҳиятдаги нур муроди. - Т.: 2002.
8. Раҳмонов Н. Ўзбек адабиётини даврлаштириш масалалари. –Тошкент: “Мумтоз сўз”. - Т.: 2016.
9. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. - Т.: 2005.
10. Шарқ мумтоз поэтикаси Ҳ.Болтабоев талқинида. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008.
11. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. –Т.:Ўзбекистон, 2014.
12. Аверинцев С.С., Андреев М.Л., Гаспаров М.Л., Гринцер П.А., Михайлов А.В. Категории поэтики в смене литературных эпох. – М., 1994.
13. “Бадиий матн таҳлили ва талқин муаммолари” илмий анжуман материаллари. Тошкент, 2012.

**3-MAVZU****An'anaviy mavzu va obrazlar, badiiy uslub tushunchasi**

REJA:

1. Mumtoz she'rning mumtoz nasrdan farqli jihatlari.
2. O'zbek mumtoz adabiyotining tur va janrlari. Lirik tur. Lirik turga mansub janrlar.
3. Devon, bayoz va tazkiralar – mumtoz adabiyotni o'rganishda muhim manbalar. Devon, bayoz tuzish vatazkirachilik tarixidan.
4. O'zbek mumtoz adabiyotida obrazlar sistemasi (lirik asar, epik asar misolida). An'anaviy obrazlar genezisi va tadrijiy takomili.
5. Мумтоз адабиётда услугуб тушунчаси.
6. Mumtoz adabiyotdagi asosiy uslubiy yo'nalishlar. Xuroson, iroq, hind uslublari. Uslublar sintezi.
7. Mumtoz adabiyotda she'riy va nasriy u slub, "xos uslub" va "omma uslubi" haqida tushuncha (Miyon Buzruk). Mumtoz adabiyotda "turkiston uslubi" va "xuroson uslubi"ning shakllanishi va rivoji.
8. Xalq kitoblarining paydo bo'lish sabablari va adabiy jarayon. Xalq kitoblari va ijodkor shaxsiyati. Xalq kitoblarida folklor syujetlari va individual ijod o'rtasidagi munosabatlar. "Xalq adabiyoti" tushunchasi.

Kalit so'zlar: mumtoz she'r, adabiy tur, lirik va epik tur, janrlar, devon, bayoz, tazkirachilik. услугуб, хуросон услуби, ироқ услуби, хинд услуби, синтез, хос услуб, омма услуби, халқ китоблари ва ижодкор шахсияти

Adabiyotshunoslik ilmiga oid teran qarashlar Forobiining «She'r san'ati...» kitobida mufassal bayon qilingan (10- Adabiyotshunoslik). Unda she'riy asarning yaralish tabiat, ijodkor shaxsi va mahorat muammolari, so'z qadri xususida fikr yuritiladi. 11- Adabiyotshunoslikda yashagan adabiyotshunos olim Abdulqodir Jurjoniyning «Asror ulbalofa fi- ilmi bayon» («Bayon ilmida balofat sirlari») asarida so'z san'atidagi shakl va mazmun masalasiga alohida urfu berilsa, 13-Adabiyotshunoslikda yashagan qomusiy olim Kays Roziyning «Kitob ul-mo''jam fi-maoyiri ash'or il-ajam» («Ajam she'riyati me'yordi qomusi») kitobida nazariy masalalar — aruz tizimi, poetik san'atlar, she'riy janrlar tahlil etilgan. Kaykovusning «Qobusnama»sidan (11-Adabiyotshunoslik) esa, she'r jamiyatning turli qatlamlari estetik talablaridan kelib chiqib yaratilishi, badiiy asar, albatta, ta'sirchan bo'lishi lozimligi haqidagi mulohazalar o'rinni olgan.

Adabiyot tarixi yo'nalishida muayyan xalq (xalqlar, mintaqa, jahon) badiiy adabiyotining tarixiy taraqqiyoti hamda yozuvchi -shoirlarning hayot va ijod yo'li chuqur o'rganiladi. Jumladan, o'zbek milliy adabiyoti bosib o'tgan uzoq tarixiy yo'l, zamon, siyosat va adabiy jarayon munosabatlarining o'ziga xosliklari, u yoxud bu ijodkorning ushbu jarayonga ko'rsatgan ta'siri yuzasidan ko'plab tadqiqotlar yaratilgan. adabiyotshunoslik tarixida 12-Adabiyotshunoslikda yashagan shoir va adabiyotshunos Nizomiy Aruziy ibn Umar Samarqandiy, 15-Adabiyotshunoslikda adabiyotshunos olim Atoulloh u1202 .usayniy, Zamashshariy, Xondamir, Vosifiy asarlari muhim ahamiyatga

egadir. O'zbek adabiyotshunosliging takomili Navoiy (q. Alisher Navoiy) ijodiy faoliyati b-n chambarchas bofqilq. O'zbek tilidagi tazkira janriga asos solgan «Majolis un-nafois» («Go'zal majlislar») ilk o'zbek adabiy qomusi hisoblanadi. Ushbu asarda Navoiy deyarli yarim asr mobaynida o'ziga zamondosh bo'lgan 469 shoir, olim, bastakor, hattot, she'riyat homiylari haqida ma'lumot beradi, badiiy mahorat, san'atkorning ijtimoiy burchi, poetik janr masalalarini yoritadi. Navoiyning «Holoti Pahlavon Muhammad», «Holoti Sayyid Hasan Ardashev», Jomiyga barfishlangan «Xamsat ul-mutahayyirin» («Besh hayrat») singari asarlari adabiy portretning dastlabki namunalaridir. Uning «Mezon ul-avzon» («Vaznlar o'lchovi») asarlarida aruzning nazariy, amaliy masalalari tadqiq etilgan. Husayn Boyqaro esa, o'z navbatida, Navoiyning betakror mahorati, u yaratgan adabiy muhit, davr adabiy jarayoni haqida ma'lumot beruvchi risola yaratgan. Zahiriddin Muhammad Bobur «Muxtasar» kitobi b-n Navoiydan so'ng aruz ilmi tadqiqini yangi bosqichga ko'tardi. Bu kitobda aruzning 20 dan ortiq bahri, 530 dan ortiq vazni haqida ma'lumot beriladi. O'zbek adabiyotshunosligining keyingi davrlardagi yo'naliishini, asosan, tazkiralar belgilaydi. Jumladan, 19-Adabiyotshunoslik boshlarida Fazliy rahbarligida she'riy shaklda yaratilgan «Majmuai shoiron» («Shoirlar guruhi») tazkirasi Qo'qon xoni saroyiga to'plangan ijodkorlar haqida nisbatan to'liq ma'lumot beradi. Ahmad Tabibiyning she'riy shakldagi «Majmuat ash-shuaroi Feruzshohiy» («Shoh Feruz shoirlari guruhi») hamda «Muhammasoti majmuat ush-shuaroi Feruzshohiy» («Shof Feruz shoirlari guruhining muxammaslari») tazkiralarida ijodkorlarning asarlari janrlarga b o'lib o'rganiladi (20-asr boshi). Birinchisida fazallar, ikkinchisida muxammas va musaddaslar tahlil etiladi. Matbuot va noshirlik ishlarining rivoji 19-asr oxiri — 20-asr boshlarida o'zbek tanqidchiligi, adabiyotshunosligi uchun yangi u1080 imkoniyatlarni vujudga keltirdi. Ayniqsa, adabiy tanqidda uyfonish ro'y berdi — harakatdagi adabiy jarayonni, yozuvchi ijodini, adabiy muammolarni davrning ma'naviy va estetik talablari, ommaning ruhiy ehtiyojlaridan kelib chiqib o'rganish, adabiyot taraqqiyotidagi, ijo dkor mahoratidagi yangiliklarni kashf etish, kamchiliklarni baholi qudrat ko'rsatish boshlandi. Hoji Muin, Mirmuhsin Shermuhamedov, Behbudiy, Abdulhamid Cho'lpon, Abdurauf Fitrat, Ashurali Zohiriy, Vadud Mahmudlarning maqolalarida so'z san'ati oldida turgan muhim ijtimoiy vazifalarga urfu berildi, adabiyot rivojini millat, Vatan, istiqpol, mustaqil yurt uchun kurashuvchi yangi insonni tarbiyalash masalalari b-n borlashga harakat qilindi. Cho'lponning «Adabiyot nadur?» (1914) maqolasida o'rtaga tashlangan «Adabiyot yashasa — millat yashar» degan foya milliy uyfonish uchun ham da'vat bo'ldi. 20-y.lar o'rtalarigacha adabiyotshunoslik, asosan, adabiy tanqid doirasida faoliyat ko'rsatdi. Shu paytlardane'tiboran sho'ro hukumati uni o'z yo'rifiga sola boshladi. Ijod mahsulini baholashda mafko'ra, o'tkinchi siyosat bosh mezonga aylandi. Adabiyot va Adabiyotshunoslikdan bir yoqpama (markscha) dunyoqarash b-n qurollanish, voqelik va uning badiiy in'ikosi bo'l mish san'atga faqat sinfiy kurash, sho'rolar mafkurasi nuqtai nazaridan turib yondashish talab qilindi. Bularga qo'shimcha, mumtoz adabiy merosdan voz kechish tamoyili hukm surdi. Yassaviy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Hofiz, Rumiy, Huvaydo singari shoirlar yaratgan ma'naviy mulk o'quvchiga keraksiz, hatto, ziyorli deb e'lon qilindi. Abdurauf Fitrat, Otajon Hoshim kabi adabiyotshunoslар bunday qarashlarga qarshi chiqib, madaniy merosni himoya qilishgaurindilar. Shu yillari, muayyan kamchiliklardan holi bo'lmasada, dastlabki nazariy qo'llanma — adabiyotshunos Abdurahmon Sa'diyning «Amaliy, ham nazariy adabiyot darslari» (1924) yaratildi. Fitratning «Adabiyot qoidalari» (1926) darsligida esa o'z davri Sharq va Farb adabiyoti

nazariyasi muammolari yoritildi. Shu muallifning «O'zbek adabiyoti namunalari» kitobida O'rxun-Enisey bitiklari, «Alpomish», «Kitobi dadam Qo'rqt», «Devonu lufotit turk»dan parchalar berildi, Yassaviy, Boqirroniy, Lutfiy, Atoiy, Navoiy, Bobur asarlaridan misollar keltirildi. 20-y.lar oxiri — 30-y.lar boshlarida sho'ro adabiy siyosatida partiyaviy tazyiq ostida sinfiy dushman axtarish ruhi kuchaydi, ijod erkinligi bo'fildi, vulgar sotsiologizm ko'rinishlari avj oldi. Abdulla

Qodiriyning «O'tgan kunlar», «Mehrobdan chayon» romanlari zararli asar deb, muallifning o'zi esa burjua adibi deb qoralandi. 30-y.lar o'rtasidan markaz Yozuvchilar uyushmasi qurultoyining qarori b-n rasmiy kuchga kirgan

sotsialistik realizm metodi haqidagi aqidaning keng joriy etilishi oqibatida o'zbek adabiyotshunoslikga partiyaviylik, sinfiylik, rovaviylik, shaklan milliy, mazmunan sotsialistik degan tushunchalar chuqur singib bordi. Mumtoz adabiyotga munosabatda uni saroy adabiyoti, diniy-klerikal adabiyot, reaktsion yoxud progressiv deya bir xalq adabiyotini ikkiga ajratib talqin etish, ijodkorlar va ularning merosini sinfiy qarshil antirish tamoyili urfga kirdi. O'ziga xos yondashuv va tahvilni talab etadigan Yassaviy, Boqirroniy, Boyqaro, Mashrab, Huvaydo, Amiri, Feruz (Muhammad Rahimxon) kabi shoirlar merosi batamom qoralandi, ular ijodini o'rganish deyarli man qilindi. Sho'ro mafkurasingin

zurumi, tanqid va adabiyotshunoslikning jiddiy xatolari tufayli Abdulla Qodiri, Cho'lpon, Fitrat, So'fizoda, Elbek, Botu, Usmon Nosir singari shoir va yozuvchilar, Otajon Hoshim, Vadud Mahmud kabi adabiyotshunoslari jisman yoxud ma'nан mahv etildilar. O'sha yillardagi nisbatan ijobiy faktlar sifatida So'fizoda, Oybek, Fafur Fulom, Hamid Olimjon haqida adabiy portretlar yozilganini, Izzat Sultonning «Adabiyot nazariyasi» darsligi va b. monografiyalar nashr etilganini qayd etish mumkin. Biroq 40 -y.lar oxiri — 50-y.lar boshlarida adabiyotshunoslik fani kosmopolitizmga qarshi kurash, yagona oqim, konfliktsizlik nazariyasi deb nomlangan xato yo'llarni bosib o'tishiga ham to'gri keddi. Ayni shu yillari Oybek, Maqsud Shayxzoda va b. mualliflarning tarixi y yo'nalishdagisi asalari yaratildi.

Tasavvufning Sharqda keng tarqalishiga bois, uning arab,fors va turkiy tillarda buyuk bir she'riyatni vujudga keltirganidir. VIII – XI asrlarda Robia Adaviya, Mansur Halloj singari ulug' so'fiylar ijodi bilan boshlangan so'fiyona ash'or X-XII asrlarga kelib ulkan bir adabiyotga aylandi, o'ziga xos obrazlar, timsollar olami, alohida ramzlar, uslub va usullar shakllandi. Tasavvufning pok ilohiy ishq haqidagi, Haq va haqiqat, najib insoniy xislatlar, kamolot kasb etish haqidagi g'oyalari she'riyat g'oyalari aylandi-shoirlar qizg'in bir ruh, ko'ngil amri bilan irfoniy g'oyalarni kuyladilar, hisobsiz lirik she'rlar, jahonga mashhur dostonlar, qissalar yaratildi. Tasavvufning behudlik va ishq konsepsiysi, soflik,adolat va haqiqat timsoli-Mutloq ilohga muhabbat zavqi ijod ahliga qattiq ta'sir etdi, insoniyat g'ami bilan qalbi dardga to'lgan isyonkor ruhdagi shoirlarni bir ohangraboday o'ziga tortib, o'rtanishli, his-hayajonga serob ajoyib she'riyatni vujudga keltirdi. Bu she'riyatning markaziy qahramoni-rindi bebok, Mansur Halloj e'tiqodiga imon keltirgan, o'zini barkamollik cho'qsisida ko'rgan, ruhan ozod kishi edi.Uning zavqi, iztirob-kechinmalari, xayoliy romantik olamga intilishi maxsus ifodalar va ko'p ma'noli ramziy iboralar bilan tasvirlanadigan bo'ldi. Xo'sh, ramz o'zi nima? Ramz ( arabcha so'z bo'lib, imo , ishora, imlash degan ma'noni anglatadi) – simvol; ko'chim turlaridan biri, faqat shartli ravishda va shu matn doirasida ko'chma ma'no kasb etuvchi so'z y oki so'z birikmasi; obrazlilik turi. Ramz mohiyatan allegoriyaga yaqin, undan farqi shuki, ramz kontekst doirasida ham o'z ma'nosida, ham ko'chma ma'noda qo'llanadi. Ramzning Ma'nosini kontekst doirasida va shartdan xabardorlik bo'lganda reallashadi.

O'zbek mumtoz adabiyotining yorqin nomoyondasi hisoblangan Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" va "Lison ut-tayr" asarlari so'fiyona-falsafiy ma'nolar she'riy satrlar, badiiy ifodali til bilan talqin etilishdan tashqari yana juda ko'p masal va hikoyatlar, ramziy tashbehtar keltirilib, kitobxonga sharhlab berilgan. "Mantiq ut-tayr" va "Lison uttayr" kabi dostonlarda ishtirok etuvchi personajlar ham ramziy: Hudhud -pir timsoli bo'lsa, o'ttiz qush solik muridlar timsolidir. Attor va Navoiy tasvirlagan yetti vodiy esa solik ruhining yetti xil tovlanuvchi manzarasi- Illoha vosil bo'lish bosqichlari, ma'rifat zinalarini bildirib keladi. Dostondagi Shayx San'on qissasi va o'nlab hikoyalaridan chiqadigan xulosa ham bitta: olam – borliq Ollohnning zuhuridan iboratdir. Qushlar ( odamlar) Simurg'ni izlab ( ya'ni Xudoga yetishish uchun ) yo'lga chiqadilar. Xudoni izlashga umr sarflaydigan darveshlar yetti riyozat bosqichidan ( Talab, Ishq, Ma'rifat, Istig'no, Tavhid, Hayrat, Faqru Fano ) o'tadilar va ruhga aylangach, Xudo bilan qovishadilar. Go'yo Ollo – quyoshdir, olamdag'i barcha narsalar va odamlar – uning nur zarralaridirlar. Tug'ilish – zarraning quyoshdan uzilib, nurga aylanib ketishi; o'lim esa – zarraning asliga qaytib quyosh bag'riga yetishidir.

Shoirlar adabiyotning ramzlar ifodasi uchun qulayligidan foydalanib, o'z asarlarida uch xil ishq haqida ham so'z yurita beradilar. Lirik qahramon xudo ishqida yonyaptimi, majoziy muhabbatga giriftormi yoki pok muhabbatda o'rtamoqdami o'quvchi ana shularni o'zi farq eta olmog'i kerak.

Boy, rang – barang mumtoz she'riyatimizning asl tarovat – u purma'nolarini to'g'ri idrok qilmoq uchun tasavvuf ta'limotidan xabardorlik, tasavvuf istilohlarini ya'ni ma'shuqa, ishq, may, sharob, boda, soqiy, piri mayxona, piri ishq, jom, qadah, lab, bo'sa, vasl ahli, darvesh, butxona, xarobat, mayxona, kofir, ko'ngil, lomakon, tajalli, nafs, dunyo, jonon, vahdat mayidan mast bo'lish, oshiq, aysh – ishrat, xarobat ahli, faqirlik, gulzor kabi ramz va timsollarni bilish zarur. Sharq xalqlari tafakkuri tarixida chuqur ildiz otgan tasavvuf ta'limotini yaxshi bilmay turib, tasavvuf adiblarining dunyoqarashi va adabiy merosini barcha murakkabliklari, falsafiy teranligi bilan to'liq holda, haqqoniy yoritib berish mushkul. Ularning ijodiy merosi- yaxlit bir adabiy voqelik, beba ho ma'naviy xazina. Shunday ekan, shoир asarlarida uchraydigan ishq, may, mayxona, xarobot, soqiy, sog'ar, qadah, xum, mahbub singari ko'pdan - ko'p kinoya – timsollar, ramziy ma'noli so'zlar va ular orqasida yotgan yashirin ma'nolar asrori ham shoир ijodi yaxlit bir butunlikda olib tekshirilib, olam va odam haqidagi mushohada – mukoshifalari ichida sharhlansagina, mazmuni kerakli darajada aniq oydinlashishi mumkin. Tasavvuf adabiyotining ulug'vorligi shundaki, unda zohiriya va botiniy ma'nolar, ya'ni ishq haqiqiy va ishq haqiqiy tasvirlar bir –biriga halaqt bermaydi, balki bir – birini to'ldirib, quvvatlab turadi. Boshqacha aytganda, ishq haqiqiy tasviridan ishq majoziy tasviriga yoki aksincha holatga oson o'tiladi, kitobxon goh u ma'nodan, goh bu ma'nodan, go h har ikkisidan zavqlana oladi.

Tasavvuf she'riyatida tadbiq etilgan ifoda vositalari – tashbih, istiora, ramz va ta'birlar she'rning g'oyaviy – badiiy tarkibini ochishga xizmat qiladigan yoki yordam beradigan "belgi" – "ko'rsatgich" vazifasini bajaradi. Shunga ko'ra ular asl ma'nosida she'rxonga deyarli yangilik bermaydi. Buning bir sababi, tasavvufiy she'rlarda yangilik, zohiriymas, botiniy ekanligi bilan izohlansa, ikkinchi sababi, ularda majozning hal qiluvchi vazifani bajarishidir. Majozning mohiyatini to'g'ri ochish va aniq tushuntirish oson ish emas. Majoz – ko'rinxaydigan narsalarni ko'rsata bilish, belgi va timsollar vositasida mavhum yohud sirli tuyilgan haqiqatlarni suvratlantirish san'ati. Shuning uchun ham I.Kant majozni "Yaratuvchi xayol kuchi " ning mahsuli deb ta'riflagan.

Majoziy obrazlar ustunlik qilgan she'rlarda, hatto shoирning o'zi ko'zlagan yoki

o'ylaganidan ham ancha ko'p va keng mazmun aksini topadi. Bu xususiyat, ayniqsa, tasavvufiy she'rlar uchun juda xarakterli.

Ammo mo'jizalar mo'jizasi – badiiy so'z lazzatini tuyib, ruhiy halovat olish uchun uni chuqur idrok etmoq, asar ma'nolarining butun nozik jihatlarini qat-qatigacha tushunib yetmoq lozim. Ayniqsa, so'z san'tini g'oyat baland qadrlagan va til, uslub to monidan bizdan ancha uzoqlashib qolgan klassik shoirlarimizning majoz va istioralari, o'ziga xos yo'sinda pardalangan ma'nolarga boy asarlarini tushunish, o'qib- uqish xiyla qiyinchiliklar tug'dirayotganligi sir emas. Olimlarning tadqiqotlari, "Xamsa" dostonlarining nasriy bayonlari, alohida nashrlar uchun tuzilgan izohlar, "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati" mushkulimizni bir qadar osonlashtirgan bo'lsa ham, tasavvuf she'riyatining "ma'nolar xazinasini"ni kashf etish, uning bemisl san'ati si rlarini ochib, she'riyat ixlosmandlarini undan bahramand qilish ehtiyoji batamom qondirilgan emas.

Shuning uchun ham tasavvufiy she'rlarning ma'nosini anglashda turli xil g'alizliklar kelib chiqmoqda. Ahmad Yassaviy bir misrasida:

Tufroq bo'lg'il, olam seni bosib o'tsin, --deydi. Bu satr Yassaviy mafkurasini keskin tahqirlash va muallifiga ko'p malomatlar

yog'dirilishiga sabab bo'lgan. Yuzaki qaralganda, yassaviy shunoslarning tanqid va ta'nalariga asos borga o'xshaydi. Darhaqiqat, inson nega "Tufroq" bo'lmog'i, bu ham yetmaganidek, "olam" ning oyog'i ostida nega bosilib yotishi kerak?

Hozirgi zamon o'quvchisi, xususan, tasavvuf haqiqatlaridan bexabar she'rxonda shunday e'tiroz tug'ilishi tabiiy. Negaki, u "tufroq" so'zini o'z mazmun ida yoki o'lib yerga qorishish ma'nosida qabul qiladi.

"Avesto" da yer – tuproqni qizni sevganday sevish kerakligi naql qilinadi. Ahmad Yassaviyning "Tuproq bo'lg'il" degan da'vatida ham ishq bor. Lekin u tasavvufiy bir haqiqatni bag'riga olgan ilohiy ishqdir. Bu yerdagi "Tuproq" so'zi Odam Atoning yaratilishiga ham ishora qilmoqda. Tuproq obrazining tasavvuf adabiyotidan o'rin topishiga, hech shubhasiz, mana shunday (ya'ni odamning tuproqdan yaratilishi) haqiqatlarning u yoki bu darajada roli bo'lgandir.

## TEST TOPSHIRIQLARI

Lirik asarda "quyosh"

timsolining ramziy-tasavvufiy

ma'nos?

birlamchi

manbadan

nishona

abadiy ishq yorning yuzi ilohiy fayz

Lirik asarda "bahr – dengiz"

timsolining ramziy-tasavvufiy

ma'nos?

birlamchi

manbadan

nishona

abadiy ishq cheksizlik ilohiy fayz

"O'zbek mumtoz

adabiyotining falsafiy

sarchashmalari" asari

Shuhrat

Sirojiddinov

Aziz Qayumov

Najmuddin

Komilov

Ibrohim Haqqul

muallifi kim?

Diniy qissalarda qaysi

payg‘ambarning hassani

ajdarhoga, Nil suvini qonga

aylantirgan va boshqa

“mo‘jizalar” ko‘rsatgani

hikoya qilinadi?

Muso a.s.ning Iso a.s.ning Ibrohim a.s.ning Nuh a.s.ning

Naqshbandiya ta'limoti va

o‘zek adabiyoti” asarining

muallifi kim?

Yo. Is‘hoqov I. Haqqul N. Komilov Sh. Sirojiddinov

Alisher Navoiyning

darveshlar haqidagi fikrlari

qaysi asarda keltirilgan?

“Mahbub ulqulub”

“Vaqfiya” “Munshaot” “Soqiyonna”

Irfoniy mazmunda bitilgan

g‘azallarda lirik qahramon

kim?

orif oshiq rind darvesh

Navoiyning may vasfi asosiy

o‘rin tutgan g‘azallari

qanday nomlanadi?

rindona g‘azallar soqiyomalar xamriya g‘azallar orifona g‘azallar

#### GLOSSARIY

NASR – (arabcha نَسْر – tarqoq, sochma) vazn va qofiyasiz, oddiy nutq bilan yozilgan badiiy asar. Rabg‘o‘ziyning «Qisasi Rabg‘o‘ziy», Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub», «Tarixi muluki Ajam», «Tarixi anbiyo va hukamo», Boburning «Boburnoma», Furqatning «Furqatnomma» asarlari o‘zbek nasrining ilk namunalari bo‘lib, ular ham badiiy, ham tarixiy-tadrijiy xarakter kasb etadi.

Yangi davr o‘zbek adabiyotida badiiy nasr yaratishga urinish XX asr tongida ro‘y berdi. Cho‘lponning «Do‘xtur Muhammadyor», Hamzaning «Yangi saodat yoxud milliy roman», M.Shermuhammedov qalamiga mansub «Befarzand Ochidiboy» hamda Fitratning «Munozara» asarlari bu intilishning ilk samaralari edi. O‘zbek adabiyotida realistik nasrning paydo bo‘lishi va takomilida xalq og‘zaki nasri, mumtoz adabiyotdagi nasr va, albatta, chet el – arab, turk, rus hamda ozorbayjon xalqlari badiiy nasrining ilg‘or an’analari salmoqli rol’ o‘ynadi.

BAYOZ – (arabcha بیاض – oqlik) she’rlar to‘plami. Bayozlar odatda ikki yoki undan ortiq shoirlar she’rlaridan tashkil topadi. Bayozlar asosan mashhur shoirlarning lirik asarlaridan tuzilgan. Bayozlar ma’lum bir g‘oya yoki

muayyan dunyoqarashni tashviq va targ'ib qilmaydi, umuman saylab olingen asarlarda davriylik ham bo'lmaydi. Kimning she'ridan qanchalik kiritish bayoz tuzuvchining xohishiga bog'liq bo'lgan. Bayozlar sarbayoz (so'zboshi), lirik she'rlar (asosiy qism), xotima va ilovadan tashkil topadi. Ayrim bayozlarda asarlari kiritilgan shoirlar nomi mundarija sifatida beriladi. Bu xil to'plamlar mualliflarning o'zi yoki adabiyot ixlosmandlari va xattotlar tomonidan tuzilib, adabiyot targ'ibida muhim vazifa bajargan.

**BAYT** – (arabcha بیت – uy) arab, fors-tojik va ko'pgina turkiy xalqlar adabiyotshunosligida ikki misra she'rga nisbat beriladigan istiloh. Har qanday ikki misra she'r ham bayt bo'la olmaydi. Bayt bo'lishi uchun keltirilgan ikkala she'riy misra bir-biri bilan mazmun va mantiq jihatdan bog'langan bo'lishi u yoki bu poetik g'oyani ochishga xizmat qilishi lozim. Baytlar adabiy janrlar talabiga ko'ra turlicha qofiyalanadi. Masalan: g'azalda birinchi baytda ikki misra a-a tarzida qofiyalanib, qolgan baytlarining ikkinchi – juft misralar birinchi bayt qatorlari bilan qofiyadosh bo'ladi; masnaviyda esa, bayt misralari o'zaro, ya'ni a-a, b-b, v-v... ko'rinishida qofiyalanadi.

Har qaysi bayt 4, 6, 8, ba'zan 12, 16, 20, 36 rukndan tashkil topishi mumkin. To'rt ruknli bayt murabba', olti ruknli bayt musaddas, sakkiz ruknlisi musamman, 12 ruknlilari ko'pincha mustazod nomlari bilan yuritiladi. 16, 20, 36 ruknli baytlar esa, alohida nomlanmay, «12 ruknli», «20 ruknli» va «36 ruknli» deb atalaveradi.

**DEBOCHA** (forscha دېبچا – muqaddima) – kitobga yozilgan kirish so'z, lirik muqaddima. Qadimgi kitoblarda kirish so'zi birinchi sahifa hoshiyasiga ham yozilgan. Shuning uchun ba'zi o'rnlarda bu atama kitobning oltin suvi va naqshlar bilan bezatilgan birinchi sahifasiga nisbatan ham qo'llaniladi. Debocha odatda, muallifning o'zi, ba'zan boshqalar (ko'pincha kotiblar) tomonidan bitilgan.

Debochalar nasr yoki nazmda, ba'zan har ikkala shaklda – aralash yozilishi mumkin. Chunonchi, Alisher Navoiyning «Badoyi' ul-bidoya» devoni debochasi nasr va nazmda yozilgan. Bunda Navoiy dostonlari muqaddimalaridagidek, avval Ollohga hamdu sano, so'ngra payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ga na't bag'ishlaydi. O'zi va she'riyati haqida kamtarona qaydlar keltirib, so'z san'atining buyukligini urg'ulaydi, salaflari Husrav Dehlaviy, Hoja Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy nomlarini hurmat bilan tilga oladi, Sakkokiy, Lutfiy va Suhayliy kabilarni turkigo'y shoirlar sifatida maqtaydi.

Debocha namunalari zamonaviy adabiyotimizda ham uchraydi. S.Abdulla, Charxiy, G'.G'ulom, M.Shayxzoda, E.Vohidov, Jamol Kamol kabi shoirlarning devonlari va ba'zi she'riy to'plamlari debocha bilan boshlangan.

**HIJO** – (arabcha حجا – bo'g'in) aruz tizimidagi she'riy nutqning eng kichik ritmik bo'lagi, ya'ni so'zning bir tovush to'lqini bilan hosil bo'ladigan qismi. Hijo bo'g'in tushunchasiga yaqin bo'lsa ham uning o'zi emas. Chunki hijo undosh tovushning o'zidan ham tashkil topishi mumkin. Masalan Alisher Navoiyning:

Vasl bog'i / ichra sendek / shohi zolim / ko'rmadim,  
Ishq ko'yi / da o'zimdek / notovone / topmadim  
baytidagi «vasl» va «ishq» so'zлari tarkibidagi «l» hamda «q» undoshlari

alohida hijo hosil qilib kelmoqda.

Hijolar o'qilishi jarayonida sarf bo'lgan vaqtiga ko'ra qisqa, cho'ziq va o'ta cho'ziq hijolarga ajratilib o'rganiladi. Har xil hijolarning muayyan tartibda birikib takrorlanishidan aruz she'riy tizimining juzvlar deb ataladigan birlklari: sabab, vataf va fosilalar vujudga keladi.

Uslub – g'oyaviy-estetik xususiyatlar umumlashmasi bo'lib, ijodkorning tasvir usuli demakdir. Uslub – mumtoz adabiyot tadqiqi misolida kam o'rganilgan nazariy masalalardan biri. Bu balki an'anavylikka asoslangan mumtoz Sharq she'riyatida syujetlar, obrazlar, ramzlar bir xilligi ijodkorning uslubiy individualligini ma'lum darajada cheklaydi, degan qarashlar tufayli bo'lsa kerak.

Adabiyotshunoslikda uslubga doir berilgan ta'riflarni qisqacharoq qilib aytadigan bo'lsak, metod – ijodkor asarlarida namoyon bo'lgan xususiyatlarning umumiyo ko'rinishi bo'lsa, uslub – ijodkor asarlarida ko'ringan uning individualligi, o'ziga xosligidir. Boshqacha aytganda, metod – umumiylitka, uslub – xususiylikka tayanadi.

“Uslub, – deb yozadi adabiyotshunos olim Abduqodir Hayitmetov o'zining “Sharq adabiyotining ijodiy metodi tarixidan” nomli tadqiqotida, – ijodiy metodning konkret va xilma-xil ko'rinishi bo'lib, davr va hayot xarakteri bilan yaqindan bog'lanadi, uning xususiyatlarini yozuvchining shaxsiy temperamenti, hayot tajribasi, milliy xususiyatlari, biror adabiy yo'nalishga xos tamoyili va hokazolar orqali aks ettiradi”.

Abduqodir Hayitmetovning “Navoiyning ijodiy metodi masalalari”, “Sharq adabiyotining ijodiy metodi tarixidan” kabi tadqiqotlari keyinchalik uni uslubiy ko'rinishlar masalasida kuzatishlar olib borishga undadi. Ana shu ilmiy kuzatishlarning natijasi o'laroq, adabiyotshunos olimning mumtoz adabiyot asarlari tahlili misolida ilk bor uslub masalasini tekshirishga bag'ishlangan ilmiy maqolalari yuzaga keldi. “Alisher Navoiyning badiiy poetik uslubi yuzasidan mulohazalar”, “Ulug' shoir poetik uslubiga doir”, “Turkiston va Xuroson uslublari”, “O'zbek adabiyotida xalqchillik va xalqchil uslub haqida”, “O'zbek adabiyotida xalqchillik tendensiyasi”, “Sehrli nazm” kabi maqolalar shular jumlasidandir.

Abduqodir Hayitmetov talqinida uslub ikki ma'noda qo'llanilgan: birinchisi – individual uslub, ikkinchisi – uslubiy oqim. Olimning “Ulug' shoir poetik uslubiga doir” maqolasi 1974 yilda yozilgan. Umumiyo mulohazalar tarzida bayon etilgan maqola Navoiy she'riyatining o'rganilishi zarur bo'lgan yana bir qirrasiga e'tiborni jalb etadi. “Bu masalani nisbatan kechikib o'rganilayotganligining o'z sabablari mavjud, – deb yozadi adabiyotshunos olim. – Chunki, adabiyotshunoslik tajribasi shuni ko'ssatadiki, u yoki bu ijodkorning uslubi masalasi odatda ijodining umumiyo ko'lami ma'lum bo'lgandan keyingina yaxshiroq o'rganiladi”.

Abduqodir Hayitmetov mazkur maqolasida uslub masalasining nazariy asoslarini to'g'ri talqin etgan bo'lsa-da, uning Navoiy poetik uslubiga doir mulohazalari ba'zi e'tirozlarini tug'diradi. Masalan, olim bu xususda shunday deb yozadi: “U ( Navoiy nazarda tutilmoxda – Z.Q.) favqulodda bir she'riy talantga ega bo'lish bilan birga, nihoyatda, chuqur bilimga, boy hayotiy tajribaga, atrofida yuz bergen voqeа -hodisalarini olimlarcha sinchiklab kuzatib, bu haqda faylasuflarcha teran mulohaza yuritish qobiliyatiga ega edi. Uning bu shaxsiy xususiyatlari she'rlarida ham, dostonlarida ham, nasriy asarlarida ham har doim o'z ifodasini topgan. Bularning hammasi jam bo'lib, uning o'ziga xos she'riy va nasriy uslublarini belgilab bergen”.

Navoiy uslubiga doir bildirilgan bu umumiyo mulohazalarni Navoiy ulug'lagan va aziz bilgan qaysi bir Sharq shoiriga nisbatan ishlatmaslik mumkin?

Shuningdek, olimning quyidagi: “...Umuman, Navoiy lirkasidagi tasviri uslubning

muhim xususiyatlardan biri shundaki, shoirning ishqiy-an'anaviy misra va baytlari deyarli har qadamda hayotiy mushohada va mulohazalar, hayotiy kartina va lavhalar bilan yo'g'rilgan hamda bezatilgan”, – degan mulohazalarini Hofiz, Sa'diy, Jomiy ijodiga ham nisbat berish mumkin.

To'g'ri, realistik adabiyotda masala boshqacharoq hal qilinadi. Chunki, unda mumtoz adabiyot uchun fazilat sanalgan an'anaviylik realistik asar uchun kamchilik yoki katta qusur sanaladi. Sababi, realistik asardagi uslub – obrazlarning, xarakter-ruhiyatining, muallif va personaj nutqining, syujet va kompozitsiyaning, badiiy tasvir vositalari va boshqa qirralarni originalligi hamda betakrorligidan kelib chiqadi.

Nazarimizda, ba'zi o'rinnlarda, Abduqodir Hayitmetov “uslub” atamasini “bayon uslubi” va “pafos” ma'nosida ishlatgan. “Ulug' shoir poetik uslubiga doir” maqolasida yana shunday mulohazalar bildiriladi: “Navoiyning epik uslubi lirik asarlari uslubiga nisbatan ham ancha murakkab. Chunki bunda bir dostonning yozilishi, o'qilishi, uni yozishdan avtor kuzatgan maqsad boshqasini kiga o'xshamaydi. “Xamsa”dagi “Hayrat ulabror” falsafiy-didaktik asar bo'lsa, “Farhod va Shirin” ishqiy-romantik doston...”.

Olim nazarda tutgan “yozilishi”, “o'qilishi” – asarning bayon usuliga, “uning yozishdan avtor kuzatgan maqsad” esa g'oyaga aloqador.

Navoiy dostonlari turli xil pafosda yozilgan bo'lsa -da, Navoiyning epik uslubi deganda, turli xilda yozilgan ana shu dostonlar uchun xos bo'lgan xususiylik, ya'ni, shoir individualligi namoyon bo'lishi kerak. Boshqacha aytganda, uslub tekshirilayotganda, bu dostonlarni boshqa ijodkor emas, aynan, Navoiy yaratganligi sezilishi lozim.

Albatta, bu masalalarni bir maqola doirasida hal etishning imkonini yo'q. Shuning uchun Abduqodir Hayitmetovning o'zi ham maqolasini “umumiy mulohazalar” deya e'tirof etadi. Olimning ushbu maqolasi navoiyshunoslik zimmasida turgan yana bir muhim masalani kun tartibiga qo'yganligi bilan ahamiyatlidir.

Abduqodir Hayitmetovning “Turkiston va Xuroson uslublari” maqolasi uslubiy oqimlarni o'rganishda qimmatli va teran mulohazalarga boyligi bilan e'tiborni tortadi. “Nazarimizda, o'zbek adabiyoti tarixida bir adabiy til doirasida shartli ravishda ikki uslubiy yo'naliш bo'lган, – deb yozadi olim. Bulardan biri XII asrda Ahmad Yassavyi asos solgan va ko'proq Movarounnahr doirasida rivojlangan Turkiston uslubi, ikkinchisi esa Navoiy asoslagan va XV asrning ikkinchi yarmida yuzaga kelgan Xuroson uslubidir”<sup>127</sup>

Olimning talqinicha, turkistoniy uslubda jonli xalq tiliga yaqin turishga intilish kuchli bo'lsa, xurosoniy uslubda an'anaviy mavzularga, obrazlarga keng o'rin berish jihatni hamda ularga forsiy til ta'sirining xususi namoyon bo'ladi.

Uslublar, uslubiy yo'naliшlar rang-barangligi va bu masalani adabiyotshunoslik metodologiyasi nuqtai nazaridan ilmiy tekshirish borasida adabiyotshunos Yoqubjon Ishoqovning “Navoiy va o'zbek she'riyatida uslublar masalasi” deb nomlangan maqolasi teran kuzatishlarga boyligi bilan e'tiborni tortadi. Yoqubjon Ishoqovning mulohazalariga ko'ra, turkiy tildagi poeziya o'z taraqqiyoti davomida uch asosiy bosqichda yaratilgan. Bular: turkona, klassik va oliy yoki navoiyona bosqichlardir. Bu uslublarning har birining o'ziga xos qator jihatlari bo'lib, keyingi asrlarda har bir uslubning davomchilari bo'lган.

Adabiyotshunos Dilorom Salohiy “Abduqodir Hayitmetovning adabiy uslublar haqidagi qarashlari” maqolasida olimning adabiy uslublar haqidagi qarashlariga munosabat bildirar ekan, “Abduqodir Hayitmetov masalaga o'zbek adabiyotidagi xalqchillik tamoyili xususiyatlari nuqtai nazaridan yondashdi”, degan xulosaga keladi.

Yoqubjon Ishoqov Navoiy ayrim shoirlar uslubiga nisbatan bergen “turkona” atamasini turkona uslub vakillari sifatida talqin etsa, Abduqodir Hayitmetov o'sha atamani

“Turkiston uslubi” tushunchasi bilan izohlaydi. Abduqodir Hayitmetovning “O'zbek adabiyotida xalqchillik tendensiysi” maqolasida bildirilgan bu izoh, shu mavzuga oid keyin yozilgan “Adabiy merosimiz ufqlari” nomli maqolasida uchramaydi. Bizningcha, Abduqodir Hayitmetov Yoqubjon Ishoqovning “turkona” atamasi munosabati bilan bildirilgan mulohazalarini to'g'ri hisoblagan bo'lsa kerak. Adabiyotshunos Dilorom Salohiy yuqorida keltirilgan maqolasida Abduqodir Hayitmetovning “Turkiston va Xuroson uslublari” maqolasini tahlilga tortmaydi, shuning uchun bo'lsa kerak, “turkona” atamasini qo'llashda qaysi olim haq yo nohaqligi to'g'risida qat'iy fikr bildirmaydi.

Abduqodir Hayitmetov “Turkiston uslubi”, “Xuroson uslubi” kabi atamalarni adabiyotshunoslik iste'moliga kiritishda Eron olimlarining tajribasiga tayanadi.

Muallifning o'zi “Adabiy merosimiz ufqlari” nomli maqolasida buni shunday e'tirof etadi: “Eron olimlari fors-tojik adabiyotida Iroq uslubi (“Sabki Iroqiy”), Hind uslubi (“Sabki Hindiy”), Turkiston uslubi (“Sabki Turkistoniy”) kabi uslublar bo'lganini yozadilar”.

128

Abduqodir Hayitmetovning “Sehrli nazm” maqolasida Lutfiyning poetik uslubi xususida fikr yuritiladi. Garchi bu maqolada bir ijodkor uslubi to'g'risida so'z borsa -da, biroq, unda birgina Lutfiyning emas, umuman, unga yaqin uslubda ijod qilgan shoirlar she'riyatining til xususiyatlariga oid kuzatishlar mavjud. “Lutfiy she'riyatda sodda va ravon uslubni tanladi. Bu uslub tom ma'noda go'zal va yoqimli uslub bo'lib, Lutfiyga shoir sifatida katta shuhrat keltirdi. Uning so'z boyligi asos -e'tibori bilan jonli xalq tili hisobiga boyib bordi. Bu bilan u o'ziga zamondosh shoirlar – Atoyi, Sakkokiy, Gadoylarga ham kuchli ta'sir ko'rsatgan edi”. Maqolada Lutfiy poetik uslubiga xos belgilar sifatida jumla tuzilishidagi soddalik, tasvirning hayotiyligiga intilish hamda ta'rif -tavsifda hazilmutoyibaga o'rin berish kabi individual uslub jihatlari tahlil qilinadi.

Abduqodir Hayitmetovning uslub masalasiga doir kuzatishlarida individual uslubdan ko'ra, uslubiy oqimlar masalasi katta o'rinn egallaydi. Adabiyotshunos olim “Navoiyning ijodiy metodi masalasi” nomli maqolasida XV asr adabiyotida realistik yo'naliishdagi badiiy tasvir uslubi, majoziy, ya'ni, allegorik uslub hamda romantik xarakterdag'i tasvir uslublari mavjud bo'lganligini ta'kidlaydi. Navoiy bu uslublarning barchasidan birdek foydalanganligini uqtirgan adabiyotshunos olim ulug' shoirning realistik asarlarida avtobiografik xususiyatlar, satirk asarlarida hayotiy, real tasvir, umuman, ijodida esa romantik uslub, ya'ni, metod ustunlik qiladi, degan xulosaga keladi. Ko'rinish turibdiki, “uslub” Abduqodir Hayitmetov talqinida ba'zan “metod” ma'nosida ham ishlatalmoqda.

Metod va uslub bir-biriga bog'liq ajralmas tushunchalar, ularni bir-biridan ajratib tekshirish unchalik ma'qul natijani bermaydi. Uslub va metod – xususiylikning umumiylashuviga yoki bir narsaning ikki tomoniga o'xshash qirralar. Shu bois, bunday kuzatuvlarda doimo bahs-munozara bo'lib turishi tabiiy.

Adabiyotshunos olim Abduqodir Hayitmetov birinchilardan bo'lib, mumtoz adabiyotimizdagi ana shu masalaga e'tibor qaratdi. Bu esa adabiyot tadqiqtchilar zimmasida mumtoz adabiyotda uslublar rang-barangligi masalasini tekshirishdek katta vazifalar turganligini ko'rsatadi.

## GLOSSARIY

**USLUB** – 1) tilning inson faoliyatining muayyan sohasi bilan bog'liq vazifalariga ko'ra ajratilishi. O'zbek adabiy tilining quyidagi vazifaviy uslublari mavjud: a) so'zlashuv uslubi; b) rasmiy uslub; v) ilmiy uslub; g) publisistik uslub; d) badiiy uslub.

2) adabiy asardagi obrazli – ekspressiv detallarning estetik birligi, badiiy tasvir vositalarining qo'llanishida namoyon bo'ladigan yozuvchining o'ziga xosligi,

o'zligi. Uslubni belgilovchi xususiyatlar badiiy asarning shaklidan tortib mazmuni (mavzu, g'oya, syujet, konflikt, kompozitsiya, badiiy til, maxsus badiiy tasvir vositalari, poetik sintaksis, ritmik-intonatsion unsurlar va b.) ning barcha elementlariga tarqalib, singib ketgan bo'ladi. Uslub adibning qalamga olingan voqe-a-hodisalarga faol munosabati mahsuli bo'lib, ijodkorning originalligini, uning boshqa yozuvchilardan farqini ta'minlovchi bosh omildir. Yozuvchi qanchalik iste'dodli bo'lsa, uning uslubi ham shu kadar yorqin namoyon bo'ladi. O'z uslubiga ega bo'limgan ijodkor asari hech ki mda hech qanday qiziqish uyg'otmaydi, tez unutiladi.

131

**FILOLOGIYA** – (yunoncha philologia – so'zni sevish) tilshunoslik, adabiyotshunoslik, matnshunoslik, manbashunoslik, paleografiya kabi gumanitar fanlar hamkorligidan tarkib topgan umumiy fan.

Turkiy xalqlarda filologiya qadimda maxsus fan sifatida qaralmagan bo'lsa-da, unga oid juda ko'plab asarlar – lug'atlar, grammatikalar, adabiyotshunoslilikka oid risolalar, tazkiralar, turkiy xalqlar tarixi va etnografiyasiga doir kitoblar yozilgan. Maxmud Qoshg'ariy (XI asr) turkiy filologiya fanining asoschisidir. Uning «Devonu lug'otit turk» asarida bu fanning deyarli barcha sohalari – turkiy tillar leksikasi, fonetikasi, morfologiysi, turkiy tillar tasnifi, turkiy xalqlarning og'zaki ijodi kabi masalalar yoritilgan. O'z zamondoshlari tomonidan «jorulloh» (Ollohning qo'shnisi) laqabini olgan Mahmud Zamaxshariy (XI-XII asrlar) adabiyotshunoslik, tilshunoslik, fol'klorshunoslik kabi fanlarga oid 50 dan ortiq asar yaratib, filologiya fani taqqiyotiga sezilarli hissa qo'shdi. Alisher Navoiyning «Muhokamat ul-lug'atayn», «Mezon ul-avzon», «Majolis unnafois», Boburning «Muxtasar» va «Boburnoma», Shayx Ahmad Taroziyoning «Funun ul-balag'a» asarlari, XIII-XIX asrlar orasida nomi mashhur yoki noma'lum mualliflar tomonidan yaratilgan ko'p tillik lug'atlar milliy filologiyaning takomilini ta'minladi.

Hozirgi filologiya til va adabiyotni o'rghanishning yangi-yangi muammolarini o'rtaga tashlab, yangi-yangi metodlarni ishlab chiqmoqda, ijtimoiy hayotning barcha davrlariga xos yozma manbalar bilan uzviy bog'langan holda rivojlanmoqda, filologik tadqiqotlar mavjud manbalarga chuqur ilmiy va tanqidiy nuqtai nazardan yondashgan holda olib borilmoqda. **QAYTARISH SAN'ATI** – mumtoz she'riyatda bayt tarkibidagi ayrim so'zlarni boshqa o'rinda takror qo'llashga asoslangan lafziy san'atlarning umumiy nomi. She'rshunoslikda ushbu san'atga nisbatan «mutobiqa», ba'zan «tasdir» atamalari ham istifoda qilingan.

Ma'lumki, sharq mumtoz poetikasida rukn baytda egallagan o'rniga nisbatan turlicha unvon bilan ataladi: birinchi misraning ilk rukni – sadr; shu misraning oxirgi rukni – aruz; ikkinchi misraning birinchi rukni – ibtido'; ikkinchi qatorning oxirgi rukni – zarb; har ikkala misraning o'rta ruknlari esa hashv istilohlari bilan yuritiladi. Qaytarish san'ati ko'rinishlari bevosita ushbu atamalar bilan bog'liq:

1.Raddi sadr il hashv. Sadr tarkibidagi so'zning hashvda takrorlanishi:

Yo'lg'a kirib bordi ersa mani yo'ldin ozg'urib,

Ko'zlarimning yoshi yuzum uzra erur roh-roh.. (H.Xorazmiy)

Sadrdagi so'z ikkinchi misra hashvlari tarkibida takror kelishi natijasida

ham ushbu san'at yuzaga kelishi mumkin:

132

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro‘ kelmadi,  
Ko‘zlarimg‘a kecha tong otquncha uyqu kelmadi. (Alisher Navoiy)

2.Raddi sadr il ibtido‘. Sadrdagi so‘zning ibtido‘ tarkibida takror kelishi:

Yamonliq aylamayu yaxshiliqqa tolib bo‘l,  
Yamonliq aylagan oxirda sharmsor bo‘lur. (H.Xorazmiy)

3.Raddi sadr il zarb. Sadr tarkibidagi so‘zning hashv va zarbda  
takrorlanib, ohangdorlik hosil qilishi:

Qish emish may boisi, zoti burudatdin birav,  
Zuhd etib sovuqqa gar to‘ngsa, to‘ngsa erur ma’zur qish.  
(Alisher Navoiy)

Mutaxassislarning kuzatishicha, qaytarish san’atining 50 dan ortiq turi  
mavjud bo‘lib, ularning aksariyati o‘zbek mumtoz she’riyatida faol  
qo‘llanilgan.

#### ADABIYOTLAR:

1. 1.Абдугафуров А. Буюк бешлик сабоқлари. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1995.
2. 2.Хайтметов А. Темурийлар даври адабиёти. – Т.: Фан, 1996.
3. 3.Исҳоқов Ё. “Хамса” поэтикасига доир //Ўзбек тили ва адабиёти. - 1986.-№ 1.
4. 4.Алиев Г. Ю. Темы и сюжеты Низами в литературах народов Востока. – М.: Наука,
5. 5.Валихўжаев Б. “Хамса” ёзиш анъанасига Алишер Навоийнинг муносабати //
6. Ўзбек тили ва адабиёти.-1990.- № 1.
7. 6.Эркинов А. С. Алишер Навоий “Хамса”си талқинининг XV-XX аср манбалари.
8. Филол.фан.докт.дисс... – Т., 1998.
9. 7.Юсупова Д. Алишер Навоий “Хамса”сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйғунлиги.  
а. Тошкент: МУМТОЗ СЎЗ, 2011.
10. 8.Алишер Навоий: қомусий лугат. 1-2-жиллар /Масъул мухаррир
11. Ш.Сирожиддинов. – Т.: Sharq, 2016.
12. 9.Навоийнинг ижод олами (мақолалар тўплами). – Т.: Фан, 2001.
13. Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Т.: O‘zYU
14. Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 200
15. Сирожиддинов Ш. Ўзбек мумтоз адабиётининг фалсафий сарча шマルари. –
16. Т.: Янги аср авлоди, 2011.
17. O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari / Majmua. (1-jild) Tuzuvchi, izoh va
18. sharhlar muallifi: N.Rahmonov. – Т.: Fan, 2005;
19. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари / Мажмуа (2–жилд). Тузувчи, изоҳ ва
20. шарҳлар муаллифи: Н. Раҳмонов. – Т.: Фан, 2007.
21. Юсупова Д. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи (Алишер Навоий даври). Ўқув
22. кўлланма. – Т.:Akademnashr, 2013.
23. Қосимов Б. Миллий уйғониш. –Т.: Маънавият, 2002.
24. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Дарслик –Т.: Маънавият, 2004.
25. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. –Т.:Ўзбекистон, 2014.
26. Аверинцев С.С., Андреев М.Л., Гаспаров М.Л., Гринцер П.А., Михайлов А.В. Категории  
27. поэтики в смене литературных эпох. – М., 1994.
28. “Бадиий матн таҳлили ва талқин муаммолари” илмий анжуман материаллари. Тошкент, 2012.

**4-MAVZU:****Mumtoz poetika. Ilmi aruz, ilmi bade', ilmi qofiya haqida ma'lumot.**  
**Reja:**

1. "Poetika" atamasining lug'aviy va istilohiy ma'nolari.
2. Ilmi balog'a haqida umumiy tasavvur.
3. Ilmlar uchligi va ularning mumtoz poetikani o'rganishdagi ahamiyati.
4. Adabiy va tarixiy manbalarda mumtoz poetikaga doir qarashlar.

Ma'ruzaning qisqacha bayoni: "Poetika" so'zi yunoncha so'z bo'lib, "ijod qilish san'ati" ma'nosini bildiradi. Poetika ijodning qanday qilib san'atga aylanishi haqidagi fandir.

Poetika atamasi 2 xil ma'noda ishlataladi:

- 1) umumiy – keng ma'noda adabiyot nazariyasini bildiradi;
- 2) xususiy – tor ma'noda adabiyot nazariyasining tarkibiy qismi bo'lib, adabiy asar haqidagi ta'limotdir.

Poetika fani muayyan badiiy asarning badiiy ta'sirchanlik qudratini tadqiq qiladi.

Poeziya san'at bo'lsa, poetika shu san'atni ilmiy tahlil qiladi.

Ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan musulmon Sharqi adabiyotida poetika masalasi har doim she'riyat ahlining diqqat markazida turgan. Muayyan ijodkorning badiiy salohiyati va iste'dodi haqida so'z borganda, uning tasvir obyekti sifatida nimalarni olgani emas, balki o'sha obyekt yoki predmetni qanday tasvirlagani muhim hisoblangan. Shu ma'noda u yoki bu ijodkor ijodiga yoxud muayyan badiiy asarga baho berilar ekan, ijodkor ifodalamoqchi bo'lgan g'oya qanday badiiy timsollar, vazn yoki qofiya vositasida bayon qilinganligi bilan birga she'riy asarda qo'llanilgan badiiy san'atlarning rang-barangligi, ularning asar mazmunini ochishdagi o'rni va ahamiyati kabi masalalarga ham alohida diqqat qaratilgan.

Balog'at ilmi. "Balog'at"ning lug'aviy ma'nosi "bulug" va vusul", ya'ni erishish va yetishishdir. Istilohda esa Qur'oni Karim va hadisi sharif tili bo'lmish arab tilining sirasorlarini ochuvchi, uning nozik va nafis jihatlarini ko'rsatuvchi, balog'ati va fasohatini anglashni o'rgatuvchi ilm "balog'at ilmi" deyiladi. U ilmi maoniy, ilmi bayon, ilmi badi'lardan iborat. Balog'at ilmi haqida hijriy ikkinchi asrdan boshlab kitoblar yozila boshlagan. Ana shu uch ilm bo'yicha Abu Ubayda Ma'mar, Ja'far ibn Yaxyo, Sahl ibn Xorun, Abdulloh ibn Mu'tazz va boshqalar ilk kitob yozgan allomalardir

1

Mumtoz adabiyotimiz tarixida poetika ilmi asosan uchta mustaqil sohadan iborat bo'lgan va bu "ilmlar uchligi" deb atalgan. Bular quyidagilardir:

- 1) ilmi aruz – she'rdagi vaznlar va ularning qonun-qoidalari haqida bahs yurituvchi soha;
- 2) ilmi qofiya – qofiya qonuniyatlari va turlari haqida ma'lumot beruvchi soha;
- 3) ilmi badi' – nutqqa bezak beruvchi san'atlar, ularning o'ziga xos jihatlari, fikrni go'zal va mazmunli ifodalash usullarini o'rganuvchi soha.

Mumtoz poetikaga doir dastlabki forsiy asar XI asrda yuzaga kelgan. Bu Muhammad

binni Umar Roduyoniy qalamiga mansub bo'lib, "Tarjimon ul-balogs'a" deb ataladi.

1

Julie Scott Meisami. Structure and Meaning in medieval Arabic and Persian poetry. – London, 2003. – P. 45.

206

Roduyoniy o'z kitobini arab olimi Nasr binni Hasanning "Mahosin ul-kalom" nomli asariga suyangan holda yaratgan va unda 73 ta san'atni keltirgan. XI–XII asrlarda Ahmad binni Muhammad Manshuriy Samarqandiy talavvun san'ati haqida (buni Xurshediy "Kanz ul-g'aroib" deb atagan), Abumuhammad binni Muhammad Rashidiy Samarqandiy ("Ziynatnama") va boshqa ijodkorlar ilmi badi'ga doir risolalar yozganlar. Biroq XI – XII asrlarda yaratilgan ilmi badi'ga doir asarlar orasida eng mukammali Rashididdin Vatvot nomi bilan mashhur bo'lgan xorazmlik shoir va olim Rashididdin Abubakr Muhammad binni Muhammad binni Abdujalili Umari kotibning (vaf. 1182-1183) "Hadoyiq us-sehr fi daqoq ush-she'r" nomli asaridir.

"Hadoyiq us-sehr" buyuk olim tomonidan bitilgan yuksak saviyadagi asar bo'lib, undan keyin ilmi badi' bilan mashg'ul bo'lgan barcha mualliflar ana shu asardan foydalanganlar. Rashididdin Vatvot asari hozirgi kunga qadar o'zining ilmiy qimmatini yo'qotgan emas.

Tarixiy poetikaga doir yaratilgan ikkinchi bir katta tadqiqot XIII asrning atoqli olimi Shamsiddin Muhammad binni Roziyuning "Al-mo'jam fi ma'oyir-ul-ash'or-ulAjam" nomli mashhur asaridir.

Bu asarni o'sha paytgacha poetika masalalari bo'yicha qilingan barcha ishlarning yakuni, shu sohada yaratilgan asarlarning gultoji, deb aytish mumkin. Chunki muallif bu asarida mumtoz poetikaning har uchala bo'limi – aruz, qofiya va ilmi badi' haqida mukammal ma'lumot beradi, she'r va shoirlik, badiiy asarda shakl va mazmunning munosabati, tanqidning adabiy jarayondagi roli va vazifalari haqida mulohazalar yuritadi. Shamsi Qays asarining ilmi badi'ga doir uchinchi qismida Rashididdin Vatvotning mazkur asaridan ham foydalangan. Lekin bu masalada katta iste'dod va imkoniyatlarini namoyish qilib, o'z salafi asaridagi ma'lumotlarni yanada kengaytirgan., ularni yangi izohlar bilan boyitgan, daliliy materiallarni yanada ko'paytirgan va natijada ilmi badi'ni yuqori bosqichga olib chiqqan.

Mashhur shoir Xusrav Dehlaviy ham nasr qoidalari haqida ikki jilddan iborat kitob yozib, unda yuzlab badiiy san'atlar haqida so'z yuritgan. Vahid Tabriziyning "Jam'i muxtasar" (XVI asr) asarida esa aruz, qofiya bilan bir qatorda o'nlab she'riy san'atlar ham keltirilgan.

Nizomiddin Ahmad ibn Muhammad Soleh Siddiqiy Husayniy qalamiga mansub "Majma' us-sanoe'" asari ham butunlay ilmi badi'ga bag'ishlangan bo'lib, saksonta she'riy san'atni o'z ichiga olgan.

Qabulmuhammad ham "Haft Qulzum"ning yettinchi bo'limida badiiy san'atlar ustida so'z yuritib, asosan, "Majma' us-sanoe'" ga asoslanadi.

XX asrda yaratilgan ko'pgina lug'atlar hamda boshqa ruhdagi asarlar tarkibida u yoki bu darajada badiiy san'atlarning ayrimlari keltirilib, mulohaza yuritilgan o'rinlar uchraydi.

Ilmi badi' haqida umumiy ma'lumot.

2. Badiiy san'atlar tasnifi.

3. Lafziy san'atlar.

Ilmi badi' (ar. badi' – go'zal, chiroyli, ajoyib, nodir, nafis, yangi paydo bo'lgan narsa) – Musulmon Sharq poetikasining tarkibiy qismlaridan biri, nutqqa bezak beruvchi san'atlar, ularning o'ziga xos jihatlari, fikrni go'zal va mazmunli ifodalash usullarini o'rganuvchi soha. Mumtoz she'riyat, ba'zida nasrda keng ishlatilgan va zamonaviy adabiyotda hozir ham qo'llanilayotgan badiiy san'atlar ilmi badi'ning asosini tashkil qiladi. SHundan kelib chiqib, ilmi badi' sanoyi' ilmi deb ham yuritiladi.

Ilmi badi'ga doir dastlabki asarlar arab tilida yaratilgan bo'lib, ularga Ibn Mu'tazning "Kitob ul-badi'"(9-a.), Nasr binni Hasanning "Mahosin ul-kalom" (9-10-a.), Qudama ibn Ja'farning "Naqd ush-she'r" (10-a.) asarlari kiradi. Ilmi badi' fors-tojik adabiyotshunosligida o'zining yuksak cho'qqisiga ko'tarildi. Umar Roduyoniyning "Tarjumon ul-balogs'a", Rashididdin Vatvotning "Xadoyiq us-sehr", Shams Qays Roziyoning "Al-mo'jam" (uchinch qismi, 13-a.), Vohid Tabriziyoning "Jam'i muxtaras" kabi asarlari shu sohaga bag'ishlangan mumtoz asarlar sifatida alohida ahamiyatga ega. Turkiy tilda ilmi badi' masalalari aks etgan asar sifatida Shayx Ahmad Taroziyoning "Funun ul-balogs'a" asarini keltirish mumkin. Risolaning uchinchi qismi badiiy san'atlar tahliliga bag'ishlangan bo'lib, unda 97 san'at turi haqida so'z boradi.

Ilmi badi'ga doir nisbatan mukammalroq asar Atoulloh Husayniyning "Badoyi' us sanoyi'" risolasi bo'lib, unda ilmi badi' tarixida ilk marta badiiy san'atlar uch katta guruhga: ma'naviy, lafziy va mushtarak san'atlarga ajratilgan.

Alisher Navoiy ilmi badi'ga doir maxsus asar yaratmagan bo'lsa-da, o'zining "Majolis un-nafois", "Xamsa" va boshqa ko'plab asarlarida ilmi badi'ning ba'zi nazariy jihatlariga to'xtalib o'tadi. Xususan, "Majolis un -nafois"da Atoulloh Husayniy haqida so'z yuritar ekan, uning ushbu ilmgaga doir risola yozganligini ta'kidlaydi:

"Mir Atoulloh... Bovujudi donishmandlik, she'r va muammo va sanoe'da dag'i mahorat paydo qildi va muammog'a ko'p mashg'ul bo'lur erdi. Holo sabaq kasratidin anga avqoti vafo qilmas, ammo sanoe'da kitobe tasnif qilibdur. «Badoe'i Atoiyg'a» mavsumdur".

SHuningdek, Navoiy o'z asarlarida ilmi badi'ga doir ba'zi istiloh va atamalar sharhiga ham to'xtalib, munosabat bildirib o'tadi. Jumladan, maqlubi mustaviy san'ati haqida to'xtalib, shunday yozadi:

"bu misra'ki «maqlubi mustaviy» san'atida aytibdur, dalil basdurkim:

Mushi xari farrux shavam,

Darki raqam qar kard"

(D.Yusupova)

Maqlubi mustaviy (ar. – teng qilib ag'darilgan) – misra yoki bayt tarkibidagi ibora yoki jumlalarning teskari o'qilganda ham ma'no anglatishiga asoslangan badiiy san'at. Bunda shoир biror jumla yoki misra she'rni har ikkala tomondan: o'ngdan ham, so'ldan ham o'qiy oladigan qilib tuzishi nazarda tutiladi. M.m. haqidagi dastlabki ma'lumot Umar 228

Roduyoniyning "Tarjumon ul-balogs'a" (11-a.) asarida keltirilgan bo'lib, muallif ushbu san'atni qalb yoki maqlub san'atining ko'rinishlaridan biri sifatida keltirib, uning ikki turini sanab o'tadi:

- 1) teskari o'qilganda vazn va ma'no saqlanib qoladigan M.m.;
- 2) vazn va ma'no o'zgarishga uchraydigan M.m.

M.m.haqidagi nisbatan mukammal ma'lumotlar Atoulloh Husayniyning "Badoyi" us-sanoyi""asarida uchraydi. Muallif o'z asarining lafziy san'atlarga ajratilgan qismida maqlub san'atining to'rt ko'rinishidan biri sifatida M.m.ni keltirib o'tadi va ushbu san'atning 6 darajasini sanab o'tadi.

M.m. haqidagi ma'lumotlar turkiy she'rshunoslikka doir ilk manba SHayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balogs'a" (1436-37) asarida ham uchraydi. Asarda mazkur san'atga quyidagicha ta'rif berilgan:

"Bu aningtek bo'lurkim, bir misra'ni tamom taqlib qilsalar, yana bir misra' qo'por.

Hamul misra bo'lur". Ko'rinyaptiki, Shayx Ahmad Taroziy M.m. san'ati ostida misrani to'laligicha teskari holda o'qishni va shu orqali yangi misra hosil bo'lishini nazarda tuyapti.

Alisher Navoiy asarlarida M.m. asari nazariy jihatdan asoslangan bo'lib, Navoiy "Majolis un-nafois"da shoirlar mahoratiga baho berishda ushbu san'atga to'xtalib o'tadi. Xususan, Atoulloh Husayniyga ajratilgan faslda shoirning bir baytini tahlil qilar ekan, uning mahoratini aniqlash uchun ushbu san'at qo'llangan bayt kifoya qilishini aytadi: "Bovujudi ihtisor maqlubi mustaviy san'atidakim, andin mushkulroq san'at bo'lmas, bu bayt ul risolada aning xossa baytidurkim:

SHakkar dahano g'ame nadoriy,

Dayr o daniyi mug'ona darkash.

Aning tab'i diqqatig'a bu bayt dalili basdur" (Majolis un-nafois).

Shuningdek, "Majolis un-nafois"da Mavlono Shihob nomli ijodkorga baho berar

ekan, uning har misrasi alohida olinganda M.m. san'ati vujudga keluvchi baytini keltiradi:

Mushi xari farrux shavam,

Darki raqam qar kard.

Bunda har bir misra alohida teskari holda o'qilganda, yana o'sha misra hosil bo'ladi. Lekin baytda shaklga e'tibor kuchayib ketib, ma'noga putur etgan. Birinchi misra "Farrux eshagining sichqoni bo'lay" degan mazmunni bildirgani holda ikkinchi misradan ma'no anglashilmaydi.

Alisher Navoiy "Xamsa"si tarkibiga kiruvchi dostonlar sarlavhalarida M.m. san'ati qo'llanilganligini kuzatish mumkin. Xususan, "Hayrat ul-abror" dostonining beshinchisi maqolati quyidagicha sarlavhalangan:

"Karam vasfidakim, qalbi diram margi durur, balki rahmat shajarasining bargi va buxlkim, saxo qalbidin xoli bo'lsa, nihoyatsiz balo bo'lur va bazl surati ko'rguzmasa, muruvatdin hadsiz xalo va isrof nafyikim, har yonidin boqsa ofati behad erur va itlof mazamatikim, ko'proq harfi lofdin xabar berur".

Bunda "diram margi" (pulning o'limi) jumlesi teskari o'qilsa, "karam mardi" (saxovatli mard) so'zлari paydo bo'ladi.

229

Radd ul-ajuz al as-sadr (ar. – ajuzdan sadrga borish) – qaytarishga asoslangan she'riy san'atlardan biri. Mutobiq va musaddar deb ham ataladi. Bu san'atga ko'ra, baytning oxirida kelgan so'z keyingi baytning boshida takrorlanib keladi.

Sharq mumtoz poetikasida baytning boshi sadr, oxiri ajuz yoki zarb, ikkinchi

misraning boshi ibtido va har ikki misraning o'rtasi hashv deyiladi. Buni quyidagi chizmada ko'rish mumkin:

Sadr \_\_\_\_\_ / \_\_\_\_\_ hashv \_\_\_\_\_ / \_\_\_\_\_ aruz

Ibtido \_\_\_\_\_ / \_\_\_\_\_ hashv \_\_\_\_\_ / \_\_\_\_\_ ajuz (zarb)

SHundan kelib chiqqan holda ushbu san'atga avvalgi baytdagi ajuzning keyingi baytdagi sadrda takrorlanishiga asoslangan san'at sifatida qarash mumkin.

Ilmi badi'ga doir manbalarda R. san'atiga keng o'rin ajratilgan. Xususan, Atoullohu Husayniyning "Badoyi' us-sanoyi'" (15-a.) asarida mazkur san'at nomi anglatgan lug'aviy ma'no, uning turlariga to'xtalib o'tilib, salaflar SHams Qays Roziy va Rashididdin Vatvotning ushbu san'at turi haqidagi fikrlariga munosabat bildiriladi, "Xadoyiq us-sehr"da keltirilgan fikr asosida R. san'ati forsiy tilda mutobiq va musaddar deb atalishi aytib o'tiladi.

Alisher Navoiy ijodida R.san'atining qo'llanilish darajasini quyidagi holatlarda ko'rish mumkin:

1) Bayt oxirida radif vazifasida kelgan so'z keyingi baytning boshida takrorlanib keladi. Bunda ushbu san'at qaytarishga asoslangan yana bir she'riy san'at – tasdir bilan uyg'unlik kasb etadi:

Qo'yma minnat bizga g'amgin aylabon ishq ahlini,  
Bizni ham shod etmading, gar elni noshod aylading.

Aylading ko'nglum imorat partavi ruxsor ila,  
Ka'bani butxona qilmog'liqqa obod aylading.

(Navodir ush-shabob, 347-g'azal)

2) Bayt oxirida qofiya vazifasida kelgan so'z keyingi baytning boshida takrorlanib keladi:

RADD UL-MATLA' (ar. – matla'ning takrorlanishi) – g'azal yoki qasida matla'idagi birinchi misraning maqta'da, ba'zan she'r tarkibidagi baytlardan birida takrorlanib kelishiga asoslangan she'riy san'at. Bu tarzdagi takror tasodifiy bo'lmasdan, muayyan poetik maqsadga ega. G'azal matla'si yoki qasidaning birinchi baytida ilgari surilgan fikr keyingi baytlarda rivojlantirilib boriladi va she'r nihoyasida misrani takrorlash orqali o'sha fikr yana ta'kidlanadi.

Ilmi badi'ga doir forsiy manbalarda bu san'at haqida deyarli ma'lumotlar uchramaydi. Faqat Atoullohu Husayniy o'zining qofiya ilmiga doir "Risolai vofiy dar qavoyidi ilmi qavofiy" (1487) nomli risolasida ushbu san'at nomini keltirib, uni qofiya san'atlaridan biri sifatida tilga oladi va matla'da keltirilgan qofiyaning keyingi baytlar 230

tarkibida takrorlanishi R.m.deb atalishini ta'kidlaydi. Aynan shunga o'xshash fi kr Husayn Voiz Koshifiyning "Badoyi' ul-afkor fi sanoyi' ul-ash'or" (15-a.) asarida ham keltiriladi.

SHayx Ahmad Taroziyning turkiy poetikaga doir "Funun ul-balag'a" (1436-1437) asarida esa ushbu san'atga quyidagicha ta'rif berilgan: "Bu san'at aningtek b o'lurkim, she'rning matla'ini radd qilurlar. Bu uch nav' bo'lur. Biri ulkim, matla'ning avvalgi misraini tamom maqta'da radd qilurlar..." Taroziy R.m.ning keyingi turlari sifatida matla'dagi birinchi misraning qofiyasini maqta'da va ikkinchi yoki uchinchi baytlarda takrorlashga asoslangan san'atlarni keltirib o'tadi. Bu turlar hozirgi ilmi badi'da radd ulqofiya nomi bilan atalib, alohida she'riy san'at hisoblanadi.

Alisher Navoiy ijodida R.m. san'ati keng istifoda etilgan bo'lib, ushbu san'at Navoiy g'azallaridagi bosh g'oya – fikr, xulosa yoki uning ayrim jihatlarini, etakchi fikr, xulosaning yuzaga kelishi uchun turtki bo'lган asosiy sababga urg'u qaratish va alohida ta'kidlash uchun xizmat qilgan. Shoир g'azallarida R.m. ning ikki xil ko'rinishi keng qo'llanilganligini kuzatish mumkin:

1) matla'dagi birinchi misraning maqta'ning so'nggi misrasida takrorlanib kelishiga asoslangan R.m.;

2) matla'dagi birinchi misraning ikkinchi bayt tarkibida qaytarilib kelishiga asoslangan R.m..

"Xazoyin ul-maoniy"da R.m. san'ati asosida yozilgan 35 ga yaqin g'azal mavjud bo'lib, shulardan 31 tasida R.m.ning birinchi ko'rinishi, qolganlarida esa matla'dagi birinchi misraning ikkinchi bayt tarkibida takrorlanib kelishiga asoslangan ko'rinishi qo'llanilgan (Y.Is'hoqov). R.m.ning birinchi ko'rinishiga Navoiyning quyidagi g'azalini misol tariqasida keltirish mumkin:

Kechti umrum naqdi g'aflat birla nodonlig'da hayf,

Qolg'ani sarf o'ldi anduhu pushaymonlig'da hayf.

Jong'a bir dushvorlig' qo'ymay riyozat ranjidin,

Sarf bo'ldi naqdi avqotim tan osonlig'da hayf.

Bog'ladim paymonadin paymon, fig'onkim, aqlu din

Bo'ldi bu paymonavu ul sustpaymonlig'da hayf.

Ey musulmonlar, bilingkim, bo'ldi umrum hosili

Nafsi kofir fitnasidin nomusulmonlig'da hayf.

Hayfkim, naf' aylamas har nechakim tortib ilik,

Desam o'z ahvolima bu nav' hayronlig'da hayf.

Andoq ish qilkim, pushaymon bo'lmag'aysenkim, emas

Hech osig' chun ish xato bo'ldi pushaymonlig'da hayf.

Har ne o'tkan so'zlarim chindur desam yolg'on erur,

CHin budurkim, degamen umr o'tti yolg'onlig'da hayf.

231

CHun engilrakdur hisob o'lg'anda sultondin gado,

Hayfkim, bo'lg'ay gado avqoti sultonlig'da hayf.

Ey Navoiy, voqif erman xalqdin, bori mening

Kechti umrum naqdi g'aflat birla nodonlig'da hayf.

(G'aroyib us-sig'ar, 303-g'azal).

R.m.ning Alisher Navoiy ijodidagi ikkinchi ko'rinishiga quyidagi g'azal baytlari misol bo'la oladi:

Otashin gul bargidin xil'atki jononimdadur,

Xil'at ermas, ul bir o'tdurkim, mening jonimdadur.

Otashin la'lidorurkim, anda muzmar bo'ldi jon,

Otashin gulbargidan xil'atki jononimdadur.

(Badoyi' ul-vasat, 194-g'azal).

Navoiy she'riyatida R.m.san'atining bir oz o'zgargan ko'rinishi ham qo'llanilgan bo'lib, unda matla'dagi birinchi misra ikkinchi bayt yoki maqta'da bir oz o'zgargan shaklda takrorlanadi. Bu san'atni shartli ravishda yarim R.m.deb atash mumkin

(Y.Is'hoqov). “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotida o‘ndan ortiq g‘azal ushbu san’at asosida yozilganligini ko‘rish mumkin. Matla’ va ikkinchi bayt orasidagi yarim R.m.ga misol:

O‘yuy olsam eshiking tufrog‘ini yostanibon,  
Saltanat taxtig‘a chiqmoq tilamon uyg‘onibon.  
It kibi har necha qavsang urubon toshu kesak,  
YOna kelgum eshiking tufrog‘ini yostanibon...  
(Navodir ush-shabob, 452-g‘azal).

Matla’ va maqta’ orasidagi yarim R.m.ga misol:

Holima yor tarahhum qilmas,  
Yig‘lasam zor, tabassum qilmas.  
Ko‘ngluma vahm erur hijrondin,  
Qatldin hech tavahhum qilmas.  
G‘uncha og‘zing so‘zida qaysi zamon  
Kim, hazin ko‘nglum o‘zin gum qilmas.

Javrlarkim qilur ul oy manga,  
Etti aflok aro anjum qilmas.  
Qaysi bir zulmki qilmas ul sho‘x,  
Garchi bu zor tazallum qilmas.

232

YUz kalom el bila aytur har dam,  
Bizga bir nukta takallum qilmas.  
Ey Navoiy, qiya boqti demakim,  
Ko‘ngluma yor tarahhum qilmas.  
(Favoyid ul-kibar, 225-g‘azal).

(D.YUsupova)

Radd ul-qofiya (ar. – qofiyaning takrorlanishi) – g‘azal yoki qasida matla’idagi qofiyaning undan keyingi baytlardan birida yoki maqta’da takrorlanishiga asoslangan badiiy san’at. XVI asrgacha yaratilgan poetikaga doir manbalarda “iyto” deb yuritilgan. Sakkokiyning “Miftoh ul-ulum”, Shams Qays Roziyning “Al-mo‘jam” (1218-1233), Nasiriddin Tusiyning “Me’yor ul-ash’or” (13-a.) Husayn Voiz Koshifiyning “Badoyi’ ulafkor fi sanoyi’ ul-ash’or” (15-a.), Abdurahmon Jomiyning “Risolai qofiya” (1465), Atoulloh Husayniyning “Risolai vofiy dar qavoyidi ilmi qavofiy” (1487) asarlarida mazkur san’at haqida ma’lumotlar keltiriladi. Ushbu asarlarning deyarli barchasida iyto qofiya nuqsonlaridan biri sifatida e’tirof etilib, agar takrorlanuvchi qofiyalar orasida muayyan masofa bo‘lsa (g‘azal va qit’ada 7 baytdan keyin, qasida esa 14 -20 baytdan keyin) yoki she’r ikki matla’ga ega bo‘lsa (she’r o‘rtasida yana bir qo‘sh qofiyalanuvchi bayt kelsa), iytdan foydalanish mumkin degan umumiyl xulosa aytildi.

SHayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balogs” (1436-37) asarida R.q. san’ati radd ul-matla’ tarkibida tahlil qilinib, risolada keltirilgan radd ul-matla’ning ikkinchi va uchinchi turlari aynan R.q. san’atiga mos keladi: “Ikkinchi nav’i ulkim, avvalgi misra’ning qofiyasini maqta’ning oxirinda radd qilurlar... Uchinchi nav’i ulkim, avvalgi misra’ning qofiyasini ikkinchi bayt yo uchinchi baytta radd qilurlar”. Bunda muallif R.q. san’atining matla’dagi qofiyaning maqta’da yoki ikkinchi va uchinchi baytlardan birida takrorlanishiga asoslanishini ta’kidlayapti.

Alisher Navoiy g‘azaliyotida ushbu san’at ancha faol qo‘llanilgan bo‘lib, “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotida uning turli ko‘rinishdagi 450 dan ortiq namunalarini uchratish mumkin (Y.Is’hoqov). Shoir she’riyatida R.q.ning quyidagi ko‘rinishlari qo‘llanilgan:

1. G‘azaldagi birinchi misraning qofiyasi ikkinchi baytda takrorlanishiga asoslangan R.q.:

Bahor sensiz o‘luptur manga ajab do‘zax,  
Qizil gul anda o‘tu oq shukufalardur yax.  
Bahor sensiz agar do‘zax o‘lsa tong ermas,  
Bilisht ichinda liqo bo‘lmasa erur do‘zax...  
(G‘aroyib us-sig‘ar, 108-g‘azal).

2. G‘azaldagi birinchi misraning qofiyasi ikkinchidan keyingi baytlardan birida takrorlanishiga asoslangan R.q.:

YUz tuman mehnat o‘qi anduhlug‘ jonimdadur,  
To havodin sarzanish sarvi xiromonimdadur.

233

Hojatim budur, xudoyokim, karomat qilg‘asen  
Notavon jonimg‘a har zahmatki, jononimdadur.  
Dard menda sendin ortuq bo‘lsa, jono, ne ajab  
Kim, sening jismingdadur zahmat, mening jonimdadur...  
(G‘aroyib us-sig‘ar, 150-g‘azal).

3. G‘azal matla’sidagi ikkinchi misraning qofiyasi ikkinchidan keyingi baytlardan birida takrorlanishiga asoslangan R.q.:

Kechti umrum naqdi g‘aflat birla nodonlig‘da hayf,  
Qolg‘ani sarf o‘ldi anduhu pushaymonlig‘da hayf.  
Jong‘a bir dushvorlig‘ qo‘ymay riyozat ranjidin,  
Sarf bo‘ldi naqdi avqotim tan osonlig‘da hayf.  
Bog‘ladim paymonadin paymon, fig‘onkim, aqlu din  
Bo‘ldi bu paymonavu ul sustpaymonlig‘da hayf.  
Ey musulmonlar, bilingkim, bo‘ldi umrum hosili  
Nafsi kofir fitnasidin nomusulmonlig‘da hayf.  
Hayfkim, naf‘ aylamas har nechakim tortib ilik,  
Desam o‘z ahvolima bu nav’ hayronlig‘da hayf.  
Andoq ish qilkim, pushaymon bo‘limg‘aysenkim, emas  
Hech osig‘ chun ish xato bo‘ldi pushaymonlig‘da hayf...  
(G‘aroyib us-sig‘ar, 303-g‘azal).

4. G‘azal matla’idagi qofiyalardan birining maqta’da takrorlanishiga asoslangan R.q.:

Ishq soldi xonumonim ichra o‘t,  
La’li otashnoki jonim ichra o‘t.  
Nega etkan erga o‘rtar xalqni  
Bo‘lmasa ohu fig‘onim ichra o‘t.  
Qo‘nglum ermas tandakim, hajring aro  
Tushti jismi notavonim ichra o‘t.  
O‘qlaringning kasratidin chektim oh,

Tushti andin naysitonim ichra o't.  
 Hajrdin kuydi so'ngaklar, vahki, ishq  
 234

Soldi xoshoki nihonim ichra o't.  
 Soqiyo, maydin su urkim, soldi davr  
 Joni benomu nishonim ichra o't.  
 Ey Navoiy, chun chaqildi barqi ishq,  
 Tushti andin xonumonim ichra o't.  
 (Navodir ush-shabob, 86-g'azal).

TARDU AKS (ar. – teskari qilib takrorlash) – bayt tarkibidagi ikki so'z yoki birikmani avval muayyan bir tartibda keltirib, so'ng ularning o'rmini almashtirib takrorlash san'ati. Mumtoz poetikaga doir manbalarda "aks", "tabdil" nomlari bilan ham keladi. T.a. dastlabki ma'lumot Umar Roduyoniyning "Tarjumon ul-balogs'a" (11-a.) asarida keltirilgan bo'lib, risolada mazkur san'at "aks" nomi bilan keltirilgan: "Aks lug'atda "qayta takrorlash bo'lib, bayt tarkibidagi jumla va so'zlarni hamda oxirgi so'zni misra boshida takrorlashni "aks" derlar... Va agar aks amali bayt tarkibida sodir bo'lsa, bunday aksni "komil aks" derlar va agar misra tarkibida amalga oshsa, bunday aksni "maxraj", ya'ni notamom (to'liq bo'lмаган) aks deb atarlar".

T.a. san'ati takrorning qaysi o'rinda kelishiga qarab ikki turga bo'linadi:

1) komil (tugallangan) aks – T.a.ning bayt doirasida sodir bo'lishi, bunda baytning birinchisi misrasidagi ikki so'z yoki birikma ikkinchi misrada o'rin almashinib takrorlanadi. Masalan,

Qaro ko'zum, kelu mardumlig' emdi fan qilg'il,  
 Ko'zum qarosida mardum kibi vatan qilg'il  
 (G'aroyib us-sig'ar, 371-g'azal)

2) maxraj (tugallanmagan) aks – T.a.ning misra doirasida hosil qilinishi, bunda bir misradagi ikki so'z shu misraning o'zida o'rin almashinib takrorlanadi:

Ki, haq taqdiridindur olam ichra,  
 YOmonu yaxshining yaxshi yomoni.  
 (Navodir ush-shabob, tarji'band)

T.a. san'ati mazmun nuqtai nazaridan ham ikki turga bo'linadi:

235

1) mutahodiy aks. Bunday T.a.da ikki so'z yoki iboraning tartibini o'zgartirib takrorlash oqibatida yangi ma'no hosil qilinmaydi.

Har ne ul buzdi, bu barin tuzdi,  
 Bu barin tuzdi, har ne ul buzdi  
 (Sab'ai sayyor)

2) majro aks. Bunda ikki so'z yoki birikmaning o'rin olmashinib takrorlanishi natijasida yangi ma'no hosil qilinadi:

Ne bo'ldi dardima, ey bevafo, davo qilsang,  
 Vafog'a va'da qilib, va'dag'a vafo qilsang.  
 (Badoyi' ul-vasat, 357-g'azal)

Alisher Navoiy "Majolis un-nafois"da "insoniyat va xush axloqliqda Xuroson va Samarqand mulkida yagona" bo'lgan Mirzobekning bir matla'sini keltirib, unda T.a.

san'ati qo'llanilganligini aytib o'tadi:  
 Ko'zung ne balo qaro bo'lubtur,  
 Kim jonga qaro balo bo'lubtur.

Navoiy keyinchalik Mirzobek tomonidan oxiriga yetkazilmagan bu parchani uning xotirasi uchun g'azal holiga keltirib, "Xazoyin ul-maoniy"ning birinchi devoni bo'lmish "G'aroyib us-sig'ar"ga 161-raqam ostida kiritadi.

(D.Yusupova)

TARSI' (ar. -gavharni ipga tizish) – baytning birinchi misrasidagi barcha so'zlarning ikkinchi misradagi so'zlar bilan o'zaro teng, vazndosh va qofiyadosh bo'lishiga asoslangan badiiy san'at. T.san'ati haqidagi dastlabki ma'lumot Umar 236

Roduyoniyning "Tarjumon ul-balogs'a" (11-a.) asarida keltirilgan bo'lib, muallif T.ni "baland darajada va sharif martabada" deb ta'kidlaydi va unga quyidagicha ta'rif beradi: "Tarsi' – forsiyda "ipga gavhar termoq" bo'lib, bu o'rinda uning bayoni shuki, kotib va shoirlar nazmu nasrda baytning qismlarini bo'lak-bo'lak qiladilar, toki har ikki so'z o'zaro barobar va vaznda muvofiq bo'lsin hamda so'zlarning avvalgi va oxirgi harflari birbiriga mos bo'lsin... Va bu qismlar balog'at ilmida baland darajada va sharif martababadur"

Aynan shu asardan boshlab ilmi badi'ga doir barcha forsiy risolalar T.san'ati ta'rifi bilan ibtido topganligini ko'rish mumkin.

T.san'ati g'azal yoki qasida janrida qo'llanganda asosan matla'da yuzaga keladi, chunki ushbu janrlarning qofiyalanish tizimi shuni taqozo etadi.

Alisher Navoiy asarlarida T. san'ati nazariy jihatdan asoslangan bo'lib, Navoiy o'zining "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida Salmon Sovajiyning masnu' qasidasini ta'riflash munosabati bilan ushbu san'atga ta'rif beradi va Salmon Sovajiy qasidasidagi nuqsonni ham ko'rsatib o'tadi: "...tarsi' san'atikim, matla'din o'zga baytda bo'la olmas, ul qasidaning agarchi mustaxraj matlai rostdur, ammo asli matla'da avvalgi misra'ning bir lafzida taxalluf qilibdur va matla' budurkim,

b a y t:

Safoi safvati ro'yat birext obi bahor,  
 Havoi jannati ko'yat bibext mushki tator".

Bu o'rinda Navoiy Salmon Sovajiyning qasida matla'ida qo'llagan T. san'atida bir so'zda (obi – mushki) taxalluf qilganini, ya'ni qofiya qoidasidan chetga chiqqanini ko'rsatib o'tadi.

"Majolis un-nafois"da esa Darvesh Mansur bir masnu' qasida bitganligi va uning matla'sida T. san'ati qo'llanilganligi haqida ma'lumot beradi:

Bas davidam dar hanoi vasli yor,  
 Kas nadidam oshnoi asli kor.

237

Shuningdek, Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn"da ushbu san'at borasidagi o'z mahoratini ham namoyish etadi:

"Bu matla'ga tatabbu' qilg'on ko'p suxanvarlar va nazmgustarlar chun muqobalada debdurlar, lat ebdurlar. Bu faqirning matlai budurki,

b a y t:

CHunon vazid ba bo'ston nasimi fasli bahor,  
K-az on rasid ba yoron shamimi vasli nigor.

Basorat ahli mulohaza qilsalar bilurlarki, bu matla' tarsi'ga voqe' bo'lur, aybdin  
muarro va murassa'g'a kelur, e'tirozdin mubarrodur".

Alisher Navoiyning T.san'ati asosida yozilgan ushbu bayti Atoulloh Husayniyning  
“Badoyi' us-sanoyi” (15-a.) asarida ham T. bilan bog'liq o'rinda keltirib o'tilgan.

Alisher Navoiyning T.san'atidagi badiiy mahorati yana shunda namoyon bo'ladiki,  
Navoiyga qadar arab, fors va turkiy she'riyatda hech bir ijodkor ruboiy janrini boshdanoyoq  
ushbu san'at asosida yaratmagan edi. Bu haqda shoirning o'zi shunday ma'lumot  
beradi:

“Bu nav' she'rning ta'kid va mubolag'asi uchun yana bir ruboiy ham debmenki, to  
Xalil binni Ahmad

72

ruboiy qoidasin vaz' qilibdur, tarsi' san'atida ruboiy aytilg'on  
eshitilmaydur, balki yo'qtur va ul budurkim,

r u b o i y:

Ey rui tu kavkabi jahon oroe,  
V-ey bui tu ashhabi ravon osoe,  
Be mui tu, yo rab, chunon farsoe,  
Gisui tu chun shabi fig'on afzoe"  
(Muhokamat ul-lug'atayn)

T. san'ati Navoiy “Xamsa”si tarkibidagi dostonlarda ham keng qo'llanilgan.

238

Noma uchun xoma tarosh ayladim,  
Xoma uchun noma xarosh ayladim

(Hayrat ul-abror)

Dardini najotim et, ilohi,  
YOdini hayotim et, ilohi!

(Layli va Majnun)

Ham yuzi oni beqaror etti,  
Ham so'zi oni ashkbor etti.

(Sab'ai sayyor)

SIYOQAT UL-A'DOD (ar. – ketma-ket sanash) – she'rda sodda otlarni muayyan  
tartib bilan ketma-ket keltirishga asoslangan san'at. Ilmi badi'ga doir mumtoz manbalarda  
ta'dil nomi bilan ham keladi. Atoulloh Husayniyning “Badoyi' us-sanoyi” (15-a.) asarida  
ushbu san'atga shunday ta'rif beriladi: “Arab fusahosi va ba'zi ajam shuarosi qoshinda  
sodda otlarni bir tartibu bir tariqada keltirmaktur”. Muallifning fikricha, agar she'rning  
oxirigacha bu san'atga rioya qilsalar, she'rning husni ortadi.

Shuningdek, asarda “shoir bir necha sonni o'z sirasi bo'yincha yoki sirasining  
aksincha yoki tartibsiz tarzda” keltirsa ham, S.a. san'ati hisoblanishiga e'tibor qaratiladi.

Alisher Navoiy ijodida S.a. san'atining istifoda etilishini quyidagi holatlarda ko'rish  
mumkin:

1. Bir bayt ichidagi misra doirasida S.a.ni qo'llash. Masalan,  
Mehru Mohu Mushtariyu Zuhra chun qildi tulu',

Hech nahs axtar tulu'i anda qat'o bo'lmasa.

(Favoyid ul-kibar, 24-g'azal)

Xizr monand sabzadin rangi,

Sabzasi, suyi, ko'zgusi, zangi.

239

(Sab'ai sayyor)

2. Bir she'rni to'laligicha S.a. san'ati asosida yozish. Bunda sonlarni ketma-ket keltirish yo'lidan boriladi. Masalan,

Tariqi ishq aro gar o'zni fard qilsa birov,

Harif emas eru ko'k, necha gar erurlar ikov.

Ko'nguldin ayla mavolid maylini kam-kam,

Bo'lurg'a fard mavoni'dururlar ushbu uchov.

Desang falakka chiqay, foniyl ul anosirdin,

Nedinki, ruhungadur chormix bu to'rtov.

Havosi xams ila maqsud bo'lindi mudrik,

Ko'ngulni top iki-uch uzb, besh emas bu beshov.

Fanoiy mahz etar «Sittai zaruriya»

Nedinki yo'qqa zarurat emas bu nav' oltov.

Xilofi shar' agar etti ko'kka chiqqungdur,

YAqinki, etti tamug'din batardur ul ettov.

Navoiyo, sekiz uchmoq havosidin kechgim,

Bular mavoni' erur, yor istar o'lsa birov.

(Favoyid ul-kibar, 506-g'azal)

(D.Yusupova)

TAVZI' (ar. – tarqatish, taqsimlash, ulashish) – baytda bir xil tovushlarni bir necha marta takrorlashga asoslangan san'at. Bunda shoir o'z fikrini ifodalash uchun 240

yangroqdosh, ya'ni bir xil yangroq tovushga ega bo'lgan so'zlardan foydalanadi. T.ni ng yuzaga chiqishi uchun aksariyat hollarda undosh tovushlarning takrorlanishi talab qilinadi, lekin ba'zan tovushdoshlik cho'ziq unlilar takroridan ham vujudga kelishi mumkin.

Alisher Navoiy o'z ijodida T. san'atidan unumli foydalangan. Shoir she'riyatida tovushdoshlik ba'zan bir misra doirasida, ba'zan bayt doirasida vujudga keltirilgan. Masalan, quyidagi baytda "k" tovushi bir bayt doirasida 6 tarta marta takrorlangan:

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro' kelmadi,

Ko'zlarimg'a kecha tong otquncha uyqu kelmadi.

(Badoyi' ul-vasat, 608 -g'azal)

Navoiy she'riyatida boshdan-oyoq ushbu san'at asosida yozilgan g'azallar ham uchraydi. Masalan, quyidagi g'azalda "j" tovushi uyuşdırılıb, T.san'ati hosil qilinganligini kuzatish mumkin:

Har labing o'lganni tırguzmakda, jono, jon erur,

Bu jihatdin bir-birisini birla jonojon erur.

Jonim andoq to'ldi jonondinki, bo'lmas fahmkim

Jon erur jonon emas yo'jon emas, jonon erur.

Bo'lsa jonon bordurur jon ham chu jonon qildi azm,  
 Jon ketib jonon bila jondin manga hijron erur.  
 Jon manga jonon uchundur, yo'qki jonon jon uchun,  
 Umr jononsiz qatiq, jonsiz vale oson erur.  
 Borsa jon, jonon yitar, gar borsa jonon, jon ketar,  
 Kimsaga jononu jonsiz umr ne imkon erur.

241

Xushturur jonusi jahon jonon bila, jonon agar  
 Bo'lmasa jon iylakim, o'lmasa jahon, zindon erur.  
 Jonim ol, ey hajru jononsiz manga ranj istama,  
 CHunki jononsiz Navoiy jonidin ranjon erur.  
 (G'aroyib us-sig'ar, 168-g'azal)

"Xamsa" tarkibidagi dostonlarda ham T. san'ati keng istifoda etilgan.

Dedikim: shahg'a bo'lma shirkat andesh,

Dedi: ishq ichra tengdur shohu darvesh!

(Farhod va SHirin)

YUz munchag'a elni moni' etma,

Ming munchag'a meni qoni' etma!

(Layli va Majnun)

Savol va topshiriqlar:

1. Ilmi badi' haqida umumiy ma'lumot bering.
2. Badiiy san'atlar to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. Radd ul-matla' qanday san'at?
4. Lafziy san'atlar deb nimaga aytildi?

Tayanch tushunchalar:

Ilmi badi'

Badiiy san'at

Radd ul-matla'

Radd ul-qofiya

Tayanch tushunchalar

Tursi'

Siyodiq ul-a'dod

Navoiy

Asosiy adabiyotlar:

1. Boltaboev H. Sharq mumtoz poetikasi. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008. – 426 b.
2. Is'hoqov Y. So'z san'ati so'zligi. – T.: O'zbekiston, 2014. – 320 b.
3. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – T.: SHarq, 1990.– 240 b.

242

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. – T.: SHarq, 1998. – 160 b.
2. Rahmonov V. She'r san'atlari. – T.: YOzuvchi, 2001. – 72 b.
3. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. – T.: Adabiyot va san'at

nashriyoti, 1979. – 214 b.

6-Mavzu. MA'NAVIY SAN'ATLAR HAQIDA MA'LUMOT

Reja:

1. Tashbeh va mubolag'a mumtoz adabiyotning tayanch badiiy vositalari sifatida.
2. Talmeh va tanosub san'atlari.
3. Tamsil haqida tushuncha.

Tashbih (ar. – o'xshatish) – ikki narsa yoki tushunchani ular o'rtasidagi haqiqiy yoki majoziy munosabatlarga ko'ra o'xshatish san'ati. T.san'ati tasvirlanayotgan shaxs, buyum yoki tushunchani aniqroq va yorqinroq ohib berishga xizmat qiladi. T.san'atiga ilmi badi'ga doir barcha manbalarda keng o'rin ajratilgan. Ushbu manbalarda T.ga berilgan ta'riflar bir-biriga asosan mos kelgani holda uning turlari borasida tafovutlar uchraydi. Masalan, ilmi badi'ga doir ilk forsiy manba hisoblanmish Umar Roduyoniyning "Tarjumon ul-balogs'a" (11-a.) asarida T.ning 5 ta turi (T.i mukano, T.i mashrut, T.i marju' anhu, T.i ma'kus, T.i muzdavaj), Rashididdin Vatvotning "Hadoyiq us -sehr" (12-a.) asarida T.ning 7 turi (T.i mutlaq, T.i aks, T.i kinoyat, T.i mashrut, T.i izmor, T.i tasvit, T.i tafzil), SHams Qays Roziyoning "Al-mo "jam" (1218-1233) asarida 7 ta turi (T.i sarih, T.i kinoyat, T.i mashrut, T.i ma'kus, T.i muzmar, T.i tasvit, T.i tafzil), SHayx Ahmad Taroziyoning "Funun ul-balogs'a" (1436-37) nomli turkiy risolasida T.ning 7 turi (T.i muallaq-mashrut, T.i kinoya, T.i tasviya, T.i aks, T.i tanqis, T.i tafze', T.i izmor) va h.k. keltirilgan.

T.san'ati quyidagi to'rt unsur asosiga quriladi:

1. Mushabbah (o'xshamish) – tasvirda fikr qaratilayotgan (o'xshatilayotgan) narsa yoki tushuncha
2. Mushabbahun bih (o'xshatilmish) – tasvirda qiyoslanayotgan narsa yoki tushuncha
3. Vajhi shabah (o'xshatish sababi) – nimaga ko'ra o'xshatishning yuzaga chiqqanligi
4. Odoti tashbih (o'xshatish vositasi) – o'xshatilish belgisi.

Masalan, "yorim go'zallikda SHirin kabitdir" deb tasvirlanganda, "yorim" – mushabbah, "SHirin" – mushabbahun bih, "go'zallikda" – vajhi shabah, "kabitdir" – odoti tashbeh.

Ushbu unsurlarning barchasi ishtirok etgan o'xshatish T.i mufassal deb ataladi.

Agar ulardan vajhi shabah tushirib qoldirilsa, bunday o'xshatish T.i mujmal va agar odoti tashbih ham qatnashmasa, bunday o'xshatish T.i muyaqquad deb ataladi. T.i muyaqquad T.i mufassalga qaraganda o'xshatish belgisining kuchliligi bilan ajralib turadi. Masalan, Ey nasimi subh, ahvolim diloromimg'a ayt,

Zulfi sunbul, yuzi gul sarvi gulandomimg'a ayt

(G'aroyib us-sig'ar, 84-g'azal)

243

misralarida Alisher Navoiy "yorimning zulfi sunbulga o'xhash" yoki "yorimning yuzi gul kabitdir" jumllalari o'rniga "zulfi sunbul", "yuzi gul" tarzidagi aniq va qisqa o'xshatishlarni qo'llar ekan, bunda yor go'zalligi yorqinroq namoyon bo'ladi.

Turkiy adabiyot, xususan Alisher Navoiy ijodida T.ning quyidagi turlari qo'llanilgan:

1. T.i sarih yoki mutlaq (aniq o'xshatish) – bir narsaning ikkinchi bir narsaga odoti tashbih (o'xshatish vositalari) yordamida o'xshatilishiga asoslangan T.

Navoiy sham'dek yig'lab, kuyub holimni sharh aylay,

Ul oy bazmida bir tun rost oshiqlarg'a bor o'lg'ach.

(G'aroyib us-sig'ar, 97-g'azal)

2. T.i mashrut (shartli o'xshatish) – bir narsaning ikkinchi narsaga muayyan shart bilan o'xshatilishiga asoslangan T. Navoiy g'azalidagi quyidagi baytlar shu san'at asosida yaratilgan:

Og'iz ichra tilingdek g'unchada gul bargi tar bo'lg'ay,

Vale bu shart ilakim, bargi gul ichra shakar bo'lg'ay.

Qadingg'a sarvi ra'no o'xshag'ay, lek ul zamonkim sarv  
Xiromon bo'lg'ayu gul bergay, ul guldin samar bo'lg'ay.

YUzung davrig'a oy davrini tashbih etkamen, vaqte

Ki, anda xol ila xat fitnai davri qamar bo'lg'ay.

Ko'zunga o'xshag'ay nargis, agar qiyamoch o'lub oqi,

Mudavvar asfari ichra, qoralig'din asar bo'lg'ay.

Xatingg'a qadr shomi o'xshag'ay bu shart birlankim,

Tajallি nuridin ul shom arosinda sahar bo'lg'ay.

CHu minsang ashhabing ul dam, quyosh bo'lg'ay sanga monand

Ki, bersa ko'kbo'zin javlon jahon zeru zabar bo'lg'ay.

Manga ishqingda Majnun birla Farhod o'xshag'ay ul chog'

Ki, bu bo'lg'ay jahon rasvosi, ul mundin batar bo'lg'ay.

(Navodir ush-shabob, 613-g'azal)

3. T.i aks (teskari o'xshatish) – bu xil T.da avval bir narsaga ikkinchi bir narsaga o'xshatiladi, so'ng buning aksi amalga oshiriladi, ya'ni ikkinchi narsa birinchi narsaga o'xshatiladi. Natijada mushabbah mushabbahun bihga, mushabbahun bih esa mushabbahga aylanadi.

Su ko'zgusini bog' aro aylarda shitob,

Siymob qilur erdi taharruk bila tob.

Day qildi bu simobni andoq ko'zgu

Kim ko'zgu aning qoshida bo'lg'ay siymob.

(G'aroyib us-sig'ar, 14-ruboiy)

4. T.i tasviya (tenglashtirilgan o'xshatish) – bu xil T.da shoir o'zidagi biror narsani tasvirlanayotgan shaxsdagi biror narsaga o'xshatadi, so'ng ularni boshqa biror belgi bilan qiyoslaydi.

Mening firoqimu aning visoli tun bila tong,

Bu nav' dahrda yo'q ehtimole tun bila tong.

(Badoyi' ul-vasat, 363-g'azal)

5. T.i muzmar yoki izmor (yashirin o'xshatish) – bunda shoir bir qarashda o'xshatishni maqsad qilmagandek tuyuladi, aslida esa uning asl niyati o'xshatish bo'ladi.

YUzinda xaymudur yo manglayidin qatra, vah, ko'rgil

Ki, guldinmu oqar shabnam, quyoshdinmu tomar axtar?!

(Badoyi' ul-vasat, 161-g'azal)

6. T.i tafzil yoki marju' (chechinish yo'li bilan o'xshatish) – bu xil T.da shoir avval bir narsani ikkinchi bir narsaga o'xshatadi-yu, keyin undan voz kechib,

o'xshamishni o'xshatilmishdan ustun qo'yadi. Bunda T. ruju' san'ati bilan qorishiq holda qo'llaniladi.

Ziynat aro ravzai rizvondur ul,  
Ravzani qo'y, mulki Xurosondur ul.  
(Hayrat ul-abror)

7. T.i kinoya (kinoya yo'li bilan o'xshatish) – T.unsurlaridan faqat mushabbahun bih (o'xshatilmish) ishtirok etuvchi o'xshatish turi. Ko'p hollarda T.i kinoya istiora san'atiga teng keladi.

La'ling olsa choklik bemor ko'nglumni ne tong  
Ey malohat naxli, chunkim xastasiz bo'lmas rutab.

(G'aroyib us-sig'ar, 45-g'azal)

8. T.i musalsal (ketma-ket o'xshatish) yoki T.i jam' – bir narsaga bir necha narsaga ketma-ket o'xshatishga asoslangan T. Bunda mushabbah bitta, mushabbahun bih bir nechta bo'ladi.

Zavraq ichra ul quyosh sayr aylamag Jayhun aro,  
Axtari sa'de hilol ichra kezar gardun aro.

Anglamon Jayhunda ul oy kema birla sayr etar  
YO hilolu mehr aksin el ko'rар Jayhun aro.

(G'aroyib us-sig'ar, 20-g'azal)

(D.YUsupova)

TALMIH (ar. – nazar tashlash, chaqmoq chaqishi) – nazm yoki nasrda mashhur tarixiy voqealar, afsonalar, qissalar, she'r, masal yoxud maqollarga ishora qilishga asoslangan she'riy san'at. Bunda ko'proq Qur'oni Karim suralarida aks ettirilgan afsona va hikoyalar qahramonlari: payg'ambarlar, farishtalar nomlari; adabiy asar qahramonlari nomlari, joy nomlari nazarda tutiladi. T.san'atining nomi dastlab Shams Qays Roziyning "Al-mo‘jam" asarida (13-a.) uchraydi. Bunda T. "oz so'z bilan ko'p ma'noni ifodalovchi" san'at sifatida keltiriladi. U haqdagi nisbatan kengroq ma'lumot Atoulloh Husayniyning "Badoyi" us-sanoyi" asarida berilgan bo'lib, muallif "kalomda mashhur qissa yo mashhur nodir she'r yoki mashhur maqolga ishorat etmak" T. ekanligini aytadi va fikrlarining dalili sifatida Yusuf qissasiga (Ya'qubning ismini eslash orqali), Hofiz g'azaliga va mashhur maqolga ishora qilingan 3 bayt keltiradi.

T. san'ati ijodkorga bir ishora vositasida ko'zda tutilgan fikrni batafsil tarzda ifodalash imkonini beradi. SHu jihatdan manbalarda T.ning iyoz, iqtibos, irsolı masal san'atlariga yaqin turishi ta'kidlanadi. T.dagi ishora tarixiy voqeа, afsona, qissa yoki badiiy asar nomi, ular bilan bog'liq biror so'zni tilga olish orqali ochiq yoki yashirin tarzda amalga oshirilishi mumkin. Shu ma'noda T.ning shartli ravishda ochiq va yashirin turlari farqlanadi. Alisher Navoiy asarlarida T.ning har ikki turi qo'llanilgan. Masalan, Ishq aro rasvolig'im elga berur Majnunni yod,

O'ylakim aylar ani ko'rgan meni mahzunni yod.

Navodir ush-shabob, 124-g'azal)

baytida "Majnun" ismiga ishora qilish orqali mashhur Layli va Majnun qissasi yodga olinyapti va bunda T.ning ochiq tarzda namoyon bo'layotganligini ko'ramiz.

Ko'p malohat bobida SHirindin aytur Ko'hkan,  
Sabzshirinimcha ul bor erdi erkinmu malih.

246

(Navodir ush-shabob, 103-g'azal)

Yuqoridagi baytda esa T.ning har ikki turi qo'llanilganligini kuzatish mumkin. "SHirin" ismining keltirilishi ochiq T.ga misol bo'lsa, "Ko'hkan" so'zi "tog" qazuvchi" ma'nosini anglatgani uchun bu lafz orqali Farhod nazarda tutilayotganligini anglash mumkin bo'ladi.

TAMSIL (ar. – misol keltirish, dalillash) – she'r baytining birinchi misrasida ifodalangan fikrga dalil sifatida ikkinchi misrada hayotiy bir hodisani misol qilib keltirishga asoslangan badiiy san'at. Bunda birinchi misradagi fikr bilan keltirilgan misol o'rtasidagi munosabat, ya'ni mantiqiy aloqa ko'pincha qiyosiy yo'nalishda bo'ladi. T.san'ati mohiyatiga ko'ra irsolı masal san'atiga o'xshab ketsa-da, fikrning, maqsadning isboti uchun hayotiy dalillar keltirishi bilan undan farqlanadi, chunki irsolı masalda mashhur maqol, hadis yoki hikmat dalil sifatida keltiriladi.

T. haqidagi dastlabki ma'lumot Shams Qays Roziyning "Al-mo‘jam" (1218-1233) asarida keltirilgan bo'lib, muallif T.ni istioraning bir turi sifatida sanab o'tadi: "Ushbu san'at ham istioralarga mansubdir. Faqat u istioraning misol keltirish bilan bog'liq turi bo'lib, agar shoir biror fikrga ishora qilmoqchi bo'lsa, boshqa ma'noni anglatuvchi so'zlarni shu fikrga monand qilib keltiradi va shu orqali o'zi maqsad qilgan ma'noni ifodalaydi". Aynan shu kabi fikrlar ilmi badi'ga doir boshqa manbalar: Husayn Voiz Koshifyning "Badoyi' ul-afkor" (15-a.) va Atoulloh Husayniyning "Badoyi' us-sanoyi'" (15-a.) asarlarida ham takrorlangan.

Alisher Navoiy ijodida T.san'atining istifoda etilishi alohida jihat kasb etadi. SHoir lirikasida ushbu san'atning qo'llanilishida janrlararo tabaqalanish mavjudligini kuzatish mumkin. Xususan, poetik dalillash g'azal janrida, asosan, bir bayt doirasida ko'rinsa, qit'a va ruboiyda bir she'r doirasida, tarji'bandda esa har bir band doirasida namoyon bo'ladi, lekin takrorlanuvchi maqta'-bayt tufayli bandlar bir-biri bilan bog'lanib keladi. Natijada maqta'dagi mazmunni dalillash musalsal, ya'ni bosqichli holat kasb etadi (Y.Is'hoqov). Masalan, quyidagi misolda dalillash usuli g'azaldagi bayt doirasida namoyon bo'lmoqda:

Zaxmim ichra qoldi paykoning, ne yanglig' butkay ul,  
CHunki qo'ymas yorag'a yopushqali marhamni su.

247

(G'aroyib us-sig'ar, 511-g'azal ).

Quyidagi ruboiyda esa T.san'ati yaxlit bir she'r doirasida qo'llanilganligini kuzatamiz:

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,  
El anga shafiq mehribon bo'lmas emish.  
Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa,  
Bulbulg'a tikandek oshyon bo'lmas emish.

(G'aroyib us-sig'ar, 55-ruboiy).

Navoiy qit'alarida T.san'ati muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu janrda ijtimoiytarbiyaviy mazmun, pand-nasihat ruhi etakchilik qiladi va shu sababli har bir muhim fikr va xulosa hayotiy hodisalar bilan dalillanadi. Masalan, quyidagi qit'ada birinchi baytda shoir aytmoqchi bo'lgan fikr-xulosa bayon qilingan bo'lsa, keyingi baytlarda uning dalilisboti keltirilgan:

YUz tuman noplak erdin yaxshiroq  
 Pok xotunlar ayog‘ining izi,  
 Lut o‘g‘lin ko‘rki soldi tiyralik  
 Ding‘a nafs ilgida tab’i ojizi.  
 Dahr aro yoqtisiyodat mash’alin,  
 Pokravliqtin rasululloh qizi.  
 (Navodir ush-shabob, 9-qit‘a)

TANOSUB (ar. – mos, mutanosib, daxldor) – baytda ma’no jihatdan bir-biriga yaqin va o‘zaro mutanosib so‘zlarni qo‘llashga asoslangan badiiy san’at. Ilmi badi’ga doir mumtoz manbalarda muroat un-nazir (ba’zan tavfiq, iytifof va talfiq) nomi bilan keladi. T.san’ati haqidagi dastlabki ma’lumot Umar Roduyoniyning “Tarjumon ul -balog‘a” (11-248

a.) asarida keltirilgan: “Agar she’r aytuvchi ma’no jihatidan bir-biriga o‘xhash, xususan “oyu quyosh, daryoyu kishtiy” kabi so‘zlarni qo‘llasa, uni muroot un-nazir deb ataydilar”. T. T. haqdagi nisbatan kengroq ma’lumot Atoulloh Husayniyning “Badoyi’ ussanoyi” (15-a.) asarida berilgan bo‘lib, muallif ushbu san’atga shunday ta’rif beradi: “Ani tanosub, tavfiq, iytifof va talfiq ham derlar, Ul andog‘durkim, kalomda anga munosib hodisa va nimalarni jam’ qilurlar...” SHuningdek, asarda T. san’atining darajalari va nomlanishi bilan bog‘liq muhim ma’lumotlar ham keltirib o‘tilgan.

Alisher Navoiy ijodida T.san’ati keng istifoda etilgan bo‘lib, bu san’atning shoir lirikasida qo‘llanilish holatini quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Bayt tarkibida bir guruhga mansub va ma’no jihatdan bir-biriga yaqin bir necha so‘zlarni keltirish orqali T.san’atini qo‘llash. Masalan,
2. Bayt tarkibida ikki ma’no guruhiga oid so‘zlarni keltirib, har ikki guruh orasidagi so‘zlarni bir-biriga qiyoslash yoki qarshi qo‘yish orqali T. san’atini qo‘llash. Masalan,

Xattining vasfin yozarmen kirpiqu xoli bila,  
 Xat yozarda chun zaruratidur qalam birla midod.

(G‘aroyib us-sig‘ar, 120-g‘azal)

Kema og‘zi demakim, ishqingda ko‘ksum chokidur,  
 Bahr mavji yo‘qli, ashkim saylining ko‘lokidur.

Suda ermas mehr aksi, balki daryo jonig‘a  
 Solg‘an o‘tlar xasta jonim ohi otashnokidur.

Xas emas girdob arokim boshinga evrulgali  
 Su uza sargashta oshiq jismining xoshokidur.

Vahki, ul kishtida daryokush, manga xud yo‘q hayot  
 El degandinkim, falonning kofiri bebokidur.

249

Ul bolig‘ tutqanda solib shastu aning rashkidin,  
 Sudin ayrilg‘an balig‘ yanglig‘ ko‘ngul topokidur.  
 Ko‘rma faqr ahli sirishki bahrida har yon hubob  
 Kim, fano kavkablari, balkim balo aflokidur.  
 Ey Navoiy, kema tiyri ko‘ksum ichra hajr o‘qi,  
 Kema og‘zi go‘yiyo ishqida ko‘ksum chokidur.

(G‘aroyib us-sig‘ar, 134-g‘azal)

Savol va topshiriqlar:

1. Tashbeh san'ati haqida nimalarni bilasiz?
2. Tashbehning necha xil turlari mavjud va ularni ayting.
3. Talmih san'ati haqida nimalarni bilasiz?
4. Tamsil san'ati asosida yaratilgan baytlardan misol keltiring.

Tayanch tushunchalar:

Tashbeh

Talmih

Tamsil

Tamsil

Muharrag‘a

Asosiy adabiyotlar:

1. Boltaboev H. Sharq mumtoz poetikasi.– T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi , 2008. – 426 b.
2. Is’hoqov Y. So‘z san'ati so‘zligi.–T.: O‘zbekiston , 2014. – 320 b.
3. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. –T.:Sharq,1990.– 240 b.

Xorijiy adabiyot:

- 1.Julie Scott Meisami. Structure and Meaning in medieval Arabic and Persian poetry. – London, 2003.

Qo‘sishimcha adabiyotlar:

1. Hojiahmedov A. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya. – T.: Sharq, 1998. – 160 b.
2. Rahmonov V. She’r san’atlari.– T.:Yozuvchi,2001. – 72 b.
3. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. – T.:Adabiyot va san’at nashriyoti, 1979. – 214b.
4. Musulmankulov R. Persidsko-tadjikskaya klassicheskaya poetika (X-XVv.). – M.: Nauka,1989. –240 s.

250

7-mavzu. Ilmi qofiya haqida ma'lumot.

Reja:

1. Qofiya unsurlari.
2. Mumtoz qofiya turlari.
3. Qofiyaning o’zak tarkibiga ko’ra farqlanuvchi turlari. Mujarrad, muassas, murdaf va muqayyad(qaydli) qofiyalar.
4. Qofiyaning tuzilishiga ko’ra turlari. Mutlaq va muqayyad qofiyalar.

Ma’ruzaning qisqacha bayoni:

QOFIYa (ar.) – misra oxiridagi so‘zlarning ohangdoshligi. Misralar oxiridagi qo‘sishimcha, so‘z va so‘z qo‘silmalarining o‘zaro ohangdosh bo‘lib kelishi. Qofiya lirik asarning musiqiyligi, ohangdorligi va ta’sirchanligini kuchaytiradi, uning yod olinishini osonlashtiradi.

Qofiya mumtoz she’rshunoslikda vazn kabi she’riy ritmni vujudga keltiruvchi asosiy unsur bo‘lib, uning bayt so‘ngida qo‘llanilishi zaruriy talablardan biri bo‘lgan. Shoirning badiiy mahorati she’rda qo‘llanilgan qofiyaning g‘oyalar mohiyati, timsollar olamini

ochishdagi ahamiyati, qofiya uchun tanlangan so‘zlarning ma’noviy ko‘lami va ohangdorligi bilan ham belgilangan. Sharq musulmon adabiyotshunosligida qofiya haqidagi nazariy qarashlar maxsus fan – ilmi qofiyada o‘z ifodasini topgan.

Qofiyaning tarkibiy qismini 9 ta asosiy va 6 ta qo‘srimcha harflar tashkil qiladi. Qofiyaning zarur shartlaridan biri unda albatta raviy harfining bo‘lishidir.

Q. harflaridan qolganlarining joylashish tartibi raviy harfiga bog‘liq bo‘lib, undan oldin qayd, ridf, ta’sis va daxl harflari, undan keyin esa vasl, xuruj, mazid va noira harflari kelishi mumkin. Shuningdek, Q.ning tarkibiy qismiga kiradigan Q.harflari ham mavjud bo‘lib, ular qisqa unli tovushni ifodalovchi harflar: “a”, “i” va “u” yordamida vujudga keladi. Ushbu qofiya harflarining soni oltita: ras, ishbo‘, hazv, tavjih, majro, nafoz. Ular qofiyaning qo‘srimcha tarkibiy qismi bo‘lib, Q.da uchrashi ham, uchramasligi ham mumkin.

Q. raviy harfi bilan tugallansa, muqayyad Q. deb, raviydan keyin ham davom etsa, mutlaq Q. deb ataladi. Ushbu Q.lar tuzilishiga ko‘ra yana to‘rtta katta guruhga ajratiladi:

- 1) Mujarrad Q. (q.)
- 2) Murdaf (ridfli) Q. (q)
- 3) Muqayyad (qaydli) Q. (q)
- 4) Muassas (ta’sisli) Q. (q)

Ushbu Q.guruhlari yana o‘z ichida bir qancha turlarga ajratiladi. Q.turlari yuqorida sanalgan Q.harflarining ishtiroki orqali belgilanadi. Shu ma’noda nazariy jihatdan Q.ning 55 ga yaqin turini keltirib chiqarish mumkin. Turkiy she’riyatda Q.ning 25 turi keng qo‘llanilgan bo‘lib, shulardan 23 tasi Alisher Navoiyning “Xazoyin ul maoniy” kulliyotida istifoda etilgan (M.Akbarova).

**QOFIYA UNSURLARI** – qofiyadosh so‘zlarda ohangdorlikni vujudga keltiruvchi asosiy harf va belgilar. Ular yozuvda ifodalanishiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi: 1) qofiya harflari va 2) qofiya harakatlari. Qofiya harflari mumtoz poetikaga doir manbalarda “hurufi qofiya” nomi bilan keladi. Ular qofiyaning qaysi qismida q o‘llanilishiga qarab ikki guruhga ajratiladi: a) o‘zak tarkibida keladigan harflar. Ularning soni 5 ta bo‘lib, quyidagilardir:

251

1. Raviy (ar.) – yukni tuyaga bog‘laydigan arqon. Qofiyadosh so‘zlar o‘zagi yo negizi so‘ngida aynan takrorlanib keluvchi cho‘ziq unli yoki undosh harf. Mumtoz poetikaga doir manbalarda qofiyaning assosini tashkil qiluvchi va takrorlanishi shart bo‘lgan harf sifatida tilga olinadi. Mumtoz qofiya talabiga ko‘ra, qofiyadosh so‘zlar o‘zagi oxirida kelgan qisqa unli raviy bo‘la olmaydi, bunday hollarda undan oldin to‘rgan undosh harf raviy hisoblanadi. Masalan, Alisher Navoiyning Sham’dekqomatuyuzsham’iilajonona,

Qildi o‘rtarga ko‘ngullar qushini parvona. –

deb boshlanuvchi g‘azalida qofiyadosh so‘zlar (jonona – parvona) oxiridagi qisqa “a” unlisi emas, balki undan oldin to‘rgan “n” undoshi raviydir.

1. Ta’sis (ar.) – asoslash. Raviy harfidan oldin bir harakatli undosh joylashgach, shu undoshdan oldin keladigan cho‘ziq “o” unlisi. Mumtoz poetika talabiga ko‘ra, faqat “o” unlisi ta’sis vazifasini bajarishi mumkin. Masalan, “moyil – hamoyil”dagi “o” unlisi ta’sis hisoblanadi. Ta’sis qatnashgan qofiya turi muassas qofiya (q.) deb yuritiladi.

1. Daxil (ar.) – oraga kiruvchi. Ta'sisdan keyin keluvchi birinchi undosh harf. Daxil ko‘p hollarda takrorlanadi, ba’zan esa takrorlanmasdan, ikki turli xil undosh daxil bo‘lishi mumkin. Masalan, “tojir –musofir”da “j” va “f” undoshlari daxildir (qarang: muassas qofiya).
  2. Ridf (ar.) – mingashish, izma-iz ergashish. Raviy harfidan oldin keluvchi ch o‘ziq unli harf. Mumtoz poetikaga doir manbalarda uning ikki turi keltiriladi:
    - 1)ridfi asliy (asosiy ridf) yoki ridfi mufrad (yakka ridf)– raviydan oldin keluvchi cho‘ziq unli harf. Masalan, “jon – rayhon”da “o” unlisi ridfi asliydir.
    - 2) ridfi zoyid (orttirma ridf) – ridfi asliy va raviy orasida takrorlanib keluvchi undosh harf. Masalan, “rost – norost”da “s” undoshi ridfi zoyid hisoblanadi. Ridf qatnashgan qofiya turi murdaf qofiya (q.) deb yuritiladi.
  3. Qayd (ar.) – bog‘langan. Qator undosh bilan tugagan so‘zlarda raviydan oldin, qisqa unlidan keyin kelib takrorlanuvchi undosh harf. Masalan, “arjumand – pisand” qofiyalarida “n” undoshi qayddir. Qayd qatnashgan qofiya turi muqayyad(qaydli) qofiya (q.) deb yuritiladi.
  - b) qo‘sishimcha tarkibida qo‘llaniladigan harflar:
    1. Vasl (ar.) – ulanish. Raviydan keyin keluvchi cho‘ziq unli yoki undosh harf. Masalan, “shiddati – furqati” qofiyalarida “t”dan keyin keluvchi cho‘ziq “u” unlisi vasldir. Vasl qatnashgan qofiya tuzilishiga ko‘ra mutlaqqofiya (q.) hisoblanadi.
    2. Xuruj (ar.) – tashqari chiqish. Vasldan keyin keluvchi cho‘ziq unli yoki undosh harfdir. Masalan, “zamondin – ondin” qofiyalarida birinchi to‘rgan “n” raviy bo‘lsa, undan keyin kelgan “d” undoshi – vasl, qofiya so‘ngida to‘rgan “n” esa xurujdir. Xuruj qatnashgan qofiya tuzilishiga ko‘ra mutlaqqofiya (q.) hisoblanadi.
    3. Mazid (ar.) – orttirilgan. Xurujdan keyin keluvchi cho‘ziq unli yoki undosh harfdir. Masalan, “hamdamlari – xurramlari” qofiyalarida “r” harfi xuruj, undan keyin kelgan cho‘ziq “i” unlisi maziddir.
  - MUJARRAD QOFIYA (ar.) – yakka, yolg‘iz, tanho. Qofiyaning o‘zak tarkibiga ko‘ra farqlanuvchi turlaridan biri. Bunday qofiya turida raviy harfi ch o‘ziq unlidan iborat bo‘lishi yoki raviy undosh bilan yakunlanib, undan oldin tavjih – qisqa unli kelishi assosiy talab hisoblanadi. Forsiy va turkiy she’riyatda keng qo‘llanilgan. M.q.haqidagi ma’lumotlar Shams Qays Roziyning “Al -mo‘jam”(1218-1233), Nasiruddin Tusiyning 252  
“Me’yor ul-ash’or” (1253) asarlarda keltirilgan. Ushbu asarlarda M.q. raviydan avval keluvchi (moqabli raviy) harflar bilan bog‘liq holda talqin qilinadi.  
M.q. raviy harfidan keyin harflarning qo‘llanilish va qo‘llanilmasligiga ko‘ra muqayyad (q.) va mutlaq (q.) ko‘rinishlariga ega bo‘ladi. Alisher Navoiy ijodida M.q.ning bir necha turlari keng qo‘llanilgan:
  - I. Mujarrad muqayyyad qofiya. Uning ikki ko‘rinishi mavjud bo‘lib, birinchi ko‘rinishida raviy cho‘ziq unlidan iborat bo‘ladi va unda shu cho‘ziq unlidan boshqa biror harf ishtirok etmaydi.
- Masalan:
- Ko‘zung ne balo qaro bo‘lubtur,  
Kim jonga qaro balo bo‘lubtur.  
(G‘aroyib us-sig‘ar, 161-g‘azal)

Bunda “qaro” va “balo” so‘zlaridagi “o” raviysi cho‘ziq unli bo‘lib, qofiyadosh so‘zlar shu harf bilan yakunlangan.

Mujarrad muqayyad qofiyaning ikkinchi turida raviy undosh bilan yakunlanib, undan oldin qisqa unli keladi. Bunda qisqa unli tavjih deb yuritiladi.

Masalan:

Yor holdin menga vahkim xabar yo‘qtur bu kun,

Bu jihatdin aqlu hushumdin asar yo‘qtur bu kun.

(Favoyid ul-kibar, 485-g‘azal)

Bunda “xabar” va “asar” so‘zleri qofiyadosh bo‘lib, “r” undoshi raviy, undan oldingi “a” qisqa unlisi tavjih bo‘lib hisoblanadi. Qofiya raviy harfi bilan yakunlanyapti va shu orqali mujarrad muqayyad qofiya vujudga kelyapti .

II. Mujarrad mutlaq qofiya. Uning ham bir necha turlari bo‘lib, raviy harfidan keyin keluvchi harflar: vasl, xuruj, mazid va noira bilan bog‘liq holda vujudga keladi (ushbu harflar orasida keluvchi qisqa unlilar: majro va nafoz nomlanishda e ’tiborga olinmaydi). Navoiy g‘azaliyotida mujarrad mutlaq qofiyaning quyidagi turlari qo‘llanilgan:

1. Vasli mujarrad mutlaq qofiya – raviydan keyin vasl (q.) harfini kelishi orqali yasaladi. Masalan:

Necha yilda qilmadi ko‘nglumga ishq shiddati,

Ulcha qildi xasta jong‘a necha kunluk furqati. –

(Navodir ush-shabob, 587-g‘azal)

baytida “shiddati”, “furqati” so‘zleri qofiya, “t” – raviy, undan oldin to‘rgan “a” harfi – tavjih, raviydan keyin to‘rgan cho‘ziq “i” unlisi vasl hisoblanadi.

2. Xurujli mujarrad mutlaq qofiya – raviydan keyin vasl va xuruj (q.) harflarini keltirish orqali hosil qilinadi. Masalan:

Rafiqlar, meni mahzun nechuk bo‘lay g‘amsiz

Ki, ko‘nglum ermas alamsiz, ko‘zum emas namsiz.

(G‘aroyib us-sig‘ar, 200-g‘azal )

253

baytida “g‘amsiz”, “namsiz” so‘zleri qofiya, “m” – raviy, undan oldin to‘rgan “a” qisqa unlisi – tavjih, raviydan keyin to‘rgan “s” harfi – vasl, vasldan keyin to‘rgan “z” undoshi – xuruj, vasl va xuruj o‘rtasida joylashgan qisqa “i” unlisi majro (q.) hisoblanadi.

3. Mazidli mujarrad mutlaq qofiya – raviydan keyin vasl, xuruj va mazid (q.) harflarining kelishi orqali yasaladi. Masalan:

Ikki hamdamkim, erur may bazm aro hamdamlari,

Topmasun bizdin malolat xotiri xurramlari.

(G‘aroyib us-sig‘ar, 592-g‘azal)

Bunda “hamdamlari”, “xurramlari” so‘zleri qofiya, “m” – raviy, undan oldin to‘rgan “a” qisqa unlisi – tavjih, raviydan keyin to‘rgan “l” harfi – vasl, “l” va “r” undoshlari o‘rtasida to‘rgan qisqa “a” unlisi – nafoz (q.) vasldan keyin to‘rgan “r” undoshi – xuruj, xurujdan keyingi cho‘ziq “i” unlisi mazid hisoblanadi.

4. Noyirali mujarrad mutlaq qofiya – raviydan keyin vasl, xuruj, mazid va noyira (q.) harflarini keltirish orqali hosil qilinadi. Masalan:

Chu ishq ilgi zabun aylar dilovar podsholarni,

Taaqqlu aylagilkim, naylagay bedil gadolarni. –

(G‘aroyib us-sig‘ar, 641-g‘azal)

baytida “podsholarni”, “gadolarni” so‘zlari qofiya, “o” – raviy, raviydan keyin to‘rgan “l” harfi – vasl, vasldan keyin to‘rgan “r” undoshi – xuruj, vasl va xuruj o‘rtasida joylashgan qisqa “a” unlisi majro, “n” – mazid, maziddan keyingi cho‘ziq “i” unlisi noira hisoblanadi.

MURDAF QOFIYA (ar.) –..... Qofiyaning o‘zak tarkibiga ko‘ra farqlanuvchi turlaridan biri. Ridfli qofiya deb ham ataladi. Bunday qofiya turida raviy harfidan oldin cho‘ziq unlilardan biri – ridfiasliy, ba’zan esa ridfi zoyid keladi. M.q. forsiy va turkiy she’riyatda keng qo‘llanilgan. M.q.haqidagi ma’lumotlar Shams Qays Roziyning “Al-mo‘jam”(1218-1233), Nasiruddin Tusiyuning “Me’yor ul-ash’or” (1253) asarlarida keltirilgan. Ushbu asarlarda M.q. raviydan avval keluvchi (moqabli raviy) harflar bilan bog‘liq holda talqin qilinadi.

M.q. raviy harfidan keyin harflarning qo‘llanilish va qo‘llanilmasligiga ko‘ra muqayyad (q.) va mutlaq (q.) ko‘rinishlariga ega bo‘ladi. Alisher Navoiy ijodida M.q.ning bir necha turlari qo‘llanilgan:

I.Ridfli muqayyad qofiya. Alisher Navoiy g‘azaliyotida uning ikki turi keng qo‘llanilgan bo‘lib, ular quyidagilardir:

1. Ridfi asliyli muqayyad qofiya – raviydan oldin ridfi asliy (ko‘pincha “o”)ni keltirish orqali hosil qilinadi. Mufrad ridfli muqayyad qofiya deb ham ataladi. Masalan: To bo‘ldi ko‘ngul ul ko‘zi usrukka giriftor,

El ko‘ziga sog‘men, vale o‘z-o‘zuma bemor. –

(G‘aroyib us-sig‘ar,182-g‘azal)

baytida “giriftor” va “bemor” so‘zlari qofiya, “r” – raviy, undan oldin to‘rgan “o” unlisi – ridfi asliy. Qofiyadosh so‘zlarda birgina ridfi asliy ishtirok etayotganligi uchun ushbu qofiya turi shunday atalgan.

254

2. Ridfi zoyidli muqayyad qofiya – raviy bilan ridfi asliy orasida yana bir undosh – ridfi zoyidning takrorlanib kelishi asosida vujudga keladi. Boshqacha aytganda, qator undoshdan oldin cho‘ziq unlining kelishiga asoslangan qofiya. Murakkab ridfli muqayyad qofiya deb ham ataladi. Masalan:

Chun kinavu qatlin angladim rost,

Qildim neki mumkin erdi darxost -(Layli va Majnun)

baytida “rost” va “darxost” so‘zlari qofiya, “t” harfi – raviy, “o” – ridfi asliy, “s” -ridfi zoyiddir.

II. Ridfli mutlaq qofiya.Uning ham bir necha ko‘rinishlari bo‘lib, raviy harfidan keyin keluvchi harflar: vasl, xuruj, mazid va noira bilan bog‘liq holda vujudga keladi (ushbu harflar orasida keluvchi qisqa unlilar: majro va nafoz nomlanishda e’tiborga olinmaydi). Navoiy ijodida ridfli mutlaq qofiyaning quyidagi turlari qo‘llanilgan:

1.Ridfi asliy va vaslli mutlaq qofiya – ridfi asliy va raviydan keyin vaslning kelishi orqali hosil qilinadi. Masalan:

Ham ramad tekkan ko‘zungga chashmi bedorim fido,

Ham uchuq chiqqan labingga joni afgorim fido. –

(G‘aroyib us-sig‘ar, 31-g‘azal)

baytida baytida “bedor” va “afgor” so‘zлari qofiya, “r” – raviy, undan oldin to‘rgan “o” unlisi – ridfi asliy, raviydan keyin to‘rgan qisqa “i” unlisi - nafoz, “m” harfi vasl hisoblanadi.

2.Ridfi asliy va xurujli mutlaq qofiya – ridfi asliy va raviydan keyin vasl va xuruj harflarining kelishi orqali hosil qilinadi. Masalan:

Oshiq o‘ldum, necha javr ahli zamondin tortayin,

Ulkim oshubi zamondur bori ondin tortayin.

(Navodir ush-shabob, 480-g‘azal)

Yuqoridagi baytda “zamondin” va “ondin” so‘zлari qofiya, birinchi “n” – raviy, raviydan oldin to‘rgan “o” unlisi – ridfi asliy, “d” – vasl, qisqa “i” – nafoz, qofiyaning oxirida to‘rgan “n” harfi xuruj hisoblanadi.

3.Ridfi asliy va mazidli mutlaq qofiya – ridfi asliy va raviydan keyin vasl, xuruj va mazid harflarining kelishi orqali hosil qilinadi. Masalan:

Ko‘rung, g‘am qatlghohida, balo jallodi qoshimda,

Junun zanjiri bo‘ynumda, siyosat tig‘i boshimda. –

(Favoyid ul-kibar, 565-g‘azal)

baytida “qoshimda” va “boshimda” so‘zлari qofiya, “sh” harfi – raviy, raviydan oldin to‘rgan “o” unlisi – ridfi asliy, raviydan keyin to‘rgan qisqa “i” unlisi – majro, “m” – vasl, “d” – xuruj, “a” harfi mazid hisoblanadi.

4.Ridfi asliy va noyirali mutlaq qofiya – ridfi asliy va raviydan keyin vasl, xuruj, mazid va noira harflarining kelishi orqali hosil bo‘ladi. Masalan:

O‘n sakiz ming olam oshubi agar boshindadur,

255

Ne ajab, chun sarvinozim o‘n sakiz yoshindadur.

(Badoye’ ul-vasat, 156-g‘azal)

Ushbu baytda “boshindadur” va “qoshindadur” so‘zлari qofiya, “sh” harfi – raviy, raviydan oldin to‘rgan “o” unlisi – ridfi asliy, raviydan keyin to‘rgan qisqa “i” unlisi – majro, “n” – vasl, birinchi “d” – xuruj, “a” harfi – mazid, keyingi barcha harflar: “d”, “u” va “r” noyira hisoblanadi.

5.Ridfi zoyidli mutlaq qofiya – ridfi zoyid va raviy harfidan keyin vaslning kelishi orqali hosil bo‘ladi.

MUTLAQ QOFIYA(ar.) – yetuk, to‘liq. Qofiyaning tuzilishiga ko‘ra farqlanuvchi turlaridan biri. M.q.da raviy (q.) harfidan keyin qofiyaning boshqa harflari (vasl, xuruj, mazid, noyira) ham ishtirok etadi. Shams Qays Roziyning “Al-mo‘jam”(1218-1233) asarida M.q. raviy harfining ikki nav’idan biri sifatida, Nasiruddin Tusiyuning “Me ‘yor ulash’or” (1253) asarida qofiyaning holatiga ko‘ra farqlanuvchi turlaridan biri sifatida keltirilgan.

Alisher Navoiy g‘azaliyotida M.q. keng qo‘llanilgan. Masalan:

Qoshi yosinmu deyin, ko‘zi qarosinmu deyin,

Ko‘ngluma har birining dardu balosinmu deyin? –

(Navodir ush-shabob, 483-g‘azal)

baytida “qarosinmu”, “balosinmu” so‘zлari M.q. qofiya bo‘lib, ulardagи “o” unlisi raviydir. Raviydan keyin kelgan “s” undoshi – vasl, “n” undoshi – xuruj, “m” – mazid va qofiya oxiridagi “u” unlisi noyira hisoblanadi, “s” harfidan keyin kelgan qisqa “i” unlisi

esa nafozdir (q.). M.q. xisoblanishi uchun raviydan so‘ng birgina vasl xarfining qo‘llanilishi ham kifoya qiladi.

MUQAYYAD QOFIYA (1) (ar.) – bog‘langan, kishanlangan. Qofiyaning tuzilishiga ko‘ra farqlanuvchi turlaridan biri. Raviy (q.) harfi bilan tugallanadi. Shams Qays Roziyning “Al-mo‘jam”(1218-1233) asarida M.q. raviy harfining ikki nav’idan biri sifatida, Nasiruddin Tusiyning “Me’yor ul-ash’or” (1253) asarida qofiyaning holatiga ko‘ra farqlanuvchi turlaridan biri sifatida keltirilgan.

M.q.da o‘zak raviy harfi bilan yakunlanganligi, ya’ni o‘zakda raviydan keyin hyech qanday harf qo‘llanilmaganligi uchun zamonaviy she’rshunoslikda M.ni “o‘zak qofiya” deb atash an’anasi ham mavjud (U.To‘ychiev).

Alisher Navoiy ijodida, xususan “Xamsa” tarkibidagi dostonlarda M.q. keng qo‘llanilgan. Masalan:

Elga sharaf bo‘lmadi johu nasab,

Lek sharaf keldi hayovu adab. –

(Hayrat ul-abror)

baytida “nasab” va “adab” so‘zлari qofiya bo‘lib, raviy “b” harfidir. Qofiya raviy harfi bilan tugallanayotganligi uchun ushbu qofiya turi M.q. hisoblanadi.

MUQAYYAD (QAYDLI) QOFIYA (2) (ar.) – ..... Qofiyaning o‘zak tarkibiga ko‘ra farqlanuvchi turlaridan biri. Qaydli qofiya deb ham ataladi. Bunday qofiya turida o‘zak tarkibida qisqa unlidan so‘ng qator undosh keladi. Bunda qisqa unli hazv, raviydan oldin to‘rgan undosh qayd deb ataladi. M.q. forsiy va turkiy she’riyatda u qadar 256

keng qo‘llanilmagan. Mumtoz qofiyaga doir manbalarda M.q.haqida ma’lumotlar keltirilmaydi.

M.q. raviy harfidan keyin harflarning qo‘llanilish va qo‘llanilmasligiga ko‘ra muqayyad (1) (q.) va mutlaq (q.) ko‘rinishlariga ega bo‘ladi. Alisher Navoiy ijodida M.q.ning quyidagi turlari qo‘llanilgan:

I. Qaydli muqayyyad qofiya – qisqa unlidan keyin kelgan qator undosh bilan yakunlanadi. Masalan:

Ey ko‘ngul, yor o‘zgalar domig‘a bo‘ldi poybast,

Senga mushkil holatu bizga qatiq ish berdi dast. –

(G‘aroyib us-sig‘ar, 76-g‘azal)

baytida “poybast” va “dast” so‘zлari qofiya, “t” harfi – raviy, “s” – qayd, qisqa “a” unlisi hazv hisoblanadi.

P. Qaydli mutlaq qofiya. Uning bir necha turlari bo‘lib, raviy harfidan keyin keluvchi harflar: vasl, xuruj, mazid va noira bilan bog‘liq holda vujudga keladi (ushbu harflar orasida keluvchi qisqa unlilar: majro va nafoz nomlanishda e’tiborga olinmaydi).

1. Qayd va vaslli mutlaq qofiya – qator undoshdan so‘ng vaslning kelishi orqali hosil bo‘ladi. Masalan:

Yubordi yor bazmidin manga bir pistai qandi,

Olib o‘ptumki, bor erdi labiyu og‘zi monandi.

(Favoyid ul-kibar, 589-g‘azal)

Bunda “qandi”, “monandi” so‘zлari qofiya, “d” – raviy, “n” harfi – qayd, raviydan keyin to‘rgan “i” unlisi vasl hisoblanadi.

2. Qayd va noyirali mutlaq qofiya – qator undoshdan keyin vasl, xuruj, mazid va noyira harflarining kelishi orqali hosil bo‘ladi. Masalan:  
 Dedimki, ko‘zga chekay gardi rahnavardingni,  
 Fig‘onki, topmadi ko‘z to‘tiyog‘a gardingni. –  
 (G‘aroyib us-sig‘ar, 615-g‘azal)  
 baytida “rahnavardingni” va “gardingni” so‘zлari qofiya, “d” – raviy, undan oldin to‘rgan “r” harfi – qayd, raviydan keyin to‘rgan qisqa “i” unlisi – majro, majrodan keyingi “n” undoshi – vasl, “g” – xuruj, keyingi “n” – majro, qofiya oxiridagi “i” unlisi noyira hisoblanadi.

MUASSAS QOFIYA – Qofyaning o‘zak tarkibiga ko‘ra farqlanuvchi turlaridan biri. Ta’sisli qofiya deb ham ataladi. Bunday qofiya turida cho‘ziq “o” unlisi bilan raviy o‘rtasida bir undosh va undan keyin bir unli keladi. Ch o‘ziq “o” unlisi ta’sis (q.) deb, undan keyingi undosh daxil deb, raviy oldidagi qisqa unli esa ishbo‘ deb ataladi.

M.q.haqidagi ma’lumotlar Shams Qays Roziyning “Al -mo‘jam”(1218-1233), Nasiruddin Tusiyning “Me’yor ul-ash’or” (1253) asarlarida keltirilgan. Ushbu asarlarda M.q. raviydan avval keluvchi (moqabli raviy) harflar bilan bog‘liq holda talqin qilinadi.  
 M.q. raviy harfidan keyin harflarning qo‘llanilish va qo‘llanilmasligiga ko‘ra muqayyad (q.) va mutlaq (q.) ko‘rinishlariga ega bo‘ladi. Alisher Navoiy ijodida M.q.ning quyidagi turlari qo‘llanilgan:

I. Ta’sisli muqayyyad qofiya – raviydan oldin harakatli bir undosh, undan oldin esa cho‘ziq “o” unlisi (ta’sis) keladigan qofiya. Masalan:

257

Gar yetar ag‘yordin yuz ming jarohat, ey, ko‘ngul,  
 Chunki bordur yor uchun bor ayshu rohat, ey ko‘ngul. –  
 (Navodir ush-shabob, 384-g‘azal)

baytida “jarohat” va “rohat” so‘zлari qofiya, “t” harfi – raviy, “o” –ta’sis, “h” undoshi – daxil, “a” unlisi – ishbo‘ hisoblanadi.

Ba’zan ta’sisli qofiyada ikki misradagi daxil ikki xil undoshdan iborat b o‘lishi ham mumkin. Masalan:

Ishq ahli go‘ristonida qabrim chu zohir bo‘lg‘usi,  
 Farhod aning toshin yo‘nub, Majnun mujovir bo‘lg‘usi.

(G‘aroyib us-sig‘ar, 627-g‘azal)

baytida “zohir” va “mujovir” so‘zлari qofiya bo‘lib, daxil ikki xil undoshdan: “h” va “v” undoshlaridan iborat ekanligini kuzatish mumkin.

P. Ta’sisli mutlaq qofiya. Uning bir necha turlari bo‘lib, raviy harfidan keyin keluvchi harflar: vasl, xuruj, mazid va noira bilan bog‘liq holda vujudga keladi (ushbu harflar orasida keluvchi qisqa unlilar: majro va nafoz nomlanishda e’tiborga olinmaydi).

1. Ta’sis va vaslli mutlaq qofiya – raviydan keyin vasl harfining kelishi orqali hosil qilinadi. Masalan:

Ko‘nglumga sho‘r soldi biravning malohati,  
 Vahkim, ajab tuz o‘ldi yana zaxmim ofati. –  
 (G‘aroyib us-sig‘ar, 621-g‘azal)

baytida “malohat” va “ofat” so‘zлari qofiya, “t” harfi – raviy, “o” –ta’sis, “h” undoshi – daxil, “a” unlisi – ishbo‘, qofiya so‘ngida “i” unlisi vasldir.

2. Ta'sis va xurujli mutlaq qofiya – raviydan keyin vasl va xuruj harflarining kelishi orqali hosil qilinadi.

3. Ta'sis va mazidli mutlaq qofiya – raviydan keyin vasl, xuruj va mazid harflarining kelishi orqali hosil qilinadi. Masalan:

Qahring o'lsa, barcha ishimdin malolatdur sanga,

Lutfung o'lsa, yuz meningdekkin farog‘atdur sanga. –

(G‘aroyib us-sig‘ar, 17-g‘azal)

baytida “malolatdur”va “farog‘atdur” so‘zлari qofiya, “t” harfi – raviy, “o” – ta'sis, “I” va “g” undoshlari – daxil, “a” unlisi – ishbo‘, “d” – vasl, “u” – xuruj, qofiya so‘ngida kelgan “r” undoshi maziddir.

RADIF (ar.) – izma-iz keluvchi, otning orqasidan ergashib boruvchi. Mumtoz she'r unsurlaridan biri. She'riy misralarda qofiyadan so‘ng aynan takrorlanib keluvchi so‘z yoki so‘zlar qo‘shilmasi. R. she'rda ifodalanayotgan yetakchi fikrni takrorlash, kitobxon e'tiborini asosiy g‘oyaga jalg etib, muallif g‘oyaviy niyatini chuqurroq yetkazib berishga xizmat qiladi. Mumtoz she'rshunoslikda R. qofiya ilmi tarkibida o‘rganilgan. Shams Qays Roziyning “Al-mo‘jam”(1218-1233), Nasiruddin Tusiyning “Me‘yor ul-ash’or” (1251-1252), Abdurahmon Jomiyning “Risolai qofiya”, Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul balog‘a” (1436-37) asarlarida R. forsiy she'riyatga xos bo‘lib, arablarda qo‘llanilmaganligi ta'kidlanadi.

Alisher Navoiy ijodida R. muhim ahamiyatga ega bo‘lib, “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidan o‘rin olgan g‘azallarning deyarli teng yarmini (1294 g‘azal) R. qo‘llanilgan baytlar tashkil qiladi. Shoир R. lari bir bo‘g‘indan 9 bo‘g‘ingacha bo‘lgan so‘zлarni o‘z ichiga oladi. Masalan, shoирning

258

Dilbaro, sendin bu g‘amkim, menda bordur, kimda bor? Furqatingdin bu alamkim, menda bordur, kimda bor? –

(Navodir ush-shabob, 148-g‘azal)

bayti bilan boshlanuvchi g‘azalida R. “menda bordur, kimda bor?” so‘zlaridan iborat bo‘lib, 7 bo‘g‘indan iborat.

HOJIB (ar.) – pardador, berkituvchi. Mumtoz she'r unsurlaridan biri. She'riy misralarda qofiyadan oldin aynan takrorlanib keluvchi so‘z yoki so‘zlar qo‘shilmasi. hojib qo‘llangan she'r mahjub deb ataladi. Mumtoz poetikaga doir manbalarda hojibning bir ma’noda qo‘llanilishi zaruriy shartlardan hisoblangan.

Alisher Navoiy ijodida hojib ko‘proq “Xamsa” tarkibidagi dostonlarda qo‘llanilgan.

Masalan, “Layli va Majnun” dostonidan olingan

Chek aynima ishq to‘tiyosin,

Ur qalbima ishq kimiyoisin! –

baytida “ishq” so‘zi hojib bo‘lib kelgan.

Savol va topshiriqlar:

1. Qofiya haqida umumiylar ma'lumot bering.
2. Qofiya unsurlari deganda nimani tushunasiz?
3. Raviy nima?
4. Murdaf qofiya haqida nimalarni bilasiz?
5. Mutlaq qofiya haqida fikr bildiring.

Tayanch tushunchalar:

Qo'shiq  
Raviy  
Mundal qofiya  
Mutlaj qofiya  
Mu'mayyad qofiya  
Mu'man qofiya  
Radif  
Mu'jib

Asosiy adabiyotlar:

1. Boltaboev H. Sharq mumtoz poetikasi.– T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008. – 426 b.
2. Is'hoqov Y. So'z san'ati so'zligi.–T.: O'zbekiston , 2014. – 320 b.
3. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. –T.:Sharq,1990.– 240 b.

Xorijiy adabiyot:

1. Julie Scott Meisami. Structure and Meaning in medieval Arabic and Persian poetry. – London, 2003.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. – T.: Sharq, 1998. – 160 b.
2. Rahmonov V. She'r san'atlari.– T.:Yozuvchi, 2001. – 72 b.
3. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. – T.:Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979. – 214

Savol va topshiriqlar:

1. "Poetika" atamsiga ta'rif bering. Uning mumtoz va zamonaviy turlari orasidagi farqlarni aniqlang.
2. Balog'at ilmi haqida nimalar bilasiz? U qanday qismlarni o'z ichiga oladi?
3. Ilmlar uchligi va uning tarkibiy qismlarini izohlang.  
207
4. Mumtoz poetikaga doir asarlardan qaysilarini bilasiz?

Tayanch tushunchalar:

Poetika  
Balog'at ilmi  
Ilmi aruz  
Ilmi qofiya  
Ilmi hukm

Asosiy adabiyotlar ro'yxati:

1. BoltaboevH. Sharq mumtoz poetikasi.– T.:O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi , 2008. – 426 b.
2. Is'hoqov Yo.So'z san'ati so'zligi.–T.:O'zbekiston , 2014. – 320 b.
3. Hojiahmedov A.Mumtozbadiiyatmalohati. –T.:Sharq,1990.– 240 b.

Xorijiy adabiyot:

- 1.Julie Scott Meisami. Structure and Meaning in medieval Arabic and Persian poetry. – London, 2003.
- Qo'shimcha adabiyotlar:
- 3.Is'hoqov Yo. Navoiy poetikasi ("Xazoyin ul-maoniy" asosida) – T.: Fan, 1983. – 168 b.
- 4.Alisher Navoiy: qomusiy lug'at. 1-2-jildlar /Mas'ul muharrir Sh.Sirojiddinov. – T.: Sharq, 2016.
- 5.Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: Akademnashr, 2013. – 408 b.
- 6.Musulmankulov R. Persidsko-tadzhikskaya klassicheskaya poetika (X-XVv.). – M.: Nauka, 1989. –240

## 5-MAVZU:

### Mumtoz adabiyotda adabiy turlar va she'r nav'lari Reja:

Adabiy tur tushunchasi va uning ifodalananish shakllari.

2. Baytli she'r shakllari. G'azal, qasida va mustazod janrlari.
3. Kichik lirik janrlar tavsifi.
4. Ma'nosiga ko'ra ta'rif beriluvchi mumtoz she'riy janrlar.

Ma'ruzanining qisqacha bayoni:

Mumtoz she'r shakllari tarkibiy tuzilishiga ko'ra baytli va bandli she'r shakllariga bo'linadi. Baytli she'r shakllariga g'azal, qasida, mustazod, qit'a, ruboiy, tuyuq, fard kabilar kiradi. Ulardan dastlab g'azal, qasida va mustazodni ko'rib o'tamiz.

G'azal(ar.) – oshiqona so'z, ishq izhor qilish, ayollarni madh etish ma'nolarini bildirib, Sharq mumtoz she'riyatida keng tarqalgan lirik janr hisoblanadi. G'azal 3 baytdan 19 baytgacha hajmda bo'ladi va a-a, b-a, v-a, g-a... tarzida qofiyalanadi. Turkiy adabiyotda 5-10 baytli g'azallar ko'p uchraydi.

Adabiyotshunoslikda g'azal janri haqida ilk ma'lumot Shams Qays Roziyning "Almo'jam" asarida (13-a.) keltirilgan.

G'azalning birinchi bayti matla' yoki mabda', oxirgi bayti esa maqta' deb ataladi va aksar hollarda maqta'da shoir taxallusi qo'llaniladi. Ba'zan taxallus maqta'dan oldingi baytda qo'llanishi ham mumkin.

Adabiyotshunoslikda g'azalning bir necha turlari farqlanadi:

1. Oddiy yoki odatiy G'. (qofiyalanishi: a-a, b-a, v-a, g-a...)
2. G'azalii husni matla' (qofiyalanishi: a-a, a-a, b-a, v-a...)
3. G'azali qit'a (qofiyalanishi: b-a, v-a, g-a...)
4. G'azali musajja' (ikkinci baytdan boshlab ichki qofiya qo'llaniladigan)
5. G'azali mulamma' (misralari ikki va undan ortiq tilda bitiladigan)
6. G'azali muvashshah (bayt yoki misralarining bosh harflaridan muayyan ism yoki so'z kelib chiqadigan)
7. G'azali mushoira (ikki yoki undan ortiq shoirning badiha yo'li bilan G' a ytishiga asoslangan)
8. G'azali zulqofiyatayn (zulqofiyatayn san'ati – ikki qofiyalilikka asoslangan)
9. G'azali zebqofiya (qofiyalanishi: a-a, a-a, a-a, a-a...)

Kompozitsion jihatdan g'azalning parokanda (ma'lum bir syujet asosiga

qurilmagan, har bir bayt o'zicha mustaqil) va voqeaband (yakpora yoki musalsal – muayyan sujetga ega bo'lgan, matla'da boshlangan mavzu g'azal so'ngigacha rivojlanib boruvchi) turlari ham farqlanadi.

G'azalning dastlabki namunalari VIII-IX asrlarda arab adabiyotida paydo bo'lgan, fors-tojik adabiyotida ilk g'azal yozgan shoir sifatida Abu Abdullo Ro'dakiy (taxm.860-941) tilga olinadi

2

. Turkiy adabiyotda esa dastlabki g'azal Nosiruddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asarida (1409-1410) uchraydi. G'azalning epik poeziya tarkibida uchrashi ilk bor Xorazmiyning "Muhabbatnoma"sidan (1353-1354) boshlanadi.

2

Julie Scott Meisami. Structure and Meaning in medieval Arabic and Persian poetry. – London, 2003. – P. 90.

209

G'azal janrining rivojlanishi va taraqqiyotida Alisher Navoiyning hissasi tengsiz. Uning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida 2600 ta g'azal mavjud bo'lib, har bir devonga teng tarzda (650 tadan) joylashtirilgan.

QASIDA (ar. maqsad, niyat) – biror tarixiy shaxs yoki voqeaga bag'ishlab yoziladigan katta hajmli she'r turi. Qasida hajman 12 baytdan bir necha yuz baytgacha bo'lishi mumkin. G'azal singari a-a, b-a, v-a, g-a..., ayrim hollarda masnaviy singari qofiyalanadi. Qasida tuzilishiga ko'ra 2 xil bo'ladi:

1. Qasidai tom (to'liq qasida) – bunda qasida to'rt qismidan tarkib topadi:

- a) nasib – lirik kirish (tabiat tasviri);
- b) gurizgoh – nasib bilan madhni bog'lovchi, 4-5 baytdan tashkil topuvchi qism;
- s) madh – asosiy qism;
- d) qasd – mamduh (madh etilayotgan shaxs)ga niyat va istaklar bildirilagan qism.

2. Qasidai mujarrada (chala qasida) – bunda faqat madh keltiriladi.

Qasidalar mavzusiga ko'ra vasp, madh, hajv, marsiya, munojot va falsafiy kabi turlarga bo'linadi. Turkiy adabiyotdagi ilk qasida "Devonu lug'otit turk"da "qo'nug'" shaklida uchraydi. Turkiy adabiyotda eng ko'p qasida yozgan shoir sifatida Sakkokiy nomi tilga olinadi. Uning "Devon"ida 11 ta (ba'zi ma'lumotlarga ko'ra 13 ta) qasida mavjud bo'lib, devondagi dastlabki ikki qasida an'anaviy hamd va na't yo'nalishida, qolgan qasidalar Xoja Muhammad Porsoga, Xalil Sultonga, Mirzo Ulug'bekka va Arslonxoja Tarxonga bag'ishlangan.

O'zbek mumtoz she'riyatining yirik vakili Alisher Navoiy ijodida ham qasida janri alohida o'rin egallaydi. Uning turkiy tilda yaratilgan bitta va forsiy tilda yozilgan 10 ta qasidasi bor.

MUSTAZOD (ar.) – orttirilgan, ziyoda qilingan. Har bir misrasidan so'ng yana yarim misra orttiriluvchi she'r shakli. Bunda orttirilayotgan yarim misra tarkiban asosiy misraning birinchi va to'rtinchi ruknlariga teng bo'ladi. Mustazod uchun g'azal asos – zamin vazifasini o'taydi. Ikkala janrning qofiyalanish tizimi, baytlar soni, matla' va maqta', taxallusning mavjudligi bu fikrni isbotlaydi. Lekin g'azal aruz tizimining barcha bahrlarida yaratilgani holda M. faqat hazaj bahrining hazaji musammani axrabi makfufi mahzufi mustazod (ruknlari va taqt'i: maf'ulu mafoiylu fauvlun maf'ulu fauvlun

-- V / V -- V / V -- V / V -- / -- V / V --) vaznida yoziladi.

Mumtoz forsiy adabiyotshunoslikda mustazod haqidagi qarashlar Sharafiddin Romiyning “Haqoyiq al-hadoyiq” asari (14-a.)dagina keltirilgan bo‘lib, muallif badiiy san’atlarga ta’rif berish o‘rnida mustazod, musabba’ va musamman kabi she’r shakllariga ham to‘xtalib o‘tadi. Turkiy adabiyotshunoslikda mustazod haqidagi ilk ma ’lumot Shayx Ahmad Tarozijning “Funun ul-balogs” asarida keltirilgan. Muallif mustazodni o‘nta she’r nav’laridan biri sifatida sanab o‘tadi va mustazodning baytni orttirish asosida vujudga kelishini ta’kidlaydi.

Turkiy adabiyotda mustazodning ilk namunalari Hofiz Xorazmiy va Gadoiy ijodida uchraydi. Hofiz Xorazmiy devonida har biri 7 baytdan iborat ikki mustazod, Gadoiy devonida esa besh baytli bir mustazod mavjud.

Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon” asarida M. janriga alohida ta’rif berib, uning ohangi surud nag‘amoti (kuy ohangi)ga mos kelishini aytadi: “...xalq orasida bir surud bor ekandurkim, hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf vaznida anga bayt boshlab bitib, 210

aning misraidin so‘ngra hamul bahrning ikki rukni bila ado qilib, surud nag‘amotig‘a rost kultururlar ermissiz va ani “mustazod” derlar ermissiz, andoqkim, mustazod:

Ey husnunga zarroti jahon ichra tajalli.

Maf’ulu mafoiylu mafoiylu faulun

Mazhar sanga ashyo.

Maf’ulu faulun

Sen lutf bila kavnu makon ichra muvalli,

Olam sanga mavlo”

Navoiyning o‘z davrida nihoyatda mashhur bo‘lgan mustazodlaridan biri “Navodir ush-shabob” devoniga kiritilgan bo‘lib, shunday boshlanadi:

Din ofati bir mug‘bachai mohyuliqodur,

mayxoravu bebok,

Kim ishqidin oning vatanim dayri fanodur

sarmastu yaqom chok.

Ham turrasining dudu vara’ beliga zunnor,

men kofiri ishqiji

Ham yuzi majus o‘ti kibi shu’lafizodur,

men o‘rtanibon pok...

Kichik lirik janrlarga ruboiy, tuyuq, qit’a, fard, muammo kabi janrlar kiradi

3

RUBOIY (ar.- to‘rtlik ) Sharq mumtoz adabiyotida keng tarqalgan baytli she’r shakli hisoblanadi. Ruboiy ikki baytdan iborat b o‘lib, a-a-b-a yoki a-a-a-a tarzida qofiyalanadi. Ruboiy o‘ziga xos maxsus vaznda yoziladi: bu hazaj bahrining axrab va axram shajarasidir.

R.ning 2 xil turi farqlanadi:

1. xosiy R. yoki R. xosa (qofiyalanishi: a-a-b-a):
2. taronai R. yoki rubooya (qofiyalanishi: a-a-a-a)

Ruboiy muayyan kompozitsiyaga ega. Mumtoz ruboiy talablariga ko'ra, unda to'rt unsur mavjud bo'ladi. Mazkur unsurlar to'rt misrada aytimoqchi bo'lgan falsafiy, axloqiy yoki didaktik fikrning ma'lum bir yaxlitlikka erishishini ta'minlaydi. Shu ma'noda to'rt misrani quyidagi unsurlarga taqsimlash mumkin:

1. tezis – unda ruboiyda aytimoqchi bo'lgan fikr, boshqacha aytganda ruboiy mavzusi bayon qilingan bo'ladi;
2. antitezis – bunda birinchi misraga qarama-qarshi fikr aytildi;
3. moddai ruboiy – to'rtinchı misrada aytimoqchi bo'lgan fikr uchun ko'prik vazifasini o'taydi;
4. sintez – xulosa.

Lekin bu unsurlarning doimiy mavjud bo'lish talabi nisbiy bo'lib, ko'pincha tezis va antitezisning o'rniga faqat moddai ruboiy va sintezning qo'llanilganligini kuzatish mumkin.

Ruboiy dastlab fors-tojik she'riyatida, Abu Abdulloh Rudakiy ijodida paydo bo'lgan. Forsiy adabiyotshunoslikda ruboiy va uning vujudga kelishi bilan bog'liq dastlabki 3

Julie Scott Meisami. Structure and Meaning in medieval Arabic and Persian poetry. – London, 2003. – P. 97.

211

ma'lumotlar Shams Qays Roziyning "Al -mo'jam" asari (13-a.)da keltirilgan. Ruboiyning janr xususiyatlari haqida Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul -balog'a" asarida shunday ma'lumot beriladi:

"Ruboiy to'rt misra' bo'lur. Avvalg'i va ikkinchi va to'rtinchı misraida qofiya keltirurlar. Va uchinchi misrai ixtiyoriydur. Agar qofiya keltursalar, ruboiyi musarra' derlar... Va agar uchinchi misrada qofiya kelturmasalar, ruboiyi xosiy o'qurlar". Muallif ruboiy janriga misol tariqasida keltirgan forsiy t o'rtliliklar hazaj bahrida, turkiy tilda Sayid Nasimiyy va Sakkokiyidan keltirilgan to'rtliliklar ramal bahriga tegishli. Bu holat Navoiygacha turkiy she'riyatda ruboiyning qat'iy vaznda bo'lishi talab qilinmaganligini ko'rsatadi.

Alisher Navoiy "Mezon ul-avzon" asarida mazkur janr haqida shunday yozadi:

"Ruboiy vaznikim, oni "dabaytiy" va "tarona" ham derlar, hazaj bahrining "axram" va "axrab" idin istixroj qilibdurlar va ul vaznedur asru xushoyanda va vaznedur bag'oyat raboyanda". Shuningdek, Navoiy hazaj bahrining axrab shajarasi 12 vaznni, axram shajarasi yana 12 vaznni o'z ichiga olishi va ushbu jami 24 vazn R. vaznlari ekanligi haqida ham ma'lumot beradi. R.ning she'riy o'ichovi bilan bog'liq muhim xususiyat shundaki, boshqa she'riy janrlardan farqli o'laroq uning to'rt misrasi mazkur shajaralarga mansub 4 vaznda yozilishi mumkin.

Alisher Navoiy ijodida ruboiy janri keng o'rinn egallaydi. Uning "G'aroyib us-sig'ar" devonida 133 ta, shu devonga yozilgan debocha tarkibida 30 ta, "Nazm ul -javohir" da 260 dan ortiq, boshqa nasriy asarlari tarkibida 100 dan ortiq turkiy tilda yaratilgan ruboiylari, "Devoni Fony" va boshqa asarlari tarkibida 100 ga yaqin forsiy tildagi ruboiylari mavjud. Navoiy ruboiylarining aksariyati taronai ruboiy ("G'aroyib us-sig'ar" dagi 133 R. dan 116 tasi, "Nazm ul-javohir" dagi barcha ruboiylar) bo'lib, shoirning o'zi ularni ruboiya deb ataydi. Taronai ruboiyga misol:

Ollimda tabibi chorasozim ham yo‘q,  
 Yonimda rafiqi dilnavozim ham yo‘q.  
 Tegramda anisi jongudozim ham yo‘q,  
 Boshimda shahi bandanavozim ham yo‘q.  
 (G‘aroyib us-sig‘ar, )

Umuman, turkiy adabiyotda taronai ruboiyning ilk bor qo‘llanilishi Alisher Navoyi nomi bilan bog‘liq. Hofiz Xorazmiy ijodida ruboiyning ilk turkiy namunalarini uchratish mumkin bo‘lsa-da, uning devonidagi 12 ruboiy ruboysi xosa shaklida yozilgan.

QIT’A (ar.) – parcha, bo‘lak, qism). Ikki baytdan bir necha baytgacha hajmda bo‘lgan, juft misralari qofiyalanib, toq misralari ochiq qoluvchi ( ba , va, ga ...) lirik janr. Qit’ a, asosan, falsafiy, ijtimoiy va axloq-odob bilan bog‘liq mavzularda yaratilgan. Shuningdek, qit’ a nasriy asarlarda ma’lum bir masala haqidagi fikr-mulohazalarga yakun sifatida “qissadan hissa” tarzida keltirilgan.

Mumtoz adabiyotshunoslikda qit’ a haqidagi ilk qarashlar Shayx Ahmad Taroziyining “Funun ul-balogs“ asarida keltirilgan bo‘lib, muallif bu janrga quyidagicha ta’rif beradi: “Qit’ a uldurkim, avvalgi misrainda qofiya bo‘lmas. Va aqalli ikki bayt bo‘lur. Va muning ham aksari muqarrar emas. Har necha kim qofiya tobsalar ayurlar”.

Turkiy adabiyotda qit’ aning ilk namunalarini Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarida uchraydi.

212

Qit’ a janrining rivojlanishida Alisher Navoyi ijodining alohida o‘rni bor. Shoirning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotida 210 ta (“G‘aroyib us-sig‘ar”, “Navodir ush-shabob” va “Favoyid ul-kibar”da 50 tadan, “Badoye’ ul-vasat”da 60 ta), “Devoni Fony”da 64 ta, “Arbain”da 40 ta va boshqa nasriy asarlari tarkibida yana o‘nlab qit’alar mavjud.

FARD (ar.) – yakka, yolg‘iz, yagona. Bir baytdangina iborat eng kich ik mustaqil she’r shakli, a-a yoki a-b tarzida qofiyalanadi. Fard bir baytdan tashkil topgan b o‘lsa-da, unda shoirning axloqiy-ta’limiy fikrlari, falsafiy qarashlari qalamga olinib, ixcham poetik xulosa ifodalanadi. Shu ma’noda fardlar ko‘pincha aforizm xarakteriga ega bo‘ladi.

Turkiy adabiyotshunoslikda F.haqidagi ilk nazariy qarashlar Shayx Ahmad Taroziyining “Funun ul-balogs“ (1436-37) asarida keltirilgan bo‘lib, muallif fardning ikki misradan iborat mustaqil she’r ekanligini ta’kidlagani holda uning faqat a-b tarzida qofiyalanishini aytib o‘tadi. Fardlar ba’zan katta hajmli asarlar tarkibida kelib, shu asarlar mazmuniga mos holda falsafiy-axloqiy g‘oyalarni ifodalash yoki asarlar so‘ngida kelib, xulosa yasash, “qissadan hissa chiqarish” vazifasini bajarishi ham mumkin. Turkiy adabiyotdagagi ilk fard Xorazmiyning “Muhabbatnama” asari (1353 -1354) so‘ngida keltirilgan bo‘lib, xulosa yasash vazifasida kelgan.

Fard janrining rivojlanishida Alisher Navoyi ijodining alohida o‘rni bor. Shoirning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotida 86 ta, “Mahbub ul-qulub” asarida 60 dan ortiq va boshqa nasriy asarlari tarkibida yana o‘nlab fardlar mavjud. “Xazoyin ul-maoniy”dagi 86 ta farddan 82 tasi qofiyali, to‘rttasi (82-, 83-, 84- va 86-fardlar) esa qofiyasizdir. Fardlarning barchasi “Favoyid ul-kibar” devoniga kiritilgan bo‘lib, muayyan ma’noda “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotini yakunlovchi xulosaviy janr vazifasini o‘tagan.

Alisher Navoyi fardlari ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-ta’limiy masalalarga bag‘ishlangan bo‘lib, badiiy jihatdan yuksak she’r namunalaridir. Ularda iyhom, husni ta’lil, tamsil,

irsoli masal, tashbeh kabi san 'atlar mohirlik bilan qo'llanilgan. Masalan, quyidagi fardda "dam urmoq" jumlesi orqali ikki ma'no: nafas chiqarmoq va gapirmoq ma'nolari angalashilyapti va bu orqali iyhom san'ati vujudga keltirilgan:

Kishi aybing desa dam urmag'ilkim, ul erur ko'zgu,  
Chu ko'zgu tiyra bo'ldi, o'zga aybing zohir aylarmu?  
(Favoyid ul-kibar, 29-fard)

Shuningdek, mazkur fardga "Musulmon musulmonga ko'zgudir" degan hadis mazmuni ham ustalik bilan singdirilgan.

Alisher Navoiy fardlaridagi ko'plab axloqiy-ta'limiy fikrlar xalq orasida shuhrat topib, hikmatli so'zlar qatoridan o'rin olgan, aksariyati xalq maqollariga aylanib ketgan:  
Haq yo'lida kim sanga bir harf o'qutmish ranj ila,  
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

(Mahbub ul-qulub)

Muammo(ar.) – ko'r qilingan, berkitilgan). Bir, ba'zan esa ikki baytdan iborat bo'lgan, a-a yoki a-b tarzida qofiyalanuvchi lirik janr. Muammoda biror ism yoki narsa buyum nomi berkitiladi. Berkitilgan so'z shoirning turli-tuman ishoralari: ma'nodosh yoki shakldosh so'zlarni topish, bir tildagi so'zning ikkinchi bir tildagi moduli (ekvivalenti)ni qo'llash, so'zlardagi ma'lum bir harflarni tizib, yangi so'z yasash, ba'zan esa abjad 213

hisobini ishlatib, raqamlar asosida so'z tuzish va boshqalar asosida topiladi. Muammoni yechish uchun dastavval asosiy e'tiborni matnda ishora qilingan kalit so'zga qaratish lozim bo'ladi.

She'rshunoslik ilmida muammoga alohida she'riy janr sifatida ham, badiiy san'at sifatida ham qarash mavjud. Bu ikkala yondashuv ham muayyan asosga ega. Agar muammo usuli katta hajmdagi asarlar: dostonlar, manzumalar tarkibida va ko'pincha asarlarning oxirida kelsa, bu alohida janr bo'lmasdan, badiiy san'at hisoblanadi. Devonlar ichida alohida mustaqil she'r shakli sifatida keltirilgan muammolarni janr sifatida talqin qilish mumkin.

O'rta asr ilmi badi'ga doir manbalarda muammo asosan badiiy san'at sifatida talqin qilingan. Forsiy adabiyotshunoslikda muammo haqidagi dastlabki ma'lumot Rashididdin Vatvotning "Hadoyiq us-sehr" (12-a.) asarida keltirilgan bo'lib, muallif unga quyidagicha ta'rif beradi:

"Bu san'atning mohiyati shundaki, shoir baytda o'z yori yoki boshqa biror narsaning yashirin nomini harflar yoki so'zlar o'rnini almashtirish yoki sanash yoki qiyoslash yoki boshqa biror usul bilan oshkor qiladi".

Atoulloh Husayniyning "Badoyi' us-sanoyi'" (15-a.) asarida muammo haqida mufassal ma'lumot berilib, Abdurahmon Jomiyning muammoni nasrda ham q o'llash mumkin, degan fikri keltirilgan.

Turkiy adabiyotshunoslikka doir ilk manba hisoblangan Shayx Ahmad Taroziyining "Funun ul-balogs'a" (1436-37) asarida muammoga san'at sifatida yondashish bilan bir qatorda uning alohida ilm ekanligi ta'kidlangan.

Alisher Navoiy ijodida muammo badiiy san'at sifatida ham, alohida she'riy janr sifatida ham qo'llanilgan. Masalan, "Xamsa" tarkibidagi dostonlar, xususan "Farhod va Shirin" dostonida Farhodning ismini keltirish bilan bog'liq o'rinda muammo badiiy san'at

sifatida istifoda etilgan:

Firoqu rashku hajru oh ila dard,              Biror  
harf ibtidodin aylabon fard.

Bunda “firoq”, “rashk”, “hajr”, “oh” va “dard” so‘zlarining boshidagi birinchi harflar alohida olinsa, “Farhod” ismi kelib chiqishiga ishora qilinyapti.

Turkiy adabiyotda muammoning mustaqil janr sifatidagi takomili Alisher Navoiy ijodi bilan bog‘liq. Uning “Xazoyin ul-maoni” kulliyotida 52 ta muammo mavjud bo‘lib, ularning barchasi kulliyotdagи ikkinchi devon “Navodir ush-shabob”ga kiritilgan. Alisher Navoiy muammolarini asosan bir baytli bo‘lib, faqat “Qosim” ismiga bitilgan muammogina 2 baytdan iborat.

Navoiyning bir muammosini ko‘rib chiqsak:

Qilur esang manga somon ayo rafiq havas,  
Aning ayog‘ig‘a yetkur mening boshimni-yu bas.

Bu muammoda asosiya e’tibor “لماهى” – “somon” (osoyishtalik) so‘ziga qaratilgan. Ikkinchi misradagi “aning ayog‘iga boshimni yetkur” jumlasidagi ishoraga ko‘ra, “اىلی” – “alif” (o)ning oyog‘i, ya’ni pastki kismiga “م” – “mim” (m)ning boshini yetkazish talab 214

qilinadi, natijada “اىلی” – “alif” harfi “ل” – “lom” harfiga aylanib, “م” – “mim”ga qo‘shiladi va “ناملىك” – “Salmon” so‘zi kelib chiqadi.

Navoiy muammolarida ba’zan muammoning yechimi ikki so‘zdan iborat bo‘lishi ham mumkin. Masalan, quyidagi muammoni olib ko‘raylik:

Qasdi jonimg‘a chu mujgoning ikki saf tuzdi,  
Biri qosh yosi, biri g‘amzang o‘qin ko‘rguzdi.

Bu M.da kalit so‘z “ف ص” – “saf” jumlesi orqali ko‘rsatilgan, matnda bu so‘z “ikki” so‘zi bilan keltirilishi uning yechimi ham ikkita ekanligiga ishora qiladi. Birinchi “saf”ga qosh yosi, ya’ni “ي ي” “yoy” (i) harfi, ikkinchisiga g‘amza o‘qi, ya’ni “ا ا” “alif” (o) harfi qo‘shiladi va natijada “ف ف ص” – “Safi” va “ف ف ص ص” – “Safo” so‘zleri kelib chiqadi.

Lug‘z(ar.) – topishmoq, sir. Biror predmet yoki hodisaning xarakter va belgilarini ta’rif-u tavsif etish orqali kitobxonni o‘scha predmet yoki hodisani topishga undaydigan she’r turi. Chiston deb ham yuritiladi. Lug‘zda shoir muayyan narsa buyum yoki tushunchaga ishora qiladi, kitobxon esa zikr etilgan belgilarga tayanib, yashiringan nomni topishi lozim bo‘ladi va kitobxonga teran fikrlash, kuzatuvchanlik, hozirjavoblik kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi. L. dastavval xalq og‘zaki ijodida vujudga kelgan bo‘lib, XXII asrlardan boshlab fors-tojik she’riyatida istifoda etila boshlagan (Bizgacha yetib kelgan dastlabki forsiy L.lar Rudakiy qalamiga mansub). Ilmi badi ’ga doir mumtoz manbalarda L.ga ko‘proq badiiy san’at sifatida qarash kuzatiladi. Xususan, Rashididdin Vatvotning “Hadoyiq us-sehr” (12-a.) asarida L.ga shunday ta’rif beriladi: “Al lug‘az san’atda muammoga o‘xshashdir. Lekin buni savol tarzida aytadilar va buni forsiylar chiston deydilar”. Turkiy she’rshunoslikka doir ilk manba hisoblanmish Shayx Ahmad Taroziyining “Funun ul-balogs‘a” (1436-37) asarida lug‘z san’ati tashbih san’atining muhim unsurlaridan biri – mushabbahun bih (o‘xshatilmish) – tasvirda qiyoslanayotgan narsa yoki tushuncha bilan savol berish orqali yasalishi ta’kidlanadi.

Lug‘z g‘azal, ruboiy va tuyuq kabi hajm, qofiya va boshqa shakliji jihatlardan qat ’iy qonuniyatga ega emas. U fard, ruboiy, qit’a va ba’zan g‘azal singari qofiyalanishi

mumkin.

Turkiy adabiyotda lug'zning ilk namunalari Alisher Navoiy ijodida uchraydi. Shoirning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida jami 10 ta lug'z mavjud bo'lib, barchasi "Badeo' ul-vasat" devoniga kiritilgan.

Ta'rix (ar. o'tmish) – muayyan voqea-hodisa yoki inson hayoti bilan bog'liq biror sanani arab alifbosidagi harflar vositasi, ya'ni abjad usuli asosida ko'rsatish (qarang: abjad). She'rshunoslik ilmida T. ga alohida she'riy janr sifatida ham, badiiy san'at sifatida ham qarash mavjud. Bu ikkala yondashuv ham muayyan asosga ega. Agar T. usuli katta hajmdagi asarlar: dostonlar, manzumalar tarkibida va ko'pincha asarlarning oxirida kelsa, bu alohida janr bo'lmasdan, badiiy san'at hisoblanadi. Devonlar ichida alohida mustaqil she'r shakli sifatida keltirilgan T.larni janr sifatida talqin qilish mumkin. Mustaqil janr sifatidagi T.lar hajm jihatidan ham, misralarning qofiyalanishi jihatidan ham qat 'iy bir qoidaga ega emas. Ular turli she'riy shakllarda: fard, ruboiy, qit'a va to'rtlik shaklida yaratilishi mumkin.

Sharq mumtoz adabiyotida T. janrining ilk namunalari 11-asrlarga borib taqaladi. Dastavval yaratilgan T. da muayyan hodisa yoki voqea sanasi sodda usulda, ya'ni yilni 215

oddiy tarzda keltirish orqali, abjad hisobini qo'llamasdan turib yaratilgan. Bunda keltirilgan hijriy yil hisobi "moddai ta'rix" deb atalgan. Keyinchalik ijodkorlar moddai T.ni abjad hisobi asosida berishni ma'qul ko'rishgan va bunday T. moddasi "moddai ta'rixi lafziy" deb atala boshlangan

4

T.lar mavzusiga ko'ra kishilar tavalludi yoki vafotiga doir; muayyan binolarning qurilishiga oid; taxtga chiqish, fath va biror voqyea-hodisa sodir bo'lgan sanaga bag'ishlab yaratilishi mumkin.

Alisher Navoiy ijodida T. badiiy san'at sifatida ham, alohida she'riy janr sifatida ham qo'llanilgan. Masalan, "Xamsa" tarkibidagi dostonlar, xususan "Hayrat ul-abror" dostoni tarkibida asarning yozilish sanasi bilan bog'liq o'rinda T. badiiy san'at sifatida istifoda etilgan:

Nuktai ta'rixiki, ahsan edi,

Sekizu sekiz yuzu seksan edi.

Bunda "moddai T." aniq sana (888) bilan ko'rsatilgan bo'lib, "Hayrat ul-abror" dostonining yozilish sanasi hijriy 888, milodiy 1483 yil ekanligini anglatadi.

Alisher Navoiyning "Devoni Foni" tarkibiga kiruvchi 16 ta ta'rix alohida janr bo'lib, ular qit'a, ruboiy va to'rtliklar shaklida yaratilgan. Ushbu T.lar, asosan, kishilar vafotiga oid (mutavaffiyot) yo'nalishida bo'lib, Abdurahmon Jomiy, Pahlavon Muhammad, Sayyid Hasan Ardashev, Xoja Ubaydulloh Ahror, Sulton Mahmud, Mavlono To'tiy kabi shaxslarning vafot sanasiga ba g'ishlangan. Masalan, Abdurahmon Jomiy vafotiga bag'ishlangan ta'rixda "دزرمایادخ" – "Xudo biyomurzad" jumlesi "moddai T.i lafziy" sifatida keltiriladi:

Sarvi chamani hayot Abdurahmon,

Ko' raft az in dayri fano so'i jinon.

Ta'rixi chunin voqyeai g'ussarason,

Gar mexony: “Xudo biyomurzad” xon.

(Mazmuni:

Hayot chamanining sarvi – Abdurahmon,  
bu foni y dunyodan (ruhi) jannatga ketdi.

G‘am-g‘ussa yetkazuvchi shunday voqealarning ta’rixini o‘qiganingda: “Xudo biyomurzad” – deb o‘qi).

Mazkur T.dagi “دزرماییادخ” – “Xudo biyomurzad” jumlasidagi harflar abjad hisobiga ko‘ra belgilanganda hijriy 989, milodiy 1492 yil kelib chiqadi. Ushbu T. ruboiy shaklida yozilgan.

Savol va topshiriqlar:

1. Mumtoz she’r deganda nimani tushunasiz?
2. G’azal janri haqida umumiylar ma’lumot bering.
3. Turkiy adabiyotdagi ilk qasida qaysi asarda uchraydi?
4. Ruboiy janri haqida nimalarni bilasiz?
5. Qit’a nima?

4

Julie Scott Meisami. Structure and Meaning in medieval Arabic and Persian poetry. – London, 2003. – P. 154.

216

Tayanch tushunchalar:

**Mumtoz she’r**

**G’azal**

**Ruboiy**

**Qasida**

**Qit’a**

**Fard**

**Musammat**

Asosiy adabiyotlar ro‘yxati:

1. Boltaboev H. Sharq mumtoz poetikasi.– T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008. – 426 b.
2. Is’hoqov Yo. So‘z san’ati so‘zligi.–T.:O‘zbekiston , 2014. – 320 b.
3. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. –T.:Sharq,1990.– 240 b.
4. Orzibekov R.O‘zbek lirik poeziyasida g‘azal va musammat.–T.:Fan, 1976. – 120 b.
5. Nosirov O., Jamolov S., Ziyoviddinov M. O‘zbek klassik she’riyati janrlari.– T.:O‘qituvchi,1979. – 184 b.

Xorijiy adabiyot:

1. Julie Scott Meisami. Structure and Meaning in medieval Arabic and Persian poetry. – London, 2003.

Qo‘sishimcha adabiyotlar:

1. Is’hoqov Yo. Navoiy poetikasi (“Xazoyin ul-maoniy” asosida) – T.: Fan, 1983. –168 b.
2. Alisher Navoiy: Qomusiy lug‘at. 1-2-jildlar /Mas’ul muharrir Sh.Sirojiddinov. – T.: Sharq, 2016.

3. Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: Akademnashr, 2013. – 408 b.
4. Musulmankulov R. Persidsko-tadjikskaya klassicheskaya poetika (X-XVv.). – M.: Nauka, 1989. –240

**6-MAVZU:**  
**Epik she'riyat. Xamsachilik an'anasi.**  
**REJA:**

1. Firdavsiy va epik she'riyat.
2. “Xamsa” – mumtoz janr sifatida.
3. Xamsanavislik an'anasing tadrijiy takomili.
4. Xasmsanavislik: mavzu, g'oya va obrazlar tizimi. “Xamsa”lardagi mushtarak va farqli jihatlar.

Kalit so'zlar: epik she'riyat, “Shohnoma”, “Xamsa”, masnaviy, xamsachilik, an'ana va o'ziga xoslik, obrazlar tizimi.

Musulmon Sharqi epik poeziyasi tarixi xamsachilik an'ani bilan chambarchas bog'liq. Dastavval XII asrda vujudga kelgan xamsa janri sakkiz asrga yaqin vaqt davomida yuzlab javob dostonlarga ega bo'lди. Sharq adabiyotida birinchi bo'lib “Xamsa” yozgan shaxs buyuk ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviydir. U 1170-1204 yillar oralig'ida birin-ketin 5 ta doston yaratdi, bu dostonlar shoir vafotidan so'ng yaxlit bir to'plamga birlashtirilib, “Panj ganj” (“Besh xazina”) deb atala boshlandi va keyinchalik xamsa nomi bilan mashhur bo'lди.

Nizomiy beshligidagi birinchi doston “Maxzan ul-asror” (“Sirlar xazinasi”) deb atalib, 1170 yilda yaratilgan. Nizomiy bu dostonini g'aznaviylar hukmdori Bahromshoh (XII asr)ga bag'ishlaydi. “Maxzan ul-asror”ning vujudga kelishida XII asr klassigi Hakim Sanoiy “Xadiqat ul-haqoyiq” (“Haqiqatlar bog'i”) dostonining ta'siri bor. Umuman, musulmon Sharqida falsafiy-didaktik yo'nalishdagi dostonlarning ibtidosi ham bevosita shu doston bilan bog'lanadi.

Nizomiy beshligidagi ikkinchi doston “Xusrav va Shirin” deb atalib, taxminan 1181 yilda yozib tugallangan. Shoir bu dostonini saljuqiy hukmdor To'g'rul II (1174 -1194) topshirig'iga ko'ra yaratadi. “Layli va Majnun” dostoni esa 1188 -89 yillarda Shirvonshoh Axsitan II topshirig'iga ko'ra yaratiladi.

Nizomiy beshligidagi to'rtinchi doston “Haft paykar” (“Etti go'zal”) 1196 yilda yozib tugallanadi. Doston 4600 baytdan iborat bo'lib, hukmdor Alouddin Ko'rpa Arslon (1174-1207) topshirig'i bilan yaratilgan. “Haft paykar” asosiy voqeа va unga ilova qilingan 7 ta qoliplovchi hikoyatlardan iborat.

Nizomiy beshligidagi so'nggi – beshinchi doston “Iskandarnoma” deb atalib, ikki qism: “Sharafnama” va “Iqbolnama”dan iborat. Doston hajmi 10000 baytdan ortiqroq. Dostonning aniq qaysi yilda yaratilganligi ma'lum emas, adabiyotlarda uning 1197 yildan

keyin yozilganligi haqida ba'zi qaydlar uchraydi.

Nizomiy beshligi yaratilgandan keyin oradan bir asr vaqt o'tib, Xusrav Dehlaviy (1253–1325) unga javob yozdi va shu bilan xamsanavislik an'anasi boshlab berdi. U 1299–1301-yillarda "Matla' ul-anvor" ("Nurlarning boshlanmasi"), "Shirin va Xusrav", 119

"Majnun va Layli", "Hasht behisht" ("Sakkiz jannat"), "Oyinayi Iskandariy" ("Iskandar oynasi") dostonlarini yaratib, Nizomiy ishini davom ettirdi va natijada adabiyotda xamsachilik an'anasi paydo bo'ldi.

Dehlaviydan keyin bu an'ana butun Sharq dunyosiga tarqaldi va juda ko'p xalqlarda Nizomiy dostonlari mavzusi va syujeti asosida asarlar paydo bo'ldi. Ozarboyjon olimi G'. Aliev jahon kutubxonalarida saqlanayotgan qo'lyozma va manbalarni o'rganib chiqish asosida Nizomiy beshligiga muayyan tarzda javob yozgan 300 ga yaqin ijodkorni aniqladi va ular haqidagi ma'lumotlarni umumlashtirib, "Temi i syujeti Nizami v literaturax narodov Vostoka" nomli monografiyasini yaratdi.

Xamsanavislik tarixida XV asr Hirot adabiy muhiti alohida o'rin egallaydi.

Izlanishlardan ma'lum bo'ldiki, aynan shu davr va shu muhitning o'zida 20 ga yaqin ijodkor xamsanavislikda o'z kuchlarini sinab ko'rganlar. Gar chi bu ijodkorlarning barchasi to'liq xamsa yaratmagan bo'lsalar-da, lekin beshlikning u yoki bu dostoniga javob yozish bilan mazkur an'anaga o'z munosabatlarini bildirganlar.

Bu davrdagi Nizomiy mavzulariga murojaat qilgan ijodkorlar haqida Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" (1498), Davlatshoh Samarcandiyning "Tazkirat ushshuar" (1486), Humomiddin Xondamirning "Makorim ul -axloq" asarlarida ma'lumotlar uchraydi.

Ijodkorlar guruhini xamsanavislikka bildirgan munosabatiga ko'ra shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin:

1. To'liq xamsa mualliflari.
2. "Xamsa"ning ba'zi dostonlariga javob yozgan ijodkorlar.
3. Bitta dostoniga javob yozgan ijodkorlar.

To'liq xamsa mualliflari

Jamoliy

Temur va Shohruh zamonida yashagan bu ijodkorning tavallud va vafot etgan yillari haqida aniq ma'lumot yo'q. Faqat G'. Aliev o'zining "Temi i syujeti Nizami v literaturax narodov Vostoka" nomli monografiyasida uning beshligi 1402-1417 yy. oralig'ida yaratilgan degan fikrni bildiradi.

Jamoliy "Xamsa"si quyidagi dostonlardan iborat:

1. "Tuhfat ul-abror" ("Maxzan ul-asror"ga javob)
2. "Mehru Nigor" ("Xusrav va Shirin"ga tatabbu')
3. "Mahzun va Mahbub". ("Layli va Majnun"ga tatabbu')
4. "Haft avrang" ("Haft paykar"ga tatabbu')
5. Doston nomlanishi aniq emas. Lekin voqealar mazmuni va qo'llanilgan vazn Nizomiy "Iskandarnoma"sin eslatgani uchun uni Nizomiy beshligidagi so'nggi dostoniga javob tarzida yozilgan deb hisoblash mumkin.

Ashraf Marog'iy

Shohruh zamonida yashaganligi va 1450 yilda vafot etganligi ma'lum. Uning

beshligi 1428-1444 yy. oralig'ida yaratilgan bo'lib, quyidagi dostonlardan iborat:

1. "Minhoj ul-abror" ("Yaxshi kishilarining yo'li", 1428) yilda yaratilgan.

Nizomiy dostonidan bir oz farqlanib, 21 maqolatdan iborat va ularning har bir-biriga ikkitadan hikoyat ilova qilinadi.

120

2. "Riyoz ul-oshiqin" ("Sevishganlar bog'i", 1432). Ba'zi manbalarda "Xusrav va Shirin" nomi bilan ko'rsatiladi.

3. "Ishqnama" ("Layli va Majnun"ga tatabbu', 1438)

4. "Haft avrang" ("Etti taxt", 1440)

5. "Zafarnoma" (1444) yilda yaratilgan. Nomlanishdagi o'zgachalikka qaramay, voqealar bayoni ham, qo'llanilgan vazn ham "Iskandarnoma"ni eslatadi.

Mazkur guruhdagi yana ikki ijodkor Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy "Xamsa"lari haqida mavzu so'ngida batafsilroq fikr yuritganimiz sababli bu o'rinda ularga to'xtalib o'tirmaymiz.

"Xamsa"ning ba'zi dostonlariga javob yozgan ijodkorlar

Kotibi Turshiziy

Bu ijodkorning Nishopurdan kelganligi va 1434 / 36 yy.da Astrobodda vafot etganligi haqida YE.E.Bertel's o'zining "Navoi i Djami" tadqiqotida ma'lumot keltiradi.

Turshiziy 10 ga yaqin masnaviy-dostonlar muallifi, ulardan faqat uchtaasi "Xamsa" dostonlariga tatabbu' tarzida vujudga keldi:

1. "Gulshan ul-abror" ("Yaxshi kishilarining gulshani").

2. "Layli va Majnun".

3. "Bahrom va Gulandom".

Abdulloh Hotify

1445/ 50-1521 yy. oralig'ida yashagan. Manbalarda Abdurahmon Jomiyning jiyani sifatida tilga olinadi. "Xamsa"ning quyidagi dostonlariga javob yozganligi ma'lum:

1. "Layli va Majnun".

2. "Shirin va Xusrav" (1490)

3. "Haft manzar" ("Etti manzara") "Haft paykar"ga tatabbu' tarzida yaratilgan.

4. "Temurnoma". "Iskandarnoma" vaznida bitilgan bu doston Amir Temurning zafarli yurishlariga bag'ishlangan.

Ko'rindiki, Hotify dostonlari orasida faqat "Maxzan ul-asror"ga javob tarzida yozilgan doston uchramaydi.

Badriddin Hiloliy

Asli astrobodlik bo'lган bu ijodkor XV asrning 70-yillarida tug'ilgan. 1529 yilda qatl etilgan. "Xamsa" dostonlariga javoban yozilgan 2 ta dostoni bor:

1. "Sifat ul-oshiqin" ("Maxzan ul-asror"ga javob)

2. "Layli va Majnun".

Shahobiddin Jomiy

Bu ijodkorning tug'ilgan va vafot etgan yillari haqida aniq ma'lumot yo'q. Faqat Xondamirning "Makorim ul-axloq"da Shahobiddin Jomiyning Alisher Navoiy maslahatiga ko'ra, "Layli va Majnun" va "Xusrav va Shirin" dostonlarini yozganligi haqidagi ma'lumotiga tayanadigan bo'lsak, muallifning XV asrning ikkinchi yarmida yashaganligi ma'lum bo'ladi. Shahobiddin Jomiyning bu ikki dostoni bizgacha yetib

kelmagan yoki haligacha topilmagan.

121

Bitta dostonga javob yozgan mualliflar

Bu guruhni g'oyaviy yo'nalishiga qarab ikkiga ajratish mumkin:

1) “Maxzan ul-asror” tipida doston yozgan mualliflar:

Osafiy Hiraviy, Nargisiy, G'iyyosiddin Sabzavoriy, Fosih Rumiy, Sayyid Qosimiy.

2) “Layli va Majnun” tipida doston yozgan mualliflar:

Shayxim Suhayliy, Ali Ohiy, Xoja Imod Loryi, Xoja Hasan Xizrshoh, Zave Qozisi.

Xamsachilik tarixida fors-tojik adabiyotining yirik namoyandalaridan biri

Abdurahmon Jomiy (1414-1492) beshligi alohida o'rin tutadi. Jomiy ijodkor bo'lish bilan birga so'fiy ham edi, bu holat u yaratgan asarlarda ham namoyon bo'ladi. Sharqshunos olim Konradning ta'biri bilan aytganda, “u – shoir, u – faylasuf, u – filolog, u – musiqashunos. Lekin shu bilan bir qatorda u ko'proq so'fiy. Uning uchun borliqni anglashning ikki ko'rinishi mavjud – borliq sirlari va ijod sirlari” (Konrad N.I. Zapad i Vostok, 276-bet).

Adabiyotshunoslikda Jomiyning “Xamsa” yozgan-yozmaganligi bilan bog'liq bahsli fikrlar mavjud. Ayrim adabiyotshunoslardan Jomiy dostonlariga “Xamsa” tarzi da emas, balki yettilik –“Haft avrang” (“Salomon va Absol” hamda “Silsilat uz-zahab” dostonlarini ham qo'shgan holda) shaklida qarash zarurligini ta'kidlaydilar. Lekin Jomiyning o'zi “Xiradnomai Iskandariy” xotimasida o'z asarini “Panj ganj” deb ataganligi uchun Jomiyni “Xamsa” yaratgan ijodkorlar qatoriga kiritish to'g'riroq bo'ladi.

Abdurahmon Jomiy “Xamsa”sining birinchi dostoni “Tuhfat ul-ahror” 1481 yilda yaratilgan. Falsafiy-axloqiy masalalarga bag'ishlangan bu doston Nizomiy “Maxzanul-asror”iga javob tarzida vujudga keldi. Dostonlar nomlanishidagi ohangdoshlik, kompozitsion qurilishdagi o'xshashlik va qo'llanilgan she'riy o'lchov bu fikrni tasdiqlaydi. 1482-83 yillarda “Xamsa”ning ikkinchi dostoni “Subhat ul-abror” (“Yaxshi kishilarning tasbehi”) maydonga keldi. An'anaga muvofiq, xamsaning ikkinchi dostoni ishqiy mavzuga bag'ishlanishi kerak edi. Lekin Jomiy bu o'rinda an'anadan butunlay chekinib, falsafiy yo'nalishdagi yana bir doston yaratadi. Lekin u birinchi doston kabi 20 ta maqolatdan emas, balki 40 ta bo'lim – “iqd” (tasbeh donasi)dan iborat bo'lib, har bir nazariy qismdan keyin alohida hikoyat va munojot ilova qilib boriladi.

Abdurahmon Jomiy beshligidagi uchinchi doston “Yusuf va Zulayho” deb atalib, 1483 yilda yaratilgan. Nizomiy beshligida bunday mavzu va syujetdagi doston uchramaydi. Jomiy “Xusrav va Shirin” mavzusidagi an'anaviy doston yaratishdan voz kechib, Qur'onda “ahsan ul-qisas” – “qissalarining sarasi” deb ta'riflangan Yusuf qissasi bayoniga bag'ishlangan “Yusuf va Zulayho” dostonini yaratadi.

Abdurahmon Jomiy “Xamsa”sidagi to'rtinchchi doston “Layli va Majnun” mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, 1483 yilda yaratilgan. “Xamsa”dagi so'nggi – beshinchi doston “Xiradnomai Iskandariy” ham Jomiyning an'anaga rioya etishi bilan xarakterlanadi. Ko'rindaniki, Abdurahmon Jomiy yaratgan masnaviy-dostonlar orasida falsafiy yo'nalishdagi dostonlar yetakchi o'rinda turishi bilan xarakterlanar ekan.

Fors adabiyotida Nizomiy beshligiga birinchi javob bitgan ijodkor Xusrav Dehlavyi bo'lsa, Navoiy bu vazifani turkiy tilda ado etdi. Navoiy beshligida xamsanavislikning barcha shartlariga qat'iy amal qilinganligini ko'ramiz. Chunki xamsanavislik an'anasidan

bir oz bo'lsa-da chekinish, turkiy tilda xamsadek buyuk asarni yozib bo'lmaydi degan fikrga olib kelishi mumkin edi. Navoiy o'z "Xamsa"si misolida an'anaviy shakl doirasida ham yangi fikr ayta olish imkoniyatini, belgilab berilgan shakllarni jilvalantirish usullari

122

mavjudligini ko'rsatib berdi va uning bu asari umumjahon adabiyotining yuksak cho'qqisi bo'lib qoldi.

Topshiriqlar:

1. Xamsanavislik an'anasisiga asos solgan shoir sifatida qaysi shoirni ko'rsatish mumkin deb o'ylaysiz: Nizomiy Ganjaviy yoki Xusrav Dehlaviy? Va qaysi asoslarga ko'ra?
2. Xamsa yaratgan ijodkorlarni shartli ravishda qay shaklda guruhlash mumkin?
3. Nima uchun Xusrav Dehlaviy hamda Navoiy xamsachilikning barcha shartlariga amal qilishgan?
4. Abdurahmon Jomiyning xamsa yaratgan yoki yaratmagani to'g'risida nima uchun yakdil fikr yo'q?
5. Sizningcha, nima uchun Abdurahmon Jomiy "Xusrav va Shirin" mavzusida doston yozishdan voz kechgan?
6. Alisher Navoiy "Xamsa"sining adabiyotimizda tutgan o'rni haqida qanday mustaqil xulosalaringiz bor?

## GLOSSARIY

**ADABIY TUR** – adabiy asarlarning qahramonlar hayoti va narsahodisalarni tasvirlash tamoyillari, bayonning kim tomonidan va qay yo'sinda olib borilish xususiyatlari bilan farqlanadigan guruhi. An'anaga ko'ra, badiiy asarlar quyidagi turlarga bo'linadi: epik, lirik va dramatik asarlar. Fanda ham lirik, ham epik xususiyatlarga ega bo'lgan doston, b allada va masal janrlarini liro-epik turni tashkil qiladi degan qarash ham mavjud.

**ADABIY QAHRAMON** – adabiy asar voqealarini qatnashchisi. Badiiy asarda ishtirok etuvchi shaxslarga nisbatan ishlatiladigan umumiy atama.

**INDIVIDUAL USLUB** – ijodkorning voqelikni idrok qilish, uni tasvirlashdagi o'ziga xosligi. Individual uslub murakkab tushuncha bo'lib, u ijodkorning dunyoqarashi, fikrlash tarzi, hayotiy tajribasi umumxalq tiliga munosabati kabilarni o'z qamroviga oladi. Individual uslub orqaligina badiiy ijod ko'p qirralilik kasb etadi, voqelik turlicha aspektida, turli shaklda in'ikos topadi.

**MAZMUN VA SHAKL.** Mazmun – adabiy asarda aks etgan hayotiy voqealar vositasida zohir bo'ladigan asar to'qimasi zamiridagi mohiyat. Shakl – ushbu mohiyatning namoyon bo'lishi, ya'ni ifodalinish usulidir. Mazmun shakl orqaligina ro'yobga chiqadi va o'z navbatida shakl mazmunsiz mavjud bo'lolmaydi. Shu tufayli bu ikki tushuncha doim o'zaro aloqada bo'ladi. Ularning birligi badiiylikning muhim shartidir.

Mazmun va shakl tushunchalari uzoq tarixga ega. Ularni Alisher Navoiy o'z adabiy-ilmiy merosida «ma'ni» va «surat» istilohlari bilan atagan va ma'nining suratdan ko'ra ustuvorligi – birlamchilagini ta'kidlagan:

123

Nazmda ham asl anga ma'ni durur,  
Bo'lsun aning surati har ne durur.

Badiiy asarda mazmun va shakl dialektik birlikda va bir-biriga o'tuvchi hodisalar sifatida o'rganiladi. Darhaqiqat, mazkur tushunchalar bir-biriga shu qadar bog'liqki, ularning biri ikkinchisiz yashay olmaydi. Mazmun g'oyaviylik, shakl badiiylik hodisasi. G'oyaviy-badiiy jihatdan pishiq asarlarga kitobxonga manzur va foydali bo'ladi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Абдугафуров А. Буюк бешлик сабоқлари. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1995.
2. Ҳайитметов А. Темурйлар даври адабиёти. – Т.: Фан, 1996.
3. Исҳоқов Ё. “Хамса” поэтикасига доир //Ўзбек тили ва адабиёти. - 1986.-№ 1.
4. Алиев Г. Ю. Темы и сюжеты Низами в литературах народов Востока. – М.: Наука, 1985.
5. Валихўжаев Б. “Хамса” ёзиш анъанасига Алишер Навоийнинг муносабати // Ўзбек тили ва адабиёти. -1990.- № 1.
6. Эркинов А. С. Алишер Навоий “Хамса”си талқинининг XV-XX аср манбалари. Филол.фан.докт.дисс... – Т., 1998.
7. Юсупова Д. Алишер Навоий “Хамса”сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйғунлиги. – Тошкент: МУМТОЗ СЎЗ, 2011.
8. Алишер Навоий: қомусий луғат. 1-2-жиллар /Масъул муҳаррир Ш.Сирожиддинов. – Т.: Sharq, 2016.
9. Навоийнинг ижод олами (мақолалар тўплами). – Т.: Фан, 2001.
10. Мухиддинов М. Комил инсон – адабиёт идеали. – Т.: Маънавият, 2005.
11. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Т.: O'zYU Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

*O'ZBEK MUMTOZ VA MILLIY UYG'ONISH  
ADABIYOTI*  
*(Qadimgi davrlardan XV asrning I yarmiga qadar)  
fanidan*

OQUV MATERIALLARI  
VA  
TA'LIM TEKNOLOGIYALARI

**III. Mustaqil ta'lif**

Tuzuvchi

f.f.n. dots. Tohirov S.

### Mustaqil ta'limi tashkil etish

“O'zbek mumtoz va miliy uyg'onish adabiyoti” fani bo'yicha talabalarning mustaqil ta'limi til o'rghanish jarayonining bevosita tarkibiy qismi bo'lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to'la ta'minlangan.

Fanni o'qitish jarayonida ma'naviyatimiz sarchashmalari, hukmron mafkura tazyiqi ostida qataqonga uchragan qadriyatlarimiz, shoiru yozuvchilarimizning ijodiy faoliyatları, ma'naviy va adabiy hayotda muhim o'rinn tutgan nodir manbalar bilan talabalarni tanishtiriladi. Auditoriyadan tashqarida esa talabalar darslarga tayyorlanioshadi, adabiyotlarni konspektlashtiradi, uyda ishslash uchun berilgan topshiriqlarni bajarishadi, tahlil qilishadi. Bundan tashqari, berilgan ayrim mavzularni chuqurroq o'zlashtirish uchun qo'shimcha adabiyotlardan foydalanadi, referatlar, talabalar ilmiy to'garagi va anjumanida chiqish qilish uchun ma'ruzalar tayyorlashadi. Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qo'shimcha adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rghanish, kerakli ma'lumotlarni izlash, ularni topish, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garaklar yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib, maqola va ma'ruzalar tayyorlash kabi faoliyat talabalarning darslardan olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning ilmiy fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi.

Talabaga mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- O'quv adabiyotlaridan fan boblari va mavzularini o'rghanish.
- Tarqatma materialar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish.
- Maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishslash.
- Yangi ilmiy adabiyotlarni, adabiy jarayon tendensiyalarini va estetik tamoyillarni o'rghanish.
- Talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish.
- Faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalilanligan o'quv mashg'ulotlari.

O'tilgan materialarning o'zlashtirilishi, konspektlar, uy vazifalarini tekshirish va baholash mashg'ulot olib boruvchi o'qiyuvchi tomonidan doimiy tarzda har bir dars davomida olib borilsa, referatlar himoyasi jadval asosida amalga oshiriladi.

**“O'zbek mumtoz va milliy uyg'onish adabiyoti” fanidan mustaqil ishlar mavzulari**

T.r.	Mustaqil ta'lim mavzulari	Topshiriqlar	Bajarish muddati	Soat
1.	“O'zbek adabiyoti tarixi” (5 tomlik, 1-tom) va “O'zbek mumtoz adabiyoti tarixdi” (R.Vohidov va H.Eshonqulov) kitoblaridan “Qadimgi mif va afsonalar” va “Mahmud Koshg'ariy” mavzularini o'qib konspektlashtirish.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Ma'ruza matni bilan solishtirish.	1-2-hafta	4
2.	“O'zbek adabiyoti tarixi” (5 tomlik, 1-tom) va “O'zbek mumtoz adabiyoti tarixdi” (R.Vohidov va H.Eshonqulov) kitoblaridan “Yusuf Xos Hojib”, “Ahmad Yugnakiy” va “Rabg'o'ziy” mavzularini o'qib konspektlashtirish.	Matnni ko'chirish, lug'at, yozma tahlil.	3-4 hafta	4
3.	“Avesto”dagi mifologik sujetlar va qarashlar sharhi	Matn tanlash, ko'chirish, tahlil.	5-hafta	4
4.	“O'g'uznama” dostonining qisqacha mazmunini konspektlashtirish	Matnni o'qish, boblarga qisqa sharh, lug'at, tahlil.	6-hafta	4
5.	“Rustam va Suhrob” (“Shohnoma”) dostoni sujetini so'zlab berish	Muxtasar yozma matn, suhbat.	7-hafta	4
6.	“Qisasi Rabg'uzy”dagi Sulaymon a.s. qissasini o'qib konspektlashtirish.	Matni o'qish, lug'at, muxtasar mazmunini yozish, muhim detallarga izoh.	8-hafta	4
7.	“Qisasi Rabg'uzy”dagi Iso a.s. qissasini o'qib konspektlashtirish.		9-hafta	4
8.	“Suhayl va Guldursun” dostonini konspektlashtirish va so'zlab berish		10-hafta	4
9.	“O'zbek adabiyoti tarixi” (5 tomlik, 1-tom) va “O'zbek mumtoz adabiyoti tarixdi” (R.Vohidov va H.Eshonqulov) kitoblaridan “Xorazmiy”, “Durbek” va “Sakkociy” mavzularini o'qib konspektlashtirish.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Ma'ruza matni bilan solishtirish.	1-2-hafta	4
10.	Alisher Navoiyning “Majolis un-nafoyis” tazkirasida Atoy, Sakkociy, Gadoyi va Haydar Xorazmiy haqida berilgan ma'lumotlarni yozma tahlil qilish.	Matnni ko'chirish, lug'at, yozma tahlil.	3-4 hafta	4
11.	Navoiyning “Majolis un-nafoyis” va “Nasoyim ul-muhabbat” tazkiralarda Lutfiy haqida berilgan ma'lumotlarni yozma tahlil qilish.	Matnni ko'chirish, lug'at, yozma tahlil.	5-hafta	4
12.	S.Raf'iddinovning “Majoz va haqiqat” kitobiga taqriz yozish.	Matnni o'qish, boblarga qisqa sharh, lug'at, tahlil.	6-hafta	4

13.	B.Valixo'jayevning "Malik ul-kalom - Mavlono Lutfiy" kitobini konspektlashtirish.	Matnni o'qish, boblarga qisqa sharh, lug'at, tahlil.	7-hafta	4
14.	Atoyi g'azallaridan birini yod olish va og'zaki tahlil qilish.		8-hafta	4
15.	Sakkokiy g'azallaridan birini yod olish va og'zaki tahlil qilish.	Ga'al matni va lug'at (yozma), yoddan ifodali o'qish, og'zaki tahlil	9-hafta	4
16.	Lutfiy g'azallaridan birini yod olish va og'zaki tahlil qilish.		10-hafta	4
17	Husayniy g'azallaridan birini yod olish va og'zaki tahlil qilish.			4
18	Notanish so'z va atamalar lug'atini umumlashtirish	Lug'at daftari taqdim etiladi		4

Jami:

72

*Izoh: 1-, 2-, 3-, 4-, 5-, 6-, 7-, 8-, 9-, 10-, 11-, 12-, 13-, 18- topshiriqlar yozma; 14-, 15-, 16-, 17- topshiriqlar og'zaki tarzda bajariladi. 1-, 2-, 9 - topshiriqlar amaliyot va seminar daftarlarda, 3-, 4-, 5-, 6-, 7-, 8-, 9-, 10-, 11-, 12-, 13- topshiriqlar mustaqil ishi daftarida, 18-topshiriqlar elektron variantda taqdim etiladi.*

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

***O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI***  
***Iqism***  
***fanidan***

**TARQATMA MATERIALLAR**

Tuzuvchi

f.f.n. dots. Xoliqulova G.

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

***O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI***  
***Iqism***  
***fanidan***

**NAZORAT MATERIALLAR**

Tuzuvchi

f.f.n. dots. Xoliqulova G.

**TEST NOPSHIRIQLARI**  
**1-7 MAVZULAR**  
**(1-qism)**

**1. "O'zbek adabiyoti tarixi" ilmi:**

- A. "Adabiyotshunoslik" ilmining asosiy tarkibiy qismlaridan biri.
- B. "Adabiyotshunoslik" ilmining qo'shimcha tarkibiy qismlaridan biri.
- C. "Adabiyot nazariyasi" ilmining tarkibiy qismlaridan biri.
- D. "Adabiyotshunoslik"ni ham qamrab oluvchi adabiyot haqidagi ilmdir.

**2. O'zbek adabiyoti tarixining uchta asosiy bosqichini to'g'ri tartibda aniqlang.**

- A. O'zbek adabiyoti tarixi, hozirgi zamon o'zbek adabiyoti, istiqlol davri o'zbek adabiyoti.
- B. O'zbek mumtoz adabiyoti, milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti, yangi o'zbek adabiyoti.
- C. Islomgacha bo'lган davr adabiyoti, islam ta'siridagi davr adabiyoti, yangi o'zbek adabiyoti.
- D. O'zbek mumtoz adabiyoti, XX asr adabiyoti, mustaqillik davri adabiyoti.

**3. O'zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish bo'yicha ilk izlanishlar muallifini belgilang.**

- |                       |                        |
|-----------------------|------------------------|
| A. Abdurauf Fitrat.   | B. Sadriddin Ayniy.    |
| C. Abdurahmon Sa'diy. | D. Olim Sharafuddinov. |

**4. XX asrning 40-yillarida "O'zbek adabiyoti tarixi" xrestomatiyasini tuzgan olimni belgilang.**

- |                       |                        |
|-----------------------|------------------------|
| A. Abdurauf Fitrat.   | B. Sadriddin Ayniy.    |
| C. Abdurahmon Sa'diy. | D. Olim Sharafuddinov. |

**5. XX asrning 40-yillarida tuzilgan "O'zbek adabiyoti tarixi" xrestomatiyasida qaysi asar yozilgan davriga ko'ra noto'g'ri joylashtirilgan?**

- |                        |                        |
|------------------------|------------------------|
| A. "Miftoh ul-adl".    | B. "Qisasi Rabg'uziy". |
| C. "Hibat ul-haqoyiq". | D. "Qutadg'u bilig".   |

**6. Uch qismdan iborat "O'zbek adabiyoti tarixi" darslik kitoblarining mualliflarini to'g'ri tartibda belgilang.**

- A. N.Mallaev, V.Abdullaev, R.Vohidov.
- B. G'. Karimov, N.Mallaev, V.Abdullaev
- C. B.Valixo'jaev, R.Orzibekov, R.Vohidov.
- D. N.Mallaev, V.Abdullaev, G'.Karimov.

**7. 1976-1980 yillarda nashr ettirilgan "O'zbek adabiyoti tarixi" akademnashr darslik kitobi necha tomidan iborat?**

- A. 3.
- B. 4.
- C. 5.
- D. 6.

**8. 5 tomdan iborat bo'lgan "O'zbek adabiyoti tarixi" akademnashr darslik kitobining nechanchi tomi asosan Samarqand adabiyotshunoslari tomonidan yaratilgan?**

- A. 1.
- B. 2.
- C. 3.
- D. 5.

**9. "Mumtoz" so'zini qanday tushunasiz?**

- |                         |                              |
|-------------------------|------------------------------|
| A. Eski, qadimiylar     | B. Namuna, ajralib turadigan |
| C. Tarbiyaviy, didaktik | D. Qimmatbaho, bebaholar     |

**10. 2006-yilda nashr ettirilgan "O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi" o'quv qo'llqnqmqsining mualliflarini belgilang.**

- |                                |                              |
|--------------------------------|------------------------------|
| A. R.Vohidov, H.Eshonqulov.    | B. B.Valixo'jaev, Q.Tohirov. |
| C. B.Valixo'jaev, R.Orzibekov. | D. I.Haqqulov, A.Qayumov.    |

**11. "O'zbek mumtoz va milliy uyg'onish adabiyoti" fani "Filologiya va tillarni o'qitish yo'naliisi o'quv rejasining qaysi fanlar blogiga tegishli?**

- A. I Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar.
- B. II matematika va tabiiy-ilmiy fanlar.
- C. III umumkasbiy fanlar.
- D. IV Ixtisoslik fanlari.

**12. O'zbek adabiyoti tarixining qaysi davrida didaktika-pand nasihat ruhi ustunlik qiladi?**

- A. Islomgacha bo'lган davr adabiyotida
- B. Qoraxoniylar davri adabiyotida
- C. Mug'ullar hukmronligi davri adabiyotida
- D. Temuriylar davri adabiyotida

**13. Adabiyot tarixini o'rghanishda qimmatli manba hisoblangan shoirlar haqida muxtasar ma'lumot beruvchi asarlar qanday nomlanadi?**

- A. Manoqib
- B. Risola
- C. Tazkira
- D. Debocha

**14. Turkiy xalqlar madaniyatida tub burilish yasagan tarixiy hodisani belgilang**

- A. Markaziy Osiyoning arab xalifaligi tarkibiga qo'shilishi
- B. Mug'ullar istilosи
- C. Temuriylar davlatining shakllanishi
- D. Xonliklarning yuzaga kelishi.

**"O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI"**  
**fanidan**

# ***GLOSSARIY***

**(izohlli lug'at)**

**Samarqand-2019**

**Abjad** – I. Tarixiy sanalarni ifodalashning Sharq xalqlari orasidagi o'ziga xos usuli. Unda sanalar raqamlar bilan emas, harflar yoki harflar ishtirokida hosil bo'lувчи со'з va jumlalar vositasida ifodalanadi. Abjad hisobida harflarning maxsus tartibi mavjud. 28 ta harf jami sakkizta со'zda jamlanadi. Bular: abjad, havvaz, huttiy, kalaman, sa`fas, qarashat, saxxaz, zazag'. Raqamlar 1 dan 9 gacha, 10 dan 90 gacha, 100 dan 1000 gacha har bitta harfga biriktiriladi.

II. Abjad hisobida harflar tartibdagi dastlabki to'rtta harfnini (alif, be, jim va he) ifodalovchi со'з.

**Ajuz – q. Zarb.**

**Alqish** - madhiya, hamd (DLT)

**Asllar** - Juzvlarni turli tartibda qo'shish natijasida Xalil ibn Ahmad tomonidan hosilqilingan dastlabki ruknlar. Asllar sakkizta: Fa`uvlun, Fo`ilun, Mafo`iylun, Fo`ilotun, Mustaf`ilun, Maf`uvlotu, Mutafoilun, Mafoilatun.

**Afoil va tafoillar** – Aruzda “fa’ala” со'zidan hosil qilinuvchi со'zning vazni, o'lchovini ifodalashga xizmat qiladigan ma'nosiz со'zlar.

**Aruz** – I. She'riy vaznlar tizimi. VIII asrda arab filologi Xalil ibn Ahmad tomonidan asos solingan. O'zbek mumtoz she'riyatining asosiy vazni. O'zbek adabiyotiga XI asrdan boshlab kirib kelgan. Aruzda yozilgan dastlabki asar Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” dostoni. Aruz vaznida hijolar sifati ya'ni cho'ziq yoki qisqaligining muayyan tartibda takrorlanishiga asoslaniladi.

II. Arabiston yarim orolida jaylashgan bir vodiyning nomi bo'lib, u vodiydagi kishilarning asosiy mashg'uloti vaqtinchalik uy-chodir tikib sotishdan iborat. Aruz tizimidagi atamalarning ko'pchiligi shu vodiy xalqining urf-odatlari, ashylari nomidan olingan.

III. Uyning (chodirning) asosini tashkil etuvchi ustunlar-ruknlardan birining nomi. Ayrim olimlarning fikriga ko'ra vaznning nomi aynan shu со'zdan olingan.

IV. Baytdagi ruknlardan birining maxsus nomi. Birinchi misraning oxirgi rukni.

**Aruzvoriy** - Navoiyning "Mezon ul-avzon"ida **hazaji musammani solim** vaznida yozilgan g'azallarga bitilgan qo'shiqlarga nisbatan shu atama qo'llangan.

**Axloqiy-ta'limiy g'azallar** - halollik, rostgo'ylik, myehnatsyevarlik, ilm-hunarga intilish, do'stga sadoqat, kattaga hurmat, kichikka shafqat, vatanparvarlik, xalqparvarlik, vatan va xalq dushmanlariga, zolim, o'g'ri va riyokorlarga nisbatan nafrat kabi oljanob xislatlar, didaktik g'oyalar o'z aksini topadigan g'azallar.

**Bayt** – I. Arab tilida uy ma'nosini ifodalaydi. Xalil Ibn Ahmad she'riyning kichik qismini ham shu со'z bilan nomlagan. Bayt ikki misradan iborat.

**Bahr** - (arabcha – dengiz, ko'pligi buhur) Aruz tizimida ruknlarning takroridan hosil bo'lувчи vaznlar turkumi. Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon"

asarida o'n to'qqizta, Boburning "Muxtasar"ida esa "ariz" va "amiq" bahrlari bilan birga yigirma bitta bahr keltirilgan.

**Begona bayt** - Maqtadan oldingi bayt. Unda shoirning g'azal mazmuniga u qadar bog'liq bo'limgan fikrlari, qarashlari byerilishi mumkin.

**Debocha** – arabcha boshlanma, Devonlarda kirish qismiga nisbatan qo'llanuvchi atama.

**Dyevon** - shoirning o'zi tomonidan, shuningdyek, boshqalar tomonidan ham tuziladi. Unda biror shoirning qofiya va radiflari ma'lum harflar bilan tugallangan shye'rlari alifbo tartibida (qofiyalanib kyeluvchi so'zlarning oxirgi harflari asosida) joylashtirilgan. Arab yozuvida 28 harf mavjud bo'lganligi uchun dyevonlarda ham ana shu harflarni ma'lum miqdordagi shye'rlar bilan to'ldirish asosiy qoidalardan hisoblangan. Dyevon tartib byerish forsiy adabiyotda turkiy adabiyotga nisbatan ancha avval kuzatiladi. Jumladan, XI asrda yashagan Nosir Xisrav (1004-1088) kabi forsiygo'y shoirlar sohibi dyevon bo'lganlar.

**Doira** - Aruz metodikasida bahrlarni yaxshi tushunish va eslab qolish uchun bir-biriga yaqin bo'lgan bahrular kiritiladigan chizma. Unda misra, uning afo'illari hamda bahr nomlari kiritiladi. Misrani qaysi so'zdan boshlab o'qishga ko'ra turli bahrular hosil bo'ladi. Masalan:

Doirai muttafiqa - mutaqorib (fa'uvlun), mutadorik (fo'ilun).

Yuzi rashki xurshidi anvar bo'lubtur

**Etuk** - hikoya, ertak (DLT)

**Fard** – arabcha so'z bo'lib, yolg'iz, yakka, yagona ma'nolarini anglatadi. Fardning ko'pligi mufradot deyiladi. Lirikaning eng kichik janri bo'lgan fard *a-a* yoki *a-b* shaklida qofiyaladadi.

**Fosila** - (arabcha palos) Aruzda eng katta *juzvning* nomi. To'rt va undan ortiq harfli juzv. Fosila ikki xil bo'ladi:

1. Fosilai sug'ro (kichik fosila) - uch harakatli va bir sokin harfdan iborat.
2. Fosilai kubro (katta fosila) - to'rt harakatli va bir sokin harfdan iborat.

**Furu'** - Asl ruknlarning turli tarzda o'zgarishi natijasida hosil bo'lgan yangi ruknlar.

**Gurizgoh** - qasida janrida lirik kirishdan so'ng keluvchi qism.

**Hajviy g'azal** - hayotda uchraydigan kamchilik va qusurlarni kulgu vositasi bilan tanqid qilish usulida yozilgan shye'rlardir.

**Hazaj** – Aruz tizimidagi bahrlardan birining nomi. **Hazaj** bahri **mafo'iylun** ruknining takrorlanishidan hosil bo'ladi. Bu bahrning ikki shakli dostonchilikda qo'llanadi

**I. Hazaji musaddasi mahzuf (maqsur)** (Mafo'iylun mafo'iylun fa'uvlun (mafo'iyl)). Nizomiyning "Xusrav va Shirin" dostoni tufayli shuhrat qozongan bu

vazn "Xamsa"lardagi ikkinchi dostonlarga xos bo'lib, unda ishqiy-sarguzasht syujetlar bayon etiladi. Amir Xusrav Dehlaviyning "Shirin va Xusrav", Jomiyining "Yusuf va Zulayho", Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonlari ham shu vaznda yozilgan. Mazkur vazn turkiy adabiyotda keng iste'molda bo'lgan. Jumladan, Xorazmiy "Muhabbatnama"si va uning naziralari, Sayfi Saroyining "Suhayl va Guldursun", Haydar Xorazmiyning "Gul va Navro'z" dostonlari shu vaznda yozilgan.

**II. Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf (maqsur)** (Maf'uvlu mafo'ilun fa'uvlun (mafo'iyil)). Xamsalarning uchinchi dostonlari shu vaznda bo'lib, ko'proq ishq izardi, dard va mahzun ohanglarni ifodalashga mo'ljallangan. Nizomiy, Amir Xusrav, Jomiy va Alisher Navoiyning Layli va Majnun haqidagi dostonlari, Hoju Kirmoniyning "Gavharnoma"si shu vaznda yozilgan.

**Hashv** (hashvayn) - Aruz vaznida baytdagi ruknlarning maxsus nomi. Birinchi va ikkinchi misralarning o'rtadagi ruknlari.

**Husni ta'lil** - (arabcha chiroyli dalillash). Tasvir etilayotgan hodisaga aslida unga bog'liq bo'lмаган biror go'zal sabab ko'rsatish. Shu bilan fikrni kuchaytirish, bo'rttirish.

**Ibtido** – (arabcha – boshlanish). Aruz vaznida baytdagi ruknlardan birining maxsus nomi. Ikkinchi misraning birinchi rukni.

**Intoq** - (arabcha nitqlantirish, gapirtirish) *Tashxisning* bir turi bo'lib unda insongagina xos bo'lgan jihatlardan bittasi ya'ni nutqga ega bo'lish hodisasi aslida bunday xislatga ega bolmagan jonli va jonsiz predmetlarga ko'chiriladi.

**Janr** - (fransuzcha renhare – xil) atamasi o'rniga Sharq shye'rshunosligida "shye'r navi" istilohi ishlatilib kyelingan. Adabiy turlar muayyan janrlardan tashkil topadi. Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balag'a" asarida o'sha davr adabiy tajribasida kyeng qo'llanilgan tur va janrlar xususida juda muhim ma'lumotlar kyeltiriladi. Byesh qismdan iborat bu asarning birinchi qismida shye'riyatning o'n turi, navi borligi qayd etilgan

**Juzv** - Arab tilida qism ma'nosini bildirib, jonsiz predmetlarga nisbatan qo'llanadi. Aruz she'riy tizimida arab alifbosidagi harakatli (fatha, kasra, zamma) yoki sokin harflarning birga qo'llanishidan hosil bo'ladigan *ruknninning* kichik bo'lagi. Juzvlar uch xil: *sabab, vataf* va *fosila*.

**Ko'g** - shye'r, maqom, kuy, ashula vazni (DLT)

**Laff va nashr** – (arabcha laff – yig'ish, nashr – yoyish). She'riy san'atlardan biri. XV asr adabiyotshunosi Atoullohu Husayniy uni shunday tushuntiradi: Laffu nashr andin iboratdurkim, bir nechani zikr qilur, andin so'ng ul bir nechaga aloqador bir necha nimani bu nimalarning har biri ul bir nechaning qaysi birig'a taalluqlug' erkonin aniq bilmay zikr qilurlar".

**Lafziy san`atlar** - so`zlarning shakliy xususiyatlari ya`ni ularning tarkibidagi tovushlar va harflar bilan bog`liq hodisalar asosida yuzaga keladigan she`riy san`atlarning umumiy nomi. Jumladan, tarse`, tajnis, saj`, musajja`, zulqofiyatayn, takrir (mukarrar), qaytarish (radd) ishtiqoq, mulamma`, muvashshah, kitobat (harf san`ati) kabilar lafziy san`atlar sirasiga kiradi.

**Lirika** - Qadimgi Yunonistonda “lira” dyeb ataluvchi torli musiqa asbobi nomidan kyelib chiqqan bo`lib, lira jo`rligida kuylash ma`nosini anglatadi. Aristotyelning fikricha, bu atama miloddan avvalgi ibtidoiy jamoa davrida myehnat quroli, ayollardagi qo`l va quloq taqinchoqlari harakati natijasida paydo bo`lgan ritmik ohanglar mahsulidir.

**Madh** - Qasida janrining asosiy qismiga nisbatan qo`llanuvchi termin.

**Marsiya** – arabcha soz bolib, yiglamoq, aza tutmoq, qayg`urmoq ma`nolarini bildiradi. Adabiy atama sifatida vafot etgan biror shaxs sifatlarini ta`riflovch, uni maqtovch, unga bo`lgan shoir munosabatlarini ifodalovchi, lirk qahramonning qayg`u-hasratlarini tasvirlovchi asar. O'zbek adabiyotidagi ilk namunasi “DLT” asaridagi “Alp Er To`nga marsiyasi” she`ridir.

**Masal** – arabcha so`z bo`lib, o`rnak, namuna. Ma`nolarini bildiradi. Adabiy istilohda majoziy obrazlar asosida insonga xos xususiyatlarni ochib beruvchi, qissadan hissa chiqarich mohiyatiga ega didaktik asardi. Masal she`riy yoki nasriy shaklda yoziladi.

**Masnaviy** – (arabcha "ikki" sanoq sonini bildiruvchi "isnan" so'zidan yasalgan bo`lib ikkilik ma`nosini ifodalaydi). Sharq mumtoz she`riyatida har juft misra o`zaro butunlikni hosil qiluvchi, ya`ni qofiyalanuvchi she`riy shakl. O'rta asrlarda yirik hajmli dostonlarga nisbatan ham, ikkilik shaklida yozilgan kichikroq hajmdagi she`rlarga nisbatan ham masnaviy atamasi qo'llangan. Hozirgi adabiyotshunoslikda bu atama janr va she`riy shakl ma`nosida qo'llanadi.

**Maxlas band** - taxallusli band hisoblanadi. Musammatlarning birinchi band ibtido band, so`ngi band – maxlas yoki muhr dyeb yuritiladi.

**Ma`naviy san`atlar** - so`z, jumla, misra, bayt yoxud undan kattaroq birliklarning ma`no qirralari, mazmuniga xos hodisalardan ustalik bilan foydalanish, shu yo`l bilan badiiylik, go`zallik yaratish natijasida hosil bo`ladigan she`riy san`atlarning umumiy nomi.. Tashbeh, istiora, kinoya, mubolag'a, tablig', ig`roq, g`uluv, sifatlash, tazod, iyhom, tafsir, laffu nashr, ta`did, ruju`, tashxis, talmeh, irsolli masal, tazmin, husni matla`, ta`rix, muammo, tajohilul orif, husni ta`lil kabilar ma`naviy san`atlar sirasiga kiradi.

**Muammo** – arabcha so`z bo`lib, yashirilgan, berkitilgan ma`nolarini anglatadi. Adabiy termin sifatida bir so`z, ko`pincha ism yashirinib berilgan kichik

lirik janr. Muammo, odatda, bir, ba'zan ikki baytdan tashkil topadi. U *a-a* yoki *a-a, b-b* shaklida qofiyalanadi.

**Muashshar** - mashru' (arabcha - o'nlik) har bandi o'n misralik kam uchraydigan musammat shakli. Qofiyalanishi: *a-a-a-a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-b-b-b-b-a, d-d-d-d-d-d-d-d-a* yoki *a-a-a-a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-b-b-a-a, d-d-d-d-d-d-d-a-a* Fors-tojik adabiyotshunoslari uni "musammati muashshar-mashro'x" istilohi bilan nomlaydi.

**Munozara** – arabcha tortishuv, fikr olishuv ma'nolarini bildiradi. Adabiy termin sifatida fors-tojik va o'zbek she'riyatidagi ma'lum janr nomi. Munozarada turli narsa, voqea, hodisa, tushuncha, holat va boshqalar tortishuvga kirishadi. Obrazlar ko'pincha ramziy xarakterli bo'ladi.

**Muzdavij musammat** - bandlaridagi oxirgi misralar birinchi banddagi bilan qofiyadosh bo'ladi. Bu musammatning oddiy shakli hisoblanadi.

**Murabba'** - (arabcha - to'rtlik) eng qadimiy shye'riy janrlardan bo'lib, har bandi to'rt misradan iborat shye'r shakli. Uning shakllanishi melodiy era boshlariga borib bog'lanadi. Qofiyalanishi: *a-a-a-a, b-b-b-a, d-d-d-a* va h.

**Musabba'** - (arabcha - yettilik) har bandi yyetti misradan iborat shye'r shakli bo'lib, u musammatning kam uchraydigan turidir. Qofiyalanishi: *a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-a, d-d-d-d-d-d-a* yoki *a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-a-a, d-d-d-d-d-a-a* va h.

**Musaddas** - (arabcha - otilik) har bandi olti misra bo'lgan aruzning turli bahr va vaznlarida, turli mavzularda yoziluvchi musammat shakli. Qofiyalanishi: *a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-a, d-d-d-d-d-d-a* yoki *a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-a-a, d-d-d-d-a-a* va h. Musaddas namunalari o'zbyek adabiyotida XV asrning birinchi yarmida, so'ngroq Navoiy va Boyqarolar adabiy muhitida yaratildi.

**Musallas** - (arabcha - uchlik) har bandi uch misradan iborat bo'lib, musammatning kam uchraydigan turi. Qofiyalanishi: *a-a-b, d-d-b, f-f-b* yoki *a-a-a, b-b-b-b, d-d-d* va h. Shye'rning bu shakli G'arbda tyersina (ital.) dyeb ataladi.

**Musalsal g'azal** - tarkibidagi lirik voqyea, manzara, fikr va kyechinma satrlar silsilasida darajama-daraja rivojlanish xususiyatiga ega bo'lgan g'azaldir. Mumtoz shye'riyatdagi tadrij usulining butun g'azal davomida faol qo'llanishi musalsal (silsilali) g'azalning xususiyatlaridandir. Navoiyning "Yordin ayru ko'ngul mulkyedurur sulton yo'q", "Jong'a chun dyerman: "Nye erdi o'lmakim kayfiyati?" misralari bilan boshlanuvchi asarlari musalsal g'azallardir.

**Musamman** - (arabcha - sakkizlik) har bandi sakkiz misradan iborat musammat shye'r shakli. Qofiyalanishi: *a-a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-b-a, d-d-d-d-d-d-a* yoki *a-a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-a-a, d-d-d-d-d-d-d-a-a* va h.

**Musammat** - arabcha “tasmit” so’zidan olingan bo’lib, ipga tizilgan marvarid dyegan ma’noni bildiradi. Musammat va uning shakliy elyemyentlari islomgacha bo’lgan shye’riyatda ham uchraydi. Uning janr sifatida shakllanishi, adabiy ijodda ko’proq qo’llanila boshlashi XI asrga to’g’ri kyeladi. Musammat haqida Rashidi Votvot, Qays Roziy, Vohid Tabriziy, Qabul Muhammad, Atoulloh Husayniy asarlarida ma’lumotlar bor.

**Mustaqil musammat** - barcha misralar bir muallif qalamiga mansub musammat. Bunday musammat “tab’i xud” (o’z tab’i) dyeb yuritiladi. Bunday shye’rlar musammatning uchlikdan o’nlikkacha shakliy turi asosida yaratiladi.

**Mustazod** - arabcha «zoid», “zodi” so’zlaridan yasalgan bo’lib, orttirilgan ma’nosini bildiradi. Bir misrasi g’azalning bir yarim misrasiga teng bo’lib, yagona vazngda yoziladigan she’riy janr. Uning to’liq misralari **hazaji musammani sadru ibtido axrab, hashvayn makfuf, aruz va zarb mahzuf** yoki **maqsur** vaznida, orttirilgan misralari esa **hazaji murabbai sadru ibtido axrab, aruz va zarb mahzuf** yoki **maqsur** vaznida yoziladi. Boshqacha qilib aytganda, misradagi **sadr** va **ibtido, aruz va zarb** orttiriladi.

**Mutakorir musammat** - birinchi banddag'i so’nggi misra yoki bayt har band oxirida naqorat bo’lib takrorlanib boradigan she’r shakli. Bu holat musammatning barcha xillarida uchraydi. Takrorlanadigan misra yoki misralar “mukarrar”, “takror”, “tarjye”, “qoplama misra” (V.Rahmonov), hozirgi zamon adabiyotshunosligida “ryefryen” atamasi bilan yuritiladi.

**Mutassa’** - tasnye’ (to’qqizlik) har bandi to’qqiz misrali juda kam uchraydigan shye’r shakli. Qofiyalanishi: *a-a-a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-b-a, d-d-d-d-d-d-d-a* yoki *a-a-a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-b-a-a, d-d-d-d-d-d-d-a-a*

**Mutaqorib** - Aruz tizimidagi bahrlardan birining nomi. **Mutaqorib** bahri **fa’uvlun** ruknining takrorlanishidan hosil bo’ladi. Bu bahrning **Mutaqoribi musammani mahzuf (maqsur)** (*Fa’uvlun fa’uvlun fa’ul (fa’uvl)*) shakli dostonchilikda qo’llanadi. Bu vazn Firdavsiyning "Shohnoma" asari tufayli mashhur bo’lib, keyinchalik, Nizomiyning "Iskandarnoma" dostonidan boshlab "Xamsa"lardagi beshinchi doston vazni maqomiga ega bo’ldi. Amir Xusravning "Oinai Iskandariy", Jomiyning "Xiradnomai Iskandariy", Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonlari ham shu vaznda yaratilgan. Mazkur vazn jangnoma dostonlarga xos deb qaraladi. Biroq didaktik ruhdagi qator asarlar ham shu vaznda yaratilan. Xususan, turkiy adabiyotdagi ilk dostonlar - "Qutadg'u bilig" (Yusuf Xos Hojib) va "Hibat ul-haqoyiq" (Ahmad Yugnakiy), Sa’diyning mashhur asari "Bo'ston" shular jumlasidan.

**Muxammas** - (arabcha - byeshlik) har bir bandi byesh misradan iborat bo’lib, musammatning eng ko’p tarqalgan turi. Qofiyalanishi: *a-a-a-a-a, b-b-b-b-a,*

*d-d-d-d-a* va h. O'zbyek mumtoz adabiyotida muxammasning dastlabki namunalari XV asrning birinchi yarmi shoirlari ijodida uchraydi.

**Nasib** – qasidaning kirish qismi.

**Nazira** - arabcha so'z bo'lib, lug'aviy ma'nosi o'xhash, tyeng, misl dyemakdir. Adabiy istilohda esa, bir shoirning ikkinchi bir shoir asariga javob aytishi, avvalgi asar shakliga o'xhash asar yaratishidir. Biroq nazirada muallif o'z nazirasiga asos qilib olgan asarning g'oyaviy mazmuni orqasidan butunlay ergashuvi shart emas.

**Noma** – arabcha xat. Adabiy termin sifatida maktub tarzida yozilgan badiiy asar. Turkiydagи ilk noma Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asari hisoblanadi (1353).

**Orifona g'azallar** - yetakchi mavzusi tasavvufiy-falsafiy g'azallardir. Orifona g'azallarning mazmuni vujud butunligi (Tangri) bo'lib, tasavvufning ma'naviy tayanchini tashkil etadi. Vahdati vujud (yoki vujud vahdati) butun g'azaliyotga tafsilot, suratlar, dyetallar baxsh etadi.

**Otkunch** – hikoya (DLT)

**Oshiqona g'azallar-g'azalning** mavzu jihatdan eng ko'p tarqalgan turi bo'lib, uning katta qismi uchun yor va uning jamoli tasviri, uning jafokorligi, haqiqiy oshiqqa shafqatsizligi, oljanob, yuksak muhabbatga munosib bo'limgan raqibga myehribonligi, unga muhabbat qo'yanligi, chin oshiqning alam va rashkdan yonishi tavsir etilgan. Oshiqona g'azallarda odatda uch an'anaviy obraz (oshiq, ma'shuqa, raqib) kuzatiladi.

**Paradigma** – (yunoncha - shartli belgilar). Aruzda hijoning vazni, o'lchovi, ya'ni qisqa, cho'ziq yoki o'ta cho'ziq ekanligini ko'rsatuvchi shartli belgilar.

**Parokanda g'azal** - har bir bayt o'zicha mustaqil, tugallangan bir mazmunga ega g'azal bo'lib, unda umumiy badiiy mazmun parokanda – tarqoq bo'ladi. Bunday g'azaldagi baytlar bir ipga tizilgan qimmatbaho har xil gavharlarga o'xshaydi. Ammo har bir bayt tashqi ko'rinishidan mustaqildyek ko'rinsa-da, ular orasidagi g'oyaviy-badiiy birlik bilinib turadi.

**Pyeyzaj g'azallar** - tabiat, byepayon qir-adarlar, dala-bog'lar, yulduz to'la osmon, qorli tog'lar, buloq va daryolar, yashil vodiylar tasviri va unga lirik qahramonning otashin muhabbat o'z ifodasini topadigan g'azallar.

**Publitsistik g'azallar** - shu mazmundagi shye'rlar kabi eng jangovar, eng ta'sirchan poeziya turidir. U o'zining otashinligi, hozirjavobligi bilan ajralib turadi.

**Qasida** – arabcha “qasd” co'zidan olingan, niyat, intilish ma'nosini beradi. Adabiy termin sifatida lirik tur janrlaridan biri. Qasida muhim tarixiy voqealar va mashhur tarixiy shaxslar haqida tantanali uslubda yozilgan asardir. Mumtoz

adabiyotda tabiat lavhalari, cholg'u asboblari va boshqalarga bag'ishlab ham qasidalar yozilgan.

**Qasd** – Qasida janrinig so'nggi xulosaviy qismi.

**Qit'a** – arabcha so'z bolib, qism, parcha ma'nolarini anglatadi. Qit'a ikki yoki undan ortiq baytlardan iborat bo'lib, matlasiz g'azaldek (*b-a, d-a, f-a, h-a va h.*) qofiyalanadi. Ba'zan masnaviy tarzida (*a-a, b-b, d-d, h-h va h.*) qofiyalanishi ham mukin. Qit'alar asosan ijtimoiy, didaktik maznunda bo'ladi. Qit'aning ko'pligi muqattaot deb yuritiladi.

**Qoshug'** - shye'r, qasida, qo'shiq (DLT)

**Rajaz** - Aruz tizimidagi bahrlardan birining nomi. **Rajaz** bahri **mustafilun** ruknining takrorlanishidan hosil bo'ladi. Mazkur bahr asosan she'riyatda qo'llanadi. O'rta asrlarda ilmiy she'rlar shu bahrda yozilganligi uchun "urjuza" deb nomlangan.

**Ramal** - Aruz tizimidagi bahrlardan birining nomi. **Ramal** bahri **fo'ilotun** ruknining takrorlanishidan hosil bo'ladi. Bu bahrning ikki shakli dostonchilikda qo'llanadi:

**I. Ramali musaddasi mahzuf (maqsur)** (Fo'ilotun fo'ilotun fo'ilun (fo'ilon)). Bu vazn ko'proq tasavvufiy dostonlarda qo'llanadi. Uning shuhrat qozonishi Fariduddin Attorning "Mantiq ut-tayr" hamda Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy" dostonlari bilan bog'liq. Alisher Navoiy "Lison-ut tayr" dostonini mazkur vaznda yaratgan. Jomiy esa bu vaznni "Salomon va Absol" dostonida qo'llagan.

**II. Ramali musaddasi maxbuni abtar** (Fo'ilotun fa'ilotun fa'lan (fa'ilun, fa'ilun, fa'ilon)). Boburning qayd etishicha bu vazn "**g'oyat latif**" bo'lsa-da, masnaviylarda ko'p qo'llanmaydi. Xusrav Dehlaviyning "No'h spehr" asaridagi bir fasl (spehr) hamda Jomiyning "Sabhat ul-abror" dostoni shu vaznda yozilgan.

**Rindona g'azal** - mazmunini hayotga muhabbat, shodlik va baxt-saodatga, quvnoqlikka intilish, zulm va zo'rlikka qarshi norozilik, shayx va zohidlarni fosh qilish, isyonkorlik tashkil etadigan g'azal. Rindona g'azallar **qalandarona g'azallar** ham dyeb yuritiladi.

**Ruboiy** - She'riy janr nomi. Arabcha (ر باعی) so'z bo'lib, to'rtlik dyegan ma'noni anglatadi. Forsiylar uni "dabaytiy" dyeb ham ataydilar. Tort misradan iborat bo'lган mustaqil she'r. Aruz tizimining hazaj bahriga tegishli bo'lган 24 xil vaznda yoziladi. Bu vaznlar qaysi rukn bilan boshlanishiga ko'ra shartli ravishda axram (maf uvlun, - - -) va axrab (maf uvl - - V) shajaralariga bo'linadi. Har bir shajarada 12 tadan vazn mayjud bo'lib, ularda mafo'iylun aslining solimi hamda quyidagi zihof va furu'lari ishtirok etadi: maf uvl - axrab; maf uvlun - axram; mafo'ilun - maqbuz; mafo'iylu - makfuf; fo'ilun - ashtar; fa' - axrami majbub;

fo` - azall; fa`ul - majbub; fa`uvl - axtam. Ruboiy qofiyalanishiga ko`ra *xosa* va *tarona* kabi turlarga bo`linadi. Ruboiy asosan falsafiy, ba`zan ishqiy va didaktik mavzularda yoziladi. Uning birinchi misrasi **tyezis** bo`lib, unda shoir mazkur ruboiyda aytmoqchi bo`lgan fikrini o`rtaga tashlaydi. Ikkinchi misrasi **antityezis**. Bunda birinchi misraga qarama-qarshi fikr aytildi. Uchinchi misra **moddayi ruboiya** dyeb ataladi. Bu misra shoirning to`rtinchi misrada aytmoqchi bo`lgan xulosasi uchun ko`prik vazifasini o`taydi. Ruboiyning to`rtinchi misrasi **sintyez** hisoblanib, bunda shoir avvalgi uch misradan g`oyaviy xulosa chiqaradi. Ruboiy ko`proq falsafiy, ijtimoiy, axloqiy, shuningdyek, ishqiy mavzularda yoziladi.

**Rukn** – (arabcha – ustun). Aruzda *juzvlarning qo'shilishidan hosil bo'lувчи baytning ritmik bo'laklari*. Ruknlar baytda to`rtta (murabba'), oltita (musaddas) va sakkizta (musamman) bo`lishi mumkin.

**Sabab** – (arabcha qoziq) Aruzda eng kichik *juzvning nomi*. Sabab - ikki harfli juzv. Sabab ikki xil bo`ladi:

1. Sababi xafif (yengil sabab) - bir harakatli va bir sokin harfdan iborat.
2. Sababi saqiy (og`ir sabab) - ikki harakatli harfdan iborat.

**Sadr** – (arabcha – rais). Aruz vaznida baytdagi ruknlardan birining maxsus nomi. Birinchi misraning birinchi rukni.

**Sandrush** – munozara (DLT, "Qish va yoz" munozarasi),

**San`at** – (arabcha sun` (صنع) o`zagidan, yaratmoq degan ma`noni ifodalaydi). "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug`ati"da hunar, kasb, ustalik, mohirlik ma`nolarida sharhlangan "San`at" so`zi Navoiy asarlarida, shuningdek, san`atgar, san`atgariy, san`atnamoy, san`atoyn, san`atsoz, san`atfosh kabi lug`aviy va grammatik shakllarda ham qo`llangan. "Farhangi zaboni tojiki" kitobida "san`at" so`zining quyidagi ma`nolari ham sharhlangan:

- takalluf dar suxan, suxanoroyi, hunarnamoyi dar nazmu nasr.

Mazmuni: so`zda lutf (go`zallik, nozik ma`no) yaratish, nasr va nazmda so`zni mahorat bilan qo`llash, hunar ko`rsatish.

"San`at" so`zi zamonaviy adabiyotshunoslik atamasi sifatida "...voqelikni obrazlar va yorqin manzaralar orqali badiiy ifodalashdan iborat" hodisani ifodalaydi.

**Sari'** - Aruz tizimidagi bahrlardan birining nomi. **Sari'** bahri Mustaf'ilun Mustaf'ilun Maf`uvlotu ruknlarining takrorlanishidan hosil bo`ladi. Bu bahrning **Sari'i musaddasi matviyi makshuf** (Mufta`ilun mufta`ilun fo`ilun) shakli dostonchilikda qo`llanadi. Nizomiyning "Maxzan ul-asror" dostoni tufayli bu bahr xamsanavislikdagi dastlabki doston vazni sifatida qat`iy maqomga ega bo`ldi. "Matla` ul-anvor" (Amir Xusrav), "Tuhfat ul-Ahror" (Jomiy) va "Hayrat ul-abror" (Navoiy) dostonlari ham shu vaznda. Turkiy adabiyotda yaratilgan mashhur

dostonlardan Mavlono Haydar Xorazmiyning "Maxzan ul-asror" hamda Durbekning "Yusuf va Zulayho"si shu bahrda yaratilgan. Mazkur vazn falsafiy-didaktik mavzularni ifodalash uchun qulay deb hisoblanadi.

**Segona ilm** ("uchlik ilm") – Qadimda filologiyaga oid ilmlar uchligi. Bular "Ilmi aruz" (aruz vazni qonuniyatlari va shakllari haqidagi ilm), "ilmi qofiya" (qofiya va uning turlari, qofiya tarkibi haqidagi ilm) hamda "ilmi bade'" (she'riy san`atlar haqidagi ilm).

**Soqiynoma** – Sharq she'riyatidagi janrlardan biri. Soqiynoma ham tarje'band, tarkibband singari bir necha bandlardan tashkil topadi. Har bir band masnaviy kabi qofiyalanadi. Soqiynoma aksar soqiya murojaat bilan boshlanuvchi falsafiy mazmundagi she'r.

**Sov** - qissa, hikoya, risola, so'z, otalar so'zi, payg'ambar ("DLT")

**Tanosub** - She'riy san`atlardan biri. Baytda, umuman, she'riy bandlarda ma`no jihatidan bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so`zlarni qo'llash orqali hosil qilinadi. Masalan, "bulbul" so'zi gul, bog', chaman, navo so`zlar bilan; "Ka`ba" esa haj, farz, Tengri, ziyorat so`zlar bilan mazmuniy bog'lanib, yaxlit tushuncha, tugal ifoda va jonli lavha yaratadi.

**Taqte'** - (arabcha – "qata'a" fe'lidan yasalgan bo'lib, bo'lmoq, parchalamoq degan ma`noni ifodalaydi) Aruz istilohlaridan biri sifatida baytni ritmik bo'laklar-ruknlarga ajratish qonuniyatlarini ifodalovchi yoxud o'rgatuvchi fasl.

**Tarje'band** – arabcha so'z bo'lib, lug'aviy ma'nosi qaytish, ilgarigi narsani takrorlash. Tarje'band har bir bandning oxirida bir xil baytning takrorlanish usulidan foydalanib yaratilgan asar. Har band oxirida birinchi band maqta'i takrorlanib keladi. Mazkur maqta misralari o'zaro qofiyalangan bo'ladi.

**Tarkibband** – arabcha so'z bo'lib, biriktirish, bir qancha narsani biriktirib bir narsa hosil qilish ma'nosini anglatadi. Tarkibbandagi bandlar soni turlich bo'lib, har banddagি misralar g'azal shaklida qofiyalanadi. Bandning maqta'I o'zaro qofiyalangan bo'ladi. Bu qofiya bandlardagi asosiy qofiyalardan farq qiladi. Bandlarning har qaysisi har xil vaznda bo'lishi mumkin.

**Ta'rix** – arabcha so'z bo'lib, sodir bo'lgan biror voqeani anglatadi. Sharqda ana shu voqeanning sanasini sh'erda harflar vositasida berish usuli ta'rix deyiladi. Ta'rix maxsus janr sifatida mustaqil asar ham bo'ladi, boshqa asar tarkibiga ham kiritilishi mumkin.

**Tatabbu'** - arabcha so'z bo'lib, bir narsaning izidan tushish, izlash, tyekshirish, ergashish ma'nolarini bildiradi. Tatabbu' g'azalda bir shoir tomonidan badiiy qolipga solingan bir mazmun boshqa shoir tomonidan davom ettiriladi, unga ergashib, uni yangi shaklga, yangi ifoda qolipiga solinadi. Natijada bir mazmun turli badiiy shaklga tushadi, turli variantdagi shye'riy asarlar vujudga kyladi.

**Tazmin** - arabcha so'z bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi bir nimani ikkinchi bir nima orsiga qo'ymoqdir. Adabiy istiloh sifatida g'azal yoki musammat shye'rarda bir shoirning ikkinchi bir shoir shye'ridan parcha olib, uning izidan borib shye'r yaratishidir.

**Tashbeh** (o'xshatish) – Adabiyotda keng ho'llanadigan she'riy san'atlardan biri. T.da narsa, belgi va harakat kabilar boshqasiga o'xshatish, qiyoslash orqali tasvirlanadi. Tashbehning yuzaga kelishida to'rt unsur ishtirok etishi mumkin:

1. Mushabbih ya'ni o'xshamish - tasvirda fikr qaratilgan narsa yoki tushuncha.
2. Mushabbihun bih ya'ni o'xhatilmish - tasvirda qiyoslanayotgan narsa yoki tushuncha.
3. Vajhi shaboh ya'ni o'xshatish asosi - o'xshatishning qanday belgi yoki xususiyatga ko'ra chiqqanligi.
4. Odoti tashbeh ya'ni o'xshatish vosita - o'xshatilishning lug'aviy yoki grammatik belgisi.

**Tashxis** – (arabcha "shaxs" o'zagidan, "shaxslantirish" degan ma'noni anglatadi) Mumtoz she'riyatimizda keng qo'llangan badiiy tasvir vositalaridan biri. T. insongagina xos bo'lган jismoniy va ruhiy holatlarni (o'ylash, fikrlash, gapirish, quvonosh yoxud iztirob chekish, xastalanish, jarohatlanish, musobaqalashish, sevish, rashk qilish vahokazo) tabiat unsurlari, jonzotlar, borliqdagi narsa-buyumlar hamda hodisalarga ko'chirish san'ati.

**Turkiy (turkona)** – G'azalchilikdagi uslublardan biri. Navoiyning "Mezon ul-avzon"ida **ramali musammani mahzuf (maqsur)** vaznida yozilgan g'azallar shunday atalgan. Asosan mazmunga e'tibor beriladigan, soda, xalqona uslubda yoziladigan g'azallar.

**Tuyuq** – Turkiy she'riyatga xos bo'lган janr nomi. Aruzning ramali musaddasi maqsur (mahzuf) yoki foilotun, foilotun, foilon (foilun) vaznida yoziladigan to'rt misrali she'riy janr. Odatda tuyuqlarda qofiya o'rnida *tajnis* (omonim) so'zlar qo'llanadi. Navoiy va Boburning fikriga ko'ra tajnis qo'llanishi, qo'llanmasligi yoki ularning soni tuyuqning alohida turlarini tashkil etadi. Tuyuq asosan ishqiy mavzularda yoziladi. Tuyuq so'zi adabiy tyermin sifatida XIV asr oxiri va XV asr boshlarida ishlatila boshlangan. Tuyuqning dastlabki kitobiy namunalari sivaslik hukmdor va shoir Burhoniddin Ahmad (XIV asr) ijodi bilan turkiy poeziyada taraqqiy eta boshlagan.

**Vatad** - (arabcha ustunlarni bog'laydigan arqon) Aruzda *juzvning* nomi. Uch harfli juzv. Vatad ikki xil bo'ladi:

1. Vatadi majmu` (jamlangan vatad) - ikki harakatli va bir sokin harfdan iborat.

2. Vatadi mafruq (ajratilgan vata) - bir harakatli, bir sokin va yana bir harakatli harfdan iborat.

**Voqyeaband g'azal** - lirik qahramon kyechinmalari bilan bog'liq voqyeahodisalar ixcham shaklda, lirik manzarada ifodalanadigan g'azal. Bunday g'azallarni kichik bir lirik lavha dyeb bilmoq lozim. Yakpora g'azallar zimnida vujudga kyelgan voqyeaband g'azallar Lutfiy ijodidan boshlanib, Navoiy ijodida kamol topdi

**Xafif** - Aruz tizimidagi bahrlardan birining nomi. **Xafif** bahri Fo'ilotun Mafo'iylun Foilotun ruknlarining takrorlanishidan hosil bo'ladi. Bu bahrning **Xafifi musaddasi maxbuni abtar** (Fo'ilotun mafo'ilun fa'lan) shakli dostonchilikda qo'llanadi. Bu vaznda yozilgan ilk masnaviylardan biri mashhur so'fiy shoir Sanoiyning "Hadiyat ul-haqoyiq" dostonidir. Falsafiy-tasavvufiy pandnomma ruhidagi bu doston Nizomiyning "Maxzan ul-asror" dostoniga ilhom bag'ishlagan deb aytildi. Biroq bu vaznda Nizomiy o'zining to'rtinchi dostoni "Haft paykar"ni yaratdi. Shundan boshlab, Bahrom haqidagi ishqiy-sarguzasht dostonlar shu vaznda yoziladigan bo'ldi. Xususan, "Hasht bihisht" (Amir Xusrav), "Sab'ayi sayyor" (Navoiy), "Haft avrang" (Ashraf) vahokazo. Abdurahmon Jomiy esa Sanoiy izidan borib, bu vaznda yana bir falsafiy-didaktik dostoni "Silsilat uz-zahab"ni yaratdi.

**Yakpora g'azal** - har baytning mazmuni o'zidan oldingi yoki kyeyingi baytlarga izchil bog'langan g'azaldir. Bunday g'azalning mazmuni matlada ko'tarilgan bir mavzuni izchil yoritish jarayonida vujudga kyeladi. Razg'uziyning "Kun hamalga kirdi ersa, kyeldi olam navruzi", Navoiyning "Qaro ko'zum, kyelu mardumlig' emdi fan qilg'il", "Kyecha kyelgumdur dyebon ul sarvi gulro' kyelmadi", "kabi g'azallari kompozitsiyasiga ko'ra yakporadir.

**Yir** - g'azal, kuy, maqom (DLT)

**Zarb** (ajuz) – Aruz vaznida baytdagi ruknlardan birining maxsus nomi. Ikkinchisi misraning oxirgi rukni.

**Zihof va furu'lar** – Aruz she'riy tizimida asl ruknlarning turli tarzda o'zgarishi (zihof) hamda o'zgarish natijasida hosil bo'lgan yangi ruknlar (furu').

**O'tluk** - o'git va nasihat, ma'viza (DLT)

**G'azal** - (عزال) arabcha so'z bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi xotin kishiga xushomad qilmoq, oshiqona munosabatda bo'lmoqdir. Adabiy tyermin sifatida ishq-muhabbat kuylangan lirik shye'rga nisbatan qo'llanadi. «G'azal» so'zi xalq orasida, umuman, shye'r, shye'riyat va qo'shiq ma'nosida ham qo'llangan.

**G'azali husni matla'** - G'azalning ikki bayti qofiyadosh bo'ladi, matla' qo'sh kyelsa zyebi matla' (matlaning yarashig'i, zyebi), husni matla', husni ibtido

dyeyiladi va quyidagicha qofiyalanadi: *a-a, a-a, b-a, d-a, f-a* va *h*. Bunday g'azallarning dastlabki namunalari Navoiy ijodida kuzatiladi.

**G'azali qit'a** - shakliy jihatdan qit'aga o'xshab kyetadi. Bunday g'azalning matlesi qit'adagidiek o'zaro qofiyalanmagan bo'ladi. Qofiyalanishi: *b-a, d-a, f-a, h-a* va *h*.

**G'azali musajja'** - (sajli g'azal) asosiy qofiyadan tashqari, ichki qofiyaga ega bo'lgan g'azaldir. Bunday g'azallarning shoirlar kamolot bosqichida yaratganlar.

**G'azali mulamma'** - ikki yoki undan ortiq tilda yozilgan g'azaldir. Mulamma' arabcha (مُلْعَمٌ) so'z bo'lib, turli rangga bo'yangan ma'nosini byeradi. Ba'zi adabiyotshunoslar mulamma'ni "shiru shakar", agar uch tilda bo'lsa "shahdu shiru shakar" dyeb ataydilar.

**G'azali muvashshah** - bayt yoki misralaridagi birinchi harflar olib tizilsa, ularning birikmasidan ma'lum bir ism yoki so'z hosil bo'ladigan g'azal. Bu usul g'azal, murabba', muxammas va boshqa janrdagi shye'rlarda qo'llanishi mumkin.

**G'azali mushoira** - ikki yoki undan ortiq ijodkorning birgalikda yozgan g'azalidir. Mushoira arabcha shoirning o'zaro shye'riy suhbati dyemakdir.

**G'azali zulqofiyatayn** - baytlarida boshdan oyoq ikkitadan qofiya uchraydigan g'azal. Bunday g'azalning ilk namunasi Alishyer Navoiy ijodida uchraydi:

Ko'zing nye balo qaro bo'luptur,  
Kim jong'a qaro balo bo'luptur.

**G'azali zyebqofiya** - g'azalning eng kam uchraydigan turi bo'lib, undagi hamma baytlar xuddi matla' kabi (*a-a, a-a, a-a, a-a, a-a* va *h*) qofiyalanadi.

**G'azal-chiston** - topishmoq mazmunidagi g'azal bo'lib, uning ilk namunasi Huvaydo ijodida ("zulfi ishq") uchraydi.

**Chiston** - fors-tojikcha "chist" – nima, "on" – u ma'nosini bildiruvchi she'riy topishmoq. U lug'z deb ham ataladi. Chistonda biror predmet yoki hodisaning xarakter va belgilarini ta'rif-tavsif etish orqali o'quvchini o'sha predmet yoki hodisani topishga ishora qiladigan she'rdir.

## ADABIYOTLAR RO`YXATI

### **I. Siyosiy va mafkuraviy adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 172 b.
2. Karimov I. A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. – T.: O'zbekiston, 2009. – 40 b.
3. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" // Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent: Sharq, 1997.

### **II. Asosiy adabiyotlar**

4. O'zbek adabiyoti tarixi (Darslik). 5 tomlik, 1-tom.-T.: Fan, 1971.
5. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi (O'quv qo'llanma). –T.: Yangi asr, 2006.
6. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari / Majmua. (1-2 jild) Tuzuvchi: N.Rahmonov. – T.: Fan, 2005; 2006.
7. Valixo'jayev B. Mumtoz siymolar. -T.:A.Qodiriy, 2003.
8. Tohirov S. O'zbek she'riyatida aruz (Uslubiy qo'llanma). – Samarqand: SamDU nashri, 2010.

### **III. Qo'shimcha ilmiy adabiyotlar**

9. Фитрат. Танланган асарлар. 2-жилд. - Т.: Маънавият, 2000.
10. Раҳмонов Н. Руҳиятдаги нур муроди.- Т.: 2002.
2. Болтабоев Ҳ. Мумтоз сўз қадри. - Т.: Адолат, 2004.
3. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgidavri. - Т.: 2005.
4. Шарқ мумтоз поэтикаси Ҳ.Болтабоев талқинида. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008.
5. Valixo'jayev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. – Т.: O'zbekiston, 1993.
6. Қаюмов А. Беруний ва адабиёт. – Т.: 1973.
7. Ал фақиҳ Абу Лайс ас-Самарқандий. Танбехул-ғофилийн. 2-3–китоб. – Т.: 2001-2003.
8. Ҳадис. Ал жомеъ ас-саҳиҳ. 4-томлик. – Т.: Қомуслар бош таҳририяти, 1992.
9. Ас-Саолибий. Ятимат уд-даҳр. – Т.: Фан, 1976.
10. Низомий Арузий Самарқандий. Нодир Ҳикоятлар. – Т.: 1981.
11. Шомуҳаммедов Ш. Форс-тожик адабиёти классиклари. – Т.: Бадиий адабиёт, 1983.
12. Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1981.
13. Каримов Қ. Илк бадиий достон. – Т.: Фан, 1976.

14. Маҳмудов Қ. «Ҳибат ул-ҳақойик»асарининг филологик таҳлили. – Т.: Фан, 1972.
15. Тўхлиев Б. Юсуф Ҳос Ҳожибнинг «Қутадғу билиг»и ва ўзбек мумтоз адабиётида жанрлар тараққиёти. – Т.: 2004.
16. Ҳаққулов И. Аҳмад Яссавий. – Тошкент, 2001.
17. Гойиблар хайлидан ёнган чироқлар. – Т.: 1990.
18. Фитрат А. Яссавий ким эди. – Т.: Халқ мероси, 1994.
19. Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. – Т.: Фан, 1974.
20. Valixo'jayev B. Malik ul-kalom Mavlono Lutfiy. – Sam.: SamDU nashri, 1999. - B. 115.
21. Valixo'jayev B. Sulton Nusayn Boyqaro - Husayniy she'riyati. – Sam.: SamDU nashri, 2000.
22. Фозилов Э. XIV аср Хоразм ёдномалари. – Т.: Фан, 1973.
23. Ahmadxo'jaev E. Mavlono Lutfiy. - T.: Fan, 1991.
24. Ahmadxo'jaev E. Turkiy nazmning sehrgari. - T.: Fan, 1992.
25. Рафъиддинов С. Мажоз ва ҳақиқат. – Т.: Фан, 1955.
26. Эркинов С. Лутфий. – Т.: 1965.
27. Mavlono Lutfiy she'riyati va davr adabiy muhiti muammolari (Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari) - Sam.: SamDU nashri, 2010.
28. Абдувоҳидова М. Ўзбек адабиётида мунозара. – Тошкент: Фан, 1984. – 119 б.
29. Тоҳиров Қ. Халқ қиссаси «Юсуф ва Зулайҳо»нинг матни ва тадқиқи. – Сам.: СамДУ нашри, 2002.
30. Tohirov S. Matn va tahlil (Uslubiy qo'llanma). – Samarqand: SamDU nashri, 2008.
31. Тоҳиров С. Алишер Навоий Паҳлавон Маҳмуд ҳақида. «Зиёкор» . 2004 й. 9-сон.

#### **IV. Adabiy manbalar**

32. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 13-том. – Т.: Фан, 1996.
33. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 17-том. – Т.: Фан, 2000.
43. Авесто (А.Маҳкам таржимаси). – Т.: 1993. «Санъат» журнали, 1991й. №3-12.
44. Қадимий ҳикматлар. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1987.
45. Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит турк (С.Муталлибов таржимаси). I-III томлар. – Т.: 1960-63.
46. Фирдавсий. Шоҳнома. – Т.: 1984.
47. Ибн Сино. Шеърлар ва тиббий достон. – Т.: 1981.
48. Умар Хайём. Рубоийлар. – Т. 1970.

49. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг (Нашрға тайёрловчи ва сўз боши муаллифи Қ.Каримов). – Т.: Фан, 1971, 1972 (иккинчи нашр).
50. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Т.: Юлдузча, 1990.
51. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – T.: Cho'lpon, 2007.
52. Аҳмад Югнакий. Ҳибат ул-ҳақойик (Нашрға тайёрловчи ва сўз боши муаллифи Қ.Махмудов). – Т.: 1971.
53. Навоийнинг нигоҳи тушган. – Т.: 1986.
54. Ҳожа Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар (Нашрға тайёрловчи ва сўз боши муаллифи И.Ҳаққулов). – Т.: 1991.
55. Ҳожа Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат. – Т.: 1992.
56. Сулаймон Боқирғоний. Боқирғон китоби (Нашрға тайёрловчи ва сўз боши муаллифлари И.Ҳаққулов, С.Рафъиддинов) – Т.: Ёзувчи, 1991.
48. Паҳлавон Маҳмуд. Рубоийлар. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979.
49. Муҳаммад Авфи. Гулчини «Жавомеъ ул-ҳикоёт». – Д.: Ирфон, 1966.
50. Рабғўзий. Қиссас ар-Рабғўзий. 1-том. – Т.: Ёзувчи, 1990.
51. Рабғўзий. Қиссас ар-Рабғўзий. 2-том. – Т.: Ёзувчи, 1991.
52. Сайфи Саройи. Шеърлар. Гулистан. – Т.: 1968.
53. Ўзбек насли тарихидан. – Т.: Фан, 1982. 18-56 – б.
54. Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1981.
55. Уч булбул гулшани. – Т.: 1986.
56. Муборак мактублар. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1987.
57. Ҳаёт васфи. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1988.
58. Отойи. Танланган асарлар. – Т.: 1958.
59. Девони Шайхзода Атойи. –Т.: Фан, 2008.
60. Лутфий. Сенсан севарим. – Т.: 1985.
61. Абдураҳмон Жомий. Танланган асарлар. – Т.: 1971.
62. Абдураҳмон Жомий. Лайли ва Мажнун.– Т.: 1989.
63. Ҳусайн Бойқаро. Девон. Рисола. – Т.: 1964.
64. Ҳусайн Бойқаро. Жамолингдин кўзум равшан. – Т.: 1991.
65. Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға // Ўзбек тили ва адабиёти 2002 - 2003 й.й.
66. Сайид Қосимий. Маснавийлар мажмуаси. – Т.: Фан, 1992.

### Xorijiy manbalar

67. Nihad Sami Banarli. Resimli Türk Edebiyatı tarihi. – İstanbul: Milli Eğitim Basimevi, 2001.
68. Fuad Koprulu. Türk edebiyatında ilk mutasavviflar. – Ankara: Diyanet İşleri Başkanlığı, 1991.

69. Fuad Koprulu. Türk Dili ve edebiyati hakkında araştırmalar. – İstanbul, 1934. – C. 33-34.
70. Cemal Kurnaz. Eski turk edebiyati. – Ankara: Diyanet İşleri Başkanlığı, 2001.
71. Acuq F. Ozbek edabiyati. Ankara: 2008.
72. Булгаков П.Г. Жизнь и труды Беруни. – Т.: 1972.
73. La Literature de l'époque des Karakhanides // Philologiae Turcicae fundamenta. – Wiesbaden, 1964. – C. 167-175.
74. Pritsak O. Mahmud Kāşgarī kimdir? // Türkiyāt Mecmuası. X (1951-1953). – S. 243-246.
75. Dankoff R. Kāšgharī on the Tribal and Kinship Organization of the Turks // Archivum Ottomanicum IV (1972). – 23-43 pp..
76. Зуев Ю.А. Ранние тюрки: очерки истории и идеологии. – Алматү: Дайк-Пресс, 2002.
77. Hauenschild I. Die Tierbezeichnungen bei Mahmud al-Kaschgarī. Eine Untersuchung aus sprachund kulturhistorischer // Wiesbaden, Harrassowitz, 2003.
78. Mitteitürkischer Wortschatz nach Mahmud al-Kaşgaris Dīvân Lugât at-Turk. Budapest-Leipzig, 1928.
79. Боровков Т.А. Грамматические очерки языка “Дівâну лугâт-и турк” Махмуда Кашгари / Дисс. кандидата филол. наук. – Л., 1966. – С. 133-135.
80. Besim Atalay. Divanü Lügat-ı-Türk ve Tercümesi üzerine Notlar / Kaşgarlı Mahmud. Divanü Lügat-ı-Türk (çeviri). Çeviren: Besim Atalay. 5.Baskı. Cild I. – Ankara, 2006. – S. XII.

### Internet va Ziyonet saytları

«O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi» fanining informasion ta'minoti INTERNETda [www.literature.uz](http://www.literature.uz), [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) saytlarida aks etgan.



